ISSN 2181-2500

ADABIY MEROS

2024-YIL 3-SON / ILMIY JURNAL

Turkiy tafakkur va fikr adabiyoti.
Cho‘lpon ijodiga doir yangi manba.
Marosim folklorining areal xususiyatlari.
Afg‘onistonda Alisher Navoiyning o‘rganilishi.
“Farhod va Shirin” dostonida Xusrav obrazi talqini.
Bir asarning ikki nashri (matnshunos zarrabini ostida).
Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat bayozlarining ilmiy tavsifi.
Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi
Amir Temur va Temuriylar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.
Xorazm adabiy muhitida dostonnavislikda Navoiy ta’siri.
Turkiy xalqlar “Edigo” dostoni va uning ilmiy o‘rganilishi haqida.
Mullo Xolbek Andijoniyning hayoti va adabiy merosi xususida.
Badiiy tasvirda fitomorfik va zoomorfik leksemalarning poetik vazifasi.
Fidoyi olima, istedodli yozuvchi Sarigul Bahadirova 80 yoshda.
Majzub Namangoniyning ayrim qo‘lyozma manbalari tavsifi.
Kelime grubu yapisindaki dil bilgisi terimlerinin Türkiye
türkçesi ve Kirgiz türkçesi üzerinden değerlendirilmesi
“Oltin yoruq”ning g‘oyaviy-estetik xususiyatlari.
“Qush tili” dostonining til xususiyatlari.
Zabardast folklorshunos olim.
Otasining qizi.

ADABIY MEROS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI

2024
3-son (13)

Bosh muharrir:
Jabbor Eshonqulov

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Shahnoza Nazarova

Mas’ul kotib:
Feruza Abdurahmonova

Muharrir:
Rustamova Dilnoza

Texnik muharrir:
G‘iyosiddin O‘narov

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
e-mail: adabiymeros@gmail.com
Tel.: (99871) 241-02-75
Jurnal 2020-yil 26-noyabrda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Axborot
va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №200936238
raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
ISSN 2181-2500

Jurnal 2024-yil 2-oktyabrda
nashrga berildi.

“Adabiy meros” ilmiy jurnali
O‘zbekiston Respublikasi VM
huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining qaroriga ko‘ra
(№327/6, 30.11.2022-y.) filologiya
fanlari bo‘yicha PhD va DSc
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy
nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Tahrir hay’ati:
Ahmedova Shoira
Asadov Maqsud
Abdirashidov Zaynobidin
Abdurahmonova Feruza
Barakayev Rahmatulla
Bekimbetov Azamat
Boltaboyev Hamidulla
Davlatov Olim
Jabborov Nurboy
Jo‘raqulov Uzoq
Jo‘raboyev Otabek
Karimov Bahodir
Kamilova Saodat
Mahmudov Nizomiddin
Ochilov Nasim
Pardayev Azamat
Palimbetov Kamalboy
Soriyev San’at
Sulaymonov Mo‘minjon
Sabirova Nasiba
Rajabova Burobiya
Rashidova Ma’mura
Rahmonov Nasimxon
Turdimov Shomirza
Tursunov Yusuf
To‘xliyev Boqijon
Tilavov Abdumurod
Sheraliyeva Mashhura
Shodmonov Nafas
Shofiyev Obidjon
Xalilova Dilbar
Hamdamov Ulug‘bek
Hasanova Shafoat
Eshchanova Gavhar
Qalandarova Dilafro‘z
Qosimov Abdug‘ofur
Qobilov Usmon
Quronov Dilmurod
Qobilova Zebo
Yodgorova Mehribon
Chulliyeva Nilufar

Hakamlar hay’ati a’zolari:
Abduhalimov Bahrom *(O‘zbekiston)*
Abdullajon Axmataliyev *(Qirg‘iziston)*
Ayşe Yücel Çetin *(Turkiya)*
Açik Fatma *(Turkiya)*
Almas Ulvi *(Ozarbayjon)*
Anarboy Boldiboy *(Qozog‘iston)*
Ahmet Bican Ercilasun *(Turkiya)*
Ali Duymaz *(Turkiya)*
Asel Isayeva *(Qirg‘iziston)*
Baydemir Husayn *(Turkiya)*
Bakchiyev Talantaali *(Qirg‘iziston)*
Basangova Tamara *(Rossiya)*
Demir Necete *(Turkiya)*
Fayzulloyev Baxtiyor *(Tojikiston)*
Fikrat Turkman *(Turkiya)*
Gurer Gulseven *(Turkiya)*
Vahit Turk *(Turkiya)*
Veli Savaş Yelok *(Turkiya)*
Ismat Çetin *(Turkiya)*
Ibrayev Shokir *(Qozog‘iston)*
Karl Rechl *(Germaniya)*
Metin Ekici *(Turkiya)*
Mirzayeva Salima *(O‘zbekiston)*
Ocal Oğuz *(Turkiya)*
Emek Uşenmez *(Turkiya)*
Eunkyung Oh *(Koreya)*
Rixsiyeva Gulchehra *(O‘zbekiston)*
Sakaya Heroki *(Yaponiya)*
Sirojiddinov Shuhrat *(O‘zbekiston)*
Sodiqov Qosimjon *(O‘zbekiston)*
Selami Fedakar *(Turkiya)*
Temur Khocaoğli *(AQSH)*
To‘laganova Sanobar *(O‘zbekiston)*
Zaytsev Ilya Vladimirovich *(Rossiya)*
O‘rayeva Darmanoy *(O‘zbekiston)*

“ADABIY MEROS”
ILMIY JURNALI
2024-YIL, № 3 (13)

USHBU SONDA:

MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK

Vahob Rahmonov. Bir asarning ikki nashri (matnshunos zarrabini ostida).....4
Shahnoza Rasulova. Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat bayozlarining ilmiy tavsifi.....9

NAVOIY ABADIYATI

Azizullah Aral. Afg‘onistonda Alisher Navoiyning o‘rganilishi.....15
Abdumajid Madraimov. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi Amir Temur va Temuriylar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.....24
Salomat Matkarimova. Xorazm adabiy muhitida dostonnavislikda Navoiy ta’siri.....37
Mohigul Mavlonova. “Farhod va Shirin” dostonida Xusrav obrazi talqini.....43

JADID ADABIYOTI

Shahnozaxon Nazarova. Cho‘lpon ijodiga doir yangi manba.....47

OLTIN BESHIK

Gavhar Eshchanova. Turkiy xalqlar “Edigo” dostoni va uning ilmiy o‘rganilishi haqida.....53
Feruza Abdurahmonova. Marosim folklorining areal xususiyatlari.....70

TANQID VA TAHLIL

İbrahim Atabey. Kelime grubu yapisindaki dil bilgisi terimlerinin Türkiye türkçesi ve Kirgiz türkçesi üzerinden değerlendirilmesi.....77
Qodirjon Ergashev. “Oltin yoruq”ning g‘oyaviy-estetik xususiyatlari.....86
Iskandar Madg‘oziyev. Mullo Xolbek Andijoniyning hayoti va adabiy merosi xususida.....93

TILSHUNOSLIK

Sanobar To‘laganova. Turkiy tafakkur va fikr adabiyoti.....98
Zulfiya Ma’rufova. Badiiy tasvirda fitomorfik va zoomorfik leksemalarning poetik vazifasi.....102

FANIMIZ FIDOYILARI

Yusuf Tursunov. Otasining qizi.....110
Ziyada Bekbergenova. Fidoyi olima, istedodli yozuvchi Sarigul Bahadirova 80 yoshda.....115
Jabbor Eshonqulov. Zabardast folklorshunos olim.....124

ADABIY MANBALAR XAZINASIDAN

Shafoat Hasanova. “Qush tili” dostonining til xususiyatlari.....136
Oybek Boyatov. Majzub Namangoniyning ayrim qo‘lyozma manbalari tavsifi.....141

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham, albatta, bo‘ladi.

SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

VAHOB RAHMONOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, GulDU dotsenti

BIR ASARNING IKKI NASHRI
(matnshunos zarrabini ostida)

Annotatsiya: *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz risolasi"ning 1971 va 2022-yillardagi nashrlari qiyoslangan va jiddiy matn nuqsonlari ko'rsatilgan. Boburning "Aruz risola"sining muallif qo'ygan haqiqiy nomi "Aruz" ekanligi isbotlangan. Fors tilidagi asari "Taqti'" haqida ma'lumot berilgan.*
Kalit so'zlar: *Aruz, "Muxtasar", "Mufassal, Saidbek Hasanov, Mirzo Kenjabek, "Kulliyot", Taqti', Abdulla A'zamov.*

Abstract: *The article compares the 1971 and 2022 editions of Zahiriddin Muhammad Babur's "Aruz Risola" and shows serious textual defects. It has been proven that the real name of Babur's "Aruz Risola" given by the author is "Aruz". Information about his Persian work "Taqti" is given.*
Keywords: *Aruz, "Mukhtasar", "Mufassal, Saidbek Hasanov, Mirzo Kenjabek, "Kulliyot", Takti', Abdulla Azamov.*

Mumtoz adabiyotning biror adabiy yoki ilmiy asarining topilishi va ayniqsa, uning nashr etilishi madaniy hayotda o'ziga xos voqea hisoblanadi. Bu fikrni Zahiriddin Muhammad Boburning "Aruz" risolasiga nisbatan qo'lllash juda ham yarashadi. Bu asar qo'lyozmasining professor Hamid Sulaymonov boshchiligidagi ilmiy ekspeditsiyaning XX asrning 70-yillarida Parij nusxasining topilishi va uning "Muxtasar" (qisqa) nomida bosilishi O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi hayotida katta voqea bo'lgan edi. U qo'lyozmani yosh fan nomzodi Saidbek Hasanov nashrga tayyorlagan va professor H.Sulaymonov mas'ul muharrirligida "Fan" nashriyotida juda yirik hajm (format)da va melovanniy qog'ozda 1971-yilda bosilib chiqqan edi. 70-yillarda "O'zbekiston madaniyati" gazetasida bu ilmiy asarning qachon yozilgani haqida ilmiy bahslar ham yoritilgan. Keyingi o'n yilliklarda Bobur ijodiyotiga bag'ishlangan maqola, risola va monografiyalarda "Aruz" risolasining nomi haqida xilma-xil mulohazalar bildirildi. Ko'p olimlar "Boburnoma" ma'lumotlariga tayanib musavvidi avroq (varoq, qoralovchi kotib) "Aruz" risolasi nomli "Mufassal" (Mukammal, to'la) degani haqidagi ilmiy fikrlarni o'rtaga tashladilar.

2021-yilda "Zilol buloq" nashriyotida chop etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur "Kulliyot"ining uchinchi jildi "Aruz" risolasi (Mufassal) nomida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, xalqaro Bobur mukofoti sohibi Mirzo Kenjabek tomonidan nashrga tayyorlangan va so'zboshida bu asar nomlanishi tarixiga ham alohida to'xtalib o'tilgan edi. Nashr asosan 1971-yilgi nashri asosida tayyorlangach, risolaning yana bir qo'lyozma nusxasi Marmara universiteti kutubxonasidan aniqlandi va uning nusxasini Xalqaro Bobur jamoat fondining raisi Zokirjon Mashrabov tashabbusi va Xojaeli universitetining professori Munavvar Tekjanning amaliy yordami bilan O'zbekistonga keltirildi. Natijada, Mirzo Kenjabek olim Sayfiddin Sayfulloh bilan ushbu qo'lyozmaning ikkinchi qismini ham nashrga tayyorladilar. Marmara qo'lyozmasi to'lasicha Bobur "Kulliyoti"ning uchinchi jildiga ilova qilindi. Nashrga tayyorlovchi

“Muxtasar” (1971) va Marmara nusxasidagi ikkinchi qismni “Aruz” risolasining tarkibiy qismlari sifatida bir kitob holida nashr ettirildi.

Akademik Abdulla A’zamov “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”ning 2017-yilgi nashrida Boburning yangi topilgan “Taqti’ ” asari haqida ma’lumot taqdim etgan:

“Taqti’ ” – Boburning mutalavvin san’atiga bag‘ishlangan risolasi: “Odina kuni, zulhijja oyining ikkisida (1527-yil 30-avgust) qirq bir qarin o‘qur virdni bunyod qildim. Ushbu ayyomda bu baytimni

Ko‘zu qoshu so‘zu tilinimu dey?

Qadu xadu sochu belinimu dey? –

besh yuz to‘rt vaznda taqti’ qildim. Bu jihatdan risola tartib berildi” [1.330].

Risolaning hozircha bir nusxasi Bobur asarining Tehron majmuasi (q. Kulliyot) tarkibida topilgan. [1.187-303].

Biz oldinroq “Boburnoma”ni 2008-yilda olima Karomat Mullaxo‘jayeva bilan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girib tabdil qilganimizda asar asliyatidagi quyidagi matnni o‘qib:

“Odina kuni, zulhijja oyining ikkisida (1527-yil 30-avgust) qirq bir qatla o‘qur virdni bunyod qildim. Ushbu ayyomda bu baytimni:

Ko‘zu qoshu so‘zu tilinimu dey?

Qadu xadu sochu belinimu dey? –

besh yuz to‘rt vaznda taqti’ qildim. Bu jihatdin risola tartib berildi” [1.232]. shunday xulosaga kelgan edik: “Demak, Bobur o‘z “Aruz” risolasidan tashqari yana bir risola yozgan ekan.” Va bu risolani Marmaradan topilgan “Aruz” risolasining ikkinchi qismida uchratdik. Bu ikkinchi qism yuqoridagi baytni mukammal holatda 504 vaznda qilingan taqti’sidan iborat bo‘lgani uchun biz bu risolani ustoz akademik Abdulla A’zamov nomlaganlaridek “Taqti’” deb atashni lozim ko‘rdik.

Qaysi asoslarga ko‘ra biz bu qismni alohida asar deb mulohaza qildik?

Birinchisi: “Boburnoma”dan keltirgan yuqoridagi iqtibosimizdir (“Odina kuni…”)

Ikkinchi asosimiz: Bu yangi risolaning “Bismillohir rahmonir rahim” deb boshlanishidir. Bu ibora bilan odatda yangi asar boshlanadi. (Qarang: [4.307]. “Taqti’ ”ning arabchasi kitobning 415-betidan boshlanadi.

Uchinchi dalilimiz: Bu yangi risola fors tilida yozilgandir.

To‘rtinchi asosimiz: Mazkur qismda Boburning “Aruz” risolasidan keyin yozilgani haqidagi ma’lumot bor:

“Dar tarixi nuqsadu siu yak, ki “Aruz”i manba Xuroson raft, yake az shu’aron on jonib in bayti maro:

Qoshig‘a borg‘ali ko‘ngul o‘ziga kelmadi, netay,

Yuzig‘a tushgali ko‘zum ko‘ziga ilmadi ul oy

dar duvistu panjohu du (252) vazn taqti’ karda navishta firistoda bud” [4.307].

(Tarjimasi: Tarix to‘qqiz yuz o‘ttiz birinchi yili (1525) mening “Aruz”im …Xurosonga ketganida o‘sha yurtning shoirlaridan biri mening ushbu [4.307]:

Qoshig‘a borg‘ali ko‘ngul o‘ziga kelmadi, netay,

Yuzig‘a tushgali ko‘zum ko‘ziga ilmadi ul oy

baytimni ikki yuz ellik ikkinchi vaznda taqti’ qilib, yozib yuborgan edi” [4.308].

Beshinchi asosimiz: Ushbu iqtibosni to‘la-to‘kis “Boburnoma”dan keltirgan ma’lumotimiz tasdiqlamoqda.

Eng muhimi “Taqti’” risolasi Boburning aruz haqida yozilgan risolasining asl nomini bizga taqdim etmoqda. Boburning aruz haqidagi asarining “Boburnoma” (“Vaqoe’”dagi musavvidi avroq qayd etgan nomi: “Mufassal” (Mukammal) edi.)

1971-yilda “Aruz” risolasini olim Saidbek Hasanov “Fan” nashriyotidan “Muxtasar” (qisqa) nomida nashr etdi.

2022-yilda olim Mirzo Kenjabek “Zilol buloq” nashriyotidan e’lon qilgan Bobur “Kulliyoti”-da (3-jild) Boburning aruzga doir asarini va “Taqti’ ”ni bir asar holida “Aruz” risolasi (Mufassal) nomida nashr ettirdi.

2017-yilda akademik Abdulla A’zamov “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi”da birinchi marotaba “Taqti’” risolasi haqida e’lon qilgan edi.

Bugun biz “Taqti’ ” asari Bobur “Kulliyoti”ning 3-jildida bosilganini qayd etmoqdamiz. Bundagi matn 85 sahifadan iborat. (Nashr sahifasi) Qo‘lyozma sahifasi bundan ikki baravar ko‘pdir. Kitobning har sahifasida qo‘lyozmaning ikki sahifasi joylashtirilgan. Demak, qo‘lyozma 172 sahifadir.

“Taqti’ ” risolasidagi muallif qayd etgan ma’lumotga asoslanib Boburning aruz vazni haqidagi risolasining nomi “Aruz” ekanligini e’lon qilmoqdamiz:

“Dar ta’rixi nuqsadu siu yak ki “Aruz”i man ba Xuroson raft” [4.307].

Odatda, olimlar oliy ta’limda Bobur aruzining turli nashrlaridan foydalanganliklarida misollarning matn saviyasiga unchalik ahamiyat bermaydilar. Kamina bu maqolada shu masalaga ham alohida ahamiyat berish shartligini asoslashga urinaman. Nashrlar aro farqlar bu nashrlar aro farqlar, mas’ul muharrirlar bilimlari aro farqlarining hujjatlaridir.

“Muxtasar” (1971) bilan “Kulliyot”, “Aruz risolasi” orasidagi matnlar tafovutlari nechog‘lik ekanligini quyidagi baytlar taqqosidan aniq tasavvur etish mumkin:

1971:
Iying birla menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir-biri ne diyn, boshtin-oyog‘ing yaxshi. [2.139]
2022:
Eng birla menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshtin-oyog‘ing yaxshi. [4.202]
1971:
Guldek yuzung eslabon, dudog‘ingni o‘pay,
Yo‘q, yo‘q, yo‘q, agar desang ayog‘ingni o‘pay. [2.138]
2022:
Guldek yuzung islabon, dudog‘ingni o‘pay,
Yo‘q, yo‘q, yo‘q, agar desang ayog‘ingni o‘pay. [4.201]
1971:
Pay iyik nola ko‘zumga usrab o‘tru,
Meni devona qilding, ey pari ro‘. [2.134]
2022:
Bayak nogah, ko‘zumga uchrab o‘tru,
Meni devona qilding, ey pariro‘. [4.194]
1971:
Chu bad kardi mabosh ayman zi ofat,
Ki vojib shud tabiatro mukofot. [2.193]
2022:
Chu bad kardi, mabosh emin zi ofat,
Ki vojib shud tabiatro mukofot. [4.192]
1971:
Gar chin desangiz, ko‘zi aning ohuyi Xo‘jandur,

Xattini xato qilmasangiz – mushki Xitodur. [2.132]
2022:
Gar chin desangiz, ko'zi aning ohuyi Chindur,
Xattini xato qilmasangiz – mushki Xitodur. [4.191]
1971:
Ey qoshi qaro, bog'i visoling havasidin,
Har kirpigimizning orasida arrasi bor. [2.131]
2022:
Ey qoshi qaro, bog'i visoling havasidin,
Har kirpigimizning orasida Arase bor. [4.189]
1971:
Ko'nglaking bargi gulu ustida gulrang yalak, (elak)
Gul kibi jisming uza aylaki gulgun ko'nglak.
2022:
Ko'nglaking bargi gulu ustida gulrang yalak,
Gul kibi jisming uza o'ylaki gulgun ko'palak. [4.163]
1971 Ters:
Az dast medih davlati on kashtii Nuh,
Varna to'roni havodis barad bunyodat. [2.114]
2022:
Az dast madeh davlati on kishtii No'h,
Varna to'roni havodis barad bunyodat. [4.161]
1971:
Tu avhadi ahdi zi kiromi Kirmon,
Peshi tu suhan zira ba kirmon boshad. [2.113]
2022:
Tu avhadi ahdi zi kiromi Kirmon,
Peshi tu suhan – zira ba Kirmon boshad. [4.160]
1971 Ters:
Ayirg'il meni jumla hamrohdin,
Yuzumni evurma mosivollohdin. [2.110]
2022:
Ayirg'il meni jumla hamrohdin,
Yuzumni evur mosivollohdin. [4.156]
1971: (Navoiy)
Istamasang, eslamasang bizni
Men o'yaram yo'lung uza izni. [2.100]
2022:
Istamasang, eslamasang bizni
Men o'param yo'lung uza izni. [4.142]
1971:
Ko'zungdek bormu nargis, yuzungdek bormu gulshan,
Ashkingdek bormu nasrin, qadingdek bormu savsan? [2.45]
2022:
Ko'zungdek bormu nargis, yuzungdek bormu gulshan?
Engingdek bormu nasrin, qadingdek bormu savsan? [4.45]

1971:
Tishing dur, labing marjon, hading gul, xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, mening multon. [2.83]
2022:
Tishing dur, labing marjon, hading gul, xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging Mo'lton. [4.117]
1971:
Yo rab, havas jam'ida Boburni xos qil,
Yoxud avom nuqrasidin xalos qil. [2.179]
2022:
Yo Rab, havos jam'ida Boburni xos qil,
Yoxud avom tafriqasidin xalos qil. [4.268]

Agar "Aruz" asarining 1971 va 2022-yilgi nashrlarida tafovutlarini mukammal ko'rsatishga botinsak, kamida ellik sahifani qoralagan bo'lardik.

Ushbu nuqsonlarning asosiy qismi mazmun-ma'noga birozginasi vaznga tegishlidir, xolos.

Zukko kitobxon yuqoridagi ozgina taqqos va qiyosni mulohaza etsa, nashrga tayyorlovchi va ma'sul muharrir saviyalarning qay darajada ekanini aniq tasavvur eta oladi. Afsuski, 2022-yilgi nashrda ham jiddiy nuqson bor:

– "Kulliyot"ning 415-betidan boshlangan matn "Taqti'" deb nomlaganimiz alohida risoladir. Noshir bu risola "Bismillo"si va dastlabki gaplarini kitobining bosh qismiga 30 betga olib ikki nuqson sodir etgan.

– Endi, 30-betdagi olti satr kitobxonni chalg'itadi. Chunki matn fors tilida, risola esa o'zbek tilida. "Bilgilkim" deb boshlanadi.

– "Taqti'" risolasida "Bismilloh" yo'q. "Taqti' "ning Bismillosi – 30 betdagi 6 satr edi. Kitobxon 415-betdan yangi "Taqti'" risolasi boshlanganini bilmaydi. Negaki, "Bismillo"si yo'q.

Xulosalar:

1. 1971 va 2022-yillardagi Boburning "Aruz risolasi" nashrlari qiyosi ilk nashrda jiddiy matn nuqsonlari juda ko'p sodir etilganini ko'rsatdi.

2. 2022-yilgi Bobur "Kulliyoti"ning uchinchi jildida birinchi marotaba Boburning "Taqti'" risolasi bosilib chiqdi.

3. Boburning biz bilgan "Aruz risola"sining muallif qo'ygan haqiqiy nomi "Aruz" ekanligi ma'lum bo'ldi.

4. "Taqti'" Boburning fors tilida yozilgan asaridir. Bu risola tugallangan kun – 30-avgust, 1527-yil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. "Бобурнома", – Тошкент. "Шарқ" нашриёти. 2002.*
2. *Заҳириддин Муҳаммад Бобур. "Мухтасар", – Тошкент. "Фан" нашриёти. 1971.*
3. *Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 2017.*
4. *Zahiriddin Muhammad Bobur. "Kulliyot" 3-jild. "Aruz risolasi" ("Mufassal") – Toshkent: "Zilol buloq", 2022.*

SHAHNOZA RASULOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

SAYID HAYBATULLOHXO‘JA XISLAT BAYOZLARINING ILMIY TAVSIFI

Annotatsiya: *Maqolada Toshkent adabiy muhiti namoyandalaridan biri Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan “Armug‘oni Xislat”, “Hadyayi Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Tuhfayi Xislat” bayozlariga ilmiy tavsif berildi. Bayozlarning mavzu ko‘lami, janr xususiyatlari, tuzilishidagi o‘ziga xosliklar aniqlandi.*

Kalit so‘z va iboralar: *ilmiy tavsif, maqom, bayoz, toshbosma, noshir, muxammas, g‘azal, muvashshah, manba, she’r, matn.*

Аннотация: *В статье дается научная научное описание произведений “Армугони Хислат”, “Хадьяи Хислат”, “Савготи Хислат”, “Тухфаи Хислат”, составленных и изданных Саедом Хайбатуллаходжей Хислатом, одним из представителей ташкентской литературной общественности. Определены тема, жанровые особенности и структура баязов.*

Ключевые слова и фразы: *научное описание, макам, баяз, литография, издатель, мухаммас, газель, мувашшах, источник, стихотворение, текст.*

Abstract: *The article gives a scientific description of the works “Armugoni Hislat”, “Hadyai Hislat”, “Savgoti Hislat”, “Tuhfai Hislat” compiled and published by one of the representatives of the literary community of Tashkent, Sayed Haybatullah Khoja Hislat. The subject scope, genre features and structural peculiarities of Bayozs were determined.*

Key words and phrases: *scientific description, makam, bayaz, lithography, publisher, mukhammas, ghazal, muvashshah, source, poem, text.*

Toshkent adabiy muhitida qalami charxlangan ijodkorlardan biri Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat(1880-1945)dir. Haybatullohxo‘ja Karimbek Kamiyning shogirdlaridan biri bo‘lib, ustozi vositasida Yusuf Saryomiy, Muhyi Xo‘qandiy, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Asiriy Xo‘jandiy kabi zamonasining yetuk shoirlari bilan tanishadi. Xislatning tarjimayi holi, adabiy faoliyati, ijodi haqida Mo‘minjon Muhammajonov Toshqinning “Toshkent shoirlarining tarjimai hollari” tazkirasida [3.92-120], shoir avlodiga mansub san’atshunos Muzaffar Asadullayev va adabiyotshunos To‘xtamurod Zufarovlar tashabbusi bilan yaratilgan “Tarannum” risolasida mufassal ma’lumot berilgan [4.3-41].

Xislat ijod etgan davr – XX asr boshlarida matbaa ishlarining taraqqiy etishi natijasida qo‘lyozma bayozlar bilan birga toshbosma usulda bayozlar chop ettirish odat tusiga kirgan. Bu davrda nashr ettirilgan bayozlar uni tuzish va chop ettirishdagi tashabbuskorlarning nomlari bilan atalgan. Haybatullohning bayozlari shu an’anaga mos holda, “Hadyai Xislat”, “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat” hamda “Tuhfai Xislat” nomi ostida nashr yuzini ko‘rdi.

Xislat bayozlarining qisqacha tavsifi tadqiqotchilar Ra’no Hojiyeva [7.89], Bahri Abdullayeva[1.40]ning ilmiy maqolalarida bayon qilingan. Mazkur ishimizda shoir bayozlari mukammal tavsifini berishga harakat qildik.

هدیه تصلخ “HADYAYI XISLAT” bayozi shoir tomonidan tuzilib nashr ettirilgan ilk she’riy to‘plam bo‘lib, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Asosiy fondida inventar 338, 341, 9602, 660 raqamlari ostida saqlanadi. To‘plam 1910-yil Tashkentda G.Yakovlev matbaasida nashr etilgan. Muqovasi och sariq rangli qattiq kartondan.

Tuzuvchisi va noshiri: سید هیبت الله خواخه خصلت Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat.

Kotibi: سراج الدین مخدوم Sirojiddin maxdum (Sidqiy Xondayliqiy).

O‘lchovi: 21x13 sm. Hajmi: 24 sahifa.

Boshi: ایتای عرضیم ایشیتینک اهل دهنش

Oxiri: صاد اصغر لفظ هدیهِ همدم خصلتغه ضم

Bayoznung unvon sahifasiga naqshli jadval ishlangan. Ushbu sahifadagi bitiklar quyidagilar:

هدیه خصلت

بسعی خراجات بیلا ملا سید هیبت الله خوجه متخنص خصلت بن سید عاریفخواجه ایشان تاشکندی اولاد حضرت شیخ زین الدین اتا نَوَّرَمرْقَد هُ جامعیدین بی رخصت چاپ قیلماق ممنوع دور

Basa’yi xarajot bila Sayid Haybatullohxo‘ja mutaxallusi Xislat bin Sayid Orifxo‘ja eshon Toshkandiy avlodi hazrat Shayx Zayniddin ato navvara marqadahu jam’idin beruxsat chop qilmoq mamnu’dur.

در مطبع یکولوف طبع شد Dar matbayi Yakuvluf tab’ shud

Bayoz sahifasidagi she’rlar jadval (matn ramkasi) ichida va jadval tashqarisi – hoshiyada qiyalatib, nasta’liq xatida ko‘chirilgan. 2-sahifaning past qismida bayoz kotibi va nomi alohida qayd etilgan:

مصرع لکاتیبی سراج الدین مخدوم

هدیهِ خصلت اولدی بیل مونکا نام

Misra kotibi Sirojiddin maxdum,

“Hadyayi Xislat” o‘ldi bil munga nom.

Toshbosmaning har sahifaning yuqori qismida هَدیه خصلَت برینچی جوزی با تَصویر – “Hadyayi Xislat” birinchi juzi botasvir” jumlalari takrorlangan. Bayozning so‘ngida e’lon joylangan: بیرینچی جوزی – “Birinchi juzi”,

هم تیزده نشر اولونغوسیدورانشا الله تعالی ایکینچی جوزی – “Ham tezda nashr o‘lung‘usidur insha Alloh ikkinchi juzi”. Bundan anglashiladiki, Xislat bayozning ikkinchi juzini ham nashrga tayyorlash niyatida bo‘lgan.

Bayoz o‘z davrining mashhur san’atkorlaridan biri Hamdamxon Haydaraliyev(1887-1922)ga bag‘ishlab yaratilgan. To‘plamning 4,6,8,10,12,15,23 sahifalarida boshiga salla kiyib, qo‘lida gul tutgan o‘spirin –Hamdamxonning surati joylangan.

She’riy to‘plamning ilk sahifasida Xislat qalamiga mansub 22 bayt (44) misrali masnaviy o‘rin olgan. Unda bayozning yaratilishi haqida so‘z boradi. To‘plamdagi she’rlar soni 19 ta bo‘lib, ular همدمخان Hamdamxon, کمی Kamiy, ذلولی Zululiy, محی Muhyi, وصلی Vasliy hamda خصلت Xislat qalamiga mansub g‘azal va muxammaslardan iborat.

To‘plamdagi she’rlar mazmuni ko‘proq Hamdamxonning tavsifu tavsifiga bag‘ishlangan. Karimbek Kamiyning “Hamdamxon”, Vasliy Samarqandiyning “Surating” radifli g‘azallari shular jumlasidandir. Xislatning “Hajr o‘tig‘a aylagon olamni so‘zon ikkimiz”, Hama olamg‘a, jono, suratingni” misralari bilan boshlangan g‘azallarida muvashshah san’atini qo‘llab, Hamdamxon ismini pinhon qilgan.

Kichik she’riy to‘plamda Xislat qalamiga mansub 6ta – 4 g‘azal va 2 muxammas o‘rin olgan.

“Hadyayi Xislat” bayozi hajman kichik bo‘lsa-da, keyinroq yaratiladigan mumtoz adabiyotimizning noyob manbalaridan biri – “Armug‘oni Xislat” yaralishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

ارمغان خصلت “ARMUG‘ONI XISLAT” bayozi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Asosiy fon-

dida inventar 320, 4063, 12555, 13002, 13860, 13861, 18681 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz Toshkentda (1329) 1912-yilda G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan. Hajmi: 240 sahifa. O‘lchovi: 23x14

Muqovasi qattiq qizil kartondan ishlangan.

Tuzuvchisi va noshiri: سید هیبت الله خواخه خصلت Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat.

Kotibi: سراج الدین مخدوم Sirojiddin maxdum.

Bayoz o‘z davrining mashhur hofizi Mulla To‘ychi Toshmuhammedov (1868-1943) ning tashabbusi va homiyligida nashr etilgan.

Boshi: حمدو ثنالاریکی ثری برله سما اهلی تیلیدین کیلغولوق دو ر

Oxiri: اول خلیل الله نی بول کون یاد ایتیت

She’riy to‘plamning har sahifalariga naqshli jadvallar ishlangan bo‘lib, ularga zarhal berilgan. Matnlar ikki ustunga olingan va nastaliq xatida qiya holatda joylashtirilgan.

Kitobning unvon varag‘ida quyidagi yozuvlar bitilgan:

ارمغان خصلت

الحمدولله والمنه اوشبوزمان سعادت توامانده بو نسخهٔ نایابغه ملا تویچیخان حافظکیم اهلی عالمغه مشهوردور انینک بزملارده یوز مینک ترانه لار برلا اوقویدورکان غزل لارینی آهنک و مقامی برله یازیلیب نام قویولدی

Alhamdulillah val minna ushbu zamon saodatu omonda bu nusxayi noyobg‘a Mulla To‘ychixon hofizkim ahli olamg‘a mashhurdur. Aning bazmlarda yuz ming taronalar birla o‘qiydurgon g‘azallarini ohang va maqomi birla yozilib qo‘yuldi.

اوشنونی صاحبیدین بی ایجازت چاب قیلینماس

Ushbuni sohibidin beyijozat chob qilinmas.

Bayozning 239 sahifasida To‘ychi hofizning surati chop qilingan. Bu suratning yuqori qismida bayoz kotibi – Shavkat Iskandariyning forscha fardi, undan quyiroqda shu she’rning tarjimasi berilgan:

Bu surat Mulla To‘ychi suratidur,

Tamom olamni tutgan shuhratidur.

Haybatulloh Xislat sohibi devon bo‘lmasa-da, “Armug‘oni Xislat” bayozi xalq orasida “Devoni Xislat” nomi bilan mashhur bo‘lganligi ma’lum. Bayozning 9-sahifasigacha Xislatning bayozga yozgan muqaddimasi o‘rin olgan.

“Armug‘oni Xislat” bayozidan نوای Navoiy, بیدل Bedil, Hofiz, لطفی Lutfiy, سعدی Sa’diy, سیدا Saido, قصاب Qassob, امیری Amiriy, عظیمAzim, اهدی Ahdiy, کامل خوارزمیKomil Xorazmiy, فقیری Faqiriy, اکملخان توره Akmalxonto‘ra, زاکری Zokiriy, امیرخواخهAmirxo‘ja, تخلی Tajalliy, یوسف سریامی Yusuf Saryomiy, شهیدی Shahidiy, قاری Qoriy, ضمیری Zamiriy, پریمقاری اندخانی Pirimqori, ناظم Nozim, خسرو Xisrav, مقیمی Muqimiy, ناقصNoqis, زوقی Zavqiy, وصلیVasliy, قرقتFurqat, حلمی Hilmiy, مسکینMiskin, شوکت Shavkat, تایب خوقندی Toyib Xo‘qandiy, کمی Kamiy, وجدی Vajdiy, حاذق Hoziq, دیوانه Devona, غیاثی G‘iyosiy, مخلص Muxlis, خضرت قلی Hazratqul, شمس الدین Shamsiddin, غلامی تاشکندی G‘ulomiy Toshkandiy, مونس تاشکندی Munis Toshkandiy, بیمی Biymiy, ساقی تاشکندی Soqiy Toshkandiy, صلاح الدین Salohidin, اسیری Asiriy, ملهم Mulham, اهو Ohu, غضنفر G‘azanfar, رضای اندجانی Rizoyi Andijoniy hamda خصلت Xislat ijodidan namunalar keltirilgan. Janr tarkibi, asosan, g‘azal va muxammaslardan iborat, ular o‘zbek va fors-tojik tillarida bitilgan.

Xislat she’riy merosining katta qismi mana shu bayozdan o‘rin olgan. Unda shoirning 25 ta she’ri mavjud – 2 ta to‘rtlik, 14 ta g‘azal, 8 ta muxammas, 1 ta marsiya.

Bayozdagi she’rlarning barchasi O‘rta Osiyoda ma’lum va mashhur bo‘lgan To‘ychi hofiz Toshmuhammedov (1868-1943) tomonidan ijro etilgan. To‘plamning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sahifalarda keltirilgan she’r matnlaridan avval uning qaysi maqom turida kuylanishi qayd etilgan.

Masalan: Miskin qalamiga mansub she’r “Chorgoh” maqomida [2.21]:

چارگاه

ای خاص قرب محرم اسرار کبریا

ای مفخرعرب و عجم تاج انبیا

Haybatulloh Xislatning quyidagi she’ri “Taronai dugoh”da kuylanishi matn sarlavhasida keltirib o‘tilgan [2.23]:

ترانهِ دوگاه از خصلت

هجرینکده بس اولدورمه اندیشهِ فردا قیل

کیل امدی منکه جانا وصلینکنی مهیا قیل

“Armug‘oni Xislat”dagi she’rlarning miqdor jihatdan ko‘pi – 16 tasi “dugoh” maqomida; “bayot” kuyida – 12 ta, “chorgoh”, “yakkaxonlik”da – 7, “xo‘qandcha”da – 6, “nolish”, “tarannum”, “girya” , “navo” maqomida – 4, “nasrullo”, “ushshoq”, “debocha” “ashula”da – 3, “gulyor”, “dilxirosh”da kuylarida 1 tadan she’r matnlari joylashtirilgan.

Adabiyotshunos va musiqashunoslar uchun muhim sanalgan Xislat “Armug‘on”i ko‘plab tadqiqotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Haybatullohning o‘z davrida ham mashhur bo‘lgan yana bir she’riy to‘plami **سَوغات خصلت “SAVG‘OTI XISLAT”** O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Asosiy fondida inventar 347, 348 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz 1914(1333)-yil Toshkentda O.A.Porsev matbaasida chop etilgan.

Hajmi: 128 sahifa. O‘lchovi: 13x8 sm.

Tuzuvchisi: سید هیبت الله خواخه خصلت Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat.

Kotibi: قاری میرزا احمد بن رضا محمد شاشی Qori Mirzo Ahmad bin Rizo Muhammad Shoshiy. Mullo Zafar ibn Shukur Muhammad maxdum bayozning nashr etilishiga homiylik qilgan.

Boshi: خداوندیکی ایلار ابرو دودیدین شرر پیدا

Oxiri: خدایم آنی یتقوزسون مراده

Bayoz muqovasi malla rangli kartondan ishlangan. Matnlar chiroyli nasta’liq xatida ikki ustunga qiya holatda ko‘chirilgan. Sahifalardagi matnlar uchun bezak sifatida turli xil: qizil, jigarrang, to‘q ko‘k, qora, yashil ranglardan foydalanilgan.

To‘plamning hajmi ixcham, ko‘rinishi yon daftarchani eslatadi. Bizningcha, bayozning cho‘ntakda olib yurishga qulayligi jihatidan yon daftarcha shaklida bo‘lganligi ehtimoldan holi emas.

Unvon sahifasida hadisdan iqtibos keltirilgan:

اِنَّ مِن الشِّعرِ لَحِکمَةً و اِنَّ مِن البَیَانِ لَسِحرًا

(Inna min ash-she’ri lahikmatan va inna minal bayani lasehron).

Mazkur hadis sahih hisoblanib, Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (“Odoblar xazinasi”)dagi tartib raqami – 669. Ushbu asarga sharh sifatida yozilgan to‘plamdagi raqami – 872 [6. 295].

Sahifaning o‘rtasida hadis matnidan so‘ng quyidagi jumlalar o‘rin olgan:

الحمد لله و المنه این کتاب شیرین خطاب در این زمان نیکو نشان اعنی مسمی بی سَوغَات خصْلَت

با احتمام تام سید هیبت الله خواجه تخلص خصلت بن سید عارفخواجه اشان اولاد حضرت شیخ زین الدین اتا

“Alhamdulillahul val-minna (Hamd va minnatdorlik Allohgadir) in kitob shirin xitob dar in zamon neku nishon, a’ni musammama ba Savg‘oti Xislat ba ehtimomi tom Haybatullohxo‘ja taxallusi Xislat bin Said Orifxo‘ja eshon avlodi hazrat shayx Zayniddin ato”.

دیدرک عبَط دنَقشات رَد Dar Toshqand tab’ kardid.

Bayozda she’r matnidan avval o‘quvchilarga izoh va mavzu bilan tanishtirish maqsadida sarlavhalar qo‘yilgan: *“Pirimqori Andijoniyning janob Xislat eshong‘a Andijondandan yuborg‘on g‘azallaridur”, “Bu musaddas qorabuloqliq Abdulxay maxdum mutaxallusi ba Roiq Hoji Muham-*

mad domla o‘g‘lini janob hazrat imom Nurulloh marqada sha’nlarida aytgan tab’i nazmidur”, “Janob Pirimqori Andijoniyning Xislat eshong‘a muloqot bo‘lg‘onlaridagi maktubi muhabbat maktublaridur”, “Mavlono Pisandiy Samarqandiydin Janobi mir Maqsud oqsoqol do‘ffifurush Toshkandiyg‘a xitob” tarzida.

To‘plamdan she’rlari o‘rin olgan shoirlar, asosan, Xislatning qadrdonlari, hamfikr-hammaslaklaridir. “Savg‘oti Xislat” bayoziga jami 21 ta shoir: محیر Muhayyir, پیریمقاری اندخانی Pirimqori Andijoniy, رایق Roiq, خایب Xoib, سمرقندی فکری Fikriy Samarqandiy, اسیری خجندی Asiriy Xo‘jandiy, صدقی خندقلقی Sidqiy Xandaqliqiy, ضلولی نمنکانی Zululiy Namangoniy, وصلی سمرقندی Vasliy Samarqandiy, لطفی بخاری Lutfiy Buxoriy, پسندی Pisandiy, حاخی میرزا یعقوب Hoji Mirzo Yoqub, میر مقصود Mir Maqsud, مشرب Mashrab, کامل خوارزمی Komil Xorazmiy, سید اکملخان توره Sayid Akmalxon to‘ra, فضلی نمنکانی Fazliy Namangoniy, مقیمی Muqimiy, محمد زاکر مخدم عفتی Muhammad Zokir maxdum Iffatiy, میرزا احمد قاری تاشکندی Mirza Ahmad Qori Toshkandiy hamda خصلت Xislatning g‘azal, muxammas, musaddas, fard kabi lirik janrdagi she’rlari jamlangan.

Bayozdagi she’rlar soni 64 ta. Ulardan g‘azal 45 ta, muxammas 12 ta, fard 2 ta, musaddas, mustazod, murabba, qasida, marsiya janrlariga oid she’rlar bittadan o‘rin olgan.

Haybatulloh tomonidan tuzilgan yana bir she’riy to‘plam **تحفه خصلت “TUHFAYI XISLAT”** O‘zR FA SHI Asosiy fondida inventar 665, 3980, 9603, 20386 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz 1914-yil Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan.

Hajmi: 28 sahifa. O‘lchovi: 23x13 sm.

Tuzuvchisi: سید هیبت الله خواخه خصلت Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat.

Kotibi: قاری میرزا احمد بن رضا محمد شاشی Qori Mirzo Ahmad bin Rizo Muhammad Shoshiy. Nashr etilishiga homiylik qilgan shaxs Mullo Zafar bin Shukur Muhammad maxdum.

“Tuhfayi Xislat” hajmi ixcham, 24 sahifadan iborat. Dastlabki (titul) sahifasi gulli naqshli jadval bilan bezatilgan. To‘rtburchak ichida quyidagi matn joylangan:

قَالَ النَّبی عَلیهِ السّلام اِنَّ لِلّهِ تَعَالی اَسرَارً بَعضُهَا فِي قُلوبِ الأَنبِيَاءِ و بَعَضُهَا فی لِسَانِ الشُّعَرآءِ

Ushbu sahifada bayoz nashrida ehtimom ko‘rsatuvchi shaxs, matbaa nomi ham qayd etilgan:

الحمدُلله کی این کتاب شیرین خطاب در این زمان نیکو نشان اعنی مسمی به باحتمام عمدة التجارملا زفر بن شوکور محمد صاحب مرحوم تاجرکتب

Alhamdulillahki in kitob shirin xitob, dar in zamon neku nishon, a’ni musammama ba ehtimom umdat at-tujjor Mullo Zafar bin Shukur Muhammad sohibi marhum tojiri kitob.

حَقِّ طَبعي ناشِرغه عايد دُر بيرنجي طَبعِ

Haqqi tab’i noshirig‘a oiddur

تاشکَنددَ غُلاَمي مطتبَعَسِدَ چَاپ اوُلدِی

Toshkand G‘ulomiya matbaasida chop o‘ldi.

“Tuhfayi Xislat”dan o‘z zamonasining mashhur shoirlarining she’rlari o‘rin olgan. Buni shoir bayozning ilk sahifasidagi quyidagi satrlar bilan izohlaydi:

Budur go‘yo oshiqlarni joni,
Saro po nozaninlarni bayoni.
Muni sizlarg‘a qildim tuhfa do‘stlar,
Yozib har shoiri mashhurdin ash’or.

Tuhfayi Xislat” bayozidan 10 ta shoir: پیریمقاری اندخانی Pirimqori Andijoniy, کمی تشکندی Kamiy Toshkandiy, اسیری خجندی Asiriy Xo‘jandiy, صلی سمرقندی Vasliy Samarqandiy, غربتی ترکستانی G‘urbatiy Turkistoniy, فکری Fikriy, حایب Xoib, محیر خوقندی Muhayyir Ho‘qandiy, ناقص Noqis hamda خصلت Xislatning ijodidan namunalar keltirilgan. Jami she’rlar soni 23 ta: 14 ta g‘azal, 8 ta

muxammas, 1ta marsiya. Noqis qalamiga mansub bitta g‘azal fors-tojik tilda, qolgan barchasi o‘zbek tilida yozilgan.

To‘plamda Bedilning mashhur baytiga sharh sifatida yozilgan g‘azallar tartib bilan joylashtirilgan. Bu haqda “Tuhfayi Xislat”ning tabdil nashrini amalga oshirgan adabiyotshunos Urfon Otajon kitob so‘zboshisida shunday yozadi: “Bayozda shoirlarning duch kelgan asarlari jamlanmay, balki chuqur mulohaza bilan tartib berilib, turli dunyoqarashdagi, turli badiiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilarning did va talablari hisobga olingan. Masalan, unda Bedilning:

Bedastu poyon az asar navmid nest,

Intizori dom oxir mekashad naxchirro, –

(Qo‘l-oyoqsizlar ham bir narsadan noumid emaslar,

Domning intizorligi oxiri ovni ilintiradi) mashhur bayti asosida yozilgan to‘rtta falsafiy ruhdagi murakkab g‘azal Kamiy, Vasliy, Asiriy va G‘urbatiylar tomonidan Xislatning iltimosiga ko‘ra shu bayoz uchun maxsus yozilganga o‘xshaydi. Chunki ularning ikkitasining hoshiyasida “Xislat eshonga xitob” deb yozib qo‘yilgan. Bu g‘azallar shoirlarning o‘zaro mushoaralari sifatida bedilxonlikning bir turi bo‘lib, ularning yuksak iqtidorini namoyon etadi [3.4].

Bu to‘rt bayozlardan 86 ta shoirlarning 300 ortiq ijod namunalari o‘rin olgan bo‘lib, ular, asosan, g‘azal va muxammaslardan iborat. “Armug‘oni Xislat”da 94 ta, “Savg‘oti Xislat”da 45 ta, “Hadyayi Xislat”da 11ta, “Tuhfayi Xislat”da 14 ta g‘azal janriga mansub she’rlar bor. Zamondosh shoirlarning bir-biriga adabiy ta’siri bayozdan o‘rin olgan muxammaslarda o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Bayozlarda jami 66 ta muxammas lirik janrida yozilgan she’rlar bo‘lib, ularning 25 tasi mustaqil (tab’i xud), 41 tasi taxmislardan iborat.

Haybatulloh Xislat bayozlari nafaqat shoir, balki ilm ahliga noma’lum bo‘lgan mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining ijodini o‘rganishda tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi. Xislat bayozlarini ilmiy o‘rganish, ularni joriy alifboda nashrga tayyorlash kelgusi vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B. Toshbosma bayozlarning ilmiy tavsifi. // Adabiy meros. – Toshkent: 1989, №4 (50).

2. Armug‘oni Xislat. Bayoz. Toshbosma. O‘zbekiston FA SHI. Asosiy fondi. Inv.№4063. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov, 1912.

3. Mo‘minjon Muhammajonov Toshqin. Toshkent shoirlarining tarjimai hollari. Tazkira. Qo‘lyozma. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. II kitob.

4. Tuhfayi Xislat (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: Urfon Otajon). – Toshkent: Meros, 1992.

5. Xislat. Tarannum (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi mualliflari: M. Asadullayev, T. Zufarov). – Toshkent: Merius, 2009.

6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” kitobining sharhi. 3-juz. – Toshkent: Sharq, 2011.

7. Hojiyeva R. Toshbosma bayozlar o‘zbek adabiyotini o‘rganishda muhim manba. // Adabiy meros. – Toshkent: 1980. №1 (13).

AZIZULLAH ARAL
Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, o'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi dotsenti.

AFG'ONISTONDA ALISHER NAVOIYNING O'RGANILISHI

Annotatsiya: *O'zbekiston XX asrda jahon navoiyshunosligining markaziga aylandi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida Alisher Navoiy hayotining o'rganilmagan qirralari ochildi, dunyo bo'ylab tarqalib ketgan qo'lyozmalari to'plandi. Biroq XV asrda Alisher Navoiyning hozirgi Afg'oniston hududida olib borgan keng ko'lamdagi bunyodkorlik faoliyati haqidagi manbalar hali to'liq o'rganilganicha yo'q. Navoiy tug'ilib o'sgan zaminda u haqidagi folklor namunalari, asarlari nashri, badiiy ijoddagi vorislari, umuman Afg'oniston navoiyshunosligini o'rganish masalasi muhim vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan Afg'onistonda o'zbek adabiyotining shakllanishi, taraqqiyoti va bugungi holati, xususan, Alisher Navoiyga tegishli manbalarni to'plash, tizimlashtirish va ilmiy iste'molga kiritish dolzarb mavzulardan biri.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, O'zbekiston Afg'oniston, Hirot, obida, qo'lyozma, matn, manba, folklor.*

Abstract: Uzbekistan became the center of the world naveology in the 20th century. Especially in the years of independence, the unexplored aspects of Alisher Navoi's life were revealed, and his manuscripts scattered around the world were collected. However, the sources of Alisher Navoi's large-scale creative activity in the territory of present-day Afghanistan in the 15th century have not yet been fully studied. In the land where Navoi was born and grew up, it is an important task to study the examples of folklore about him, the publication of his works, his successors in artistic creativity, and the study of Afghan Navoi studies in general. In this regard, the formation, development and current state of Uzbek literature in Afghanistan, especially the collection, systematization and scientific use of sources related to Alisher Navoi, is one of the most urgent topics.

Key words: *Alisher Navoi, Uzbekistan, Afghanistan, Herat, monument, manuscript, text, source, folklore.*

Alisher Navoiy bilan aloqador obidalar

Qadimiy Xuroson va Movarounnahrda obidalar qurish uzoq tarixga ega va ularning madaniy tarixni o'rganishdagi o'rni katta. Keyingi vaqtda mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda. Alisher Navoiyning obidalar bilan bog'liq faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nafaqat mashhur shoir va davlat arbobi bo'lgan, balki o'z asrining o'ziga xos muhandisi, inshootlar qurilishining katta homiysi sifatida ham faoliyat olib borgan. 1480-yillari Navoiy o'z hisobidan Hirot va mamlakatning turli shaharlarida bir necha madrasa, rabot, masjid, xonaqoh, hammom va ko'priklar qurdiradi. U xayriya inshootlar qurishga shu qadar berilganki, Afg'onistondagi o'zbeklar orasida Alisher Navoiy 1001 Asmo ul-Husno (اسماء الحسنى) – Allohning 1001 muborak ismiga atab 1001ta obida yaratishga niyat qilgan, degan gaplar mavjud. Ammo u har to'rt yilda bir marta keladigan kabisa (sakrash) yilining 366 kuniga teng 366 ta obida qu-

rib, o‘zidan o‘lmas meros qoldirgan ham, deyiladi xalq og‘zaki hikoyalarda. Ularda aytilishicha, Alisher Navoiyning qo‘li suvga ham, yerga ham, ko‘kka ham yetgan. Suvda quduq, ko‘prik va hovuz qurgan bo‘lsa, yerda madrasa, masjid, dor ush-Shifo (kasalxona) qurgan bo‘lsa, ko‘kka teng asarlar yaratgan. Ye.E.Bertels (1890 -1957) “Navoiy” nomli kitobida takidlanishicha, Navoiy qurdirgan inshootlar soni 380 ta bo‘lgan. Umuman olganda, Navoiy davri Hiroti va uning atrofidagi inshootlarga oid muayyan ma’lumotlar to‘plangan.

Ayrim fikrlarga ko‘ra, 1001 ta bino deganda Navoiy yordami bilan kishilarga qurib berilgan uy-joylar ham kirishi mumkin. Lekin bunday uy-joylarning nomi ham, ro‘yxati ham bizgacha yetib kelgan emas.

Hozircha Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher” nomli asarida Amir Alisher Navoiy qurdirgan inshootlardan 153 tasining nomlari tilga olinadi. Agarda Alisher Navoiyga nisbat berilgan 6 ta yangi obidani mazkur 153 ta obidalar ro‘yxatiga qo‘shadigan bo‘lsak, Navoiy qurdirgan 366 inshootdan hozirga qadar 159 tasining nomi va aksariyatining joylashgan yeri ham aniqlangan bo‘ladi. Qolgan 207 ta inshoot ustida ham izlanish olib borilsa, navoiyshunoslik sohasi bundan faqat yutgan bo‘ladi.

“Shoh istilohlari” kitobi muallifi Amin Hiraviy ta’biri bilan aytganda, Navoiy faoliyati asosida “Xurosonning sahro-u dashtlari va shahr-u qishloqlarida bunyod etilgan masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar, bog‘lar, ziyoratgohlar qurildiki, qalam tili uni tasvirlashga ojizdir”.

Alisher Navoiy tomonidan bugungi Afg‘oniston va Eron hududlarida qurdirilgan va hozirgacha saqlanib qolgan, keng jamoatchilikka xizmat qilib kelayotgan inshootlar qo‘yidagilardan iborat:

1 Hazrat Abdulvalid Ahmad ibni Rijo (rah.) qabri gumbazi, Hirot
2 Hazrat Mir Abdulloh-al-Vohid shahid maqbarasi, Hirot
3 Sayyid Abdulloh ibni Muoviya ibni Ja’fariy Tayyor maqbarasi, Hirot
4 Namakdon (Tuzlik) va Bog‘chai noju imorati, Hirot
5 Hirot shaharidagi Jome’ masjid, Hirot
6 Ziyoratgoh Jome’ masjidi, Hirot
7 Ulvor qishlog‘i masjidi, Hirot
8 Jom tumani Xarjird qishlog‘i Mir Qosim maqbarasi, Hirot
9 Alisher hovuzi (G‘o‘r qishlog‘ida joylashgan), Hirot
10 Oqina Sardobasi, Foryob
11 Navoiy ko‘prigi (Juzjonon ko‘prigi), Sarpul
12 Bobovali hovuzi, Foryob
13 Hazrati Ali maqbara-ziyoratgahi, Balx
14 Nahari Shohiy (Sulton anhori), Balx
15 Sangbast raboti (Tus va Hirot oralig‘ida), Mashhad

Alisher Navoiy “Vaqfiya” asarida o‘z ixtiyoridagi mablag‘lar hisobiga qurilgan bir qator obidalarni sanab o‘tgan. Navoiy asos solgan eng mashhur tarixiy yodgorliklar qatorida quyidagi obidalarni sanab o‘tish mumkin: Hirotdagi “Ixlosiya o‘quv majmuasi”, Nishopur/Neyshaburdagi “Attor maqbarasi”, Hirotdagi “Amir Alisher Navoiy kutubxonasi”, yana shu yerdagi “Abdurahmon Jomiy maqbarasi”, Mashhaddagi “Gilos buloq suv yo‘li”, “Shoh Qosim qabri”, “Anvori Turbat Jom”, Mashhaddagi “Imom Rizo ziyoratgohi ayvoni”, “Sangi Bo‘st karvonsaroyi”, “Tarshiz masjidi”, “Esfarin raboti”, “Chenoron raboti”, Hirotdagi “Qirq qiz karvonsaroy va hammomi”, Mashhaddagi “Bandi Turuq”, “Bobo Kamol Hirot ko‘prigi”, “Hirot Fanohiya madrasasi”, “Saraxs masjidi”.

Keyingi vaqtda Alisher Navoiyga nisbat berilayotgan obidalar qo‘yidagilardan iborat: Sarpul sharidagi “Navoiy ko‘prigi” (Saripul g‘isht ko‘prigi ham deyiladi), Mozori Sharif sharidagi

“Hazrat Ali qadamjolari”, Xonchorbog‘ tumanidagi “Oqina Sardobasi”, Balhdagi “Nahri Shohiy” kanali, Andko‘y tumanidagi “Bobo Vali hovuzi” va Eron Mashadidagi “Sangi bust raboti”.

Afg‘oniston navoiyshunos olimlari

1960-yillardan boshlab bugungi kunga qadar Afg‘onistondagi navoiyshunoslikka mamlakat olimlari o‘ziga xos hissa qo‘shib kelmoqdalar. Bular qatorida Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy, Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy, Abdulhay Habibiy, Abdulloh Korgar, Abdulloh Ruyin, Said Muhammad Olim Labib, Said Tojuddin Toshqin Bahoiy, Nurulla Oltoy kabilarning nomini qayd etish mumkin. Bu mamlakat navoiyshunosligining bosh xususiyatlaridan biri – mazkur olimlarning eski o‘zbek yozuvi va dariy tili, arab yozuviga ta’lim va kundalik foydalanishda yaqinligidadir. Ya’ni, Navoiy davridan beri davom etib kelayotgan eski o‘zbek tilining matn va so‘zlashuv an’anasining Afg‘onistonda saqlanganligi bu yurt navoiyshunoslarini Navoiyga, masalan, arab yozuvidagi Navoiy asarlari qo‘lyozmalariga har jihatdan yaqinlashtiradi.

Shu o‘rinda yuqorida tilga olingan afg‘onistonlik navoiyshunos olimlaridan ayrimlari hayoti va ijodi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

1) Abdulhay Habibiy 1910-yili Afg‘onistonning Qandahor shahrida tug‘ilgan. U ko‘plab kitoblar muallifi, 1950-yillarda “Ozod Afg‘oniston” nomli jurnal noshiri bo‘lgan. 1966-yilda Afg‘oniston tarix jamiyati boshlig‘i sifatida faoliyat olib borib, Afg‘oniston tarixiga oid bir qancha kitoblar nashr qilgan. A.Habibiy 1981-yili “Amir Alisher Navoiyning siyosiy va fikriy qarashlari” nomli kitobni nashr etgan.

2) Mir Xusayn Shoh 1925-yili Qandahorda dunyoga kelgan afg‘onistonlik olim 1967-yili akademik Bartoldning Navoiyga bag‘ishlangan monografiyasini ingliz tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Adabiyotshunos va tarixchi olim o‘z sohasi bo‘yicha o‘nlab asarlar yaratgan va tarjima qilgan. Ulardan biri “Alisher Navoiy hayoti” nomli kitob bo‘ladi. 1971-yilda Kobulda chiqadigan “Juvandun” jurnalida O‘zbekiston adibi Oybekning “Navoiy” romani chop etildi. Ushbu romanning bir parchasi “Alisherning yoshligi” nomi bilan 1979-yili o‘zbek tilida Kobulda bosiladigan “Yulduz” gazetasida eski o‘zbek yozuvida chop qilindi. Mazkur ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin.

3) Muhammad Yoqub Vohidiy Juzjoniy 1932-yil Saripul viloyatida tug‘ilgan. U 1961 yili Kobul universitetining adabiyot fakultetini bitirgan. Adabiyot, tarix va geografiya fanlari bo‘yicha o‘qituvchilik qilgan. 1967-yilda afg‘onistonlik olim birinchilardan bo‘lib buyuk shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga haqidagi kitobni nashr ettirgan edi. U 20 ga yaqin kitoblar muallifi, jumladan, Amir Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Vaqfiya”, “Mezon ul-avzon” kabilari asarlarini tadqiq qilib, ularning qiyosiy matnlarini qayta nashr etishga muvaffaq bo‘lgan.

4) Said Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy (1934-yili tug‘ilgan). Yuridik fanlari doktori, professor Said Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy 1934-yili Afg‘onistonning Juzjon viloyati Saripul shahrida tug‘ilgan. Kobul shahridagi Shar’iy ilmlar madrasasida saboq olgan. Kobul universitetining Shariat fakultetini tamomlagan. 20 yil mobaynida Afg‘oniston ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritgan. 1976-yili siyosiy faoliyati tufayli ishdan chetlatilgan. 1978-yilgi Aprel inqilobidan keyin Said Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy Adliya vaziri, Bosh prokuror lavozimlarida ishlagan. Sovet armiyasining Afg‘onistonga kiritilishiga qarshilik ko‘rsatgani bois bois qator partiya va davlat rahbarlari qamalgan, jumladan janob Juzjoniy ham yetti yilni qamoqda o‘tkazishga majbur bo‘lgan. Prezident Najibullo hokimiyatga kelgach, milliy yarashuv e’lon qiladi va Said Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy Afg‘oniston Oliy Sudi raisi birinchi o‘rinbosari va bir muddat rais vazifasini bajaruvchisi bo‘ladi.

1992-yili Afg‘onistonda hokimiyat mujohidlar nazoratiga o‘tishi ortidan Juzjoniy domla O‘zbekistonda yashashga qaror qiladi. 1994-yildan 2000-yilgacha Toshkent davlat yuridik uni-

versitetida talabalarga Islom huquqidan dars o‘tgan. Ilmiy, adabiy, tarixiy va huquqiy mavzularda maqolalar e’lon qilgan, teleko‘rsatuv, radioeshittirishlar va ko‘plab ilmiy konferensiyalarda qatnashgan. Janob Juzjoniyning 100 dan ortiq maqolasi O‘zbekiston matbuotida e’lon qilingan. 2000-yili Said Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy Toshkent Islom universitetida “Islom huquqi” kafedrasini tashkil etishda bosh-qosh bo‘ladi, “Islom huquqshunosligi” o‘quv qo‘llanmasini yaratadi. Kitob va risolalari o‘zbek tilida nashr etilgan. U 2002-yili O‘zbekiston “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan. Juzjoniy “Afg‘onistonda navoiyshunoslik” nomli maqola yozib, ayni mavzuda amalga oshirilgan ba’zi ishlarni ko‘rsatib o‘tgan. U 2008-yildan buyon oilasi bilan Shvetsiyada, Stokgolm shahrida istiqomat qillib kelmoqda.

5) Abdulloh Ruyin Tojikiston bilan chegaradosh Afg‘onistonning Qunduz viloyatida 1955-yili dunyoga kelgan. U ko‘p yillik tinimsiz faoliyati natijasida 2014-yilga qadar Alisher Navoiy asarlaridan 23 tasini eski o‘zbek yozuvda nashr etishga muvaffaq bo‘ldi. Abdulloh Ruyin Afg‘onistonda Navoiy asarlarini qayta nashr etish ustida eng ko‘p ish olib borgan tadqiqotchi hisoblanadi.

6) Sayid Tojuddin Toshqin Bahoiy 1961-yil Foryob viloyati markazi Maymana shahrida tug‘ilgan. 1986-yili Kobul universitetiga kirib, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha tahsil oladi. Uning “To‘tiqush” hikoyasi, “Suvloq” va “Bir siqim tuproq” she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Alisher Navoiy haqida qator maqolalar yozgan hamda “Xamsa” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarini qayta chop etgan qalamkashdir.

Yuqoridagi qomusda Navoiyning o‘zi yozgan badiiy va boshqa janrlardagi nashr qilingan asarlari ro‘yxati keltirilmagan. Bu tushunarli holat. Chunki bunday ro‘yxatdan O‘zbekiston va uning tashqarisidagi bir necha ming nashrlar o‘rin olishi mumkin bo‘lardi. Bundan farqli tarzda, biz o‘z ro‘yxatimizga Alisher Navoiy bilan bog‘liq Afg‘onistonda nashr etilgan uning asarlari matnlari va Navoiyga oid nashr etilgan bir qator kitoblarni kiritdik. Ular sirasida, avvalo, Alisher Navoiy asarlari nashrlaridan quyidagi namunalarni qayd etish mumkin:

1. Chahor asari forsiy. Kobul: Vazorati etlootu farhangiy, 1395/2016. 1000 dona.
2. Mir Alisher Navoiy. Nashrga tayyorlovchi: Ilhom Nabizoda Kobul: Afg‘oniston fanlar akademiyasi, 1400/2021. 100 bet. 1000 nusxada.
3. Mir Alisher Navoiy. Xamsa. Nashrga tayyorlovchi: Abdulg‘afur Bayoniy. Kobul: Davlat matbaasi, 1369/1990. 511 bet.
4. Mir Alisher Navoiy. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Ya’qub Qarash. Layli va Majnun. Mozori Sharif, 1395/2016. 88 bet. 1000 dona.
5. Mir Alisher Navoiy. Onchi dar simpoziyumi Navoiy guzasht. Nashrga tayyorlovchi: Nusratullo Ibrohimoy. Kobul, 1396/2017. 154 bet. 1000 dona.
6. Mir Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Nashrga tayyorlovchi: Toshqin Bahoyi. Kobul: Vazorati etlootu farhangi, 1395/2016. 64 bet. 1000 dona.
7. Alisher Navoiy. Xamsa. Nashrga tayyorlovchi: Sh. Sirojiddinov, Nurulla Oltoy. Toshkent: Color pack, 1400/2021. 533 bet. 1000 dona.
8. Mir Alisher Navoiy. Navoiy tafakkur dengizidagi injular (“Xazoyin ul-maoniy”). Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Sahiy Vakilzoda. Mozori Sharif: Suratgar, 1399/2020. 55 bet. 500 dona.
9. Amir Alisheri Navoiy – Foniy. Mushtamil bar sharhi zindagiy, osori umroniy, malfuzot va namunai nazmu nasri u. Ba ko‘shishi Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy. Kobul, 1346/1967. 178 bet. 500 dona.
10. Mir Alisher Navoiy. Olam ahlin sog‘inurmen. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Olim Ko‘hkan. Kobul: Ozodiy bosmaxonasi, 1395/2016. 248 bet. 1000 dona.
11. Devoni Amir Nizomiddin Alisher Navoiy-Foniy. Nashrga tayyorlovchi: Sayyid Abbos Rastoxiz Sanchorakiy. Kobul: Intishoroti Amiriy, 1395/2016. 218 bet. 1000 dona.

12. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Mozori Sharif, 1392/2013. 382 bet. 1000 dona.

13. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1396/2017. 501 bet. 1000 dona.

14. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy (Favoyid ul-kibar). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1396/2017. 703 bet. 1000 dona.

15. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy (Badoye' ul-vasat). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1396/2017. 705 bet. 1000 dona.

16. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy (Navodir ush-shabob). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1396/2017. 703 bet. 1000 dona.

17. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy (G'aroyib us-sig'ar). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1396/2017. 728 bet. 1000 dona.

18. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xamsa (Hayrat ul-abror). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1393/2014. 556 bet. 1000 dona.

19. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xamsa (Layli va Majnun). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1393/2015. 374 bet. 1000 dona.

20. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xamsa (Sab'ai sayyor). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1393/2014. 482 bet. 1000 dona.

21. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xamsa (Farhod va Shirin). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1393/2014. 570 bet. 1000 dona.

22. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy. Xamsa (Saddi Iskandariy). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Amiriy bosmaxonasi, 1393/2014. 710 bet. 1000 dona.

23. Amir Alisher Navoiy. Ayyomi visol o'ldi yana. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Olim Ko'hkan. Kobul: Ahmad san'ati va taboati matbaasi, 1387/2009. 67 bet. 1000 dona.

24. Navoiy asarlaridan (Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim al-futuvvat). Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Kobul: Intishoroti Sa'yidi, 1391/2012. 534 bet. 1000 dona.

25. Mir Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Mozori Sharif: Sultoniy bosmaxonasi, 1387/2008. 278 bet. 1000 dona.

26. Mir Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi: Muhammad Ya'qub Juzjoniy Vohidiy. Kobul: Afg'oniston ulum akademiyasi davlat bosmaxonasi, 1363/1984. 77 bet.

27. Mir Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi: Arg'un Tuxmanayi. Peshovar, 1984. 60 bet. 200 dona.

28. Mir Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi: Toshqin Bahoyi. Kobul: Afg'onpress, 1388/2009. 65 bet, 1000 dona.

29. Mir Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Kobul: Davlat bosmaxonasi, 1365/1986. 177 bet. 1000 dona.

30. Mir Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Mozori Sharif, 1372/1993. 83 bet. 2000 dona.

31. Navoiy asarlaridan. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Mozori Sharif: Sulton bosmaxonasi, 1388/2009. 1000 dona.

32. Navoiy asarlaridan. 2-kitob. Nashrga tayyorlovchi: Abdulloh Ruyin. Mozori Sharif: Sulton bosmaxonasi, 1388/2009. 384 bet. 1000 dona.

33. Alisher Navoiy g'azallari. Sharhlar. Nashrga tayyorlovchi: Sayyid Hisomiddin Tuyg'un. Maymana, 2018. 108 bet. 500 dona.

Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid bir qator tadqiqot kitoblar ham mavjud bo'lib, quyida ulardan ayrim namunalarni keltiramiz:

1. Roziq Narayval. Mir Alisher Navoiy. Kobul, 1397/2019. 56 bet. 1000 dona.
2. Muhammad Olim Labib. Sayri dar dunyoyi siymohoi Navoiy (Majmuayi maqolaho). Kobul: Matbayi kotib, 1389/2010. 90 bet. 1000 dona.
3. Abdulali Nur Ahroriy. Amir Alisher Navoiy. Hirot, 1393/2014. 256 bet. 1000 dona.
4. Bartold V.V. Mir Alisher Navoiy. Fors tiliga tarjima. 1360/1981. 70 bet. 500 dona.
5. Bartold V.V. Mir Alisher Navoiy. Tarjima: Mir Husaynshoh. Kobul, 1346/1967. 54 bet.
6. Abdulloh Korgar. Amiri donishmand (Nizomiddin Alisher Navoiy). Peshovar, 1383/2004. 48 bet. 1000 dona.
7. Muhammad Yusuf. Alisher Navoiy. Maymana, 1395/2016. 212 bet. 1000 dona.
8. Majmuayi maqolot seminori baynalmillaliyi bozxoni andishahoyi Alisher Navoiy. Kobul: Matbayi ozodiy (davlatiy), 1400/2021. 376 bet. 1000 dona.
9. Rahim Ibrohim. Navoiy, siyosatmadori pishgom dar dafo‘ az huquqi bashar. Kobul: Matbaayi sulh, 1395/2016. 153 bet. Adadi – 1000 dona.
10. G‘ulom Saxiy Vakilzoda. Amiri Suxan Alisher Navoiy. Kobul: Korvon, 1398/2019, 303 bet. 500 dona.
11. Muhammad Halim Yorqin va Shafiqa Yorqin. Siymoyi Mir Alisher Navoiy. Kobul: Davlat bosmaxonasi, 1369/1990. 95 bet. 1000 dona.
12. Said Ismoil Husayniy Fotimiy. Mir Alisher Navoiy. Kobul: Afg‘oniston Fanlar akademiyasi, 2021.
13. Azizullah Aral. Navoiy bitiklari izidan. Noshr,-Kitob madaniyat markazi. Kobul: 1403/2024, 266 bet 1000 dona.

Pashtu tilida. Afg‘onistondagi navoiyshunoslik asosan o‘zbek va dariy tilidagi tadqiqotlardan iborat. Ammo Afg‘oniston davlatining rasmiy tillaridani biri – pashtuda ham Alisher Navoiyga oid bir necha kitob va maqolalar yozilgan.

Afg‘onistondagi Navoiyga bag‘ishlangan konferensiyalar

Afg‘onistonda ko‘p bo‘lmasa-da, Navoiyga bag‘ishlangan konferenitsyalar o‘tkazilgan. Masalan, 2021-yil 7-9 aprel kunlari “Alisher Navoiy tafakkurlarini qayta o‘rganish” mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlandi. Afg‘oniston sobiq prezidenti anjumanning komissiya a’zolari bilan muloqotlarining birida: “Foniy taxallusi bilan fors tilida ijod etgan Alisher Navoiyning forscha she’rlari fors shoiri Abulqosim Firdavsiy she’rlaridan ustun turadi… mubolag‘asiz aytish mumkinki, Navoiy bizning Shekspirimiz”, deb e’tirof etgan bo‘lsa, O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda chop etilgan hazrati Navoiyning shoh asari “Xamsa”ning eski o‘zbek yozuvidagi yangi nashrini Afg‘oniston madaniy-ma’rifiy jamoatchiligiga tuhfa sifatida taqdim etgani, bu anjumanga o‘zgacha e’tibor qaratilganini ko‘rsatdi.

Navoiy tavallud topgan va hozirda uning qabri joylashgan ko‘hna Hirot shahrida “Alisher Navoiy tafakkurlarini qayta o‘rganish” mavzusida ish boshlagan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 10 ga yaqin chet davlatlardan navoiyshunos olimlarni, yozuvchi-shoirlarni, ilm-madaniyatparvar insonlarni bu ko‘hna diyorga yetakladi. Dastlab Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini uning ona tuprog‘i – oromgohi bo‘lmish Hirot shahrida nishonlash g‘oyasi xususida ikki og‘iz so‘z: Hali 9 fevralga roppa-rosa bir kam yuz kun bor edi. Ancha urinishlardan keyin Afg‘oniston sobiq prezidenti (M.Ashraf G‘ani) devoni boshlig‘i (M.Shokir Koragar) bilan ishxonasida uchrashishga muvaffaq bo‘ldim (muallif). 2020-yil 1 noyabr shanba (Afg‘onistonda haftaning birinchi ish kuni), soat 14:30da bir piyola ko‘k choy ustida hazrat Navoiyni munosib va o‘zgacha xotirlash ayyomi (580 yilligi) bo‘sag‘asida turganimizni, bu sana davlat tomonidan shonli va rasmiy tarzda nishon-

lanishi kerakligini samimiy niyat bilan bayon etdim. Zarracha qarshiliksiz fikrim ma'qullandi va prezident bilan maslahatlashishga qaror qilindi.

Konferensiyada dunyoning turli mamlakatlaridan olimlar kelishdi. O'zbekistonlik navoiyshunoslardan iborat rasmiy delegatsiya maxsus samolyot bilan Toshkentdan Hirotga uchib keldi. Janob Ismatulla Ergashov (O'zbekiston prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili) boshchiligidagi delegatsiya tarkibida bo'lgan bir guruh o'zbekistonlik navoiyshunos olimlar va ziyolilar, jumladan: Shuhrat Sirojiddinov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Shuhrat Rizayev, G'ayrat Majidov, Ma'ruf Yo'ldoshev, Olimjon Davlatov, Gulbahor Ashurova, Ilyos Arabov va boshqalardan iborat edi.

Ochilish marosimida so'zga chiqqan navoiyshunos olim Shuhrat Sirojiddinov "Buyuk maqsad yo'lida (Jomiy va Navoiy)" sarlavhali maqolasi bilan tanishtirar ekan, Jomiy tomonidan e'tirof etilgan Navoiy dahosi xususida fikr bildirdi. Anjuman to'plamidan o'rin olgan 48 maqoladan 30 tasi o'zbek tilida, qolgan 12 tasi dariy, 4 tasi pushtu va 2 tasini ingliz tillarida yozilgan.

Navoiy tili va madaniyati

Tarixda Janubiy Turkiston deb atilmish jug'rofiy hudud tarkibiga hozirgi Afg'oniston shimolida joylashgan o'nta viloyat (Badaxshon, Taxxor, Qunduz, Bag'lon, Samangon, Balx, Juzjon, Sarpul, Foryob va Bodg'is) kirgan. Bu viloyatlardan birinchi to'rttasi "Qatag'on zamin" qolgan oltitasi "Turkiston zamin" deb atalgan. Keyinchalik Qatag'on "Shimoli-sharq" va Turkiston "Shimoliy" viloyatlar deb ishlatilgan. Ayrim manbalarda Janubiy Turkiston o'rniga "Turkistoni Afg'oniya" (1919) deb ham qo'llangan.

Bu hudud qadimdan turklar (turkiy xalqlar), jumladan o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, qizilboshlar, bayotlar, qaraqalpoqlar, qipchoqlar, xuroson turklari, tatarlar, afshorlar, aymoqlar kabi turkiy tillarda gaplashuvchi elatlar vatani bo'lgan. Ular o'zlarining milliy tili, kitobati, madaniyati va hukumatiga ega bo'lgan. 18-asrning ikkinchi yarmiga qadar Janubiy Turkiston o'zbeklari o'zlarining hududiy hukumatlariga ega bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tmishda ham, bugungi kunda ham o'zbekistondan keyin eng ko'p o'zbeklar hozirgi Afg'oniston hududida yashab kelmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, Janubiy Turkiston (Shimoliy Afg'oniston) azaldan turklar (turkiylar) yurti bo'lgan. 18-asrning oxiriga kelib, bu o'lka o'zbeklarining mahalliy mustaqil hokimiyatlari, jumladan Maymana hukumati (1751-1893 yillar) janubdan bostirib kelgan pushtun qabilalari oqibatida qulagan. Natijada siyosiy inqirozga yuz tutgan Janubiy Turkiston aholisi, pushtunlar boshqargan Qandahor hokimiyatiga qaram qilinib, soliqlar to'lab yashashga majbur etilgan. Shoh Amonulloxon davrida (1919-1929) Shimoliy Afg'onistonni pushtunlashtirish maqsadida mamlakat Janubiy va Sharqiy viloyatlaridan pushtun qabilalariga mansub aholini Janubiy Turkistonga ko'chirib kelish siyosati yo'lga qo'yilib, bu ish maxsus bir "Nizomnoma" orqali amalga oshirildi va ko'chirib kelingan pushtunlar yer, suv, pul va qurol bilan ta'minlandi. Shimoliy Afg'onistonni, ayniqsa, "Qatag'an" zaminni (Shimoli-sharq viloyatlar) pushtunlashtirish jarayoni Nodirxon davrida (1929-1933) ham to'xtamadi. Shu tariqa pushtunlarning shimolga oqimi uzluksiz davom etishi natijasida yerli aholi kelgindi hokim tabaqaning ta'siri ostiga tushib, tilini, adabiyotini, urf-odatlari va, ayniqsa, o'zligini unutib qo'yish darajasigacha yetib keldi.

Markaziy hukumat tomonidan joriy etilgan yangicha siyosat natijasida Janubiy Turkiston (Shimoliy Afg'oniston) turklari (o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tatar va boshqalar) o'z ona tillarida o'qish-yozish, ta'lim olish, davlat idoralarida ishlash, uydan tashqarida o'z ona tillarida gapirish huquqidan butunlay mahrum etildi. Yerli aholi farzandlari maktablarda pushtu tilida dars o'qishga majbur qilindi. Bu ishni amalga oshirish uchun janubdan Pushtun o'qituvchilari jalb etildi. Yoshligida ushbu vaziyatni guvohi bo'lgan Turdiqul Maymanagiy (1936-yil tug'ilgan, hozirda Shvetsi-

yada istiqomat qiladi)ning aytishicha, pushtu tilida yozilgan maktab darsliklarini o‘qish mahalliy turk (turkiyzabon) bolalar uchun nafaqat katta qiyinchilik tug‘dirgan, balki mahalliy o‘qituvchilarni ham og‘ir vaziyatga solgan.

Maymanagiy, AQSHda tahsil olgan Foryob viloyati maorif idorasi boshlig‘i Ahmad Ziyo Taxxoriy (1960-yillar) so‘zlariga tayanib ta’kidlashicha, Foryob viloyati (markazi “Maymana” shahri) aholisi vakillari mamlakat maorif tizimiga e’tiroz bildirib, Maorif vaziri (1955-1964) Ali Ahmad Po‘palga “o‘zbeklar mintaqalaridagi maktablarda o‘zbek tilida dars o‘qitilishi kerak”, deya ariza yozganlarida, Maorif vaziri Po‘pal ularning arizasi ostiga “o‘zbek tilida maktab o‘qishni istaganlar O‘zbekistonga ketsinlar”, – deb javob yozgan. O‘sha paytda markaziy hukumatning bu siyosatiga nafaqat o‘zbeklar, balki tojiklar, qolaversa, ayrim pushtun mutaxassislari ham e’tiroz bildirishgan. Jumladan, Muhammadzaiy qabilasiga mansub Najibullo Tur Vayon Kobulda bir maqola nashr etib, unda tizimning pushtunlashtirish siyosati mamlakat rivojiga to‘siq bo‘ladi, xalqlar o‘rtasida nizo yaratadi, yaxshisi maktablarda turli tillar o‘qitilishi kerakligini ta’kidlagan edi.

Shu tarzda yillar o‘tib, jamiyatda sekin-asta uyg‘onish paydo bo‘lib, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi. Natijada o‘zbeklardan ham mamlakat “Milliy majlisi” (Parlamenti)ga millat vakillar saylana boshlanadi. Shundan so‘ng millat vakillari orqali o‘zbeklarning madaniy huquqlarini ta’minlash xususida hukumatga ayrim muayyan takliflar beriladi. Ko‘p o‘tmay mamlakatda siyosiy partiyalar tashkil etila boshlanadi (1960-yillar). Afg‘oniston Xalq Demokratik partiyasining nashri “Xalq” jaridasining (haftanomasining) 1965-yil uchinchi va beshinchi sonlarida ilk bor o‘zbek tilida chop etilgan ikkita she’r mamlakat o‘zbeklari tomonidan iliq kutib olindi. Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy qalamiga mansub bu she’rlardan biri “Yangi yo‘l” va yana biri “Yangi zamon taronasi” she’rlari bo‘lib, muallifning ta’kidlashicha, o‘sha paytda Kobul universitetida tahsil olayotgan o‘zbek talabalari ushbu she’rlarni o‘qishda qiynalganlar hatto ayrimlari bu she’rlar qaysi tilda yozilganini bilishmagan. Ko‘p o‘tmay xuddi shu gazetada turkman shoiri O‘roz Muhammad Farning turkmancha bir she’ri nashr etilganda turkmanlar ham o‘z tillarida bosilgan bu she’rni o‘qishda ojizlik qilishgan. Chunki bu davrga kelib pushtunlashtirish siyosati natijasida o‘z tili va adabiyotidan uzoqlashib qolgan mahalliy Janubiy Turkiston (Shimoliy Afg‘oniston) aholisi farzandlari uchun o‘z ona tillari begona tilga aylanib qolgan bo‘lgan.

Navoiy ijodiga badiiy munosabat

Shimoliy Afg‘oniston viloyatlarida mahalliy o‘zbeklar qadimdan yashab kelmoqda. Ular o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analarini bugunga qadar davom ettirmoqda. Temuriylar davrida o‘zbek mumtoz adabiyoti Alisher Navoiy ijodi misolida o‘zining cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi.

Bu o‘lkaning bir xususiyati bor. Afg‘onistonda Navoiy davri an’analari hozirga qadar davom etadi. Yoshu qari hamma she’r yozadi yoki yoddan ko‘p she’r biladi. O‘z nutqini she’r bilan bezaydi, fikrini Sharq mumtoz adabiyoti vakili qarashlari, she’rlaridan parcha keltirish bilan asoslashga o‘rgangan. Chunki Afg‘oniston maktablaridagi ta’lim sistemasida, o‘rta asr musulmon sharqida bo‘lganidek, she’rning o‘rni katta. Shu bois bu yurt shoirlari she’r yozadi, she’r yozar ekan, Alisher Navoiyga o‘xshashga intiladi. Navoiy she’rlariga nazira bog‘laydi, ergashadi. Buning natijasi o‘laroq, Afg‘onistondagi o‘zbek ziyolilari Navoiyni ko‘p va xo‘b yodlaydi. Mana shunday Navoiy yo‘lidan ketgan shoirlar qatorida Domla Bedil, Muhammad Olim Labib, Mir Muhammad Amin Qurbat, Muhammad Amin Matin Andko‘yi, Muhammad Yahyo Hafiziy Juzjoniy, Zikrilla Ishonch, G‘ulomsahiy Vakilzoda kabilarni eslash mumkin. Afg‘onistonlik o‘zbek shoirlarining Alisher Navoiy she’rlariga muxammaslari, javoblari va ergashib yozilgan she’rlarining o‘zigina to‘plansa, bitta katta kitob bo‘la oladi.

Umuman olganda, Afg‘onistonda mumtoz adabiyot janr va uslubida she’r yozish an’anasi

ancha kuchli. Alisher Navoiyning mangu g‘azaliga naziralar, muvashshahlar yozgan hamda bir qator g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan Afg‘oniston o‘zbek shoirlari, jumladan: Muhammad Olim Labib, Jaloluddin Qiyomiy, G‘ulomsahiy Vakilzoda, Muhammad Olim Ko‘hkan, Zikrullo Ishonch, Muhammad Amin Uchqun, Sharafuddin Sharaf (Domla Bedil), Ashraf Azimiy, Sirojuddin Qone’ Mahbubullo Turon, Muhammad Hoshim Hamdard, Said Tojiddin Toshqin Bahoiy va boshqalarni tilga olish mumkin. Mazkur ijodkorlar asarlaridan ayrimlari she’r to‘plamlarda, ba’zilari esa gazeta-jurnallarda va ijtimoiy tarmoqlarda nashr etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Abdullayev A. XX asr Afg‘oniston o‘zbek adabiyoti (O‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2003.*
2. *Abdusamatov M. O‘zbekiston sharqshunoslari: bibliografik ocherk. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.*
3. *Alisher Navoiy. Oqqo‘yunli muxlislar devoni. Nashrga tayyorlovchilar A.Erkinov, R. Jabborov. – Toshkent: Sharq, 2020.*
4. *Tursunov Yu. Navoiyning hayot yo‘llari. Zabarjad media. – Toshkent, 2023.*
5. *Juzjoniy A.Sh. Afg‘onistonda navoiyshunoslik / Navoiyga armug‘on. (Oltinchi kitob). – Toshkent, 2010.*
6. *Barlas K. Afganistan Türkleri Edebiyatı // Türk Dünyası El Kitabı. C. 3, 2.bs. – Ankara, 1992.*
7. *Labib S.M.O., Nadim M.H. Alisher Navoiyning Xurosonda qoldirgan izlari va adabiy an’anasining davomi // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. 2023.*
8. *Abdulali Nur Ahroriy. Amir Alisher Navoiy. – Hirot, 1393/2014.*
9. *Abdulloh Korgar. Amiri donishmand (Nizomiddin Alisher Navoiy). – Peshovar, 1383/2004.*
10. *Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy // Amir Alisher Navoiy ijodi va fikrlari miqyosi haqida mulohaza (to‘plam). – Kobul 1994, 14-son.*
11. *Ayomuddin Ajmal. Hirot viloyati tarixiy yodgorliklari tadqiqoti. – Hirot, 2008.*
12. *Azizullah Aral. O‘zbek va turkman tillarining rasmiy maqomi // “Unutilmas maqolalar” to‘plami. – Kobul, 2020 yil.*
13. *Azizullah Aral. O‘zbek tilining milliy kuni // “29 Mezon” maqolalar to‘plami. – Kobul, 2019 yil.*
14. *Akram Qizg‘in. Ulug‘ bobom Navoiy // Yulduz. 1983 yil, 8-son.*
15. *Amir Alisher Navoiy* ديوان فاني، *Devoni Foniy. – Kobul, 2016.*
16. *Amir Alisheri Navoiy – Foniy. Mushtamil bar sharhi zindagiy, osori umroniy, malfuzot va namunai nazmu nasri u. Ba ko‘shishi Muhammad Ya’qub Vohidiy Juzjoniy. – Kobul, 1346/1967 (dariy tilidagi kitob).*
17. *Atoiy, Muhammad Ibrohim. “Overviyew of Afghanistan’s History”. – Kabul, 2005.*

ABDUMAJID MADRAIMOV,
tarix fanlari doktori, professor

ALISHER NAVOIYNING "MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASIDAGI AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi Amir Temur va temuriylarga oid ma'lumotlar tarixiy jihatdan tahlil qilingan. Ayrim "Xamsa", xususan, "Hayrat-ul-abror", "Farhod va Shirin" va "Saddi Iskandariy" dostonidagi ma'lumotlar zarurat yuzasidan foydalanildi. Bu qimmatli ma'lumotlar temuriylar tarixi va san'ati rivojini o'rganishda ham muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Mirzo, tazkira, podshoh, she'r, shoir, tarix.*

Abstract: *In this article, the information about Amir Temur and Timurids in Alisher Navoi's work "Majolis un-nafois" is analyzed historically. Information from some "Khamsa", especially "Hayrat ul-Abror", "Farhad and Shirin" and "Saddi Iskandari" epics, was used out of necessity. This valuable information also plays an important role in the study of the development of the history and art of the Timurids.*

Keywords: *Amir Temur, Mirza Ulughbek, Sultan Husayn Mirza, tazkira, king, poem, poet, history.*

Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois" (Nafis majlislar) tazkirasi sakkiz majlisdan iborat bo'lib, ularda jami 459 ta ijodkorlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shoir o'z asarini 1490-1491 yillarda yaratib, keyinchalik 1497-1498 yillari qayta ishlagan[1.310-312].

Ushbu maqolani yozishdan maqsad, tazkirada nomlari keltirilgan Amir Temur va Temuriyzodalarning xalqimiz madaniyati tarixida tutgan o'rnini tadqiq etishdan iborat. Shuni ta'kidlash zarurki, Alisher Navoiyning so'zlariga qaraganda uning "Vaqfiya" asarida yozishicha, "ota va abukim ul hazrat (Sulton Husayn Mirzo)ning obo va ajdodi xizmatlarida" bo'lgan edi [2.638]. Shuning uchun shoirning tazkirasining 7 va 8 majlislarida mavjud Amir Temur va boshqa temuriyzodalar, xususan Sulton Husayn Mirzo va o'g'illari to'g'risidagi ma'lumotlar o'zining ishonchliligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi, deyish mumkin.

Tazkiraning yettinchi majlisi "Salotin izom va avlodi vojib ul ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xo'b bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat o'zlari aytqondek xo'bdur va ba'zi nazm latofatida mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i matlub v marg'ubdur" deb nomlanib, Amir Temur va Temuriylardan podshoh bo'lgan 20ta shaxslar va ular avlodining she'riyatga munosabati bayon qilingan [3.411].

Alisher Navoiy birinchi bo'lib, Amir Temurning nomini "Muluk shajaralarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni Temur Ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni xo'b mahal va mavqe'da o'qubtur-

larkim, aningdek bir bayt o‘qug‘oni ming yaxshi bayt aytmoqcha bor” – deb eslatadi. Shoir yozadi: “Tabarruk haysiyatidinkim, ul-Hazratning muborak ismi bu muxtasar (tazkira) da bo‘lg‘ay va ul latofatdin biri bila ihtisor qililur”[3.411].

So‘ngra o‘sha davrda mashhur bo‘lgan bir hikoyatni keltiradi: “Mundoq naql qiladurlarkim, chun Tabrizda Mironshoh Mirzo chog‘irg‘a ko‘p ishtig‘ol ko‘rguzdi. Dimog‘i va mijozi e’tidol tariqidin inhirof topib, andin nomuloyim amr ko‘p surat tuta boshladi. Qamakyandda ul hazrat arzig‘a bu nav’ yetkurdilarkim,uch nadimi borkim, mufrit chog‘ir ichmakka bois alardurlar. Hukm bo‘ldikim, tavochi miod bila chopib borib uchchalasini boshini keltursin. Alardin biri Xoja Abdulqodir erdi va yana biri Mavlono Muhammad Kohiy yerdi va yana biri ustod Qutb Noyi erdi. Tavochi borib ikkinchisini yasoqqa yetkurdi. Ammo Xoja Abdulqodir qochib qalandar bo‘lib, o‘zin devonaliqqa solib mulkdin-mulkka mutavori yururerdi, to ulkim, ul hazrat yana Iroq yurishiqldi. Ul mamolikda Xojaning ul holi ba’zig‘a ma’lum bo‘lab, yuqori arz qildilar. Hukm bo‘ldikim, tutbi keltursinlar. Ul hazrat taxtda erdilarkim, Xojai faqirni devonaliqqa qo‘ymay, sudrab taxt ilayig‘a kelturdilar. Andin burunkim, siyosat hukm bo‘lg‘ay, chun Xojaning kamolotidin biri Qur’on hifzi va qiroat erdi, filhol biyik un bila Qur’on o‘qimoq bunyod qildikim, ul Hazratning g‘azabi lutfg‘a mubaddal bo‘lub fazl va kamol ahli sori boqib, bu misrani ba vaqt o‘qidikim:

Abdol zi biym chang bar mus’haf zad.

(Tarjimasi: Darvesh qo‘rqqanidan Mus’haf (Qur’on)ga chang soldi).

Andin co‘ngra Xojag‘a iltifot va tarbiyat qilib, o‘z oliy majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar balki qarnlarda mundoq latif so‘z voqe’ bo‘lmas”[3.411].

Hikoyatni Alisher Navoiy shunday xulosalaydi: “To olam ahli bilg‘aylarkim, Sulton sohibqirong‘akim, majolisda paydarpay xub abyot va yaxshi so‘zlar darmahal voqe’ bo‘lur dag‘i mavrusiydurkim, nisbatin ul jaddi buzurgvorg‘a tuzaturkim, ul birining makoni ravzai jinon va bu biri jahon mulkida jovidon bo‘lsun[3.411]!”

Ushbu keltirilgan lavha Alisher Navoiy yashagan davrda o‘z davri mohir musavviri Qosim Ali Chehrakushoy va keyinroq ismi noma’lum Boburiylar rassomi tomonidan tasviriy san’at asarini yaratishga asos bo‘lgan[4.375].

Amir Temur nomi va uning hayoti bilan bog‘liq yana bir voqea “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat-ul-abror” hamda uning nomi keyincha “Farhod va Shirin” dostonida Mirzo Ulug‘bek faoliyatini eslatish munosabati bilan zikr qilingan edi[5.330].

“Hayrat-ul-abror” dostonining sakkizinchi maqolati “Vafo bobi”ning ilova hikoyasi “Ikki vafoliq yor bir-birisi vafosig‘a boshlaridin kechgani va alar barakatidin yuz ming bosh qilichdin va qilich qindin qutulgani, balki qinga tushgani” sarlavhasi ostida Amir Temurning Hindistonga yurishi vaqtida sodir bo‘lgan voqea shunday bayon qiligan:

“Andoq eshittimkim shahi komron,
To‘rt ulus xoni Temur Ko‘ragon.
Fathi aqolimg‘a qilg‘onda azm,
Hind savodida qattiq bo‘ldi razm.
Fath ila nusrat chu anga berdi dast,
Charx aduv qalbig‘a soldishikast.
Chunki aduv kufr eli erdi tamom,
Bek dedikim qilsun ulus qatliom...
Ushbu mahalda ikki bechora yor,
Bo‘ldi qitol ahlig‘a nogah duchor.
Tushti sipohi birisin chopqali,

Shoh yosoqidin amon topqali.
Qatl ishiga chun yonidin chekti tig‘,
Boshin aning chopmoq uchun bedarig‘.
Ko‘rdi chu tig‘ ostida qo‘ldoshini,
Yori shafi’ o‘ldi ochib boshini.
Kim sanga maqsud agar bosh erur,
Qo‘y ani, bu bosh anga podosh erur.
Chun anga yuzlandi qo‘yub yorini,
Yori ham etti bu so‘z izhorini.
Qaysig‘a aylay desa ul zulm fosh,
Yori qo‘yar erdi ayog‘ig‘a bosh.
Tund bo‘lub qotili po‘lod chang,
Dedi: Ikkingizni chopay bedarang.
Qay birining qatlig‘a qilg‘ay shitob,
Yona biri aylar edi, iztirob.
Kim meni qatl ayla burun tez bo‘l,
Toki men o‘lguncha tirik bo‘lsin ul.
Bazl qilurlar edi bir-birga bosh,
Boshlarig‘a itg‘ uchun erdi talosh.
Maks edi bu nav’ aroda bir zamon,
Kim el aro tushti nido al-amon.
Bir-birig‘a kechti alar jonidin,
Shoh dog‘i kechti ulus qonidin”.
Shoirning xulosasiga ko‘ra:
“Fosh etib ul sidqu madavvat xavos,
Ham elu, ham o‘zlari bo‘ldi xalos”[5. 83-84].

Ushbu tarixiy voqea ikki rasmda, biri Hirotda va ikkinchisi Hindistonda boburiylar saroyida tasvirlangan[4. 148-150]. Lekin yuqoridagi holatlar G‘iyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy asarlarida e’tiborga olinmagan ko‘rinadi.

Amir Temur o‘z davrida madaniyatga, memorchilik, tarix ilmi, kitobat va rasm san’atiga katta e’tibor bergani ma’lum. Uning saroyida memor va naqqosh Muhammad Yusuf, olim, xattot va musvvir xoja Abduqodir Go‘yanda, sangtarosh Oltun, chapdast xatoto Umar O‘qta, rassomlar Abdulhay naqqosh, Pirmuhammad Bog‘ishamoliy kabilar ijod etgan[6. b.23,25-31].

Amir Temur vafot etganda esa, Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida xabar berilishacha, o‘z davri yirik shoiri Xoja Ismatulloh Buxoriy marsiya yozgan ekan. Unda shunday satrlar bor:

Bo‘z chodiring falakkim, Sulton o‘ldi g‘oyib,
Tun ichra erdi chun moh bobon o‘ldi g‘oyib.

Yoruq jahon quyoshi, islom elining boshi,
Din erdi ko‘p taloshi, dayyon o‘ldi g‘oyib.

Olamni qildi darbor, Sohibqiron Sikandar,
Soniy demish eronlar, yuron o‘ldi g‘oyib.

Din erdi justijo‘yi, shar’iy edi guftigo‘yi,
Millatni obro‘si, burxon o‘ldi g‘oyib.

No‘shirvondek odil, ham olim erdi, fozil,
Har ishda aqli komil, farzon o‘ldi g‘oyib.

Davlatda kim Sulaymon, fitratda chun Falotun,
Hikmatda erdi go‘yo Luqmon o‘ldi g‘oyib.

Ehsonda misli Hotam, shavkatda erdi chun Jam,
Zo‘rlikda ham chu Rustam, pahlavon o‘ldi g‘oyib.

G‘ayratda misli arslon, dasht ichra yoki qoplon,
Bahra nahang u sa’bon, shujobon o‘ldi g‘oyib.

Farzandi ahli no‘yon, To‘rag‘ay bahodur o‘g‘li,
Sayyid Amir Temurxon Ko‘ragon o‘ldi g‘oyib”[7.184].

Ushbu marsiyada shoir Amir Temurni “Sulton”, “Mohi tobon”, “Yorug‘ jahon quyoshi”, “islom elining boshi”, “Din erdi ko‘p taloshi”, “Olamni qildi darbo”, “Sohibqiron”, “Iskandar soniy” – “Ikkinchi Iskandar”, “millatni obro‘si”, “No‘shiravondek odil, ham olim erdi, fozil”, “Har ishda qali komil”, “Davlatda kim Sulaymon”, “Fitratda chun Falotun”, “Hikmatda erdi go‘yo Luqmon”, “Ehsonda misli Hotam”, “shavkatda erdi chun Jam”, “zo‘rlikda ham chu Rustam, pahlavon”, “g‘ayratda misli arslon”, “Dasht ichra yoki qoplon”, “Bahra nahangu sa’bon, shujobon” kabi sifatlar bilan ta’riflab, “Farzandi ahli no‘yong, To‘ragay bahodur o‘g‘li Sayyid Amir Temurxon Ko‘ragon o‘ldi g‘oyib” – deb xulosalaydi[8.2-3].

Ushbu marsiyani yirik adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov o‘z tadqiqotida eslatib o‘tgan[7.184].

Tazkirada ikkinchi bo‘lib, Shohrux Mirzo nomi quyidagicha zikr qilinadi: “Xoqoni sa’id Shohrux Mirzokim, avlodi va amjod orasida sohibqiron otasining qoyim maqom bo‘ldi. Ham nazmg‘a mashg‘ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so‘zlar ko‘p ul hazratdin ham voqe’ bo‘lur erdi. Muni ham bir naql bila ixtisor qilulur. Bu faqiri haqir Bobur Sulton muborak tilidin mundoq eshittimkim, bir majlisda akobir sari boqib Shohrux Mirzodin naql qildilarkim, ustod Quvomiddin me’morg‘a bir imorat jihatidin e’tiroz qilib, bir yil mulozimatdin mahrum ekondur. Yil boshida taqvim istixroj qilib bu vasila bila shoyad Mirzoning muborak diydorin ko‘ra olg‘aymen deb eshikka kelib, sudurni vosita qilib, oni sudur ko‘rguzub taqvimin arz qilibturlar. Mirzo tabassum qilib bu baytni o‘qubdurlarkim:

Tu kori zaminro naku soxti -
Ki, ba osmon niz pardoxti.
(Tarjimasi: Sen yerni ishini yaxshi bajarib endi osmon ishiga kirishding).
Aningdek otadin mundoq o‘g‘il hech ajab ermas”[3.412].

Amir Temurga bag‘ishlab marsiya yozgan shoir Xoja Ismatulloh Buxoriy “Dar bori Shohrux Mirzo Ko‘ragoniy” nomli 44 baytdan iborat qasida yozgani ma’lum [8.2-3].

Tazkirada nomi uchinchi bo‘lib, Amir Temurning nabirasi Abu Bakr Mirzo (ibn Mironshoh bo‘lsa kerak) zikr qilingan: “Abubakr Mirzo – nabira bo‘lur [9.166]. Bahodirlig‘i va qilichi zarbi

Chig‘atoy ulusida mashhurdur. Chun ta’bida nazm choshnisi bor yermish. Hamul bahodurlig‘ tavrida bu tuyuq andin mashhurdurkim:

Er kerak o‘rtansa, yonsa yolina,
Yora yeb yutsa otining yolina.
It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq
Er otonib dushmanig‘a yolina.
Agarchi ba’zi alfozi turkonaroqdur, ammo tajnisini yaxshi topibdur” [3.412].

To‘rtinchi nomi zikr etilgan shaxs bu “Sulton Iskandar Sheroziy (ibn Umarshayx Mirzo) ham nabiradur [10.82]. Saltanat tajammulini derlarkim, salotindin o‘zi oncha qilmish bo‘lg‘ay. Yetti yo sakkiz yilliq saltanatida go‘yoki uch ganj topibdur. Mavlono Haydar turkigo‘y, aning maddohi ekandur. Bu aning masnaviysidindurkim:

Himmat elidur yadi bayzo degon,
Er nafasidur dami Iso degan.

Va Sulton Iskandarni derlarkim, tab’i nazm erdi. Va bu tuyuqni andin naql qilurlarkim:

To‘lin oyga nisbat yettim yorimi,
Ul xijolatdin kam o‘ldi yorimi.
Tori muyingning zakotin men beray,
Yo Misrni, yo Halabni yo Rumi.
Burung‘i tuyuqdin bu turkonaroqdur”[3.412].

Ushbu majlisda nomi va ijodi yoritilgan beshinchi shaxs Xalil Sulton ibn Mironshoh (1384, hukmronligi 1405-1409, 1411) bo‘lib, uning to‘g‘risida Alisher Navoiy quyidagilarni yozgan: “Hazrat sulton sohibqironning voqeasi (vafoti)din so‘ngra Samarqand taxtida saltanat qildi. Zurafo va shuaro majlisida bo‘lurlar erdi. Mashhurdurkim, o‘zi she’r aytur erdi. Andoqkim, devoni ta’rifida Xoja Ismatulloh qasida aytibdur, ammo tilab topilmadi, ushbu matladin o‘zgakim:

Ey turki pari paykarimiz, tarki jafo qil,
Komi dilimiz, la’li ravonbaxsh ravo qil” [3.413].

Zamonaviy tadqiqotchilarni aniqlashicha, Xoja Ismatulloh Buxoriy shahzoda Xalil Sultonning she’riyatdagi ustozi bo‘lib, unga o‘ttiz beshta qasida bag‘ishlagan ekan [8.2-3].

Alisher Navoiy nomini zikr qilgan oltinchi Temuriyzoda Ulubek Mirzo ibn Shohrux Mirzo(1394-1449)dir. Uning to‘g‘risida: “donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur’oni majid yodida erdi. Hay’at va riyoziyni xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji aroda shoe’dur. Bovujudi bu kamolot gohi nazmg‘a mayl qilur. Bu matla’ aningdurkim:

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,
Sho‘xi makunki, chashmi badon dar kamini tust”[3.413]
(Tarjimasi: Go‘zallik mulki qanchalik qo‘l ostingda bo‘lsa-da, sho‘xlik qilmagilki, yomonlarning ko‘zi seni kuzatmoqdalar.).

Xoja Ismatulloh Buxoriy Ulug‘bek Mirzoga 13ta qasida bag‘ishlagan ekan. Ulardan birini Zahiriddin Muhammad Bobur “Xoja Ismat Buxoriy Ulug‘bek Mirzo otig‘a ... bir purkor qasida tugatibtur,” deb, uning matla’ini keltirgan:

“Zihi du chashmat ba xuni mardum kushoda tiru kashida xanjar,
Ruxi chu mohat sabohi davlat, xati siyohat shabi muanbar.
Shibhi Sulaymon chashmi Ulug‘bek, imomi barhaq, valiyi mutlaq,
Ba tan tahamtan ba yad muayyad, ba dil mujohid, ba gir gazanfar.
Sipehr bog‘in nujumi vardi chu qildi ul nav’kim Xovarnaq,
Nuridin ul sham’ ichra soldi nur ming safou ravnaq” [11.52].

Alisher Navoiy Ulug‘bek Mirzoni “Farhod va Shirin” dostonidagi shahzoda Shohg‘arib Mirzo madhiyasida nasihat qilib yozgan edi:

“Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Valek ul, ilm sori chun dast,
Ko‘zi olinda bo‘ldi, osmon past.
Rasadkim bog‘lamish zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy” [5.330-331].

Tazkirada nomi oltinchi bo‘lib eslatilgan Temuriyzoda Boysung‘ur Mirzo ibn Shohrux bo‘lib, uni shunday zikri keltirilgan: “xushta’b va sahiy va ayyosh va hunarparvar podshoh erdi. Xattot va naqqosh va sozanda va go‘yandadin muncha benazir kishikim, aning tarbiyatidin arog‘a kirdi, ma’lum emaskim, hech podshoh zamonida bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ulcha imkoni bor, olamni xushluq bila o‘tkardi. Derlarkim, bu matla’ aningdurkim:

Nadidam on du rux, aknun du moh ast,
Vale mehrash base bar joni mo hast.
(Tarjimasi: U ikki go‘zal ko‘rmaganimga ikki oy bo‘ldi, biroq mehri jonimdadur.)

Taxallusi budurkim:
G‘ulomi ro‘i u shud Boysung‘ur,
G‘ulomi xubro‘yon podshoh ast”
(Tarjimasi: Boysung‘ur uning yuziga qul bo‘ldi. Go‘zal yuzlilarning quli -podshohdir) [3.413].

Yuqorida Alisher Navoiy ta’kidlagandek, Boysung‘ur Mirzogacha u kabi homiy bo‘lmagan, Hirotda katta kutubxonaga asos solgan, unda qirqta xattot va yetmish beshta rassom ijod qilgan, u Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asari matnini mukammal qilishga intilgan, Amir Xusrav Dehlaviy merosini yig‘ishga harakat qilgan, kutubxonada “Kalila va Dimna” va boshqa asarlar qo‘lyozmalariga rasmlar chizdirgan, birinchi muraqqa’ni tuzgan shaxs sifatida nomi madaniyat, kitobat va rasm san’ati tarixida qoldi [12].

Alisher Navoiy yettinchi nomini keltirgan podshoh Abulqosim Bobur Mirzo (1422-1457) ibn Boysung‘urdir: “Darveshvash va foniy sifat va karim ul-axloq kishi erdi. Himmati ollida oltunning dag‘i kumushning tosh va tufroqcha hisobi yo‘q erdi. Tasavvuf risolalaridin “Lama’ot” [arabcha: shu’lalar (birligi lam’a –yolqin, shu’la, ravshanlik] bila “Gulshani roz” Mahmud Shabistariyning nazmda yozilgan tasavvufga oid asari]ga ko‘p mash’uf erdi. Tab’i dag‘i nazmg‘a muloyim erdi. Bu ruboiy aningdurkim:

Chun bodavu jomro baham payvasti,
Medon ba yaqinki, rindi bolo dasti,
Jomast shariatu, haqiqat boda
Chun jom shikasti, ba yaqin badmasti.
(Tarjimasi: May bilan qadahni birlashtirganing uchun, aniq bilgilki, qo‘li baland rindsan. Qadah – shariatdir, may – haqiqatdir. Qadahni sindirganingdan ayonki, badmastdirsan.).

Agarchi turkcha nazmlar ham aytur erdikim, barchaga qabul erdi. Ammo u bayt ham aningdurkim:

Necha yuzung ko‘rub hayron o‘layin,
Ilohi, men sanga qurbon o‘layin [3.413-414].

Abdullatif Mirzo (1428-1450) ibn Ulug‘bek Mirzo to‘qqizinchi bo‘lib zikr qilingan: “Savdoyi mizoj va vasvasiy tab’ va devonasor kishi erdi. Mundin o‘zga dag‘i g‘arib badfe’lliqlari bor erdikim, zikrdin behijobliq lozim kelur. O‘tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasini o‘ldurdi. Har oyinakim, saltanat Shiruyaga vafo qilmag‘oncha anga qildi. Ammo tab’i nazmi bor erdi va she’rni obodon aytur erdi. Bu matla’ aningdurkim:

Bar dilu jon sad balo az yak nazar ovard chashm,
Chun biguyam shukri in, yo Rab, nabinad dard chashm”.
(Tarjimasi: Ko‘z bir qarash bilan dil va jonga yuz balo kelturdi. Buning shukrini nechuk qilay? Yo Rab, ul ko‘z dard ko‘rmagay!) [3.414].

Tazkirada 10 va 11 bo‘lib, Ozarbayjonlik podshohzodalar Jahonshoh va Yoqub Mirzo zikri keltirilgan [3.414].

Temuriyzodalardan Saydi Ahmad Mirzo ibn Umarshayx Mirzo nomi 12 bo‘lib zikr qilingan: “Salim tab’ va pok zehn kishi erdi. Xili mashhur nazmlari bor. Ham g‘azal, ham masnaviy, ham turkiy, ham forsiy g‘azal tavrida devoni bor. Va masnaviy tavrida “Latofatnoma” aningdur. Bu turkcha matlai yaxshi voqe’ bo‘lubturkim:

Sayd etti qaroqing meni mipg‘i sahariydek,
Qil odamiyliq, qilma nihon yuzni paridek.
Bu forsiy matla’ ham aningdurkim:
Maham gar pesh az in pinhon bimonand,
Ajab, gar bedilonro jon bimonand”.
(Tarjimasi: agar oy (yuzligim) bundan keyin (ham) pinhon qoladigan bo‘lsa, bedillarning omon qolishi ajablanarlidir) [3.414].

Yana bir 13 temuriyzoda “Sulton Ahmad Mirzo – darveshvash, yaxshi axloqlik, odamiysheva kishidir. Ota jonibidin xushta’bliq mavrusiydur. Yillar Xuroson taxtida hukumat qildikim, hech kishi andin shikoyat qilmadi va ta’n etmadi. Va Sultoni sohibqirong‘a ota masobasidur va ikki devon ixtiyori va mulki mol mushoru ilayi va sipohi va cherik mutamaddin alayhi uldur va gohi nazm ham aytur. Bu bayt aningdurkim:

Sen kibi sho‘xi sitamgar dunyoda paydo qani,
Sehr bobida ko‘zungdek kofiri yag‘mo qani” [3.414-415].

14 temuriyzoda Boyqaro Mirzo (1430-1502) zikri: “Bovujud ulkim, Sulton Sohibqironning tuqqon og‘asi erdi. Yillar Balx (qubbat ul-islom)da saltanat qildi. Va lekin shikasta nafsliq va kichik ko‘ngilluk, tavoze va ta’zimliq kishi erdi va xaqshunoslig‘i a’lo martabada erdi. Bu matla’ aningdurkim:

Zihi tajallii husni tu dar jahon paydo,
Va z-in tajallii u gashta joni mo paydo”.
(Tarjimasi: Na go‘zalki, husnning jilosi jahonga yoyildi,
Uning bu jilvasi tufayli bizning jonimiz shaydo bo‘ldi) [3.415].

15 shahzoda Kichik Mirzo nomi bilan zikr qilingan, asli ismi Sulton Muhammad (Sulton Husayn Mirzo jiyani) bo‘lib, u shunday zikr qilingan: “Xub tab’liq, tez idrokliq, sho‘x zehnlik, qaviy hofizaliq yigit erdi. Oz fursatta yaxshi tolibi ilm bo‘ldi va ko‘proq ulum va funundin o‘z mutaolasi bilan vuquf hosil qildi. She’r va muammoni xub anglar erdi, balki ko‘ngli tilasa ayta olur erdi. Bovujudi bu fazoyil darveshliqlarga moyil bo‘lub, Makka ziyorati sharafig‘a musharraf bo‘ldi. Ammo bag‘oyat mustag‘ni kishi erdi. Bo‘la olurkim, faqr istig‘nosi erkan bo‘lg‘ay. Bu ruboiy aningdurkim:

Umre basaloh mesutudam xudro,
Dar shevai zuhd menamudam xudro.
Chun ishq omad kadom zuhdu chi saloh,
Alminnatulloh, ozmudam xudro”
(Tarjimasi: O‘zimni umr bo‘yi yaxshilik bilan maqtardim, o‘zimni taqvodorlik yo‘liga solardim; Ishq kelgach, na taqvodorlik qoldi va na yaxshilik. Xudoga shukrki, o‘zimni sinadim).

Ba’zi derlarkim, bu ruboiy Hazrat Maxdumiy Nuran (Abdurahmon Jomiy) bila tavorud bo‘lubtur. Andoq dag‘i bo‘lsa ulug‘ davlat turur” [3.415].

Alisher Navoiy 16 navbatda shahzoda Sulton Badiuzzamon Mirzo zikrini keltirgan: “Ham husni surat va husni siyrat bila orasta va jamoli zohiriy va kamoli botiniy bila pirosta yigitdur. Razm atovridin otar-tutarda dilpisand va bazm asbobidin ichmak va bag‘ishlamoqda bemonand. Tab’i ham nazm uslubida muloyimdur. Bu matla’ aningdurkim:

Mahi man, be guli ro‘yat dilam xun gashta chun lola,
Jigar ham az g‘ami hajrat shuda pargola-pargola
(Tarjimasi: Ey oy “yuzli go‘zalim”, gul yuzingsiz yuragim loladek qon bog‘ladi. Jigar ham hajring g‘amidin pora-pora bo‘ldi).

Bu turkiy matla' dag'i tarkibda xub va holatda marg'ub voqe' bo'lubturkim:
Ey sabo, gar so'rsa holim shammai ul-sarvinoz,
Yevrulub boshig'a men sargashtadin yetkur niyoz" [3.415].

Sulton Badiuzzamon Mirzo otasi Sulton Husaynning katta farzandi bo'lgani uchun valiahd sifatida Alisher Navoiy unga katta umid bog'lagan edi. "Hayrat ul-abror" dostonining yigirmanchi maqolatida "Ul maqsud adosidakim, agarchi bu latoyif majmuasi safinae durur, zaroyif safinasi tuhafidin mashhur va va bu zaroyif safinasi junge durur favoidi laolisi anda gunogun. Va lekin chun tab' daryosdin avval sohilg'a kelgan nafoyis durur va zihi shabistonidin avval jilvai zuhur qilg'on aroyis, bu jihatdin Sulton Badiuzzamon bahodir doma hayotuhu ayoqig'akim, saltanat bog'chasining avvalg'i vardi va xilofat chamanining burun qad chekkan sarvi noz parvardi durur, nisor qilildi va aqd izdivojig'a tortildikim, bu nasoyih ko'nglida qolg'ay va bu javohirni qulog'ig'a olg'ay" degan umid bilan shahzodaga madh va nasihat yozgan edi [5;135-139]. Ularga ilova sifatida Muhammad Porsoning Makkada ziyoratchilarga duo qilishni o'z o'g'li Xoja Abu Nasrga topshirganini misol, ibrat sifatida keltirgan [5. 644-645].

17 shahzoda sifatida Shoh G'arib Mirzo nomi zikr qilingan: "Sho'x tab'lig' va mutasarrif zehnlik va nozuk taxayyulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda ma'dum va mutaxayyila va hofizada adili noma'lum. Ov va qush xotirig'a marg'ub va qurro va o'qush ko'ngliga mahbub. Bu matla' aningdurkim:

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor?
Bu matla' ham yaxshi voqe' bo'lubturkim:
Tarki mehr aylab agarchi bo'ldi jonon o'zgacha,
To tirikman qilmag'umdur ahdi paymon o'zgacha.
Bu matla' ham xos xayol va g'arib ado topibdurkim:
Porso yorimg'a may ichmak shior o'lmish yana,
Baski tortarman sabu, yegnimfigor o'lmish yana.
Bu forsiy matla'i ham bag'oyat oshiqona tushubturkim:
Bozam baloi jon g'ami on mohpora shud,
Ey voy, on marizki dardash du bora shud.
Bu matla'i ham bag'oyat oshiqona va muxlisona voqe' bo'lubturkim:
Do'ston, har gah guzar so'yi mazori man kuned,
Jon takbiram duoi joni yori man kuned.

(Tarjimasi: Do'stlar, goho mozorim tomon kelib turing, Menga fotiha o'qish o'rniga yorimni duoi jonini qiling).

Devon ham jam qilibdur. Yaxshi matla'lari bu muxtasarg'a sig'mas, magar yana bir kitob bitilgay [3;416].

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni oxirida Shoh G'arib Mirzog'a alohida bob bag'ishlab, unga nasixatlar qilgan edi [5. 330-331].

Navbatdagi 18 Temuriy shahzoda Faridun Husayn Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzo zikri o'rin olgan: "Faridun nasabliq va Husayn nasabliq. Zoti ta'zim va viqorlig' va xulqi adab va hurmat shiorliq, yoy kuchida yagona va o'q otarda zamona ahlig'a nishona. Toat va taqqiyaga moyil. Zikr va tilovatqa mashg'ul yigitdur. Xub tab'i va muloyim zehni bor. Bu matla' aningdurkim:

Garchi dar ko‘i tu pomoli jafo gardidam,
Ba xudo gar sari mo‘e zi vafo gardidam.
(Tarjimasi: Garchi sening ko‘yingda meni jafo yezib yuborgan esa-da, azbaroyi xudo, vafo yo‘lidan qilcha chetga chiqqanim yo‘q).

Bu turkcha matla’ ham aningdurkim:
Ey sabo, yetkur manga sarvi ravonimdin xabar,
Rahm yetib bergil manga oromi jonimdin xabar” [3. 414-416]

Tazkirada nomi zikr qilingan 19 shahzoda Muhammad Husayn Mirzo ibn Sulton Husayn Mirzodir: “Xaloyiq ani adolat va shijoat va saltanatoyinida ko‘p ta’rif qilurlar, ammo ulcha zohir bo‘ldi – bag‘oyat sarkashlik va begonavashlik go‘yo zotida bor. Har taqdir bila derlarkim, bu matla’ aningdurkim va yaxshi tushubdur:

Oludai gardi zi pai saydki, gashti,
G‘arqi araqe bar dili garmki, guzashti.
(Tarjimasi: Ov ketidan yurib, changga botding; haroratli dil ketiga tushib, terga g‘arq botding) [3;417].

Tadqiqotchilar uni Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi fitnalarda, janglarda qatnashgani, lekin qo‘lga tushganda uni kechirib yuborishganini yozishadi. U Boburni g‘aybat qilib yurgan va Muhammad Shayboniyxon yoniga borganda uni qatl qilib yuborishgan ekan [3. 721].

Alisher Navoiy nomini zikr qilgan shahzodalarning 20 Boysung‘ur Mirzo (1477-1499) ibn Sulton Mahmud Mirzodir: “tab’i diqqatliq va zehni javdatliq. Saltanat taxtida faqrpeshlik va makrumat bisotida fanoandeshlik yigitdur. Fazoyil va hunarlarga rog‘ib va fazl ahli taqviyatig‘a murtakib. Nazm oyini dag‘i anga maqbul va gohi ul fikrga tab’ mashg‘ul. Bu matla’ aningdurkim:

Kosh dar ishqi buton devonae boshad kase,
Tarki olam karda dar vayranae boshad kase”.
(Tarjimasi: Koshki edi, sanamlar ishqida biror kim devona bo‘lsa. Olamni tark yetib, vayrona bolsa biror kishi) [3. 417-721].

O‘z og‘a-inilari orasida eng iste’dodli bo‘lgan bu shahzoda o‘z tarbiyachisi amir Xusravshoh tomonidan qatl etilgan [15. 182-183].

Tazkirada nomi zikr qilingan shahzodalardan yana biri Sulton Mas’ud Mirzo ibn Sulton Mahmud Mirzodir: “ravshan zehnlik va mustahsan tab’liq va pokiza xisol va mahmud faol yigitdur. Vafo va diljo‘yliq aning shiori, saxo va darveshxo‘yliq aning atvori. Mulk ravnaq va intizomida axtari mas’ud. Nazm zeb va ziynat itmomida abnoi maqsud. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

Yor borib jonga qo‘ydi bog‘i furqat, ey rafiq,
Ko‘ngluma kor yetmasunmi dardi g‘urbat, ey rafiq?” [3. 417].

Tazkirananing yettinchi majlisi oxirida shahzoda Sulton ali Mirzo ibn Sulton Ahmad Mirzo nomi zikr qilingan: “holo Samarqand mulkida saltanat taxtida mutamakkindur. Derlarki, tab’i nazmg‘a moyildur. Bu matla’ andin naql qilurlarkim:

Vaslida mag‘rur bo‘ldung hajrida zor, ey ko‘ngul,
Ne aning birla, ne onsiz, toqating bor, ey ko‘ngul” [3. 417].

Ushbu majlisni Alisher Navoiy shunday yakunlaydi: “Bu olijanob podshohlar va anjumsipoh falak dastgohlardin avvalg‘i Jamshid va Faridun monand ota bila farzandga so‘nggi avlod va axfod va amjodda falak Jamshid va Faridung‘a ichirganek, ayog‘in ichichrdi va vujud bazmgohidin surdi va adam faromushxonasig‘a kiyurdikim, dunyoda Haq taolo alarni shohi taxtgir qilg‘ondek oxiratda ham muqarrabi dargoh va arshi sarir qilg‘ay. Va alarning mulki taxt va saltanatin va toju sipoh va hashamatin alar vorisi barhaq va mulkka horisi mutlaq, ya’ni Sulton Sohibqirong‘a musallam tutg‘ay va ruhlarining sham’in ham o‘z o‘choqlari shu’lasi bila yoritgay va soyir shahzodalar dag‘i bu davlatdin bahramand va shoh inoyatidin sarbaland bo‘lg‘aylar” [3.417-418].

Tazkiraning sakkizinchi majlisi butunlay Sulton Husayn Mirzo ijodiga bag‘ishlanib, unga quyidagicha sarlavha qo‘yilgan: “Sultoni sohibqironning latif tab’i natoijining zebolari, husn va jamoli zikrida va sharif zehni xasoiyisining ra’nolari ganj va daloli sharhidakim, har qaysi zamon safhasi bo‘stonida ranglig‘ va ravonlig‘din gul’uzoredur sarvqad va har birisi davron arsasi gulistonida ravonlig‘ va ranglikdin sarvi ozodedur, gulxad”.

Asosiy matn shunday boshlanadi: “Saltanat bahrining durri yaktosi va xilofat sipehrining xurshidi jahonorosi, saxovat havosining abri guharbori va shijoat beshasining huzarb sher shikori, adolat chamanining sarvi sarbalandi va muravvat ma’danining gavhari arjumandi, ko‘shish razmgohining Rustami Dostoni va baxshish bazmgohining Xotami zamoni, fasohat ilmining nukta birla sehrsozi va balog‘at jahonining diqqat bila mo‘jiza pardozi – Sulton ul-salotin Ablug‘ozi Sulton Husayn Bahodirxon –

Kim, mulki davomi to qiyomat bo‘lsun,
Zotig‘a bu mulk uzra iqomat bo‘lsun,
Adl ichra tariqi istiqomat bo‘lsun,
Olam ahli uchun salomat bo‘lsun” [3.418].

Shoir davom etib yozadi: “Bu xusravi gardunjohnikim, nasabi bobida sursam yuz ming xon va xoqonni bu juzvi muxtasarda yig‘ishttursa bo‘lurmi? Va bu Doroyi anjumsipohnikim, hasabi sharhida qalam ursam yuz tuman xoqon va qoonning hamida axloqicha so‘zni bu muhaqqar avroqqa yig‘ishtirsa bo‘lurmu? Nasabi bobida fasohatshior yaxshilar “Nasabnoma” [Sulton Husayn Mirzoning shajarasi, tarjimai holi haqidagi asar.] bitibdurlarkim, har safhasi moniy korgohin xijil yetar va hasabi sharhida balog‘atdisor munshiylar tarixe tartib beribdurlarkim, har varaqi Chin nigoristonin munfail aylar. Har kishi ul “Nasabnoma”g‘a boqsa bilg‘aykim, xoqon va roy anga bir turk va bir hindu bandadur. Va har kim, ul tarixni mutaola’ qilsa, anglag‘aykim, Jamshid va Iskandar aning ham bilganlaridin, ham qilganlaridin sharmandadur. Bas chun bu muxtasarda nima ul jins so‘zlardin sug‘ursa bo‘lmas va alar sharhida nukta sursa bo‘lmas. Va yuqorig‘i so‘z uslubi taqozoyi ul qilurkim, ul hazratning latoyif tab’idin bir necha matla’ bila bu avroqqa zeb va ziynat qilg‘ay va natoyiji zehnidin bir necha bayt bila bu ajzog‘a qadru qiymat berilgay va har oshiqona matla’ bila dard ahli jonig‘a shu’lai fano yoqilg‘ay va har dardmandona bayt bila ishq ahli ko‘nglig‘a barqi balo saqilg‘ay. Bas yemdi, shuru’i maqsudqa va ruju’i matlubqa qilalikim, so‘z itnobi ul sharif tab’g‘a mujibi kalol va fasonai tuli ul latif zehng‘a boisi malol bo‘lmasun. Ul Hazratning xubash’ori va marg‘ub abyoti bag‘oyat ko‘ptur va deovn ham murattab bo‘lubtur. Devon ibtidosidin bunyo qilidi va har g‘azaldin bir matla’ yozildi:

“Alif” harfi: Ul Haq subxona hamdidakim...”

Shu tartibda she'rlarni ta'rif etgan. Oxirida Mavlono Lutfiyning Amir Xusrav she'ri haqidagi fikri, Sulton Husayn Mirzo e'tirozi, yosh shoir Kobuliy bilan bo'lgan voqea bayon qilingan [3.419-448].

Alisher Navoiy do'sti Sulton Husayn Mirzo hayotida yuz bergan bir voqeani, da'vogar kampirni podshohni qozi oldiga olib borib, o'z da'vosini tasdiqlatgani, podshoh adolatni tan olib, kerak bo'lsa jon, yoki evaziga zar oligin, deb javob bergan voqeani zikr etgan. Bu voqea o'z davri musavviri ustod Kamoliddin Behzod tomonidan tasvirlangan bo'lsa kerak [5.143].

Alisher Navoiy o'z do'sti va podshoh Sulton Husayn Mirzo haqida "Qasidai Hiloliya"dan boshlab, barcha asarlarida uni hurmat bilan eslab, madh etadi, doimo o'z minnatdorchiligini bildiradi. Umuman, bu ikki Temuriylar davri buyuk shaxslari munosabati kerakli darajada hali yoritilmagan. Bu maxsus tadqiqot mavzusi bo'lishi shubhasizdir.

Yirik Temuriyzoda Abusa'id Mirzo Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumidagi "Saddi Iskandariy" dostonining 28 qismdagi "Zobitai rusumi shohiydakim, korxonai ilohiydin namudordur, aningdekkim, ul borgohda xoh maloyik xayli, ...xoh soyiri nos jamoati alo qadri martibihim har biri o'z yerida murattabdur, bu korgohda ham hamul dastur bila bo'lsa yaxshiroq surat, balki zaruratdur" sarlavhasi ostida

Kerak qilsa, ulkim tilar shohliq,
Sipah borcha holidin ogohliq.
Yaqin bilsa tuzganda piroyasin,
Rioyat chog'i har kishi poyasin...

Bu joyda shoir shohlik talablaridan biri, hammani teng ko'rmak ekanligini bayon etadi, va bu qoidani buzgan Sulton Abu Said ko'ragon navvara marqaduhu hikoyatini keltiradi. U "Royi uqda kushoyi bila ko'p mamlakat oldi va tig'i umr farsoyi bila ko'p elga oshub soldi va lekin sipohi rozi emas erkandin ish vaqti borcha qo'zg'oldi va o'zi a'do aro mahlakaga qoldi, balki xasm ul sarafrozning tig'i kin bila bo'ynin choldi" – deb bu podshohning achchiq taqdirini eslatadi. She'rda uning qancha mamlakatlarni olgani, ammo sipohini rozi qilmagani boshiga og'ir qismatni solganini eslatadi [5.696-697].

Ushbu tadqiqotda asosan Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasidagi Amir Temur va Temuriyzodalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilishga harakat qildik [15]. Zarurat yuzasidan "Xamsa" dostonlaridagi ma'lumotlarga e'tibor qaratildi. Aytish kerakki, shoirning she'riy asarlarida ham Temuriylar nomlari juda ko'p o'rinlarda zikr qilingan, lekin ularni o'rganish yana bir boshqa tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy Amir Temur va boshqa Temuriylar nomini shunchaki eslatmasdan, ularning olijanobliligi, kechirimliligi, adolatpeshaligi hamda o'rni kelganda ikki Temuriyzoda Abdullatif va Sulton Abu Sa'id Mirzo taqdiri misolida salbiy munosabatini bildirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат, биринчи жилд, – Тошкент: "Sharq", 2016.
2. Алишер Навоий. Вақфия / Тўла асарлар тўплами, 9 жилд, – Тошкент, 2012.
3. Алишер Навоий. Мажолис-ун-нафоис / Тўла асарлар тўплами, 9 жилд, Тошкент, 2012.

4. Мадраимов А. Алишер Навоий бадиий асарларининг 15-16 асрлардаги қўлёзмалари. – Тошкент: Fan, 2011.

6. Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент: ЎзР ФА нашриёти, 1960.

7. Norqulov N. Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar. – Urganch: 1996. 23, – B.25-31.

8. Amir Temur jahon tarixida / Mas'ul muharrir R. Qosimov, – Toshkent: Sharq, 2006.

9. Bobokalonov S. R. Xoja Ismat va turkigo'y zamondoshlari she'riyatining janrlari, uslubi, badiyati. F.f.nomz… diss. –Buxoro, 2012, Ilova 3.

10. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи, 1995.

12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Аруз рисоласи. – Тошкент, 2021. – Б. 52.

13. Roxburgh D. The Persian Album. 1400-1600. – Yale University, 2005.

14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси / Таҳрир ҳайъати А. Қаюмов ва бошқалар. – Тошкент: Шарқ, 2014.

15. О. Жўрабоев. Навоий ва тарих. – Тошкент: Тамаддун, 2016.

SALOMAT MATKARIMOVA,
Urganch davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

XORAZM ADABIY MUHITIDA DOSTONNAVISLIKDA NAVOIY TA'SIRI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitida doston janri rivojida Alisher Navoiy ta'siri tahlil etilgan.*

Navoiy dostonlari Xorazmda ularga hamohang yoki qaysidir jihatlarini o'zida aks ettirgan dostonlar yaralishiga turtki bo'lgan. Ahmad Tabibiyning "Nozir va Manzur", "Vomiq va Azro" dostonlarida Navoiy dostonlarining ta'siri mavjudligi misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar*: Xorazm, an'ana, doston, Navoiy, Tabibiy, "Nozir va Manzur", "Vomiq va Azro".*

Аннотация: *В статье анализируется влияние дастаны Навои в развитии жанра дастан в литературном среде Хорезма. Дастаны Навои сильно повлияли создании в какие то чертях похожие дастанов в Хорезме. В стате с примерами указано влияние дастаны Навои дастанам Табиби, называемыми "Назир и Манзур", "Вамик и Азра".*

Ключевые слова: *Хорезм, традиция, дастан, Навои, Табиби, "Назир и Манзур", "Вамик и Азра".*

Annotation: *In the article analyzed the influence of dastana Navoi in the development of the dastan genre in the literary environment of Khorezm. Dastans Navoi strongly influenced the creation of some damn similar dastans in Khorezm. The article with examples indicates the influence of dastana Navoi to dastanam Tabibi, which is called "Nazir and Manzur", "Vamik and Azra".*

Key words: *Khorezm, tradition, dastan, Navoi, Tabibi, "Nazir and Manzur", "Vamik and Azra".*

Xorazmda Feruz davri adabiy muhitida Navoiy asarlarining, xususan, "Xamsa"sining ko'plab nusxada ko'chirtirilishi va toshbosmada qayta-qayta nashr etilishi xorazmliklarning ulug' shoir dostonlariga juda katta qiziqish va alohida muhabbat bilan qaraganligini ko'rsatadi. Navoiy "Xamsa"siga kirgan dostonlarning nasriy variantlarining paydo bo'lishi, uning xalq dostonlari shakliga yaqinlashtirilishi syujetning sodda, xalqqa tushunarli tilda bayon etilishi Navoiy ijodini ommalashtirishda muhim rol o'ynadi. Navoiy dostonlari ularga hamohang yoki qaysidir jihatlarini o'zida aks ettirgan dostonlar yaralishiga turtki bo'ldi. Xususan, Ahmad Tabibiyning "Nozir va Manzur", "Vomiq va Azro" dostonlari bu jihatdan xarakterli. Mazkur dostonlar misolida Xorazm adabiy muhitida doston janri rivojida Navoiy ta'sirini ko'ramiz.

Xorazm adabiy muhitida yaratilgan dostonlarda kuzatilgan Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibiga kirgan dostonlarga hamohanglik yoki qaysidir jihatlarini o'zida aks ettirganlik holatlari, obrazlar va ifodada hamda uslubdagi yaqinliklar ular o'rtasidagi o'xsash va farqli jihatlarni tekshirish lozimligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, Xorazmdagi dostonnavislikda Navoiy ta'sirini aniqlash maqsadida Navoiy va Tabibiy dostonlarini sinchkovlik bilan tekshirish, tahlil qilish hamda ilmiy ma'lumotlarga oydinlik kiritish vazifasi belgilab olindi.

Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, germenevtik tadqiq usullaridan foydalanildi.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida mavjud nazmda yaratilgan asarlarni nasrga aylantirish, nasrni nazmga solish hodisasi faol davom qildirilgan. Buning natijasida "Xamsa" dostonlari nasriylashtirish an'anasi hosilasi o'laroq eng so'nggi nasriy bayonlar maydonga kelgan. Adabiyotshunos A.Hayitov "Bu an'ananing dastlabki kurtaklari "Xamsa"ning ba'zi ilgarigi qo'lyozmalariga yozilgan hoshiya sharhlarida ko'rinadi. Biroq biz "Xamsa"ni nasriylashtirishni an'ana sifatida boshlab bergan birinchi adib sifatida XVIII asr oxiri va XIX asr avvalida Xorazmda yashab o'tgan Umar Boqiyni qayd etamiz. Umar Boqiy "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlarini xalqona nasriy qissalarga aylantirgan" (Hayitov, 2000: 44). Shu o'rinda bir narsani qayd qilish lozimki, "Xamsa" dostonlariinng so'nggi nasriy bayonlari, xususan, Umar Boqiy, Andalib yaratgan nasriy variantlar "Xamsa"ning so'zma-so'z tarjimasi yoki asliyatning to'la ma'nodagi muqobili emas. Muhimi shundaki, Navoiy "Xamsa"siga kirgan dostonlarning nasriy variantlarining paydo bo'lishi, uning xalq dostonlari shakliga yaqinlashtirilishi syujetning sodda, xalqqa tushunarli tilda bayon etilishi Navoiy ijodini ommalashtirishda muhim rol o'ynadi. Navoiy dostonlari ularga hamohang yoki qaysidir jihatlarini o'zida aks ettirgan dostonlar yaralishiga turtki bo'ldi. Xususan, Ahmad Tabibiyning "Nozir va Manzur", "Vomiq va Azro" dostonlari bu jihatdan xarakterli. Ma'lumki, Alisher Navoiy "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlarining har bir bobiga cheksiz zo'r ko'tarinki ruh bilan yozilgan nasriy sarlavhalar bitadi. "Bu sarlavhalar aslida, nasriy poeziya bo'lib, Navoiyning o'ziga xos original ijod namunasidir… har bir sarlavha o'sha bobning siqiq jumlalarda ixcham qilib bayon etilgan mazmunidir" (Jalolov, 1974:101). Tabibiy ham "Vomiq Azro" dostonida har bir bobga ritmli, ohangdor va ta'sirchan sarlavhalar bitib, ularda u yoki bu bobda tasvir etilajak xushchaqchaq yoki g'amgin voqealarni san'atkorlik bilan ifodalab beradi: "Shoh Vomiqning muforaqatidin nigorin va Barxiyo va Osafi Soniy va aholiy shahri Sabo ko'p anduhgin o'lg'onlari ayoni va Osafi soniy valiahdliqni qabul qilmay malikai nigorin taxti saltanatda o'lturg'onining bayoni" (Tabibiy, 1968:93), "Shoh Naim Shakarduxt qasri oshoqig'a nozil bo'lg'oni va Shakarduxt mulozimlari oni tutmoqg'a muzoxim va doxil bo'lg'oni va posbonlardin anga ko'p ranjish hosil bo'lg'oni va Mihinbonu kelib oni ko'rarg'a moyil bo'lg'onini bayoni" (Tabibiy, 1968: 179), "Shoh Vomiq bila Osafi Soniy Sa'd bozargondin judo bo'lub, Chin shahriga borg'onini bayoni va Shakarduxt tavsifi uchun xomai tezravni safha maydonida bir andak javloni" (Tabibiy, 1968:148) kabi sarlavhalar fikrimizni dalillaydi. Bu sarlavhalar o'zining yozilish uslubi, nasriy sa'jda berilishi bilan Navoiy dostonlaridagi sarlavhalarni esga soladi. Misol uchun "Sab'ai sayyor" dostonidadagi sarlavhalarni keltiramiz: "Dushanba kuni Bahromning navbahormonand axzar libos bila gunbadi axzarg'a yuz qo'yg'oni va sarvi sabzorang sabz hulla bila jomi zumurradfom ichinda zuloli hayot no'sh qilg'oni va ul chashmai zindagonidin Xizr hayoti kasb etgoni" (Navoiy,1992:217). Kuzatiladiki, Navoiy dostonlaridagi kabi, Tabibiy qalamiga mansub nasriy sarlavhalarni tashkil etgan har bir jumla o'zidan so'nggi jumla bilan qofiyadosh bo'lib keladi hamda sarlavha bobning umumiy mazmunining qisqa va aniq jumlalardagi bayoni tarzida namoyon bo'ladi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostonida ifoda tarzi, voqealar bayoni, uslub jihatdan ham Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga hamohanglik seziladi. Bu, ayniqsa, har bob yakunida soqiyga murojaat bilan boshlanadigan lirik chekinishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" va yuqorida zikr etilgan dostonida va har bir bob yakunida soqiyga murojaatni ko'ramiz:

Ketur soqiy, manga ishrat ayog'in
Ki, davron berdi maqsudim so'rog'in.
Meni chun qildi mohi armani zor,
Chekay bir necha sog'ar armanivor (Navoiy,1991:243).

Navoiyning ushbu lirik chekinishi bobning mazmun mundarijasiga shoirning munosabati, yakuniy xulosasi tarzida beriladi. Tabibiy dostonidagi soqiyga murojaat tarzidagi lirik chekinish navbatdagi bob mazmuniga ishora qilib kelishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi va bu an’analarga munosabatda individual, ijodkorona yondashuvning ko‘rinishidir:

Ketur soqiy, sharobi jonfizoni.
Ki shoyad aylabon uyqu nihoni.
Tush ichra ko‘rgamen ul siymbarni,
Eshitgum so‘zidin sodiq xabarni (Tabibiy,1968:108).

Ushbu lirik chekinishdan so‘ng “Shoh Vomiq bir kecha Azroni tushida ko‘rub, tozadin oshuftalig‘da yagona bo‘lg‘oni va Azroning hama ahvolin so‘rub, yuz shavqu zavq bila yo‘lg‘a ravona bo‘lg‘oni” sarlavhasi bilan keyingi bob boshlanadi.

Ketur, soqiy, qadahni bekamu besh
Ki ko‘nglum istamish bo‘lmoqni darvesh.
Bu yo‘lda sen agar bo‘lsang rafiqim,
Suxulat birla qat’ o‘lg‘ay tariqim (Tabibiy, 1968:116).

Ushbu lirik chekinish mazmunidan keyingi bobda asar qahramoni darveshlik ixtiyor etishi, bu yo‘lda yolg‘iz emas, rafiqi bilan birgalikda safarga otlanishi anglashiladi. Darhaqiqat, ushbu soqiyga murojaatdan so‘ng Shoh Vomiqning shahzoda Naim bilan darveshlik ixtiyor qilib, darveshona libos kiyib, yo‘lga chiqqanlari haqidagi bob keladi. Tabibiyning mazkur lirik chekinishlari, Navoiy dostonlaridagidan farqli o‘laroq, voqealar rivojining davomidan xabar berib, navbatdagi bobga kitobxonni ruhan tayyorlashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda qayd qilish lozimki, “Vomiq va Azro” dostonida “Farhod va Shirin” dostonidagi kabi holatlar uchrashi (Vomiq shoh otasining xazinasidagi qulflangan sandiqni ochib, unda Azroning suratini ko‘rib, ishq zo‘ridan behush yiqilishi, Osafi soniyning valiahdlikni qabul qilishdan bosh tortishi, shoh Vomiqni izlab, uning izidan ketishi, Vomiqning Naim bilan do‘st tutinib, safar qilishi va faranglar kemasida birga suzishi, to‘fonga uchrashlari, Mihnbonuning Shakarduxtga nasihat qilishi), Chin mamlakati, Mihnbonu obrazi, “Sab’ai sayyor” dostonidagi kabi shoh Vomiqning ovga chiqishi va shikor tasviri, shohning ohuni quvlab sipohlaridan ajrab qolishi, adashib qolib qaroqchilar qo‘liga tushishi va boshqalar Tabibiyning ushbu dostonni yozishida Navoiy dostonlaridan ilhomlanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, dostondagi quyidagi baytlar ham Navoiy dostonlariga hamohang:

Dedikim: Oshiq atvori bu o‘lg‘ay,
Qalandarlig‘da kirdori bu o‘lg‘ay (Tabibiy, 1968:117), –
bayti “Farhod va Shirin” dostonidagi:
Bu bo‘lg‘ay dardu ishq oyini voh-voh,
Vafou mehr sharti Alloh-Alloh!
Kishi ishqida zor o‘lmoq bu bo‘lg‘ay,
G‘amidin beqaror o‘lmoq bu bo‘lg‘ay!(Navoiy, 1991:335) –
baytlarini eslatsa,
Shahnshohlig‘da bo‘lmas da’viyi ishq,
Ne bilsun surat ahli ma’niyi ishq(Tabibiy, 1968:129).
bayti “Sab’ai sayyor”dagi:

Ishq ila shohlig‘ muvofiq emas,
Ishq lofida shoh sodiq emas(Navoiy, 1992:111) –
baytini eslatadi.

Tabibiy masnaviy yo‘lida yozilgan, 8100 baytdan iborat dostonida do‘stlik, ilm va hunarga hurmat, haqiqat va adolatni ulug‘lash, xalqning adolatli shoh va markazlashgan davlat haqidagi orzularining ifodalanishida ham Navoiy dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalarning davom ettilirishini ko‘ramiz. Hazrat Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan va bu boradagi tajribalari uning *davlatchilik va rahbar ma’naviyati haqidagi qarashlarida o‘z aksini topgan.* Navoiyning *“Saddi Iskandariy”* dostonida shohlik rusumlari va talablari qatorida adolat qilish, har bir lavozimga munosib kishini tayinlash, qaerdaki yomonlik, fitna qo‘zg‘olsa, bosh sababchilarini jazoga tortish va bu bilan xalqni talovchi kimsalardan himoya qilish, raiyatning farovon va tinch osuda hayot kechirishlarini ta’minlash birma-bir sanab beriladi, *davlatchilik asoslari, hukmdor ma’naviyati masalasining har bir jihati alohida badiiy talqin qilinadi.*

Buyuk mutafakkir davlatchilikning asosini adolat bilan siyosat yuritishda deb bilib, uning ravnaqini hukmdorning odil, oqil va orif bo‘lishi, amaldorlarni iqtidori, qobiliyati va pokiza tiynatiga qarab tanlash, xalqning tinchligi va farovon turmushini yo‘lga qo‘yish, lashkar ta’minotida kamchilikka yo‘l qo‘ymaslik, karvon yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlab, savdo sotiq ishlarini rivojlantirish, qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy siyosiy aloqalarni yaxshilash, davlatda madaniyatni yuksaltirish, ilm ma’rifat taraqqiyotiga homiylik qilish belgilab berishini ta’kidlaydi. Buni “Mulk ma’mur bo‘lur, adlg‘a shah bersa rivoj”(Navoiy, 1988:72) *so‘zlaridan ham anglash mumkin.*

Mutafakkir shoir shohlik rusumida hukmdor piroyasin tuzganida har kishining o‘rnini bilib, mansabu amal kursisiga tayinlamog‘i lozimligini, bu nafaqat yaxshi surat, balki zarurat ekanligini uqtiradi:

Kerak qilsa, ulkim tilar shohliq,
Sipah borcha holidin ogohliq.
Yaqin bilsa tuzganda piroyasin,
Rioyat chog‘i har kishi poyasin.
Uluqqa uluqcha ato aylasa –
Kichikka kichikcha saxo aylasa.
Kim etsa vasatliq yo‘linda zuhur,
Anga tuzsa oyini “xayril-umur”.
Ne tutsa ulug‘ni qoshida kichik,
Ne qilsa kichikni ulug‘ chargalik.
Bu qonun bila bo‘lsa oyin anga,
Topib kishvaru mulk tazyin anga.
Ishida ko‘rub farrux anjomini,
Olur saltanat amridin komini (Navoiy, 1993:217).

Ayni paytda har shohki, ishda o‘rtalikni shior qilib, sipoh holidan ogoh bo‘lib, ulug‘ga ulug‘cha ato aylab, kichikka kichikcha saxo aylamasa, mansabu lavozimga loyiq kishilarni tanlab qo‘ymasa, o‘yin qoidasidan bexabar shaxmat o‘ynashga jazm etgan, na shatranj o‘ynashni, na donalarni taxtaga to‘g‘ri termakni bilmaydigan yosh boladan farqi bo‘lmasligi eslatiladi. Shatranjni bilmagan bola qaysi figura qaysi o‘rinda turishini bilmaydi: piyodani shoh yonida qo‘ysa, filni ruxning katagiga qo‘yadi. Shaxmat donalarini bu tarzda joylashtirishni aql egalari qanday izohlashlari o‘z-

o‘zidan ayon. Bunday terilgan donalar bilan har qancha vaqt o‘ynasa ham biror yaxshi natija chiqmaydi, balki it yalog‘iga somon, ot oxuriga suyak solgan kabi oqibati bor. Shuning uchun so‘z sohibqironi shohdan mas’ul lavozimlarga kishi tanlashda adashmaslikni talab qiladi, toz boshig‘a toj munosib bo‘lmaganidek, nutuqchi(kichkina qush)ni qo‘lga o‘rgatgunga qadar boshiga tumog‘a(qayish tumoq) kiydirishga ehtiyoj yo‘qligini, eshak ollida za’faron yaxshi emasligidek, nodonga zarbaft marg‘ub emasligini, bo‘riga qo‘zi ta’ma qilgan kishi o‘ziga-o‘zi balo hosil qilishini, kimki arslon qornini to‘q qilishni istasa, sher fursat topishi bilan uning qornini yorishini, kishi ilonni boshini yanchsa, o‘z yo‘lini balodan tozalagan bo‘lishini, aksincha, ilonga o‘z qo‘ynidan joy bersa, o‘z qatliga ajal tanobini tortishini, itning o‘rni bo‘lgan eshik ostonasini bo‘ri egallasa, uy ichini ov qilishini, it uyni qo‘riqlashi kerakligini, mushukka uy to‘ri maqomligini, kishi har qancha urinsada ularga bir-birining ishini qildira olmasligini, itga o‘z yerida hurish vazifa bo‘lsa, mushukka parvarish lozimligini, har biri o‘z o‘rnida kerakligini uqtiradi:

Eshik it yeridur, gar olsun bo‘ri,
Mushukka maqom o‘ldi uyning to‘ri(Navoiy, 1993:217).

Alisher Navoiy o‘z davri hukmdorlarini kibr-havodan nari bo‘lishga, o‘zaro qo‘shnichilik aloqalarini buzmaslikka, o‘z qo‘l ostidagilarga, kambag‘al-g‘ariblarga muruvvat ko‘rsatishga, ulug‘ ustod hayot taxtasidan barcha donalarni yig‘ib olganda, oxir-oqibat shohu gado barobarligini unutmaslikka chaqiradi, joh ahllariga dunyoning o‘tkinchiligini, toj ham, davlat ham, mansab ham kishiga vafo qilmasligini eslatish bilan boylikka va amalga mag‘rurlanmay, faqirlarga yaxshilik qilish, dunyoda yaxshi nom qoldirish shoh uchun haqiqiy sharaf degan g‘oyani ilgari suradi:

Hazrat Navoiyning shohlik rusumi xususidagi fikrlari Tabibiyning “Vomiq Azro” dostonida shohlik rusumini o‘rniga qo‘yishning samarasi misolida shunday ifodalanadi:

Adolat rasmin aylab oshkoro,
Jahong‘a berdi ko‘p zeb ila oro.
Nechakim bor esa arkoni davlat,
Hukumatda va yo a’yoni hazrat.
Bori odamni holig‘a munosib,
Ato qildi munosib ham marotib.
Tuzub shahlig‘ asosin xo‘b-u marg‘ub,
Jahong‘a shuhrati yetkurdi oshub.
Aningdek dod ila adl etdi bunyod,
Ki, bermas bu sipehri kinavar yod.
Ne yerda bo‘lsa ahli fitnau shar,
Jazo yetkurdi ul borig‘a yaksar.
Bori xayli raoyo bo‘ldi shodon,
Hamaning rohati bo‘ldi farovon (Tabibiy, 1968:97).

Xulosa qilib aytganda, Tabibiy dostonlari syujet jihatdan farq qilsa-da, ammo mavzu ko‘lami, qo‘yilgan masalalarning hal qilinishi va poetik ifoda yo‘sini ularni Navoiy dostonlariga yaqinlashtiradi. Bu esa Tabibiy doston yaratishda Navoiy tajribalariga suyanganligini, dostonnavislikda ulug‘ shoir an’analarini munosib davom qildirganligini isbotlaydi. Ayni holat Xorazmdagi dostonnavislikda Alisher Navoiy ta’siri katta bo‘lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Badoe ul-vasat. MAT. 5-jild. – Toshkent, "Fan", 1988.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT.T.8. – Toshkent, "Fan", 1991.
3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 11-jild. – Toshkent, "Fan", 1993.
4. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. MAT.T.10. – Toshkent, "Fan", 1992.
5. Jalolov T. Nafosat olamida. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
6. Tabibiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.
7. Hayitov A. Navoiy "Xamsa"sini nasriylashtirishning uch bosqichi. – Toshkent, O'zbek tili va adabiyoti, 2000. №3. B.44.

MOHIGUL MAVLONOVA,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA XUSRAV OBRAZI TALQINI

Annotatsiya: *Ushbu maqola Alisher Navoiy qalamiga mansub “Farhod va Shirin” dostonining ijtimoiy ahamiyatga molik qahramonlaridan biri Xusrav obrazining tahliliga bag‘ishlanadi. Maqolada Xusrav obrazining tarixiy ildizlari hamda dostonning poetik mazmunini ochib berishda obraz zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida so‘z boradi.*
Kalit so‘zlar*: Xusrav, doston, tarixiy ildiz, yozma adabiyot, Farhod, obraz.*

Abstrakt: *This article is devoted to the analysis to the analysis of the image of Khusrav, one of the socially significant heroes of the epic “Farhad and Shirin” written by Alisher Navoi. The article delves into the historical roots of the Khusrav and the tasks assigned to the image in revealing the poetic content of the epic.*
Key words*: Khusrav, epic, social, historical root, written literature, Farhad, imaje.*

Ma’lumki, Xusrav haqidagi ma’lumotlarda uning tarixiy shaxs bo‘lgani yozilgan. Xusrav, aslida, sosoniy podshohlaridan Anushirvonning nabirasidir. U 590-yilda taxtga chiqib, 628-yilda o‘z o‘g‘li Sheruyaning topshirig‘i bilan qatl qilingan. Xusrav obrazi Sharq xalqlari adabiyotiga dastlab Firdavsiyning “Shohnoma” asari orqali kirib keldi. Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonidan so‘ng u an’anaviy qahramon sifatida adabiyotdan mustahkam o‘rin egalladi. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida boshqa xamsanavis shoirlardan farqli ravishda Xusrav xarakteridagi salbiy jihatlar ham yoritilgani ayon. Navoiy Xusravni xudbin, kibrli va johil qilib tasvirlashi bejiz emas. Tarixiy manbalarda yozilishicha, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) Eron shohi Xusravi Parvezni islomga da’vat qilib maktub yuboradilar. Ammo jaholat botqog‘iga botgan shoh muborak maktubni yirtib tashlaydi. Nizomiy Ganjaviy “Xusrav va Shirin” dostonining oxirgi boblari ana shu haqidadir. Abdurauf Fitrat “Farhod va Shirin” maqolasida keltirishicha, “doston, asosan, shunda bitsa ham Nizomiy bundan islom dinining foydasig‘a bir natija chiqarmoqchi bo‘ladi: “Xusrav Muhammad payg‘ambarning xatini yirtib tashlagani uchun shohlig‘i buzuldi”, deb yana bir-ikki fasl orttiradir”.

Fitrat maqolasida Navoiy Xusrav va Farhodning an’anaviy so‘z bellashuvidan keyin Nizomiy izidan bormagani, chunki Nizomiy bu voqeadan so‘ng Farhodga afsonaviy Besutun tog‘ini qazish vazifasini topshirgani xususida to‘xtaladi: “Navoiy dostonining borishi buni ko‘tarmaydir. Chunki Navoiy Xusrav bilan Farhodni Madoyinda emas, Armaniyada ko‘rishtiradi. Bu yerda turib Besutun tog‘ini qazdirish munosabatsiz tushadir. Zotan, Navoiy Xusravi Parvezni yoqtirmaydi. Uni yana biroz insofsizroq ko‘rsatmak Navoiyga foydalidir” [1.125]. Ozarbayjon olimi H.Arasliga ko‘ra, Navoiy Xusrav siymosida podshohlarning zolim qiyofasini yaratib, uning shaxsiyatida shohlikning salbiy xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qilgan [2.9]. Ammo bu o‘rinda Navoiy badiiy mahorati va o‘ziga xos dunyoqarashining yorqin jihatlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotshunos T.Ahmedov “G‘oyaviy niyat va badiiy obraz” nomli maqolasida “Navoiy odamlarni odamlarga, el-

yurtga qilgan yaxshiligi, keltirgan manfaati yoki zararidan kelib chiqib, yaxshi va yomonga bo‘ladi. Uning asarlarida yaxshilar, deyarli nuqsonsiz, yomonlar esa o‘ta ayanchli holda tasvirlanadi. U dostonlarida ana shu prinsipga sodiq qolgan holda ijobiy va salbiy obrazlarni yaratadi [3.37],deb yozadi. Professor N.Komilov ham bu borada u bilan hamfikr: “Navoiyning ijodida mutlaqiylik hukmron: mutlaq yaxshilik (ezgulik) va mutlaq yomonlik (yovuzlik)ni ko‘radi u. Uning uchun yomon – bu mutlaq qora rangda ko‘rinadigan yomonlik. Yaxshi – mutlaq yaxshilik, u nurli ranglar bilan jilolanadi. Shoirning hayotga munosabati ham ana shunday. Uning uchun yomon shoh barcha yomon xislatlarni jamlagan odam, yaxshi shoh esa barcha ijobiy xislatlarni jamlagan shaxs” [4.163]. Navoiy dostonida Xusrav – Eron va Arab o‘lkalarining qudratli podshohi. Saltanati esa dunyoparastlik, jaholat, yolg‘on, makr, hiyla, qo‘rquv, kibr asosiga qurilgan. Navoiy umr bo‘yi adolatni dunyodagi barcha yaxshiliklarning tayanch nuqtasi deb bildi va podshohlarni xalqqa zulm qilmaslikka, odil bo‘lishga da’vat etdi. Shoir “Mahbub ul-qulub” asarining “Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida” deb nomlangan to‘rtinchi faslida adolatli podshohni “ko‘zgu”, “zolim podshohlarni esa uning aksi” (orqa, qorong‘u tomoni)dir deb ta’riflaydi: “Zulm aning ko‘nglig‘a marg‘ub va fisq aning xotirig‘a mahbub. Obodlar aning zulmidan vayrona, kabutar toqchalari boyqushg‘a oshiyona. Agar qon to‘kmak anga pesha, kimki joni bor anga andesha. Haq aning qoshida botil, xiradmand aning aqidasida johil. Qatl uchun jon bermak – shiori, el mol-u jonig‘a qasd – shikori [5.45]. Zolim podshohlarga xos sifatlar Xusrav Parvez obraziga ham tegishlidir. Johil va zolim insonlar haqida G‘azzoliy shunday yozadi: “Johil, adashgan, fosiq va yovuz kimsalar nafaqat buzuq qarashda takomillashadilar, balki ular yomonliklarini ko‘paytirishni fazilat deb biladilar, bu bilan faxrlanadilar va bu ishlar qadrimni oshiradi, deb o‘ylaydilar” [8.234].

O‘zining aql-u zakovati, farosati va ziyrakligi bilan so‘z jangida Farhodning Xusravdan ustun kelishi, bosqinchi, qo‘pol va qiziqqon Xusravning ma’naviy yengilishi kabi hodisalar dostonda keskin bir holatlarni vujudga keltiradi. Farhod va Xusrav o‘rtasidagi munozara “Farhod va Shirin” dostonining, Navoiy she’riyatining, qolaversa, butun o‘zbek adabiyotining eng yorqin, eng mazmundor, eng go‘zal va eng ta’sirli badiiy lavhasidir” [6.109]. Xusrav va Farhod dialogi Hamid Olimjon ta’rificha, Navoiy dostonining ham badiiy, ham fikriy cho‘qqisidir. Unda Farhod va Xusravning ma’naviy olami to‘la-to‘kis namoyon bo‘ladi. Farhod va Xusrav o‘rtasidagi bahsda Farhod qancha baland ko‘tarilsa, Xusrav shuncha tubanga tushadi, ma’naviy dunyosi tor-u mor kelib, yalong‘ochlanadi va ko‘z o‘ngimizda shoh kiyimini kiyib taxtga chiqqan ikki oyoqli maxluq suratlanadi [7.64]. Xusravdagi takabburlik, shuhratparastlik va manmanlik illatlari esa aslida uning kim ekanligini oshkor etadi. Soxta shon-shuhratdan sarmast bo‘lgan odam zulm qilishga moyil bo‘ladi, lekin o‘zi buning farqiga bormaydi. Atrofdagilarning e’tirofi, maqtoviga o‘ch bo‘lib boraveradi, tanqidni tahqir o‘laroq qabul qiladigan bo‘ladi. Ya’ni “hamma meni maqtashi shart, barcha mengagina ixlos qilishga majbur”, deb o‘zini o‘zi ishontira boshlaydi [8.623]. Xusrav Farhodga qanchalik qattiq va achchiq xitoblar bilan murojaat qilsa, Farhod shunchalik oson va osoyishta javob beradi. O‘zini jahonning eng zo‘r hukmdori deb bilgan Xusrav raqibidan ham jisman, ham ma’nan yengilayotganiga chidab turolmaydi. Bu bahsda “Xusravning fikr va kechinmalari fosh qilinganidek, Farhodning shafqatsiz murojaati va ayblovlari shohning faqir va zolim axloqini ochib beradi. O‘z nafsining quli bo‘lgan Xusrav Farhodning yuksak axloqiy fazilatlari bilan solishtirilganda kuchsiz va zaifroq ko‘rinadi” [9.117]. Dostonda Xusrav o‘zining mahv bo‘layotganini, Farhodning oldida tobora kichrayib borayotganini his qiladi, biroq u shoh edi, saltanatning g‘ururi va xalq oldida obro‘sini saqlab qolish uchun Farhodga bir ayb qo‘yib jazolashni lozim biladi. “Tog‘ va vodiy gadosi”ning shunday qudratli shohdan hayiqmay, shijoat bilan javob qaytarishi Xusravnig g‘azabini keltiradi va “shoh bilan basma-bas olishgan bu gadoni” o‘limga buyurib, butun xalqqa namuna qilish to‘g‘risida farmon beradi:

Ki, mendek shahg'a mundoq razl dune,
Ayog'din-boshqa band ichra zabune.
Hayotining niholig'a sinib shox,
Javob aytur ne so'rsam bo'yla gustoh.

Adabiyotshunos S.Erkinovning yozishicha, Xusrav dostonda hayotdagi hamma yaxshiliklarni yutib yuborishga tayyor turgan davr Ahramani sifatida gavdalanadi. U go'zal Shirinninggina emas, go'zallik o'lkasi bo'lgan Armanistonning ham kushandasi sifatida taniladi [10.68]. Biroq Xusrav Farhodning o'limi haqidagi xabardan sarosimaga tushadi. Bir necha kungacha kulmaydi, kechalari qo'rquvdan uxlay olmaydi. Hatto endi nasib qilajak Shirin visoli ham uni xursand qilmaydi. U, albatta, Farhodday farishtamisol insonning nohaq o'limi uchun falak undan qasos talab qilishidan xavotir tuyadi, faqat jazoning qanday yo'l bilan kelishini o'ylab qo'rquv va qayg'uga botadi. Zero, gunohkor odam doimo o'xshashi yo'q tahlika ichida yashaydi. Uning yuragidan doimiy zulmat va qorong'ulik arimaydi. Afsuski, insonda nafs mavjud ekan, unda, shubhasiz, gunoh qilish xavfi saqlanib qoladi. Xusravdagi bir lahzalik afsus-nadomat, pushaymonlik o'rnini yana nafs va kibr egallaydi. Bu nafs esa juda talabchan bo'lib, uni yanada kattaroq gunohlar qilishga undaydi. Mehinbonuga yana elchilar jo'natiladi. Ular qat'iy topshiriq bilan yo'lga chiqadilar. Xoh zulm, xoh qo'rquv, xoh aldov, xoh mulozamat orqali bo'lsin – har qanday holatda ham Shirin roziligi bilan qaytishlari shart edi. Afsuski, Xusrav zulm va zo'rlik bilan muhabbatga erishib bo'lmasligini, Tangri tomonidan belgilangan taqdir bilan jangga kirishgan, qazoyi qadarga zarba berishga uringan insonning boshi xam bo'lishini, o'z qoniga belanishini bilmas edi. Go'yo Jaloliddin Rumiyning quyidagi hikmati Xusrav uchun atalganday: "Zolimlar zulmi qorong'u quduq kabidir, barcha olimlar shunday dedilar: "Ey zulm bilan quduq qazigan! Sen o'zingga tuzoq tayyorlayapsan"[11.48]. Xusrav bunday zo'ravonlik bilan o'z baxtsizligining poydevorini mustahkamlayotgan edi. Otasi kabi o'zining hayvoniy istak va orzulariga bandi bo'lgan Sheruya Shirin jamolini ko'rgach, unga oshiq bo'ladi va otasining bek-amaldorlarini o'zi tomoniga og'diradi. Xusravning adolatsizligi va zulmidan to'ygan xalq, a'yonlar Sheruya tarafida birlashadi va shahzoda o'z otasini nafsi yo'lida qurbon qiladi. Navoiy dostonda Sheruyani ajalga qiyoslaydi va Xusravning qatl ishi Allohning irodasi va xohishi ekanligini alohida ta'kidlaydi:

Ajal Sheruyasi tig'in qilib tez,
Qatli yuz tuman andoqki Parvez.

Ko'rinadiki, "Farhod va Shirin" dostonida Xusrav obrazi inson ma'naviy tanazzulining fojialar bilan yakun topishiga ishora qiluvchi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi azaliy kurashda yomonlikning, albatta, jazosiz qolmasligi haqidagi axloqiy-ta'limiy qarashlarni yuzaga chiqaruvchi o'ziga xos timsoldir. Xusrav obrazi va uning Sharq xalqlari adabiyoti, xususan, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodidagi o'rnini o'rganish nafaqat, Xusrav timsolining mohiyati, ijodkor badiiy niyati, maqsad-muddaosi, ijodiy tamoyillarini yanada teranroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Fitrat.Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 208.
2. H.Arasli. Buyuk shoir. O'n so'z.– Ozarbayjon. 1968.
3. Navoiy va ijod saboqlari. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 157.
4. Komilov N. Tasavvuf. I kitob – Toshkent: Yozuvchi, 1996. – B. 272.

5. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. To'qqizinchi jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2012. – B. 768.

6. Qayumov A. "Farhod va Shirin" sirlari. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. – B. 167.

7.H. Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan,1982.–B. 248.

8. T. Malik. Odamiylik mulki. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2015. – B. 936.

9.Yashar Qosim."Farhod va Shirin" dostonining qahramonlari Ozarbayjon adabiyotshunosligida.// A.Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari. № 69.// Toshkent: Yashil yaproq, 2024. – B. 413

10. Erkinov S. Asrlar osha mushoira. – Toshkent: Fan, 1977. – B. 78.

11. Rumiy J. Qalb ko'zingni och. – Toshkent: Sanno-standart, 2010. – B. 164.

SHAHNOZAXON NAZAROVA,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

CHO‘LPON IJODIGA DOIR YANGI MANBA

Annotatsiya: *“Zamona xotini” Cho‘lponning bugunga qadar qo‘lyozma nusxasi topilmagan nodir pesalaridan biri sanaladi. Maqolada Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi “O‘zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxiv fondi”dan aniqlangan ushbu asar qo‘lyozma nusxasi haqida so‘z yuritiladi. Matn bilan tanishish asnosida uning Cho‘lpon qalamiga mansub asar ekanligi, tahrir va tuzatishlar, qo‘shimchalar Cho‘lponning o‘z qo‘li bilan amalga oshirilgani ma’lum bo‘ldi.*

Tayanch so‘z va iboralar: *Muzey, arxiv fondi, qo‘lyozma nusxa, asos matn, pesa, variant, muallif xati.*

Annotation: *“Zamona xotini” is considered one of the rare plays of Chulpan, where no manuscript copy has been found to this day. This article will talk about the manuscript copy of this work found in the “Archive fund of writers and poets of Uzbekistan” of the State Museum of Literature named after Alisher Navoi. As part of the acquaintance with the text, it became known that this is a work belonging to the Chulpan pen, edits and corrections, additions were made by Chulpan’s own hands.*

Key words: *Museum, archival fund, manuscript copy, base text, play, variant, author’s signature.*

Cho‘lpon beqiyos shoir bo‘lishi bilan birga, roman miqyosida fikrlay oladigan adib va mohir dramaturg ham edi. O‘zbek kitobxonlari uning ko‘plab dramatik asarlar yaratganidan xabardor. Ammo zamon shamollarida ularning aksariyati yo‘qolib ketgan yoki yashirilgan. Ehtimol, qaysidir millatdoshimizning bobosidan qolgan kutubxona qatlaridan, dahmalar ichidan bizga qo‘l uzatayotgandir, biz ko‘rmayapmiz, bilmayapmiz. “Zamona xotini” ham Cho‘lponning bugunga qadar qo‘lyozma nusxasi topilmagan nodir pesalaridan biri edi. Sizga yetkazmoqchi bo‘lgan xushxabarimiz shundan iboratki, hech kutilmaganda asarning arabiy imlodagi qo‘lyozma varianti topildi. Eng muhim jihati, qo‘lyozma ustidan Cho‘lpon xati bilan tuzatishlar, izohlar kiritilgan, so‘zboshi ham yozilgan.

Qo‘lyozma bugunga qadar Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi “O‘zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxiv fondi”da saqlangan bo‘lib, Fitratga doir manbalar orasida bo‘lgan, unvon varag‘i yo‘qolganligi uchun kimning qaysi asari ekanligi aniqlanmagan va hujjatga ham nom berilmagan. Matn bilan tanishish asnosida uning Cho‘lpon qalamiga mansub “Zamona xotini” asari ekanligi aniqlandi. Buni Cho‘lpon tomonidan yozilgan so‘zboshi, matn ustidan qilingan tahrirlar ham isbotlab turar edi. Tahrir va tuzatishlar, qo‘shimchalar Cho‘lponning o‘z qo‘li bilan amalga oshirilgan bo‘lib, Andijon viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi tomonidan taqdim qilingan Cho‘lpon dastxati bilan solishtirilganda, ayni bir xat ekanligi va u muallifning o‘ziga tegishliligi ma’lum bo‘ldi.

Qo‘lyozma holatiga ko‘ra yaxshi saqlangan bo‘lib, xat bemalol anglashiladi. Matn yo‘l-yo‘l chiziqli umumiy daftarga tushirilgan bo‘lib, undan A4 formatidagi qog‘ozga nusxa olingan. Umumiy daftarning siyohrang muqova qismi va ayrim bo‘laklarigina saqlangan. Papka ichida 3 turdagi hujjat mavjud: pesaga so‘zboshi qilib yozilgan matn nusxasi (matndan 26,5*36,5 o‘lchamdagi qog‘ozga nusxa olingan bo‘lib, bu so‘zboshining yarmi; so‘zboshi Cho‘lpon xatida); qo‘lyozma matn ustidan

Cho‘lpon o‘qib tahrir kiritgan umumiy daftar bo‘laklari (21*17 sm. o‘lchamdagi yo‘l-yo‘l daftar; asosiy matn kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum, yozuv tabiatiga e’tibor qaratilsa, ayol kishi tomonidan Cho‘lpon qoralamasidan ko‘chirilganini taxmin qilish mumkin; muallif tomonidan aytib turib yozilmagan); mazkur daftardan olingan nusxa (A4 o‘lchamdagi ish qog‘ozida).

Bu manba topilgunga qadar asar borasida nimalar ma’lum edi? Avvalo, aytish kerakki, tayanch matn mavjud edi. Asar haqida bo‘lsa ayrim taxminlar ilgari surilar, olimlar qo‘lyozma manba topilmaganligi sabab yakuniy xulosalarni berishga tiyilar edilar. Bugunga qadar qo‘limizdagi yagona manba pesaning ilk bor “Sharq yulduzi” jurnalining 1992-yil 10-sonida bosilgan nashr varianti edi. Ikkinchi nashr varianti – Cho‘lpon asarlari 4 jildligidan joy olgan bo‘lib (“Akademnashr”, 2016), jurnal variantining ayni o‘zi (olimlarning og‘ir mehnatini qadrlagan holda aytish mumkinki, jurnal variantida yo‘l qo‘yilgan xatolar kitobda ham takrorlangan).

Pesa jurnalning “Meros” ruknida joriy yozuvda muallifning “Shunigina deyman...” sarlavhali so‘zboshi bilan e’lon qilingan. Pesa Mumtoz Muhammedov, Komil Yashin, Salohiddin Mamajonov tomonidan nashrga tayyorlangan. Salohiddin Mamajonov asar tarixi, topilishi va nashrga tayyorlanish jarayoni haqida tadqiqiy maqola ham havola qilgan. Olim asar Mumtoz Muhammedov qo‘lida pesa yozilgan 1928-yildan beri yashirincha saqlangani, bundan faqat Komil Yashin xabardor bo‘lgani, 1992-yilga kelib, mustaqillik sharofati bilan ommaga oshkor etilgani haqida yozadi. Mumtoz Muhamedovning Solohiddin Mamajonovga bayon qilib berishicha, 1928-yilda Leningradda dramaturgiya masalalariga bag‘ishlangan yig‘in bo‘lib o‘tadi va unda o‘zbek ziyolilaridan Cho‘lpon, Yashin, Ziyo Said va Mumtoz Muhamedovning o‘zi ham ishtirok etadi. Shu orada Toshkentdan Cho‘lponga qo‘ng‘iroq qilishadi, uni NKVD so‘rab-surishtirayotgan edi. Harosonlikda qolgan Cho‘lpon unutib qoldirilgan pesasini topib qo‘yishni andijonlik rus do‘stiga iltimos qilib, vatanga qaytadi. Cho‘lpon tayin etgan odam Mumtoz Muhamedov bilan birgalikda asarni majlislar zalidan topadi va shu bilan pesa Mumtoz Muhamedovning qo‘lida qolib ketadi.

Olimlar Sotti Husayn, Salohiddin Mamajonov, Sirojiddin Ahmedov umumiy syujet chizig‘i, ishtirokchilar va ularning nomlaridagi bir xillikka tayangan holda asarning sahna varianti ham mavjudligi, u “Mushtumzo‘r” deya atalishi, buni Mannon Uyg‘urning o‘zi sahnabop qilib tayyorlagan bo‘lishi mumikinligini ta’kidlaydi. Biz Sirojiddin Ahmedov bilan shaxsan so‘zlashganimizda ham olim bu fikrni tasdiqladi. Olim fikricha, san’atshunoslik institutida saqlanayotgan Cho‘lponning “Mushtumzo‘r” nomli pesasi bir betlik bayoni “Zamona xotini”ga to‘la mos keladi. Shuningdek, “O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi” kitobi (Toshkent, 2003) mualliflari keltirgan mazkur teatr repertuarida 1928-yilning 20-oktyabrida Cho‘lponning “Mushtumzo‘r” pesasi sahnalashtirilgani, M.Uyg‘ur va M.Muhamedov rejissyorlik qilgani haqida ma’lumot berilgan (B.225.). Teatr repertuarga e’tibor bilan qaralsa, keyin ham Cho‘lpon tarjimasida ko‘plab asarlar sahnalashtirilgan, ammo Cho‘lponning biror mualliflik asari sahnaga olib chiqilmagan.

Olim Salohiddin Mamajonov maqolasida “Cho‘lponning o‘zi qayta ishlab nihoyasiga yetkazgan, hatto kirish so‘zini yozib, o‘z imzosi bilan tasdiqlagan asl nusxa qo‘limizga kirdi”, deydi. 1928-yilga mansub va shaxsan Cho‘lponning iltimosi bilan majlislar zalidan topilgan qo‘lyozmani o‘z ko‘zi bilan ko‘rganlar o‘tib ketdi. Ammo 1992-yil jurnal nashriga asos bo‘lgan bu qo‘lyozma qayerda qoldi, kimda qoldi? Biz muzey fondidan topgan manba – siyohrang muqovali daftar – Mumtoz Muhamedov topgan, Komil Yashin xabardor bo‘lgan va Salohiddin Mamajonovga taqdim qilingan daftarmidi? Agar jurnal variantiga asos bo‘lgan manba mana shu bo‘lsa, uni kim qachon olib kelgan, kimga topshirgan, daftardan A4 formatdagi qog‘ozga kim nusxa olgan, bu ish qachon bo‘lgan? Afsuski, bu savolga aniq javob yo‘q. Muzeyning qayd daftarida, kataloglarlarida bu haqida biror ma’lumot uchramaydi. Faqat bir narsani aytish mumkin, nusxa olishda foydalanilgan A4 formatdagi qog‘ozlar “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligi tahririyatiga

tegishli. Chunki ayrim qog‘ozlarning orqa qismida gazeta nomi, bank rekvizitlari va manzili ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu keraksiz ish qog‘ozlaridan foydalanilgan. Gazeta 1981-yildan “O‘zbekiston madaniyati” nomini o‘zgartirib, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” nomi bilan chiqa boshlaganini hisobga olsak, demak, 80-yillardan keyin daftardan nusxa olingan. Ammo masalani aniqlashtiruvchi yana biror hujjat qo‘limizga kirmaguncha, yetarlicha aniqlikda javob berib bo‘lmaydi. Har ikki matnni to‘la solishtiribgina, nisbatan aniqroq javob olish mumkin (2-surat).



Avvalo, Cho‘lpon tomonidan yozilgan so‘zboshi xususida. So‘zboshi Cho‘lponning o‘z qo‘li bilan yozilgan bo‘lib, dastxat buni tasdiqlaydi. So‘z so‘ngida Cho‘lpon o‘z imzosini qo‘ygan, so‘ng “1928-yil 14-may, Samarqand” deya vaqt va manzilni ko‘rsatgan. Jurnalda bosilgan so‘zboshi fotonusxasi va bizning qo‘limizdagi so‘zboshi ayni bir nusxa, matn va matn hoshiyasidagi belgilar ham bir xil. Cho‘lpon asarni 1928-yil 13-iyunda Samarqaddaligida yozib tamomlagan. So‘zboshini bo‘lsa bir oy avval, 14-may sanasida qog‘ozga tushirgan. Cho‘lponning o‘zi asarni uch qayta ishlaganini ma’lum qiladi(3-surat):



1) birinchi varianti Maskovda vaqti ikki pardali qilib, “Zamona xotini” nomi bilan yozilgan;

2) ikkinchi varianti biroz kengaytirilgan va zamonga, mavjud turmush tarziga moslangan; unda na kulgi va na fojia elementlari bo‘rtib ko‘rinmaganligi uchun muallif asarni “pesa” deb atagan;

3) uchinchi varianti; Markaziy davlat turuppasi asarni sahnalashtirish vazifasini Mannon Uyg‘urga yuklar ekan, Cho‘lpon Uyg‘urning talabi bilan “ko‘prak kulgidan iborat bo‘lg‘on burung‘i holidan chiqarib, fajiaga aylantir”gan. Cho‘lpon o‘zi ishlab chiqqan uchinchi variantni mukammal nusxa sifatida ko‘rsatadi va shu bilan “bas qildiq” deydi. Ehtimol, Mannon Uyg‘ur shu uchinchi variant asosda asarning sahnaviy talqinini yaratgan va “Mushtumzo‘r” nomi bilan 1928-yilning 20-oktyabrida tomoshabinlarga taqdim etilgan.

Asar halollik, mehnat, inson sha’nini avaylash kabi azaliy qadriyatlar ustiga qurilgan. Shuningdek, bolasini bag‘riga bosgancha, yangi ijtimoiy munosabatlar ichiga qisinib-qimtinib kirib borayotgan o‘zbek ayoli haqida so‘zlab, to‘g‘rirog‘i, ko‘rsatib beradi.

Endigi vazifa – Cho‘lponning o‘zi nazardan o‘tkizgan manba asosida asarning mukammal matnini tiklash, asar mazuniga ta’sir etadigan darajadagi tushirib qoldirilgan so‘zlar, birikmalar, iboralar, jumlalar, dialog parchalarini o‘z o‘rniga qo‘yish va nashr etish masalasidir.

Asosiy matn xususida. Unvon varag‘iga dalolat qiluvchi 1, 2-sahifalar hamda 107, 184-sahifalar yo‘qolgan. Ishtirokchilar, ya’ni aralashg‘uchilar ham Cho‘lpon xatida, ham kotib xatida ketma-ket beriladi. Cho‘lpon “*” belgisi ostida nomlarni sanash bilan cheklanadi. Kotib ko‘chirmasida qahramonlar nomi ta’rif-tavsiflari bilan keltiriladi (1-surat).



Jurnal va dastlabki kitob nashrida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. azmunga ta’sir qiluvchi uslubiy xatolar.

Mazmunga ta’sir qiluvchi xatolarning o‘zini uchga tasniflash mumkin:

– so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi, nashrda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar;

– jumlalar qurilishida yo‘l qo‘yilgan uslubiy yanglishishlar, ayrim jumlalarning tushib qolishi;

– matn asosini tashkil qiluvchi dialoglarning – katta-katta parchalarning tushib qolishi.

Dastlab, ba’zi so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi va nashrda yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarga misol keltiramiz:

“Sharofatxon yolg‘iz. Kashta tikib o‘turib, “Bir-bir bosib astagina” kuyiga qo‘shiq aytadi. Ovoz yosh, so‘zlar ochiq anglashilmaylar. Avjlarigina biroz ko‘tarila tushadi”. Mavjud nashrlarda ko‘rsatilgan so‘z *anglashiladi* shaklida keladi va o‘zidan avvalgi hamda keyingi jumlalarga teskari bo‘lgan mazmunni ifodalaydi.

Ona: “Voy aynalay, qizim-ey, bilmay qolibsan-ey...” der ekan, Sharofat: “Ha, nima bo‘ldi? Qo‘rqitmang, nima gab ekan?” deya savol beradi. Bu so‘z *qo‘rqmang* tarzida berilgan bo‘lib, yanglish ifodaga aylanadi.

“Mana bu ilonni-ey... olachipor ilon ekan... Bir kun havlida Sharofat opamni quvalag‘on ilon shu bo‘lmasin tag‘in?” jumlasidagi belgilangan so‘z *ekan* shaklida keladi va uslubiy g‘alizlik tug‘diradi.

Qahramonning nutq jarayonidagi hayajonli, alamli holatiga izoh berilar ekan, *oyoq og‘rig‘on* tarzida keladi, aslida, matndan *sekin o‘turadi, oppoq oqorg‘on* deya o‘qiymiz: “M u a l l i m *(sekin o‘turadi, oppoq oqorg‘on)*. Gabiring...”

“Qo‘lida qamishdan savat, ichida bir pichoq, qo‘shiq aytib chiqib keladi” jumlasida birikma *qoshiqdan savat* bo‘lib ketgan.

“Xuddi o‘tkan safargi qiyofat bilan kiradi, to‘g‘ru ayvon oldig‘a kelib o‘turadi, uni bor ro‘molchasini yoyadi” gapida *unga* tarzida xato beriladi.

“Lekin *bo‘shashma! Xuni* yo‘q!..” so‘zari *bu shona, guli yo‘q* deya berilgan. “Bizni ham axmoq qildi! Uning avholi shu-da! Ishtonsizning hadigi cho‘pdan, deganday, gazet dedimi – joni chiqadi...” jumlasida ko‘rsatilgan so‘z *nohaq,* deya o‘qilgan. “Ayvonda bir gala qizlar – Sharofatning o‘rtoqlari “to‘ptosh” o‘ynashib o‘turalar” gapida to‘ptosh o‘rnida *to‘p* so‘zi kelgan. Yoki “Xudo ko‘rsatmasin, aylanay! Unda Mallaxonning qizlariday bir tosh naridan turib obtoba-chilobchinga qo‘l uzatardilar...” emas, *bir bosh naridan* deyiladi. Yanada aniqroq tasavvur hosil qilish uchun kichik qiyosiy jadval ham keltiramiz:

Asliga moslangan, tuzatilgan o‘rinlar	Mavjud nashrlardagi shakli
P a t t i. Kimga tegasiz bo‘lmasa? Z u h r a *(sekin)*. Bordir xudo bandasi...	P a t t i. Kimga tegasiz bo‘lmasa? Z u h r a *(sekin)*. *Bari bir* xudo bandasi...
A z i m j o n. Iyy, unda ish yomon bo‘lar edi, xomkallalar	A z i m j o n. Iyy, *kundosh* yomon bo‘lar edi, xomkallalar
Naridan qo‘ngg‘iroq ovozi borg‘on sari yaqinlashib kela boshlaydi	Naridan *qo‘shiq* ovozi borg‘on sari yaqinlashib kela boshlaydi
S o d i q o f. Ha, ijroqumda qilg‘on ishlaringizga hisob berasiz.	S o d i q o f. Ha, *ijroqumda qog‘oz* ishlaringizga hisob berasiz.
A z i m j o n *(ovozg‘a)*. Tek o‘tur, sen xomkalla!.. O v o z. O‘zing xomkalla!..	A z i m j o n *(ovozi)*. Tek o‘tur, sen xomkalla!.. O v o z. O‘zing xomkalla!..
R u s t a m *(pichoq bilan bolishg‘a uradi)*. Mana, Sharofat!	R u s t a m *(pichoq bilan boshig‘a uradi)*. Mana, Sharofat!
Shomlatib menikiga kel, o‘zim shunday xursand qilayki, sen hayron qol!	*Shamollashib* menikiga kel, o‘zim shunday xursand qilayki, sen hayron qol!

Endi jumlalar qurilishida yo‘l qo‘yilgan uslubiy yanglishishlar, ayrim tushirib qoldirilgan jumlalarga misol keltiramiz. Mavjud nashrlarda qolib ketgan, manbaga qarab tiklangan birikmalar, jumlalar alohida ko‘rsatilgan:

1. “Shamsi anbar kokilimni o‘rgali kelsang-chi, yor,
Shamsi anbar kokilim har shoxida tilla tumor,
Ul tumorni o‘qusam, Abdilahadjon nomi bor...”

2. J o‘ r a. Kuldiray desam – unamasangiz, hasratingizga qo‘shilay desam –yana unamasangiz, nima qilay endi? Xayr. *(O‘rnidan turadi.)* Rahima xolamni so‘rab qo‘ying!

“Sh a r o f a t. Hoy, menga qara, o‘zing nimaga kelib eding?

J o‘ r a (tik turib). Qo‘ying endi, so‘ramang! Bilmasdan, o‘ylamasdan kelib qolg‘on ekanman, ming-ming pushaymon edim...

Sh a r o f a t. Kap-katta odam arazlab o‘tursa, juda qiziq bo‘lar ekan...”

3. “Qishloqning yuzi qora yigitlarini “Qo‘shchi”g‘a a’zo qilib olib, shularni ishga sol, Rahimadan “dod” deb shaharga borsinlar... *Ey, munaqa gablar ko‘b. O‘zi ham yigitlarni chaqirib, pul berib, gab o‘rgatadi...* Ilgari kuni erta bilan “Qo‘shchi” a’zosi bo‘lib olg‘on qimorbozlardan to‘rttasi ariza ko‘tarib shaharga tushib ketishibdirlar...”

4. “Otangizning o‘jarligidan qo‘rqmang! Sizni mendan boshqa hech kim ololmaydi... Hozir qizni kuchlab erga beraturg‘on zamon emas. Muni, biz otangiz kabilarga *ko‘rsatib qo‘yishg‘a yaraymiz,* xotirjam bo‘ling!”

5. Bu vaqtda orqa tomondan, duvolning ustidan Sharofatning boshi ko‘rinadi. U pastga tikilib qarag‘ach, boshini yana *devor ketiga* berkitadi.

6. “M u a l l i m. Xola, og‘zingizga qarab gabiring. Ishangan tog‘ingiz Rustam akami? Undan qo‘rqaturg‘on kishi yo‘q! Qizim yurtning kattasida deb dunyoni kuydirasizmi? *Nima bo‘libdir? Nega bemahal birovlarni poylab yurasiz?* Nima ko‘rdingiz?”

7. “U bechora bevafo erdanu yomon dunyodan qutular, men bo‘lsam kundoshdan qutulib qolarman... *Hali yoshman, bir oz tishimni tishimga qo‘yib chidasam, hoji o‘lgurdan ham qutularman...* Undan keyin, xudo bersa, nasibga yarasha, orzu-havasni ham ko‘rib qolarman”.

8. “J o‘ r a. Siz shoshmang, men zakunga to‘g‘rulay: chimmatini olib qolamiz! Qo‘lini orqasig‘a bog‘laymiz! Paranjisini yopintiramiz! *Bo‘ynig‘a ro‘molchasini – uni bilan birga osamiz!* Tumorchani Rahima xolamg‘a deb saqlaymiz”.

9. “Ikkala kundosh bir-birini ko‘rgach, olomonning kuchli hayrat-lollig‘i ostida *orqag‘a* chekiladir-da, so‘ngra birdan Rahima xola Jo‘raning quchog‘ig‘a, *Sharofat, bir xotinning quchog‘ig‘a* yiqiladi. Hamma hayron, lol, jim”.

10. “Yu n i s . Xizmatda bo‘layliq, bo‘lmasa!

A b d i l a h a d. Ie, qulluq. Boshqa vaqt xudo xohlasa”.

So‘zlar, so‘z birikmalari, jumlalarning tushib qolishi mazmunga zaha yetkazadi. Qahramonlar o‘rtasidagi suhbatda uzilishlar paydo qiladi.

Matn asosini tashkil qiluvchi dialoglarning – katta-katta parchalarning tushib qolishiga ba’zi misollarni keltirib o‘tamiz. Bu o‘rinda qo‘lyozmadagi sahifa ko‘rsatilgan.

R u s t a m *(tutiladi).* Siz, albatta... Siz ham bilasiz-ku... endi... Zokirjon hamma ishni o‘zi qilg‘on... *A b d i l a h a d. Zokirjonni aytib edim... Unga o‘zicha ayb yo‘q... Zokirjonni yaxshi bilamiz, deydi...* *R u s t a m. “Yaxshi bilamiz”, deydi... Shundaymi? (Yasama). Xayr, mayli, ishqilib, to‘kus-tugal gabirib bergan bo‘lsangiz bo‘ldi* **(105-bet)**.
A z i m j o n. O‘zingni saylaymiz, xomkalla! *R u s t a m. Men taklif qilsam o‘tasan...* *Z o k i r j o n. Ammo-lekin shuni ham bilib qo‘yinglarki...* **(143-144 betlar).**
R a h i m a x o l a *(zo‘rg‘a yurib, rayosat ustoli yonig‘a keladi)*. Meni... meni... balanga chiqib gabir demasanglar. Shu yerga zo‘rg‘a keldim, shu yerda gabirsam. *O v o z l a r. Mayli! Mayli!* *R a h i m a. Men bu qishloqning hamma ishlarini ignasidan tortib ipigacha bilaman!* **(159-bet).**
1 — x o t i n. Yigit o‘lgur Jumani qarang! Shu yerda ham yomonliq qildi-ya! *Q u m r i. Pattixon! O‘sha o‘lgur sizni olmoqchi bo‘lg‘on ekan.* *P a t t i. Ha, so‘ratib yurib edi.* Q u m r i. Voy, yerlar yutsin uni! Unga tekkandan o‘lgan yaxshi emasmi? **(161-bet).**
Z o k i r j o n. Oladimi-ya? Oldirish kerak. Shunaqa ishlardan to‘rt-beshta bo‘lsa, yana bir komissiya, yana bir saylov-da... A z i m j o n. *Ilohim, ey (bolag‘a). Hoy bola! Qaerdasan, hoy bola!* *B o l a (kiradi.) Mana men, qimizg‘a tushib edim. (Qimizni qo‘yadi).* *A z i m j o n. Ma,* ana u katta hovli bilan o‘tib, Qurbonali hojig‘a mana bu xatni ber, mehmonlarini senga qo‘shadi, etalab kelasan, xomkalla! Tuzikmi? Hovlidan olib o‘t! “Kimlar chaqirdi?” – deb so‘rasa, “yurtning ulug‘lari” degil... *eshitdingmi,* xomkalla? *B o l a. Xo‘b. (Chiqadi).* **(172-bet).**
R a h i m a. Unday bo‘lsa, xotiningiz nimaga chiqaman deydi? O‘zingizcha nima deb o‘ylaysiz? *M i r z a. O‘zingizning bir gumoningiz bormi? Ayting, axir! Qo‘rqmay ayta bering!* D e h q o n. Gumonim boru, taqsir... qiyin-da... kambag‘alchilik... islohotdan endi picha er tegarmikin deb turibman. Hali juda kambag‘alman, taqsir... Yaxshi eb, yaxshi ichib, *yaxshi kiygisi kelaturg‘ondir... Undan keyin, taqsir... bizning ellikboshimiz ancha boy bo‘lg‘on... o‘shanga tegmakchi emish deydi-ey...* **(194-195-betlar).**

Endigi nashrlarda avvalgi nashrlarda yo‘l qo‘yilgan xatolar birlamchi matn asosida tuzatilishi, bu jarayonda yuqoridagi jihatlarga e’tibor qaratilishi zarur bo‘ladi. Asarning til xusuiyatlari, xususan, sheva elementlari to‘la saqlab qolish ham shular jumlasidandir.

Asarda zamon shamollari ta’siri sezilsa-da, undagi yuksak badiiyat, xalq tilining jonli ifodasi o‘ziga ohanrabodek tortib turadi. Inson sha’ni aziz, oila muqaddas ekanligini tinimsiz uqtirib turadi. Nazarimda, bu davrga oid asarlarni muallif yashagan tuzumgagina bog‘lab baholashdek, ularni aylanib o‘tishga urinishdek ibtidoiy bosqichdan o‘tib bo‘ldik. Bu asarlarni badiiyati, najib tili va insonni sharaflashi nuqtai nazaridan har qancha o‘rgansak oz.

GAVHAR ESHCHANOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti "Boshlang 'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari homzodi

TURKIY XALQLAR "EDIGO" DOSTONI VA UNING ILMIY O'RGANILISHI HAQIDA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan "Edigo" dostonining rus, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, tatar folklorshunoslari tomonidan yozib olinishi, ilmiy o'rganilishi masalasi yoritiladi.*

Kalit so 'zlar: *Turkiy xalqlar, Erpo'lat jirov, "Edigo" "Edige", "Edigey", "Idige", "Idiku", "Adiga" dostoni, "Tulimbiy" – o 'zbekcha versiya, Chingiz va Cho'qon Valixonovlar, H.Zarifov, V.M.Jirmunskiy, Q.Maqsetov, qoraqalpoq "Edige"shunosligi, o 'zbek eposshunosligi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос записи, научного изучения эпоса "Эдиго", широко распространенного среди тюркских народов, русскими, узбекскими, казахскими, каракалпакскими, татарскими фольклористами.*

Ключевые слова: *тюркские народы, Эрполат жиров, "Едиго", "Едигей", "Идиге", "Идику", эпос "Адыга", "Тулимбий" – узбекская версия, Чингиз и Чукан Валихановы, Х.Зарифов, В.М.Жирмунский, Г.Максетов, каракалпакский" Едигей, узбекский эпос.*

Abstract: *This article discusses the issue of recording, scientific study of the epic "Edigo", widely spread among the Turkic peoples, by Russian, Uzbek, Kazakh, Karakalpak, matar folklorists.*

Keywords: *Turkic peoples, Erpolat zhirov, "United", "Edigey", "Idige", "Idiku", the epic "Adyga", "Tulimbiy"– uzbek version, Genghis and Chukan Valikhanov, X.Zarifov, V.M.Zhirmunsky, G.Maksetov, Karakalpak "Edigey", uzbek epic.*

Xalqimiz tarixidagi jangu jadallarni o'zida aks ettirib, muayyan tarixiy davr va shaxslar haqida hikoya qiluvchi mashhur dostonlardan biri "Edigo"dir.

"Edigo" dostoni ko'plab turkiy xalqlar folkloridan mustahkam o'rin olib, uni qozoq oqinlari, qoraqalpoq jirovlari, tatar yirchilari, o'zbek baxshilari asrlar osha kuylab kelganlar. Doston turkiy xalqlar orasida "Edigo", "Edige", "Edigey", "Idige", "Idiku", "Adiga" kabi nomlanib kelingan.

"Edigo" dostonining tadqiqotchilar nazariga tushib, uning yozib olina boshlanganiga sal kam ikki asr bo'lib qoldi. Shu davr orasida asarning taqdiri turli qarashlarga duch keldi. O'tgan asrning 40-yillarida dostonni chop etish, kuylash taqiqlandi. Hatto uni kuylagan qoraqalpoq baxshisi Erpolat jirov hibsga olinib 70 yoshida qamoqxonada vafot etdi[1. 7].

Dostonning dastlabki yozib olinishi va chop etilishi qozoq versiyasiga to'g'ri keladi. 1820-yilda G.I.Spasskiy tomonidan yozib olingan variant "Sibirskiy Vestnik" jurnalida bosilib chiqadi. Xodzko yozib olgan variant esa 1830-yilda Londonda ingliz tilida chop etilgan.

Shundan keyin mahalliy tadqiqotchilar dostonning turli variantlarini yozib olib e'lon qilishga kirishadilar. 1841-42 yillarda Chingiz va Cho'qon Valixonovlar yozib olgan variant P.T.Melioranskiy so'z boshisi bilan chop etiladi. Keyinchalik V.V.Radlov tomonidan Qrim tatarlari va tog'li Oltoy xalqlari orasidan yozib olingan sakkizta variantdan ikkitasi chop etildi. [2.99,121]. Shu tariqa N.Semyonov, G.N.Potaninlar [2.121] yozib olgan variantlar dunyo yuzini ko'rdi.

1907-yilda qoraqalpoq jirovlaridan "Edige"ning dastlabki varianti yozib olindi. [3.3] Bu variant P.M. Melioranskiyning shogirdi I.A.Belyaev tomonidan amalga oshirildi.

Dostonning bir qator qozoqcha variantlarini yozib olish va chop etishda Abubakir Divayevning xizmatlari e'tiborga loyiqdir. [4. 6].

Sho'ro davriga kelib, dostonni yozib olish, tadqiq qilish ishlari 40-yillargacha davom etdi.

Qozoq versiyasi bo'yicha Q.Satbayev, S.Sayfullin va S.Muqonovlar tomonidan Valixonovlar yozib olgan variant 1927, 1934 yillarda Moskvada, 1939 yilda "Batırlar jiri"ning I tomi Olma-otada bosilib chiqdi.

Q.Ayimbetovning Erpolat jirovdan yozib olgan varianti 1937-yilda Moskvada chop etildi.

Dostonning "Tulimbiy" nomi ostidagi o'zbekcha versiyasidan parcha H.Zarifov tomonidan 1937-yilda nashrga tayyorlangan "O'zbek folklori" xrestomatiyasida e'lon qilindi. Eposning o'zbekcha variantiga ushbu parcha e'lon qilingandan keyin umuman, e'tibor qaratilmadi. Faqat 2006-yildagina "Edigo"ning Robiya xalfa varianti chop etilib, kitobxonlarga taqdim etildi. [5.70–123].

Dostonning tatar versiyasining N.Hakimov nusxasi "Sovet adabiyoti" jurnalining 1940-yil 11-12 sonlarida, boshqird versiyasi variantlari "Oktyabr" jurnalining 1940-yil 6-8 sonlarida chop etilgan. Doston tazyiqqa uchraganidan keyin uning boshqird versiyasi "Agidel" jurnalining 1989-yil 1-sonida, no'g'ay versiyasi Maxachqal'ada 1991-yilda bosib chiqarilgan. Tatar versiyasi 1988-yilda Qozonda, keyinchalik 1989-yilda "Qozon utlari" jurnalining 1-sonida F.Axmetova va I.Nadirovlar tomonidan e'lon qilingan.

Dostonning qaysi xalq versiyasi e'lon qilinishidan qat'iy nazar, chop etilgan matnga yozilgan so'zboshilarda bildirilgan fikrlar asarning ilmiy o'rganilishiga yo'l ochdi.

Bu masalada Valixonovlarning so'zboshisi asar tadqiqi uchun debocha bo'lib xizmat etadi. Chingis va Cho'qon Valixonovlar qozoq "Edige"sini ilk marta yozuvga olib, nashrga tayyorlar ekanlar, asarning tadqiq qilinishiga yo'l ochib berishdi. Ular doston haqida muhim fikrlarni ilgari surib, dostonning genezisi, uning tarkibidagi mifologik obrazlar haqida fikr yuritishib, dostonning paydo bo'lishida tarixiy haqiqat izlari borligini ta'kidlashadi. Qolaversa, Edige sulolasining qadimiy avlodlari karomatli, avliyo insonlar ekanligiga e'tiborni tortishadi. [6. 229-233].

Aka – uka Valixonovlar yozib olgan variantga ilova etilgan P.M.Melioranskiyning so'zboshisida ham "Edige"dostoni haqida qimmatli fikrlar bildiriladi. Olim ushbu dostondagi voqealarning tarixiylik bilan uzviy bog'langanligini, jumladan, To'xtamishning Edigey tomonidan ataylab yuzma-yuz jangda emas, balki tungi xoinona hujum paytida tasodifan o'ldirilganligini ta'kidlaydi. [7.121]. Ushbu ishda P.M. Melioranskiy dostondagi tarixiy voqealar bilan hayotda bo'lib o'tgan tarixiy ma'lumotlarni chog'ishtirib, muayyan xulosalarga keladi.

"Edigey" haqida tadqiqot olib borgan yana bir rus sharqshunosi V.V.Bartolddir.

V.V.Bartold o'zining "Otets Edigey" maqolasida dostondagi To'xtamish bilan Edigey orasidagi tarixiy munosabatlarga, Edigeyning shajarasiga diqqatni qaratadi. Sharqshunos olim Temur, To'xtamish va Edigey munosabatlariga to'xtalib, shunday yozadi: "Temur tarixida Edigey ilk marotaba 1376-yilda tilga olib o'tiladi. Bu paytda To'xtamish Temurning yordami va qo'llab-quvvatlashi bilan dushman ustidan g'alabaga erishgunga qadar unga bir qancha hujumlar uyushtiradi. O'sha paytda O'rus xondan qochib kelgan mang'it urug'iga mansub, jo'chi ulusi amirlaridan biri

bo‘lgan Edigey To‘xtamishxonga O‘rusxonning yaqinlashib kelayotganligi haqida xabar yetkazadi”[8.800].

V.V.Bartold ushbu maqolasida Edigeyning otasi haqida so‘z yuritib, shunday yozadi: “Edigeyning otasi ilgari O‘rusxonga navkar bo‘lgan va u To‘xtamishxonga asir tushgan. O‘sha paytda To‘xtamishxon unga, mening xizmatimga o‘t, deganida Qutliqiya bu taklifni rad qiladi. Natijada To‘xtamishxon Edigeyning otasini chopib o‘ldiradi” [8.804].

Sharqshunos olimning ushbu bergan ma’lumotlari dostonda ishtirok etuvchi tarixiy shaxslar o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablarini anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixda bo‘lib o‘tgan ko‘pgina voqealar dostonda ham o‘sha voqealarga ko‘p tomonlama mos keladi. Edigey obrazining To‘xtamishdan intiqom olishi epizodi dostonda tarixiy voqealarning aks sadosi sifatida ifoda etilishi bunga misol bo‘la oladi. “Edigey” dostoni haqida tadqiqot ishlari rus olimi A.K.Borovkov tomonidan ham amalga oshirildi.

A.K.Borovkovning ta’kidlashiga qaraganda, dostondagi obraz bilan tarixdagi Edige orasida katta tafovut mavjud. Doston voqealarida ishtirok etuvchi Edige faoliyati tarixdagi Edigening faoliyatidan ancha uzoqlashadi. Dostonda Edige haddan tashqari ideallashtirilib, avliyoning farzandi sifatida tasvirlangan. [9.77].

A.K.Borovkov ushbu fikrini qozoq, qoraqalpoq, tatar va boshqa turkiy xalqlar folkloridagi Edige obraziga nisbatan umumiy tarzda ifodalagan.

Darvoqe, A.K.Borovkov maqolasining umumiy xulosasidan tarixiy Edigaga nisbatan rus yilnomalaridagi kabi noxush munosabat o‘zini namoyon qiladi.

Rus olimlari orasida “Edigey” dostoniga eng katta e’tibor qaratgan tadqiqotchi V.M.Jirmunskiydir. Olim o‘zining “Tyurkskiy geroicheskiy epos” (Тюркский героический эпос”) nomli kitobida bu dostonning turkiy versiyalariga o‘z munosabatini bildiradi. V.M.Jirmunskiy dostonning nashr qilingan va yozib olinib, turli ilmiy muassasalar fondlarida saqlanayotgan ko‘plab variantlarini ilmiy tahlilga tortadi, ular haqida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari haqida o‘z qarashlarini bayon qiladi. Shuningdek, dostonning chet ellarda, jumladan, Turkiyada Saodat Chig‘atoy tomonidan 1957-yilda nashr etilgan nusxasiga e’tibor qaratib, asarning nemis tiliga tarjimasi ham kitobga ilova etilganini, umuman, muallifning tadqiqoti e’lon qilingunga qadar asarning 30 ta varianti mavjud bo‘lib, ularning 15 tasi tarjima varianti ekanligini qayd qiladi. [10. 354].

V.M.Jirmunskiyning “Edige” haqidagi ushbu yirik tadqiqotida dastlab “Edige” eposining umumiy syujeti, undagi obrazlarga xarakteristika beriladi.

Epos negizida yotgan syujet tuzilishini umumiy tarzda quyidagicha beradi:

1. Edigening mo‘jizaviy tug‘ilishi.
2. Uning To‘xtamishxon xizmatida bo‘lishi va o‘z hukmdorining adolatsizligi natijasida Satemir (Shohtemir) huzuriga qochib kelishi.
3. Edigening Kabardin alp dev bilan urishib, Satemirning qizini ozod qilishi.
4. Edigening o‘g‘li Nureddin bilan To‘xtamishdan qasos olish uchun kurashga otlanishi.
5. Ota-o‘g‘il orasiga nizo solinishi.
6. To‘xtamishning o‘g‘li Qodirberdining Edige va Nureddinlar ustidan g‘alaba qilib, otasi taxtini egallashi.

V.M.Jirmunskiyning bergan ushbu andozasi dostonning o‘zbek (Xorazm) versiyasidan boshqa barcha turkiy xalqlar folklorida deyarli o‘zgarishsiz beriladi.

V.M.Jirmunskiyning tadqiqotida eposga asos bo‘lgan davrning tarixiy – siyosiy ahvoli tahliliga katta o‘rin ajratilgan. Ushbu tahlil jarayonida olim o‘sha davr tarixini yorituvchi ko‘plab asarlarga, jumladan, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natoiziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Abulg‘oziy Bahodirxon, Ibn Xoldun, Ibn Arabshoh va boshqalarning asarlariga o‘z

munosabatini bildiradi. Shuningdek, olim rus yilnomalaridagi To‘xtamish, Amir Temur va Edigeylarga aloqador qaydlarga ham murojaat qilib, ular yashagan muhitning ijtimoiy-siyosiy kartinasini chizib beradi.

Arab va fors tarixchilarining Edigeni “Iskandarning muqobili”, [10.377] deb ta’riflashganlari asnosida Edige haqida uning hayot paytlaridayoq tarixiy rivoyatlar yuzaga kelishiga vaziyat tug‘ilganligini ta’kidlaydi. Shu jarayonda asta-sekin epik qahramon sifatida tanlangan tarixiy shaxs biografiyasini tasvirlashda folklor elementlari ishtirok etib, eposning dastlabki ko‘rinishlari yuzaga kelganligi haqida fikr bildiradi.

V.M.Jirmunskiy o‘z ishida ayrim tadqiqotchilarning eposdagi nomlarni noto‘g‘ri talqin qilganliklariga ham befarq qaramaydi. U P.M.Melioranskiyning Bobo Tullas sochli (shashli – qozoqcha) Aziz haqida gapirib, uning Shosh – Toshkent bilan aloqador ekanligiga ishora qilishini noto‘g‘ri, deb hisoblaydi. [10.383]

V.M.Jirmunskiy eposning shakllanishida mifologiyaning katta ta’siri borligini ko‘rsatib o‘tib, bu elementlar asarning tarqalish doirasi kengayishi bilan tobora o‘z salmog‘ini oshirib borgan, degan xulosaga keladi.

V.M.Jirmunskiy ushbu qarab chiqqanimiz bo‘limdan keyin tadqiqot doirasini versiyalararo aloqalar va eposning tarixiy manbalarga munosabati masalasini tahlil etishga qaratadi. Bu masalani yoritish uchun masalalarni uch bobga ajratadi. Tadqiqotning kirish qismida qozoq folklorida botirlar jirining paydo bo‘lishi va ularga kitobiy syujetlarning ta’siri, qahramonlik qo‘shiqlarining romanik dostonlar sifatida qayta shakllanishi masalasiga to‘xtaladi. Ayni paytda olim qozoq “Edigey”ining G‘arbiy Qozog‘istonda Kichik Juz hududida yuzaga kelganligini isbotlashga harakat qiladi. Ushbu dostonning “No‘g‘ayli” davriga mansub ekanligiga urg‘u berib, XV-XVI asrlardan qozoq va no‘g‘aylarning hududda jips yashab, xalq xotirasida bu davr qozoq xonligining gullab yashnagan payti sifatida muhrlangan, degan qozoq tarixchilarining ilmiy xulosalariga ham fikr bildiradi.

V.M.Jirmunskiyning fikricha, no‘g‘ay bahodirlari haqidagi dostonlar turkumi qahramonlari “No‘g‘ay bahodirlari bo‘lib, Edigening avlodlaridir. Bular – Nureddin; Nureddinning o‘g‘li (tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra nevarasi) – Musaxon; Musaxonning o‘g‘illari – O‘raq, Mamay va Ismoil; O‘raqning o‘g‘illari – Qarasay va Qazi; botir Jambir (tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Musaning inisi, no‘g‘ay mirzasi Yamg‘urchi) va uning o‘g‘li Tel-Ag‘is”[10.384].

Ma’lumki, qozoq-no‘g‘ay versiyasining doirasi keng bo‘lib, bu turkumda “Nureddin”, “Musaxon”, “O‘raq va Mamay”, “Qaralay va Qazi”, “Tel-Agis” kabi dostonlarning har biri alohida syujetga ega. Ushbu turkumning to‘la ijrochisi bo‘lgan Murun jirov repertuarida 27 syujetdan iborat dostonlar bo‘lib, ularning tarkibida 25000 misra she’r ishlatilgan.

V.M.Jirmunskiy ushbu turkumga kiruvchi har bir dostonga o‘z tadqiqotida ilmiy tahlil ajratgan va ularning mazmunini batafsil keltiradi.

Olimning ta’kidlashicha, No‘g‘ay o‘rdasi tarixini yoritishga asosiy e’tibor qaratilgan. Olimning ta’kidlashicha, No‘g‘ay o‘rdasi taqdiri O‘rta Osiyo tarixi bilan chambarchas bog‘langan. Ushbu tarixiy voqealarni yoritish uchun o‘sha davrdagi diplomatik yozishmalarni o‘rganish, rus yilnomalarini tahlil etish, Sharqdagi manbalarni sinchiklab qarab chiqish, Evropalik sayyohlar va geograf olimlarning ma’lumotlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligini olim alohida ta’kidlab o‘tadi. O‘sha manbalardan foydalangan holda Edigo ajdodlarining tarixiy taqdiri haqida keng va ishonchli ma’lumotlar beradi.

Edige shajarasi vakillari haqida to‘qilgan rivoyatlar bevosita No‘g‘ay o‘rdasida yaratilgan bo‘lib, o‘tmish haqidagi xotiralargina emas, balki o‘sha voqealarga berilgan baho hamdir, deb yozadi V.M.Jirmunskiy [10.511] Sharqshunos olim tadqiqotining xotimasida Nureddinning qabri Shimoliy Kavkazdagi Terekning quyi qismida joylashganini, shuningdek, Edige shajarasiga

aloqador shaxslar nomi bilan ataluvchi O‘raq tog‘i, Mamay qo‘rg‘oni, Mamay ko‘li, Qrim va Feodosiya o‘rtasida joylashgan “Shoh Mamay” nomli qo‘rg‘on va qabriston, Stavropol yaqinidagi Mamaevka daryosi, Oq mola shahridagi “Mamay mola” qabristoni, Chimkentdagi Mamaevka qishlog‘i kabi toponimik nomlarga to‘xtalib, ularning eposga aloqador tomonlariga e’tiborni jalb qiladi. Shu bilan birga Mamay nomini rus lashkarboshisi, Oltin O‘rda davrida yashagan Mamay bilan aralashtirmaslikni ta’kidlaydi.

Ko‘rinadiki, V.M.Jirmunskiy ushbu keng va batafsil tadqiqotida “Edige” eposini tarixiy voqealar asosida ko‘rib chiqar ekan, tarixiy Edigening uch avlodi haqida batafsil tarixiy ma’lumot berib, o‘sha tarixiy voqealar asosida yuzaga kelgan epik turkumning tarixiy va geneologik asoslarini ilmiy jihatdan isbotlab bera olgan.

Eposning O‘rta Osiyo va Qozog‘iston, Sibirdan tortib, Kavkaz va Qrimgacha bo‘lgan katta hududga yoyilishida Edige shajarasining roli masalasi tadqiqotning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shunday qilib, V.M.Jirmunskiy “Edige” eposining tahlili jarayonida quyidagi xulosalarga keladi:

Eposning negizida tarixiy rivoyatlar yotgan bo‘lib, ularning barchasi Oltin O‘rdaning no‘g‘ayli davriga borib bog‘lanadi.

Eposdagi Edige obrazi tarixiy prototipidan farq qilib, sof epik qahramon obrazi sifatida namoyon bo‘ladi.

Eposdagi bosh qahramon qiyofasida o‘z davriga xos tipik faoliyat ko‘zga tashlanib, unda hukmdor xizmatchisining adolatsiz shohga qarshi kurashining xalq e’tiborini o‘ziga tortishi masalasi vasf etiladi.

Asar bosh qahramoni epik an’ana qoidasi doirasida tasvirlanadi: yoshligidan aqlli, jasur, adolatparvarligi bilan ajralib turadi, partenogenezis tamoyili orqali tug‘iladi, ilk jasoratini namoyon qiladi va dev bilan olishadi.

Binobarin, Edige eposda barcha sifatlari bilan to‘laligicha epik qahramon tarzida faoliyat ko‘rsatadi.

V.M.Jirmunskiyning ishlarini davom ettirgan yana bir rus sharqshunos olimi E.M.Meletinskiy ham turkiy xalq eposi, xususan, “Edigo” haqida ayrim fikrlarni qayd qilgan. Uning ta’kidlashicha, eposning tarixiy ildizlari XV– XVI asrlarda no‘g‘ay o‘rdasida hukmronlik qilgan Nuraddin, Musaxon, O‘roq, Mamay, Ismoil, Yamg‘urchi va Agis kabi shaxslar haqida yaratilgan tarixiy rivoyatlarga borib bog‘lanadi.

Olimning yozishicha, “Edige” eposida Satemir (Temur) obrazining berilishi, uning qizini Edigening xotinlikka olishida ham tarixiy haqiqat mavjud. Tarixiy manbalarning darak berishicha, Amir Temurning bitta qizi haqiqatan ham Edigening haramida bo‘lgan. Ushbu voqealar eposda an’anaviy qahramonning uylanishi motivi asosida tasvirlangan.

Umuman olganda, eposda tarixiy rivoyatlar syujet yaratuvchilik funksiyasini bajaradi [11.105].

“Edigo” eposining o‘rganilishi qozoq folklorshunosligida ham salmoqli o‘rinni egallaydi.

Qozoq olimlari orasida “Edige”ning yirik tadqiqotchisi R.Berdibayevdir. U keyingi yillarda “Edige” to‘g‘risida dadil va chuqur ilmiy mulohazalar bilan tez-tez chiqa boshladi. Bu borada uning ilk takliflaridan biri shu bo‘ldiki, “Alpamыs”, “Qobыlandы”, “Edige”, “Er Targ‘ып”, “Korug‘lы” kabi turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan dostonlarning genezisi, tarqalishi va evolyusiyasini, badiiyatini tadqiq qilishi uchun ularni qiyosiy-tipologik tarzda o‘rganishni yo‘lga qo‘yish lozim”[12. 9].

Tadqiqotchining fikricha, “Edige”, “Er Shora”, “Er Sayin” kabi dostonlarning tadqiqot ishlaridan tashqarida qolishi, ayrim ilmiy maktablar bilan bog‘liq (tarixiy maktab) olimlarning tarix bilan eposning bir-biriga juda yaqin deb anglashlarining natijasidir.

Holbuki, epos tarixda bo‘lib o‘tgan voqealarning aynan takrori emas, balki uni yaratgan xalqning orzu-armonidir” [12.11].

R.Berdibayevning ushbu fikrlari “Edige”ni tazyiq ostiga olgan ayrim kishilarga berilgan javob edi.

Shundan keyin olim ushbu doston haqidagi ilmiy ishlarini davom ettirib, asardagi tarixiylik va badiiylik masalasini keng yoritib berdi. Uning “Eposning tarixiyligi muammosiga doir” degan tadqiqotida yozishicha, “Edige batır” dostoni negizida dastlab, qandaydir tarixiy voqealar yotganligi ma’lum. Buni tarixiy arboblar bo‘lgan To‘xtamish va Temur (Satemir) va ularning faoliyati tasdiqlaydi. Keyinchalik asardagi tarixiy asoslar asta-sekin unutilib, epos epik an’analar qonuniyatiga moslangan va folklor poetikasi qonuniyatlariga mos holda uning tarkibiga ko‘plab an’anaviy motivlar, epizodlar kiritilgan. Edige haqidagi epos muntazam ravishda klassik epik shaklga ega bo‘la borgan, qaysiki undan tarixiy voqealar ko‘lankasini, yilnomalarga xos tarixni anglab olish juda qiyin. Shu sababli epik obraz qiyofasidagi Edige tarixiy Edigening nusxasi emas. Edige xalq epik mahsuli bo‘lib, unda xalq adolatli hukmdorning badiiy umumlashgan obrazini ko‘rishni orzu qiladi.

Fikrimizcha, “No‘g‘ayli davri eposi”ga ana shu pozitsiya nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lish zarur” [13.68].

R.Berdibaev ushbu tadqiq ostida “Edige” eposining keyingi geneologik turkumiga kiruvchi “Qarasay-Qazi” eposiga ham o‘z munosabatini bildiradi. Olimning fikricha, keyingi doston “Edige”dan epos qonuniyatlari nuqtai nazaridan qaralganda, jiddiy farqlarga ega. Bu asarda O‘raq, Mamay, Musa kabi no‘g‘ay O‘rdasi davri voqealarini eslatuvchi kishilarning nomlarigina saqlanib qolgan. Binobarin, asar to‘laligicha sof qahramonlik eposi bo‘lib, undagi qahramonlar va ularning faoliyati, voqealar tasviri to‘la ideallashtirilgan. Ya’ni, unda tarixda nimalar yuz bergani emas, balki nimalar yuz berishi kerakligi, nimalar yuz berishi lozim ekanligi ko‘rsatib berilgan. Asarda fantaziya kuchli bo‘lib, xalq ijodiga xos mubolag‘alar jang epizodida, bahodirlarning yakka olishuvida, epik otning imkoniyatlarida o‘zini yaqqol namoyon qiladi. Hatto ot odam bilan gaplasha oladi” [13.71].

Tadqiqot nihoyasida muallif “Edige” eposi tadqiqining hali talabga javob bermayotganligini, uni turkiy xalqlar versiyalari bilan qiyosiy o‘rganish asosiy vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Keyingi yillarda, ayniqsa, Qozog‘iston mustaqil respublika sifatida faoliyat ko‘rsata boshlagandan keyin xuddi bizning mamlakatimizdagi kabi u joyda ham madaniy merosga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Folklor asarlarini, xususan, eposni o‘rganish, qayta nashr qilish ishlari faollashdi.

1999-yilda “Edige” eposining ettita varianti “Edige batır” nomi bilan chop etildi. Ushbu nashrning yuzaga kelishida R.Berdibayevning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu majmuaga eposning eng mukammal nusxalari tanlab kiritilgan. O‘z navbatida “Edige batır” maktab va oliy o‘quv muassasalari dasturiga kiritilib, yosh avlodning bu doston bilan tanishishiga keng yo‘l ochilgan.

R.Berdibayev majmuaga ilmiy mukammal so‘z boshi yozib, unda eposning tarixiy-geneologik, tarixiy tipologik ildizlarini ochib berish bilan birga uning yozib olinishi, variantlarning yig‘ilishi, e’lon qilinishi va eposning tadqiq qilinishining metodologik tamoyillari haqida keng ma’lumot berilgan.

Taniqli olimning maslahati bilan “Edige batır”ning oxirida ushbu majmuaga kiritilmay qolgan boshqa ko‘plab nusxalar haqida ilmiy sharhlar ilova etilgan.

R.Berdibayev majmuaga yozgan so‘z boshisida “Edige”ning qozoq xalqi orasida juda ommaviy tarqalganligini ta’kidlab, xalqning o‘z qahramoni haqida doimo so‘zlab yuradigan “Edige degan er edi, el g‘amini yer edi” maqolini keltiradi. Albatta, xalq hamma qahramonlar haqida ham

maqol yaratavermaydi. Edige xalqning nazdida xalqparvar, adolatli, sahovatpesha hukmdor qiyofasida namoyon bo‘lgani bois, u oddiy kishilarning sevimli qahramoniga aylangan.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, Oltin O‘rdaning yagona oilasidan tarqalgan qozoq, tatar, qoraqalpoq, no‘g‘ay, boshqird xalqlari Edige botirni yetakchi sanab, uni hamisha qadrlab kelishgan. Binobarin, “Edige batыr” bir paytlari qudratli davlat barpo qilib, dunyoda o‘z o‘rniga, o‘z salmog‘iga ega bo‘lib, qahramonlik qobiliyatiga putur yetkazmay kelayotgan tubi bir bo‘lgan qator turkiy xalqlarning ertak tarzida namoyon bo‘lgan tarixiy hujjatidir” [14.48].

R.Berdibayev “Edige” dostoni haqida so‘zlar ekan, tarixiy shaxslar bo‘lgan To‘xtamish, Edige va Satemir (Amir Temur) kabi hukmdorlar bilan eposdagi obrazlarni bir-biridan ajratib qarash lozimligini alohida ta’kidlaydi.

Olimning fikricha, To‘xtamish, Edige va Amir Temur (Satemir) kabi tarixiy shaxslarning o‘z davridagi faoliyatini ijobiy baholab bo‘lmaydi. To‘xtamish va Edige jahonga tanilgan Oltin O‘rdaning qudratini mustahkamlash, xalqaro obro‘sini ko‘tarish, xalqning farovon yashashini ta’minlash o‘rniga mansab talashib, o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan qaytmay xalqni xonavayron qilib, parokandalik, urush-talashni avjiga chiqardilar. Amir Temurning faoliyati ham ularnikidan qolishmaydi.

Zero, eposda bu shaxslarning obrazlari talantli jirovlar tomonidan butunlay qayta ishlangan bo‘lib, o‘z prototiplaridan mutlaqo farq qilib, xalq orzu qilgan ideal qahramonlari qiyofasiga ega bo‘lganlar.

Edige obrazida xalq o‘z Vatani, el-ulusi uchun jonini fido qiluvchi botir jangchini, adolatpesha hukmdorni tasavvur qiladi.

Umuman olganda, R.Berdibayev qozoq “Edige”sini har tomonlama tahlil qilib, ko‘p masalalarda V.M.Jirmunskiy xulosalalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga V.M.Jirmunskiy nazariga tushmagan ayrim variantlar haqida mustaqil fikrlar bildiradi.

Binobarin, qozoq folklorshunosligida “Edige” dostonini qaytadan tadqiq qilish ishlari o‘tgan asrning 80-yillariga kelib boshlandi va so‘nggi davr folklorshunosligi qo‘lga kiritgan yutuqlar asosida ilmiy-nazariy tahlilga tortildi.

“Edige” eposining qoraqalpoq folklorshunosligida to‘planishi, chop etilishi va tadqiq qilinishi alohida e’tiborga loyiq.

Qoraqalpoq “Edige”sini folklorshunoslardan birinchi bo‘lib Q.Ayimbetov yozib olib, tadqiqot doirasiga tortganini alohida ta’kidlash lozim. Folklorshunos olim doston bosh qahramoni Edige haqida ko‘plab afsona va rivoyatlarni ham to‘plab, ular haqida o‘z fikrlarini bayon qilgan.

Q.Ayimbetov “Karakalpakskie narodnыe skaziteli” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida “Edige” dostonini qoraqalpoq eposining ikkinchi – “No‘g‘ayli” davriga to‘g‘ri kelishini ta’kidlab, eposning tili va badiiyati mukammal ishlanganligini qayd qiladi. Eposning “O‘raq-Mamay”, “Qarasay-Qazi” kitoblarining qozoq jirovlari tomonidan kuylanib kelinayotgani haqida ma’lumot berib o‘tadi [15. 17].

Folklorshunos olim keyingi tadqiqotlarida ham epos haqidagi xulosalarini bayon qilib, uning bosh qahramoni bilan aloqador inonchlar haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlarni ilm olamiga olib kirdi. Masalan, qoraqalpoqlar ot kasallikka chalinsa, avvalo, otni choptirib, terlagandan keyin tuproqni uyum qilib, Edigening ramziy qabrini yasab, uning tevaragidan otni aylantirar ekanlar.

Eposni ijro qilganda, asosan, uni keksalar tinglashib, hatto dostondagi fojeaviy voqealar tasvirida kunni bulut qoplab, yomg‘ir yog‘ar ekan [16.95].

Folklorshunos olim keltirgan bu rivoyatlar Edigening yoshlikda yilqi boqib, yilqichilik piri sifatida e’tirof etilishining bir ko‘rinishidir. Qolaversa, “Edige” dostonidagi bosh qahramonning ilohiy bir shaxs sifatida ulug‘lanishidir.

Har qanday epik qahramon xalq qalbiga teran ildiz otsagina uning to‘g‘risida ushbu toifadagi rivoyatlar ro‘yobga chiqadi.

Qoraqalpoq “Edige”sining ilk tadqiqotchilaridan yana biri taniqli olim N.Davqarayevdir. U qoraqalpoq dostonlarini tasnif qilar ekan, “Edige”ni “Botirlar jiri” turkumiga kiritadi.[17.59]

Ayrim tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, N.Davqarayev Xorazmda qissaxonlar tomonidan o‘qilib kelinayotgan “Tulimbiy” (“Edige”) dostonini “Edige” eposining Xorazm varianti deb belgilaydi[17. 40].

Taniqli olim dostonning ushbu variantini nashrga tayyorlagan bo‘lsa ham ayrim sabablar bilan epos chop etilmay qolgan.

N.Davqarayev qo‘lyozma tarzida tarqalgan nusxani “Xorazm varianti” deb to‘g‘ri belgilaydi. Chunki bu nusxa qoraqalpoq versiyasidan jiddiy farq qiladi.

Eposning qoraqalpoq versiyasi haqida professor I.Sag‘itovning tadqiqotlarida ham e’tiborli fikrlar mavjud.

“Edige”ni olim tarixiy dostonlar toifasiga kiritadi. U ushbu eposni tadqiq qilgan rus olimlari A.K.Borovkov, V.M.Jirmunskiylarning xulosalariga qo‘shilgan holda, epos tarixiy voqealarni o‘zgarishsiz holda emas, balki o‘sha voqealarga turli afsona va rivoyatlarni aralashtirgan holda tasvirlaydi. “Edige” dostoni ham shu jihatdan qaraganda yarim afsonaviy xarakterga ega, deb belgilaydi [18.55].

Tadqiqochining fikricha, epos haqiqiy tarixning o‘zi emas, undan tarixiy dalillarni axtarmaslik lozim. Lekin epos tarkibida shunday qimmatli dalillar borki, ular tarixiy solnomalarda qayd qilinmaydi. Bular epos tarkibida uchraydigan xalqning uzoq o‘tmishiga oid siyosiy-iqtisodiy, madaniy hayoti, tili, urf-odati va turli marosimlarining aks sadosidir. Ilgarida yozuvi bo‘lmagan xalqlar uchun esa bu ma’lumotlar ayniqsa, qimmatlidir [18.57].

Qoraqalpoq olimlari orasida “Edige” eposini tahlil qilish, chop etishda Q.Maqsetovning xizmatlari kattadir. Q.Maqsetov “Edige”ni XIV-XV asrda paydo bo‘lgan, qoraqalpoqlar “no‘g‘ayli” davriga oid epos ekanligini ta’kidlagani holda eposning ijrochilari va ularning ijro mahoratlari haqida ayrim ma’lumotlarni keltiradi [19.48].

Q.Maqsetov “Edige” eposini tarixiy dostonlar toifasiga kiritadi. Uning shakllanishi, avloddan-avlodga o‘tib kelishi jarayonini xalqning qadimiy orzu-istaklari bilan bog‘lab tahlil etadi. Olimning ta’kidlashicha, oddiy xalq o‘z tarixi davomida hamisha “Odil hukmdor”, “Odil xon”, “Odil bahodir”larni orzu qilib kelgan. “Edige” eposining bosh qahramoni bo‘lgan “Edige bahodir” ana shu orzu– armonlar yig‘indisi sifatida tarixiy shaxs qiyofasidan epik qahramon obraziga o‘tgan va uzoq yillar xalq e’zoziga sazovor bo‘lib, adolatparvarlik, insoniylik, do‘stlik, elga xizmat etuvchi bahodir timsoliga aylangan [20.296].

Folklorshunos olim o‘zining “Қарақалпақ фольклористикасы” kitobida Ch.Valixonov, A.Divayev, I.Belyayev, N.Baskakov, N.Davqarayev va boshqa qator folklorshunoslarning faoliyatiga baho berar ekan, ularning “Edige” dostoni xususida bildirgan fikrlarini tahlil qilib, o‘z munosabatini bildiradi [21.149].

Q.Maqsetov “Дастанлар, жыраўлар, бақсылар” nomli kitobining bir bobini “Edige” dostonining tadqiqiga bag‘ishlagan. Bob “Edige” dostonining badiiy tili” deb nomlangan bo‘lib, olim dostonning ijrochilari, g‘oyaviy mazmuni, obrazlari haqida fikr yuritadi. Dostondagi epik qahramonning tug‘ilishi, onasining pariga, otasining ilohiy shaxsga aloqadorligi, yoshlikda mard, epchil bo‘lib, o‘sishi, dev bilan olishuvi, uning yilqichilik piriga aylanishi folklorga xos fantaziya va mubolag‘a orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlab, olim asarda Edige va To‘xtamish o‘rtasidagi ziddiyat, uning Satemir (Temur) huzuriga borishi, Nuraddinning otasini izlashi, otasi bilan o‘zaro kelishmovchiliklar chiqishi va ota-bolaning yarashuvi kabi voqealar real hayotiy voqealar ekanini ta’kidlaydi.

Folklorshunos olimning ta'kidlashicha, "Edige" dostonining boshqa dostonlardan asosiy farqi shuki, asarda "Qirq qiz", "Qo'blon", "Alpomish" kabi dostonlardagi kurash voqealari asosan, tashqi dushmanlarga nisbatan olib borilsa, "Edige"da bu kurash el ichidagi zulm-zo'rlikka, mustabid hukmdor bilan adolatparvar bahodir o'rtasida olib boriladi. Qoraqalpoq versiyasida tashqi yov haqida so'z yuritilmaydi"[22. 183].

Q.Maqsetov asarni tarixiy dostonlar toifasiga kiritib, uning Erpolat jirov varianti badiiy tili haqida atroflicha fikr yuritadi.

Dostonni xalqning XIV-XV asrlardagi maishiy hayotini, tili, urf-odatini, ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'rganishda o'ziga xos bir manba sifatida baholaydi.

Folklorshunos olim "Edige" dostonini nashrga tayyorlash, uning eng yaxshi namunalarini xalqqa taqdim etish borasida ham ancha ishlarni amalga oshirdi. 1990-yilda chop etilgan "Edige" dostonining Qiyos jirov variantini nashrga tayyorlab, unga batafsil so'z boshi yozgan[23.126].

"Edige"shunos olimning ushbu so'zboshisida asarning Qiyos jirov varianti o'zining to'la ilmiy tahliliga ega bo'lgan.

Ma'lumki, qoraqalpoq "Edige"sining eng mukammal varianti Qiyos jirov repertuarida yashab kelgan. Bu variant keng ko'lamliligi, badiiy bo'yoqdorligi, she'riy misralarning mukammal ishlanganligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Olim ushbu so'zboshisida ham eposni tarixiy-qahramonlik dostoni sifatida belgilaydi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda "Edege"shunoslik yuqori bosqichga ko'tarildi. Doston haqida ko'plab monografiyalar, maqolalar yozildi, doktorlik ishi himoya qilindi.

Shulardan biri taniqli folklorshunos S.Bahadirovaning tadqiqotlaridir [24.148]. S.Bahadirova o'z monografiyasining bir bobida "Edige" dostonini qozoq va tatar versiyalari bilan qiyoslagan holda tahlil qiladi. Tadqiqot muallifi "Edige" dostonining to'qqizta varianti yozib olinganini qayd qiladi. U turkiy versiyalarni solishtirar ekan, eposdagi toponimlarga e'tibor qaratib, qozoqchada Nil daryosi tilga olinishini ta'kidlaydi.

Bu uchala versiyani ko'lami nuqtai nazaridan baholab, tatarcha versiyaning qozoqchadan hajman katta bo'lgani holda qoraqalpoqchadagi Qiyos jirov variantidan kichik ekanini aytib o'tadi. O'z navbatida qozoq va qoraqalpoq versiyalarining kompozitsion qurilishini qiyoslaganda, Ch.Valixonov yozib olgan variant bilan Erpolat va Qiyos jirovlar variantlari o'zaro o'xshash, degan to'xtamga keladi [24.52].

S.Bahadirovaning tadqiqoti keng qamrovli bo'lib, uchala versiyadagi asosiy voqealarni tahlil qilishga qaratilgan. Bu jihatdan tadqiqot originallik kasb etadi. Qoraqalpoq "Edige"shunosligida salmoqli o'rin egallagan tadqiqotlardan biri K.Allamberganovning "Edige" haqidagi doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasidir [25. 57] Muallif monografiyada eposning genezisi, janr sifatida shakllanish yo'llari va milliy versiyalar bilan tipologik xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumot beradi.

Monografiya muallifi rus, qozoq, qoraqalpoq olimlarining "Edige" dostonining versiyalari haqida amalga oshirgan tadqiqotlariga munosabat bildirib,V.M.Jirmunskiyning xulosalarini qo'llab-quvvatlaydi. Eposning qoraqalpoq versiyasining 10 ta varianti, boshqa versiyalarning 19 ta varianti yozib olinganini, bu variantlardan o'n uchtasi chop etilganini qayd qiladi. Monografiyaning I bobida qoraqalpoq "Edige"sining tarixiy ildizlari va epos sifatida shakllanish jarayoni tadqiq etilgan bo'lib, muallif Edige obrazining yaratilishida qadimgi turk qavmlariga aloqador Alp Erto'nga, Kultegin kabi obrazlar andoza sifatida xizmat qilganini, shuningdek, dostonga "Qo'rqut ota kitobi"ning sezilarli ta'siri borligini to'g'ri ta'kidlaydi.

K.Allamberganovning e'tiroficha, "Edige" dastlab "jir" sifatida paydo bo'lib, XIV asr oxiri XV asrning birinchi choragida lirik janrdan o'sib, epik janrga o'tgan [26.39].

K.Allamberganov “Edige” eposining dastlabki paydo bo‘lishi masalasida qozoq folklorshunosi A.Qongratboev bilan munozaraga kirishib, uning ushbu eposning paydo bo‘lishini asar prototipi hayotidan yuz yil keyin yozma ravishda ro‘yobga chiqqanligi fikriga qarshi chiqadi va eposni A.Qongratboyev ko‘rsatganidek, 1560-yilda emas, balki 1391-1406 yillardayoq to‘liq shakllanganligini ta’kidlaydi [26.43

Bu xulosalarini Edigening hayot paytlaridayoq to‘qilgan rivoyatlar bilan asoslashga harakat qiladi.

Eposning janriy belgilarini aniqlash borasida monografiya muallifi ayrim olimlar bilan bahsga kirishib, N.Davqarayev, Q.Ayimbetovlarning “Edige” eposini “batırlar jiri” deb belgilashlariga qo‘shilmasligini ta’kidlaydi. Olimlardan I.Sag‘itov, Q.Maqsetovlarning fikrini quvvatlagan holda “Edige”ni tarixiy-qahramonlik doston sifatida qarash lozim, degan xulosagaga keladi.

Monografiyaning II bobida qoraqalpoq “Edige”sining milliy alohidaliklari yoritib beriladi. Ushbu jarayonda muallif qoraqalpoq “Edige”sining har bir variantiga xarakteristika berib, eng ixcham variant sifatida Bekimbet jirov variantini ko‘rsatib o‘tadi. Ushbu jirovning I.Belyayev tomonidan savodsiz kishi deb baholanganiga e’tiroz bildirib, jirovning qo‘lyozma manbalar bilan aloqadorligini isbotlovchi dalillar keltiradi.

Qiyos jirov variantini tadqiqotchi eng to‘liq, mukammal variant sifatida baholaydi va jirovga xos bo‘lgan ikki xususiyatga – birinchidan, uning savodxonligiga, ikkinchidan – yuksak badehago‘y qobilyatiga ega bo‘lganligiga asosiy e’tiborni qaratadi.

Oteniyoz jirov variantini esa hajman kichik bo‘lsa-da, unda tarixiylik xususiyatlarining ancha kuchli ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Monografiya muallifi variantlarga xarakteristika berayotib, dostonning “Tulimbiy”, “Tulumxo‘ja” nomlari bilan ataluvchi qissa variantiga ham to‘xtab o‘tadi. Bu variantning H.Zarif tomonidan 1939-yilda tuzilgan xrestomatiyadagi variantga yaqin ekanligini qayd qilib, unga xos bo‘lgan asosiy xususiyat Edigening qalmoq yurtiga jo‘nab ketishi, Satemir, Edigening o‘g‘li Nuraddin kabi obrazlarning yo‘qligida deb ta’kidlaydi.

Aslida ushbu variant qo‘lyozma nusxa bo‘lib, Xorazmda juda keng ommalashgan, qissaxon xalfalar repertuarida yashab kelayotgan, bir vaqtlari N.Davqarayev “Edige” dostonining “Xorazm varianti” deb nomlagan asardir.

K.Allambergenov ham bu nusxani “Xorazm varianti” sifatida baholaydi [26.73]. 2005-yilda e’lon qilgani “N.Davqarayev va qoraqalpoq folklori” maqolasida ham o‘sha fikrini ta’kidlaydi [27.38].

Ushbu bobning keyingi qismida muallif variantlarda obrazlarning berilishiga e’tiborni jalb qilib, ularning badiiyati haqida ham fikr yuritadi va tegishli to‘xtamlarga keladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, K.Allambergenov qo‘lyozma nusxalar tarzida tarqalgan, “Edigo” deb yuritiladigan Xorazm varianti, “Tulumbiy” nomli shobbozlik A.O‘tenov varianti, “Ibn Tukli Aziz” nomli Qalimbek qipchoq varianti kabi qo‘lyozmalarning har birini alohida variant deb belgilaydiki, bu fikrga unchalik qo‘shilib bo‘lmaydi. Avvalo, bu qo‘lyozmalarni variant emas, balki kitobiy qo‘lyozma nusxa deb nomlagan ma’qul. Qolaversa, bu qo‘lyozmalarning barchasi ham dostonning Xorazm varianti(versiyasi)dan iborat bo‘lib, kitobdan kitobga ko‘chirilgan. Ulardagi farqlar esa unchalik ko‘p emas.

Bu nusxalar bundan yuz yillar burun (jumladan, nashr qilingan nusxa 1830-yilda ko‘chirilgan.) yozuvga olinib, turli yillarda turli kotiblar tomonidan ayrim juz’iy o‘zgarishlar bilan ko‘chirilib kelingan.

“Edigo” dostoni qo‘lyozmalari haqida ham o‘sha fikrni aytish mumkin. Chunki arab alifbosida bitilgan qo‘lyozmalar turkiy xalqlarning barchasiga bir xilda xizmat qilganligi o‘z-o‘zidan ma’lum.

Q.Allambergenov o‘z monografiyasining uchinchi bobida qoraqalpoq “Edige”sini turkiy xalqlar versiyalari bilan qiyosiy o‘rganib, qozoq, tatar, boshqird, no‘g‘ay versiyalarini tahlilga tortadi. Ushbu tahlil jarayonida tadqiqotchi qoraqalpoq versiyasining hajm jihatdan katta ekanini ta’kidlab, uning boshqa versiyalar ichida syujet, kompozitsiya, motivlarning ko‘pligi, badiiyati jihatidan ham ancha ustun ekanini isbotlashga harakat qiladi. Eng asosiysi, ushbu versiyalar geneologik ildizining yagona nuqtaga birlashishini isbot qiladi.

Q.Allambergenovning ushbu tadqiqoti qoraqalpoq “Edige”si borasida qilingan barcha izlanishlarni umumlashtiradi va epos haqida to‘laqonli ma’lumotlar bera oladi.

Qoraqalpoq “Edige”si bo‘yicha izlanishlar olib borgan folklorshunos K.Mambetovning ishlarida ham epos bilan aloqador original fikrlarga duch kelish mumkin [28. 120].

K.Mambetov o‘z tadqiqotida qoraqalpoq adabiyotining asoschilaridan biri bo‘lgan Soppasli Sipira jirov haqida so‘z yuritib, Ch.Valixonovning Sipira jirov “Edige” dostonining muallifi bo‘lishi kerak, degan fikrini qo‘llab-quvvatlaydi va jirovni “O‘zi tomonidan yozilgan “Edige” dostonida bosh qahramon sifatida qatnashadi”,[28.121] deb yozadi. “Qrimning qirq botiri” jirining ham Sipira jirovga tegishli ekanini ta’kidlab, uni “Igor polki jangnomasi”dagi Bayan obraziga tenglashtiradi. U Jirov “Edige” dostonidagi voqealarning ishtirokchilaridan biri bo‘lgan, deya qat’iy hukm chiqargan.

K.Mambetovning yuqoridagi xulosasi ancha munozarali bo‘lib, jiddiy tekshirishlarni talab etadi. Biroq, Soppasli Sipira jirovning dostonning dastlabki shakllanishiga o‘z to‘lg‘ovlari bilan sezirlarli ta’sir ko‘rsatganini inkor qilish qiyin. Zero, dostonning to‘la shakllanishida ko‘plab jirovlarning hissasi borligi o‘z-o‘zidan ma’lum.

Qoraqalpoq “Edige”shunosligi sohasida Q.Bayniyazov,[29.123] H.Hamidov[30.79], M.Maqsetova [31.129] kabi olimlar ham salmoqli tadqiqotlar yaratishdi.

Mazkur tadqiqotlarda dostonning turli variantlari, tarixiy-geneologik ildizlari atroflicha tahlil etilishga harakat qilingan.

Dostonning turkman folklorshunosligida o‘rganilishiga kelsak, bu masalada jiddiy tadqiqotlar juda kam. Doston haqida ayrim qaydlar XVIII asrda yashab ijod qilgan turkman shoiri Gurbanali-Ma’rufiy ijodi bilan bog‘liq holda uchraydi. Jumladan, M.Ko‘sayevning “Yusuf-Ahmad” dostoniga yozgan so‘zboshisida[32.5]Q.Durdiyevning “Davlatyor” dostoniga yozgan so‘zboshisida [33.15] turkmanlar orasida mavjud bo‘lgan “Tulumxo‘ja” dostonining Ma’rufiy tomonidan qayta ishlanganligi aytilib, asar uning ijodiga taalluqli ekanligi ta’kidlanadi.

Turkman olimi Qaqajon Durdiyevning yozishicha, shoir Ma’rufiy Xivada ta’lim olgan bo‘lib, umrining bir qismini Mang‘ishloq, Astraxan tomonlarda kechirgan [33.20]. Ushbu ma’lumot nuqtai nazaridan qaraganda, shoir “Tulumxo‘ja” dostoniga asos bo‘lgan syujetni qozoq oqin va jirovlaridan eshitgan bo‘lishi, keyinchalik o‘sha syujet asosida asarning qissa variantini yaratgan bo‘lishi mumkin. Biroq Ma’rufiyga tegishli variantning chop etilganligi haqida hech qanday ma’lumot berilmagan.

“Tulumxo‘ja” dostoni uzoq yillar davomida turkman folklorshunosligida o‘rganilmasdan va chop etilmasdan kelindi. Nihoyat, 1993-yildagina asarning nashr qilinishiga erishildi [34.21].

Turkman folklrshunosligidagi doston haqidagi eng batafsil ma’lumot ham o‘sha kitobning so‘zboshisi hisoblanadi.

So‘zboshi muallifi B.Veliyevning ta’kidlashicha, doston Turkmanistonning Toshhovuz mintaqasidagina mashhur bo‘lib, nashr etilgan variant ham o‘sha hududdan topilgan.

Tadqiqotchining fikricha, bu mintaqada yashovchi chovdur urug‘iga mansub turkmanlar bir paytlar no‘g‘ay qabilalari bilan yonma-yon yashashgan. Keyinchalik ular Xorazm vohasiga ko‘chib o‘tishgan va o‘zlari bilan ushbu dostonni ham olib kelishgan.

Turkman olimi ushbu so‘zboshisida ayrim obrazlarning prototipi masalasiga ham e’tibor qaratadi. Uning yozishicha, Tulumxo‘janing prototipi XIV asrda Mang‘ishloq turkmanlariga hokimlik qilgan To‘lixo‘jadir. Bu shaxs Chingizxon avlodidan bo‘lib, To‘xtamishxonning otasidir.

To‘kashoh obrazi prototipi esa Stavropol turkmanlaridan bir qavmini Xitoyga olib ketgan qalmiq xoni Ubushidir[34. 8].

Shuningdek, tadqiqotchi dostondagi ayrim epizodlarning “Go‘ro‘g‘li” eposidagi voqealarga o‘xshashligini, bu epizodlar dostonlarning biridan ikkinchisiga o‘tgan bo‘lishi mumkinligi haqidagi taxminiy fikrlarni ham qayd qilib o‘tadi.

Fikrimizcha, “Go‘ro‘g‘li” va “Tulumxo‘ja” dostonlaridagi dev bilan olishuv, olib qochilgan qizning or-nomusini saqlash uchun kurashishi kabi motivlar har ikkala dostonga ham arxaik epos-dan,aniqrog‘i, “O‘g‘uznoma”, “Dadam Qo‘rqut kitobi” kabi qadimiy yodgorliklardan o‘tgan.

B.Veliev ushbu tadqiqotida “Tulumxo‘ja” dostonini turkman xalqi tarixi bilan bog‘lagan holda tahlil etadi. Biroq dostonning Ma’rufiy ijodiga aloqadorligi haqida ma’lumot bermagan.

Bizningcha, “Tulumxo‘ja”ning Ma’rufiy ijodiga bevosita aloqasi bor. Lekin doston keyinchalik turli kotiblar tomonidan ko‘chirilib, turli qissaxonlar repertuariga ko‘chib, muayyan o‘zgarishlarga uchragan va Ma’rufiy qayta ishlagan variantdan jiddiy farq qiluvchi ikkinchi variant yuzaga kelgan.

Ushbu doston, asosan, Xorazm mintaqasida yaratilgan va shu mintaqada keng tarqalgan. Yuqorida qayd qilganimiz doston turkmanlarning chovdur urug‘i istiqomat qiladigan Po‘rsidan (hozirgi Bo‘ldimsoz tumani) topilgani haqidagi qayd ham fikrimizni tasdiqlaydi. Qolaversa, “Tulumxo‘ja”ning yana bir turkmancha varianti Qoraqalpog‘iston respublikasining Xo‘jayli tumanidan topilgan. Bo‘ldimsoz va Xo‘jayli tumani yonma-yon joylashgan. Zero, dostonning turkman versiyasining asosiy variantlari tarqalgan hududlar Xorazm mintaqasi bilan uzviy bog‘langan. Bu esa dostonning asosiy ildizi Ma’rufiy ijodiga borib bog‘lanishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tatar folklorshunosligida “Idega” eposi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlar XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. O‘sha paytlarda dostonning o‘ttizdan ortiq variantlari yozib olinib, nashr qilish ishlari boshlangan. Tatar “Idega”sini dastlab yozib olgan va asar haqida ma’lumot bergan tatar ziyolilaridan biri Nigmat Hakimdir. Uning ta’kidlashicha, doston “To‘xtamishxon-Idegabiy-Nuraddin-Qodirberdilar ishtirokidagi 1388-1419 yillardagi voqealarni o‘z ichiga oladi”[35.286].

XX asr boshlarida tatar folklorshunosligida “Idega”shunoslik borasida boshlangan izlanishlar dostonga o‘tkazilgan taz’yiq natijasida uzoq yillar to‘xtab qoldi. Nihoyat,o‘tgan asrning 80-yillariga kelib, I.Nadirovning “Idega” haqidagi maqolalari e’lon qilina boshlandi [36.10].

I.Nadirovning ushbu maqolalari hajman kichik bo‘lsa-da, asarning genezisi, obrazlari, badiiyati haqida kitobxonga yetarli darajada ma’lumot bera oladi.

Shuningdek, I.Nadirov “Tatar folklorini o‘rganish muammolari va yakunlari” maqolasida ham “Idega” eposi va uni qardosh xalqlardagi versiyalar bilan qiyosiy o‘rganish masalalariga to‘xtalib o‘tadi[37.46].

Darvoqe, tatar olimlarining ta’kidlashlaricha, Oltin O‘rda davrida yaratilgan barcha adabiy yodgorliklar o‘sha davlat tasarrufiga kirgan tatar, o‘zbek, no‘g‘ay, qozoq, boshqird kabi qator xalqlar uchun umumiylik kasb etadi [38.65]. Shunday ekan, ushbu dostonni qiyosiy tarzda o‘rganish har jihatdan muhimdir.

O‘zbek folklorshunosligida “Edigo”, “Tulumbiy”, “Tulumxo‘ja” kabi turli nomlarda aytilib kelinayotgan ushbu doston haqidagi tadqiqotlar juda kam.

Yuqorida ta’kidlanganidek, o‘zbek folklrshunosligining taniqli vakili Hodi Zarif dostondan ayrim parchalarni “O‘zbek folklori” xrestomatiyasiga kiritgan va asarni “Tulumbiy” nomi bilan atagan. Bu parchalar Xorazmda tarqalgan qo‘lyozma nusxalarga aloqadordir.

Dostonning o‘zbek versiyasi haqida ayrim qaydlargina mavjud. Jumladan, “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligida tarixiy dostonlar haqida so‘z yuritilib, doston haqida quyidagicha fikr bildirilgan: “Tarixiy fantastik dostonlarga “Tulumbiy”, “Shayboniyxon” kabilarni kiritish mumkin. “Shayboniyxon” dostonida epik voqelik yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo‘lsa, “Tulumbiy”da ayrim tarixiy shaxslar nomidan bo‘lak hech narsa qolmagan, ya’ni unda syujet tarixiy voqealik asosida emas, balki ishqiy-sarguzasht yo‘nalishda rivojlanadi.

Bunday dostonlarda qachonlardir bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar epik bayon uchun umumiy fon vazifasini o‘taydi, xolos”[39.205].

O‘zbek folklorshunosligida tarixiy dostonlar haqida so‘z yuritilgan ayrim tadqiqotlar bo‘lsada, ularda “Edigo” dostoni umuman tilga olinmaydi. Jumladan, prof. M.Saidovning [40.233] M.Boboyevning [41.121] tadqiqotlari shular jumlasidandir.

So‘nggi yillarda ushbu doston xususida ayrim tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

Folklorshunos S.Ro‘zimboyevning doktorlik dissertatsiyasida dostonning bitta nusxasi haqida fikr bildirilib, uning tarkibida hammasi bo‘lib, 2120 misra she’riy parchalar borligi, ularning orasida uchta g‘azal, bitta muxammas ishlatilganligi haqida ma’lumot keltirilib, asarning qisqacha mazmuni keltirilib o‘tilgan [42.74]. Prof.S.Ro‘zimboyev keltirgan matn mazmuni shaxsiy arxivimizda saqlanayotgan nusxalar matni mazmuniga aynan to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, folklorshunos “Tulumbiy” – dastan istoriko-fantasticheskogo tipa”, deb nomlangan ilmiy ma’ruzasi tezislarida ham ushbu doston haqidagi ayrim fikrlarni qayd qilib o‘tgan. Jumladan, doston syujetiga to‘xtalib, uning XVIII asrda Urganchda yashagan Q.Ma’rufiy ijodiga mansub bo‘lgan “Tulumxo‘ja” dostoniga juda yaqin ekanini bayon qiladi [43.60].

Mustaqillik yillariga kelib, mazkur dostonga qiziqish ancha kuchaydi. Dostonning ikkita nusxasi chop etildi va ularga so‘zboshilar yozildi. Shulardan biri “Tulumxo‘ja” nomi ostida nashr etildi [44.114]

Dostonning bu nashrida ayrim jumlalar, she’riy misralar tushirib qoldirilgani, ba’zi so‘zlar, izofalar noto‘g‘ri o‘qilganini hisobga olmaganda, uning bosilib chiqishini qo‘llab-quvvatlash lozim. Arab alifbosida bitilgan qo‘lyozmalarni nashrga tayyorlash juda mashaqqatli ish. Negaki, mazkur qo‘lyozmalar qayta-qayta, kitobdan kitobga turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko‘chirilgan. Shu sababli ularni juda sinchiklab o‘qish lozim bo‘ladi. Ushbu nashrda imloviy xatolardan tashqari, leksik ma’noga putur yetadigan kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Masalan, “alif-lom”-“al-kalom”, “qalfoq”-“qalmoq”, “zanoni mardon”-“zamoni mardon”, ”purxun”-“pirxun”, “eronli-aronli”, “iqbol-oqbol”, “g‘almon”-“g‘ulom” tarzida noto‘g‘ri o‘qilgan va o‘sha yerdagi ma’noga putur yetkazilgan.

Nashrga tayyorlovchilar so‘z boshi qismida dostonning qisqa mazmuniga to‘xtalib, uning ijrochilari, kotiblari haqida ma’lumot berib o‘tganlar.

Dostonning yana bir nusxasi “Oshiqnoma” dostonlar majmuasida chop etildi. Ushbu nashrdagi ma’lumotlarga qaraganda doston asosan, Xorazm vloyatining Yangibozor tumanida yashagan O‘g‘iljon xalfa [45.170] nusxasiga asoslangan bo‘lsa-da, unda tushirib qoldirilgan ayrim epizodlar boshqa nusxalar yordamida to‘ldirilgan. Bu nashrda doston nomi “Edigo” tarzida berilgan. Albatta, bu nashrda yuqorida ko‘rsatilgan “Tulumxo‘ja” nomi bilan chop etilgan kitobdagiga o‘xshagan ayrim imloviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan, albatta. Shunday bo‘lsa-da, dostonning chop etilishi milliy madaniyatimiz tarixida katta voqea bo‘ldi, Endilikda uni tadqiq etishga keng yo‘l ochildi.

Ushbu nashrda doston haqida bir muncha ma’lumotlar berilgan. Bu ma’lumotlar orasida Edigo ismi xususida bildirilgan fikrlar e’tiborni tortadi. Unda aytilishicha, Edigo ismi “Iydgoh” nomi bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, bu ism turli manbalarda turlicha sharhlanadi. Qozoq versiyasida Murin jirov variantidan boshqa barcha variantlarda eldan tashqarida tug‘ilgani uchun unga Edige deb ism

qo‘yiladi, qoraqalpoq versiyasining Qiyos jirov variantida g‘oyibdan kelgan bola bo‘lganligidan Edige deb ism beriladi. Murin jirov variantida topib olgan kishi bolani o‘rab olishga narsa topolmay uni etigining qo‘njiga solib olib qaytadi. Shu sababli uning ismi etik so‘zi bilan bog‘lanadi. Tatar versiyasida ham xuddi shu fikr takrorlanadi.

Xorazm versiyasida oshiq o‘yini epizodi keltirilib, uning Ko‘kgul ismli bolani kaltaklashi, o‘sha bolaning uni Ediga deb atagani aytiladi. Lekin nima uchun shu so‘zni aytgani hech bir nusxada ochiq yoritilmaydi. Shu sababli bu ismning “Iydgoh” atamasi bilan aloqador, degan fikr ancha haqiqatga yaqin keladi.

Chunki Rahimberdi o‘sha bola bilan iydgohda oshiq o‘ynaladigan joyda urishadi. O‘sha bola uni ko‘rganda “Ana, iydgohdagi bola, “iydgo”, “iydgo”, – deb qochib qoladi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek folklorshunosligida “Edigo” dostoni bo‘yicha endigina ilmiy tadqiqot ishlari boshlandi. Bu borada filologiya fanlari nomzodi, dotsent G. Eshchanovaning ham muayyan hissasi bor[46. 49; 52; 12; 72; 60].

Binobarin, “Edigo” dostonini chop etish, uning asosiy mundarijasini tahlil etish, tarixiy ildizlarini aniqlash, turkiy versiyalar bilan qiyosiy o‘rganish ishlari boshlanib ketdi.

Zero, mazkur doston ham o‘zbek folklorida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish o‘zbek eposshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Turkiy xalqlar folklorshunosligi keyingi bir asr davomida shakllanish va taraqqiyot jarayonini boshdan kechirib, katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, eposshunoslik ilmi keng va atroflicha rivojlandi.

Tadqiqotitimiz ob’ekti bo‘lgan “Edigo”shunoslik sohasida ham ancha yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Albatta, “Edigo”shunoslik borasida dastlabki tadqiqotlar rus sharqshunoslari P.M.Melioranskiy, V.V.Radlov, N.Semenov, G.Potanin, I.Belyaevlar tomonidan boshlanib, aka-uka Valixonovlar bu ishni yanada yuqori pog‘onaga olib chiqishdi. Keyinchalik, V.V.Bartold, A.K.Borovkovlar epos haqida muhim fikrlar bildirdilar.

V.V.Jirmunskiyning bu epos haqidagi ishlari alohida e’tiborga loyiqdir. Sharqshunos olim “Edige” eposini tarixiy-genetik, tarixiy-qiyosiy, versiyalararo aloqalar nuqtai nazaridan tahlil qilib muhim ilmiy xulosalarga kela olganki, ushbu xulosalar keyingi tadqiqotlarga yo‘l ochib, hozirgacha o‘z qimmatini saqlab kelmoqda.

Qozoq folklorshunosligida M.Avezov, Q.Satbayev, Sayfullin, Q.Jumaliev, A.Marg‘ulan, A.S.Orlovlar qozoq Edigeshunosligini boshlab berdilar. Afsuski, XX asrning 40-yillariga kelib, doston taz’yiqqa uchradi va tadqiqotlar 80-yillarga kelib yana faollashdi. Bu davrda R.Berdibayev “Edige”shunoslikni yangi bosqichga ko‘tardi. Dostonning 9 variantdan iborat mukammal nashrini tayyorlab, unga muxtasar so‘zboshi yozdi va ko‘plab maqolalar e’lon qildi.

Qoraqalpoq “Edige”si haqida olib borilgan tadqiqotlar esa turkiy xalqlar folklorshunosligi orasida eng yuqori o‘rinda turadi. Milliy folklorshunoslardan biri bo‘lgan Q.Ayimbetov “Edige”shunosligini XX asrning boshlaridayoq yo‘lga qo‘ygan edi. Muayyan tanaffusdan keyin 60-yillarga kelib, yana Q.Ayimbetov, N.Davqarayev, I.Sog‘itov, Q.Maqsetov, Q.Boyniyozov, S.Bahodirova, K.Mambetov, K.Allamberganov kabi folklorshunoslar qoraqalpoq “Edige”si haqida mukammal tadqiqotlar olib borishdi. K.Allamberganov esa doston haqida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Asarning mukammal nashri amalga oshirildi.

XX asrning 90-yillariga kelib, turkman “Tulumxo‘ja”si ham chop etilib, ayrim tadqiqotlar yuzaga keldi. Lekin turkman folklorshunosligida bu doston haqida endigina tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Tatar folklorshunosligida XX asr boshlarida A.N.Samoylovich, N.Hakim, N.Isanbet yo‘lga qo‘ygan tadqiqotlarni I.Qodirov, F.Axmetovlar davom ettirishib, tatar “Idega”sining yangi nashrini

e'lon qilishdi. Shuningdek, boshqird folklorshunosligida M.Turangulov, No'g'ay folklorshunosligida A.Sikaliev, Turkiyada Saodat Chataqlar ham ushbu dostonning milliy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

O'zbek folklorshunosligida dostonni "Tulumbiy" nomi bilan fan doirasiga XX asrning boshlaridayoq olib kirgan olim Hodi Zarif edi.

Keyinchalik bu doston haqida umuman, tadqiqot ishlari olib borilmadi. T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, S.Ro'zimboyev kabi folklorshunoslarning ishlarida bu dostonning faqat nomi va mavzusigina qayd qilindi, xolos.

Ayni kunda o'zbek folklorshunosligi oldida bu dostonning o'zbek eposidagi o'rnini belgilash va uni har tomonlama tadqiq etib, o'zbek "Edigo"shunosligini yaratish vazifasi ko'ndalang turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Алламберганов К. Қарақалпақ халық дастаны "Едиге", Нокис, "Билим", 1995, 7-бет.

2. Радлов В.В. Образцы народной литературы тюркских племен. Ч.У, с.35-55, ч.7. С.99-121 – СПб., 1866-1907.

3. Сказания об Едиге и Тохтамыше. Каракалпакская народная поэма. (сообщения И.А. Беляева). // Протоколы заседания и сообщений членов закаспийского кружка любителей археологии и истории Востока, вып.3. Асхабад, 1917

4.Диваев А.А. Мурза Эдиге батыр, Ташкент, 1896; Диваев А.А. Батырлар, т.1-6, Ташкент, 1922. (қозоқ версияси) ва б.

5. Oshiqnoma, 1-kitob. Urganch, "Xorazm", 2006, 70-123-betlar..

6. Валиханов Ч.Ч. Сочинения-записки РГО, СПб, с.229-233.

7. Мелиоранский П.М. Сказания об Едиге и Тохтамыша приложение к сочинения Ч.Ч. Валиханова. – записки РГО по отделению этнографии. т. XXIX СПб. 1905, С.121.

8. Бартольд В.В. Сочинения.Т.II.ч.1. -Москва, 1963, – С.800; 804.

9. Боровков А.К. Вопросы изучения тюркоязычного эпоса народов Средней Азии и Казахстана. // Вопросы изучения эпоса народов СССР. М., 1958. С.77.

10. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос, Л., – Наука, 1974, С.354; 377; 383; 384; 511.

11. Мелетинский Е.М. Введения в историческую поэтику эпоса и романа, М.-Наука, 1986, С.105.

12. Бердибаев Р. Турки-монғол халықтары эпосындағы Кейбир ортақ желилер. // Қазақ фольклор ынын, типологиясы, Алматы, "Ғылым", 1981, 9-10– betlar.

13. Бердибаев Р. К проблеме историэма эпоса.// Вопросы советской тюркологии. II часть, Материалы IV Всесоюзной тюркологической конференции. Ашхабад, "Ылым", 1988, С.68-69;71.

14. Едиге батыр, Алматы, Билим, 1999, 48-bet.

15. Айимбетоа К. Каракалпакские народные сказители, АДД., Т., 1965, С.17.

16. Айимбетов Қ. Халық даналығы, Нокис, "Қаракалпақстан", 1988, 95-bet.

17. Қарақалпақ илиминин тунғыш жулдызы. (Н.Давқараевнинг 100 йиллик юбилейига бағишланган анжуман материаллари.) Нокис, 2005, 59; 40-bet.

18. Сағитов И.Т. Қарақалпақ халқынын қаҳарманлық эпосы, Нокис, "Қарақалпақстан", 1986, 55; 57-бет.

19. Мақсетов Қ. Қарақалпақ қаҳарманлық дастанларинин поэтикасы, Ташкент, "Фан", 1965, 48-58-betlar.

20. Мақсетов Қ., Тажимуратов А. Қарақалпақ фольклоры, Нокис, "Қарақалпақстан", 1979, 296-297-betlar.

21. Мақсетов Қ. Қарақалпақ фольклористикасы, Нокис, "Қарақалпақстан", 1998, 149-198-betlar.

22. Мақсетов К. Дастанлар, жыраўлар, бақсылар, Нокис, "Қарақалпақстан", 1992, 183-bet.

23. Едиге, Нокис, "Қарақалпақстан", 1990, 126-137– betlar.

24. Баҳадырова С. "Китаби дедем Қорқыт", "Қоблан", "Едиге" ҳозирги эдебият ҳаққында ойлар, Нокис, "Қарақалпақстан", 1992. В.-148.

25. Баҳадырова С. "Китаби дедем Қорқыт", "Қоблан", "Едиге" ҳозирги эдебият ҳаққында ойлар, Нокис, 57-bet.

26. Алламберганов К. Қарақалпақ халық дастаны "Едиге", Нокис, "Билим", 1995.39;43; 76 – betlar.

27. Алламбергенов К. Н.Давқараев ҳам қарақалпақ фольклоры. // Қарақалпақ илиминин тунғыш жулдызы, Нокис, 2005, 38-40-betlar.

28. Мамбетов К. Аййемги қарақалпақ адебияты, Нокис, "Қарақалпақстан", 1976. 120 – bet.

29. Байнизов Қ. "Едиге"– халқымызға қадирли дастан..// Едиге, Нукус, "Қарақалпақстан", 1990, 10-123-betlar.

30. Хусниддин Х. Шығыс тиллериндеги жазба дереклер, (Идиге ибн Тукли Азиз қиссаси) Нокис, "Қарақалпақстан", 1991, 79-81-betlar.

31. Мақсетова М. Исторические корни эпоса "Едиге", Нукус, АКД, 1995.129.

32. Магрули Г.А., Юсуп-Ахмет, Ашгабат, Туркмендавнашр, 1943, 5-bet.

33. Магрули Г.А. Довлетяр, Ашгабат, "Туркменистан",1978, 15;20-betlar.

34. Тулумхожа, Ашгабат, "Қуяш",1993, 3-21-бетлар (нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Б.Велиев)

35. Ҳаким Н. Идега дастани. // Татар эпосы, Казан, "Раннур", 2004, 286-bet.

36. Надиров И. Идегай дастаны. // "Идегай" татар халық дастаны, ТКН, Казан, 1988, 5-10-betlar.

37. Надиров И. Итоги и проблемы изучения татарского фольклора. // Фольклористика Российской федерации, Л.:-Наука, 1975, С.46-51.

38. Усманов М.А. Татарские исторические источники XVII-XVIII вв. Казань, 1972, С..65.

39. RazzoqovH., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K.O'zbek xalq og'zaki poetic ijodi., T., "O'qituvchi", 1980, 205-206-betlar.

40.Саидов М. Реалистическая основа народного эпоса. // Фольклор, литература и история Востока, Т., "Фан",1983, с. 233-236.

41. Бобоев М. Типология принципов историзма узбекского народного эпоса, АКД, Т., 1983, В -121.

42. Ro'zimboyev S.. Xorazm dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi. T., 1990. Doktorlik diss. 74-bet.

43.Рузимбов С. Традиционная научно-теоретическая конференция преподавателей Хорезмского госпединститута (Тезисы докладов) Ургенч, 1988, С.60.

44. Tulimxo'ja. Navoiy nomli O'zbekiston MIlliy kutubxonasi nashriyoti, 2006, (nashrga tayyorlovchilar:. M.Jo'rayev, H.Eshchanov)B.-114.

45. Oshiqnoma. Urganch, 2006, 170 – 262 – betlar.Ushbu nusxa O'zRFA Til va adabiyot instituti

folklore arxivida 1430– raqamli inventarda saqlanib, uni 1957 yilda O‘g’iljon Mahmudovadan folklorshunos Feruza Sultonova yozib olgan.

46.Eshchanova G. “Edigo” dostonidagi ot obrazining mifologik xususiyatlari. //Xorazm folklori, III tom, Xiva, 2001, 49-51-betlar;O‘sha muallif: “Edigo obrazining mifologik asoslari”, o‘sha to‘plam, 52-54-betlar; O‘sha muallif, “Edigo” dostonining til xususiyatlari. // Xorazm folklori, IV tom, Toshkent, 2002, 12-14-betlar;O‘sha muallif, “Edigo” dostonining tatarcha versiyasi haqida. //Xorazm folklori, VIII tom, Urganch, 2006, 72-78-betlar; O‘sha muallif, “Edigo” dostonining ilmiy o‘rganilishi haqida. // Филологические исследования, XI tom, Urganch, 2006, 60-62-betlar; O‘sha muallif, Tarixiy Edigo haqida, // Филологические исследования, XII tom, Urganch, 2006, 14-16-betlar va boshqalar.

FERUZA ABDURAXMONOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MAROSIM FOLKLORINING AREAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qirg‘iziston respublikasining O‘sh va Jalolobod viloyatlarida yashayotgan o‘zbeklarning asrlar davomida an’anaga aylanib, bugungi globallashuv jarayonida ham yashab kelayotgan urf-odatlari, marosimlari, turmush tarzi haqida bo‘lib, nikoh to‘yi bilan bog‘liq ba’zi urf-odat va marosimlarning areal xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *marosim, yog‘ soldi, kuyov qochdi, charsilladi, barkash keldi, bosh taradi, chok puli, kelinsalom, to‘qqiz tovoq, kelin ko‘tarish, ko‘rpa solish, sabzi to‘g‘rash, mahsi yechish.*

Annotation*: This article is about the customs, rituals, lifestyle of the Uzbeks living in the Osh and Jalalabad regions of the Kyrgyz Republic, which have become a tradition for centuries and are still living in today’s globalization process, and are related to the wedding, areal features of some traditions and ceremonies are discussed.*

Key words: *ceremony, oiling, the groom ran away, charsilladi, barkash came, combed his head, wedding money, greeting the bride, nine plates, carrying the bride, laying a blanket, slicing carrots, undressing the mahsi.*

Qirg‘iziston respublikasining janubiy qismida joylashgan Jalolobod, janubi-g‘arbiy qismida joylashgan O‘sh viloyatlarida yashovchi o‘zbeklarga oid ma’lumotlarni o‘rganish va jamlash maqsadida, 2024-yilning 5-avgustdan shu yilning 12-avgust kunigacha tashkil etilgan etno-folklor ekspeditsiyasida[1], ekspeditsiya a’zolari, bir guruh: tarixchi, filolog, folklorshunos olimlar ishtirok etdi.

Biz bu yerda yashovchi o‘zbeklardan nikoh to‘yi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab marosim va urf-odatlarni yozib oldik. Ulardan ba’zilarining areal xususiyatlari, ya’ni yaqin joyda yashovchi ammo bir-biridan ba’zi ko‘rinishlari bilan farq qiluvchi marosim va urf-odatlar, qo‘shiq namunalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldik.

Bu yerda yashovchi o‘zbeklar orasida “Yog‘ soldi marosimi” juda mashhur. Bu marosim O‘zbekiston viloyatlarida kelinsalomning tarkibiy qismi sifatida o‘tkaziladi. Alohida nom bilan atalmaydi.

“Yog‘ soldi” marosimi. Bu yerda yashovchi o‘zbeklar nikoh marosimidan keyin o‘tkaziladigan kelinsalomni “Yog‘ soldi” nomi bilan atashar ekan. “Yog‘ soldi” marosimiga nikoh to‘yining ertasi kuni qizning onasi barcha ayol qarindoshlari va o‘zining aziz mehmonlari bilan kuyov tomonga tashrif buyuradi. Ular kuyov qudalar tomonidan poyondozlar solinib kutib olinadi. Hovli o‘rtasiga gilam solinadi. Atrofiga kelin tomon tayyorlagan, hadya uchun beriladigan ko‘rpa to‘shak, sovg‘alar olib chiqib qo‘yiladi. O‘rtaga surpa solinib marosim boshlanadi. Surpa qaynonasi tomonidan kelin

[1] O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etilgan etno-folklor ekspeditsiyasidan.

uchun yangi qilinadi. Unga avval un solinadi. Bir laganda osh, ikkinchisida qand-qurs qo‘yiladi. So‘ngra, surpa atrofiga birinchi erkaklar kelib o‘tiradi. Bular: kelinning qaynotasi, qaynotaning aka-ukalari, kuyovning akalari, tog‘alari bo‘lsa, ular o‘tiradi. Kelinni yangalar paranjida olib chiqib, surpa yoniga o‘tqazishadi. Surpaga osh olib kelinadi. Birin-ketin qaynotasi, amakilari, tog‘alari uch martadan kelinning hovuchiga avvaliga un soladi, keyin osh soladi(mana shu “yog‘ soldi” odatidir, bunda, qo‘li doim yog‘li, totli, barakali bo‘lsin, qo‘li yog‘da, oshda bo‘lsin, ro‘zg‘orga baraka olib kelsin degan ma’no anglashiladi), kelin ularni hovuchida tutib turib keyin to‘kib turadi. Atrofdagilar esa, qo‘li shirin bo‘lsin, shirin oshlar qilsin, un solinganda totli, shirin nonlar yopsin, uzun-uzun lag‘monlarni cho‘zing, qaynotasi kelganda, “issiq-issiq nonlar yopib qo‘ydim”, desin deb turli yaxshi niyatlar qilib turishadi. Ba’zida o‘tganlarni yod qilib Qur’on oyatlaridan tilovat qilishadi.

Xuddi shu odatni endi ayollar, ya’ni qaynonasidan tortib boshqa oilaning kattalari, yaqinlari kelin hovuchiga un, osh solib yaxshi niyatlarini takrorlashadi. So‘ngra kelinchakka qo‘y yog‘i to‘g‘ratishadi: “qo‘y yog‘ida osh, sho‘rvalarni qilib qaynona, qaynotangizning ko‘nglini olib yuring”, deyishadi. Endi kelinning qo‘lini artib, tozalab olishib laganda olib kelingan qand-qurslarni turli tomonga sochtirishadi. Atrofdagi kichik bolalar uni terib olishadi. Shu bahona barcha bolalar yig‘ilishganda, kelinni yuziga tortilgan doka ro‘molini yosh bola yoki yosh qizaloq behi novdasi (behi novdasida yosh bola ro‘molini tortishiga sabab, serfarzand bo‘lsin degan ramziy ma’no kasb etadi) bilan olib tashlaydi. Shu bilan kelinning yuzi ochiladi va bu marosim yakunlanadi.

“Kelinsalom” (kelinni ko‘tarish) marosimi boshlanadi. Kelin paranjilarini yechib chiqqandan keyin kelinsalom marosimi o‘tkaziladi. Bunda kelinsalom aytuvchi katta buvilar-yu, qaynonasidan boshlab toki uyning kichik vakillarigacha murojaat qilib salom aytib chiqadi. Hamma kelin oldiga kelib o‘z sovg‘alarini berib kelinni **uch martadan ko‘tarib qo‘yadi,** bu yengilgina bo‘lib xizmatimizni qiling, kulib yuring degan ma’noda o‘tkazilsa-da, uning yana bir ramziy ma’nosi kelin bo‘lib tushgan qizning kuyov tomondan hurmat-izzat qilinishining bir ko‘rinishidir. Kelinni ko‘tarish bilan bog‘liq odatining ham kelib chiqishi qadimiy bo‘lib, axborotchimiz azal-azaldan bu odat qilinib kelinayotganini aytdi. Kuyovning barcha qarindoshlari kelinni shunday uch martadan ko‘tarib chiqadi. Mobodo ko‘tarishga imkoniyati, sog‘lig‘i bo‘lmasa, kelin bilan ko‘rishib sovg‘alarini berib ketaverishadi. Kelin tomon ham, kuyov tomon qarindoshlarining hammasini sovg‘a-salomlar bilan siylashadi. Kelin kelinsalomini kuyov xonadonida bir hafta davomida kanda qilmaydi. Ya’ni, ro‘mol va do‘ppida egilib, katta-yu, kichikka ta’zim qilib turadi.

Bu marosimlar o‘tkazilib bo‘lingach, kelin mehmonlarning izzatini qilib, orqa bilan yurib uyiga kirgizilib ketiladi. Qudalarga esa, isiriq solinadi, isiriq soluvchi ayolga pul beriladi. Kelin yoki yanga, yoki ovsinlarning biri oftobada qudalarning qo‘llariga suv qo‘ysa, ikkinchisi patnisda har biriga alohida yangi sochiq uzatib chiqadi. Ular dasturxon tuzatilgan uylarga taklif qilinadi. Dasturxon shunday yasatiladiki, shirinliklar va taomlar olib ketish uchun ham tayyorlab qo‘yilgan bo‘ladi. Har bir mehmon yoniga ikkitadan non qo‘yilsa, bitta non tik qilib qo‘yiladiki, bu shu yerda mehmon sindirib yeyishi uchun. Dasturxonda hech narsa qoldirmay hamma narsani olib ketishadi.

Birinchi bo‘lib choynaklarda shirin choy tarqatiladi. Buning ham o‘z ramziy ma’nosi bor, yangi boshlanayotgan ikkala yoshning hayoti shirin bo‘lsin, ikki quda tomonning tillari shirin bo‘lsin degan ma’noda tortiladi. Shirin choydan keyin, kichik piyolalarda mayiz, yong‘oq, yeryong‘oq solib pishirilgan holvaytar (u suyuq bo‘lib, ichish uchun mo‘ljallangan) olib kiriladi. Undan keyin birin-ketin to‘qqiz xil taom tortiladi. Hammasini ham yeyishning iloji yo‘qligi uchun ba’zi quyuq taomlar ham olib ketish uchun tayyorlab tortiladi.

Kelinlikning ziynati xonadonda bir necha kun kelinsalom qilishidir. Kelin bu orada turli ko‘rinishdagi milliy liboslarini alishtirib chiqib kelinsalom qilib turadi. Har gal chiqqanida hovlida

yig‘ilgan barcha: buvilar, amma-xolalar, mehmonlar, yangalar va qo‘ni-qo‘shnilar unga turli yaxshi tilaklar, duolar qilib turishadi.

O‘zbekistonning ba’zi hududlarida (vohada “oldiga chiqqan ota-ona”, vodiyda “vakil” ota-ona, ba’zi hududlarda tutingan ota-ona) kelin-kuyov uchun kuyov qarindoshlaridan o‘rnak bo‘lishga arziydigan vakil ota-ona tanlanadi. Xuddi shunday Aravonda ham kelin-kuyov uchun ukil(vakil) ota-ona tanlanadi. U to‘y kuni kelin-kuyov uchun sarpo qilib keladi, kelinga tilla taqinchoqlar taqadi. Ularga ham qiz tomon turli sovg‘alar beradi. Masalan, atlas yoki duxobadan ko‘rpa, bolishlar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Ularning vazifasi shuki, qadimdan kelayotgan an’anaga ko‘ra, kelin bilan kuyov arazlashib, yoki biror masalada kelisholmay qolsa, o‘z ota-onalariga emas, birinchi vakil ota-onalariga murojaaat qilishgan. Ancha-muncha masalani ular hal qilib berishgan, o‘zlarining yordamlari va hayot tajribalariga ko‘ra ularni yarashtirib qo‘yishgan. Buning ortida ham xalqning donoligi yotadi. Sabab, kelin-kuyov orasidagi katta-kichik muammolarga o‘z ota-onalari aralashsa, birinchidan, muammo kattalashishi mumkin, ikkinchidan, buning ortidan qudalar orasiga sovuqchilik tushishi mumkin. Uchinchidan, ikki yosh ota-onalaridan xijolat bo‘lib so‘rolmaydigan masalalarini ulardan iymanmay, tortinmay so‘rab olishlari mumkin bo‘lgan. Vakil ota-onalarning bu masalani hal qilishi yosh oilalarning buzilib ketmasligi uchun kafolat beruvchilik vazifasini ham yuklagan.

“Kuyov qochdi” udumi. “Yog‘ soldi” marosimi o‘tkazilayotgan paytda Kuyov jo‘ralari bilan uydan qochadi. “Kuyov qochdi” deb ataluvchi bu udum qadimiy bo‘lib, ayollar kelin bilan bog‘liq marosimlarni o‘tkazib olgandan keyin kuyovga xabar jo‘natiladi. Kuyov jo‘ralari bilan o‘z uyiga ko‘cha boshidan, Yor-yor aytib kirib kelishadi. Kuyovning uyida to‘qqiz xil taom tarqatilib kuyov jo‘ralari siylanadi.

“Yog‘ soldi” marosimi o‘tkazilib mehmonlar kuzatilgach, kelin tomondan ikkita yanga qoladi. Ular kelinning yuzi yorug‘ bo‘ldi xabarini qaynonaga yetkazishadi va sovg‘a salomlar olishadi. **Xuddi shu joyda yana bir odat bajariladi.** Yangalar kuyov xonadoniga yonma-yon va qarama qarshi turgan ikki xonadon eshigiga, ya’ni to‘rtta qo‘shninikiga ikkitadan sochiq osib qo‘yishadi. Bu kelinning yuzi yorug‘ bo‘ldi, qo‘shnilar ogoh bo‘lsin, el bilsin degan ma’noda qilinadi. Keyin kelin uyiga belgi yuboriladi. Kelinning yuzi yorug‘ bo‘ldi ma’nosida borgan kishilar sovg‘a-salom bilan siylanadi.

Bu davr ichida kelin tashqariga ya’ni hovliga zarurat bo‘lmasa chiqmaydi, ish qilmaydi. Kelin tomondan keladigan “mazar”(ya’ni taomlar)dan qaynonasi kelin-kuyov uyiga ham olib kirib beradi. Kelin toki shu mazar kelib turar ekan, qo‘lini sovuq suvga ham urmay dam olib turadi. Demak, birinchi kuni nonushtaga shirinliklar va qovurdoq keladi. Keyin tushlikka somsa va boshqa issiq taomlar kelib turadi. Nonushtadan tortib kechki ovqatgacha kelin tomon jo‘natib turadi. Oldinlari bu odat qirq kun davom etgan. Hozirda, vaziyatdan kelib chiqib bu odat bir hafta yoki uch kunga qisqartirilgan. Bu albatta, qiz tomonga juda qiyin bo‘lgan. Mazar nima va nima uchun jo‘natilgan degan savolimizga axborotchimiz shunday javob berdilar: “kuyovning og‘zi ilisin, taom bilan ko‘nglini olish, kuyovni hurmat-izzat qilish va yana qizimiz shu xonadonga ko‘niksin degan ma’noda qilinadi”. Keyin kelinning onasi biron qarindoshi bilan savatlarda yana sovg‘a-salom, bir juft ko‘rpa to‘shak, bolishlar va taomlar qilib kelib kelinni salomga olib chiqadi va qaynonasi bilan ko‘rishtirib, mana qiz endi sizlarniki deb qo‘yadi.

To‘ydan o‘n besh kun o‘tgach, kelinning onasi **“bosh taradi” marosimini** o‘tkazish uchun keladi. Kelinni yuvib tarab, sochini ham tarab ketadi. Shu marosim bahona kelinning onasi yangi oilaga kerak bo‘ladigan ro‘zg‘or anjomlari ham olib berishi kerak bo‘lgan.

Aravon tumani Tepqurg‘on qishlog‘ida nikoh to‘yi kuni to‘y marosim tugagandan keyin, kuyovning uyida kelin-kuyov uchun yasatilgan uyda yangalar, momolar tomonidan kelin-kuyov

uchun qilingan ko‘rpa-to‘shaklardan baland qilib joy tayyorlanadi. Bu yerda shu oilaning yoshi ulug‘, ko‘p farzandli onaxonlari to‘shak ustida dumalab berishadi. “Bizni yoshimizga yetib, uvali-juvali bo‘lib, qo‘sha qarisin”, degan gaplar aytiladi. Keyin to‘shak ustiga ularni o‘tqazib, kelin-kuyovga bir vaqtda oyna ko‘rsatiladi. “Oymi-quyosh, kunmi-tun?”– deyiladi. Ular tanlashadi. Keyin “bo‘ri keldi, bo‘ri keldi” – deb yotqizib qo‘yishadi. Ko‘rpa-to‘shak solgan yangalar va dumalab bergan momolarga kelin tomondan turli sovg‘a-salomlar beriladi[2].

O‘sh shahrida bu udumlar biroz farq qiladi. “Joy soldi” urf-odati o‘tkazilishi oldidan, kuyov tomon ko‘rpachalar orasiga pul solib qo‘yishgan. Joy solayotganda o‘sha pullar yangalarning oldidan chiqib turgan, ular esa xizmati evaziga o‘sha pullarni olishgan. Qavat-qavat ko‘rpacha solinadi, ammo **bitta yostiq qo‘yiladi.** Sababi, momolarning bitta yostiqqa bosh qo‘ydi degan gapiga ko‘ra, bir yostiqqa bosh qo‘yishdi, bir bo‘lishdi deyiladi. Ikki tomondan yangalar ko‘rpani ustida **kurash tushadi,** doim kuyov tomon g‘olib bo‘lgan, buning ham o‘z ramziy ma’nosi bo‘lib, oilada er kishining so‘zi ustun bo‘lsin, er kishi hurmat qilinsin deyilib, erning obro‘si baland bo‘lgan xonadon tinch-totuv yashaydi degan qarash bo‘lgan. Keyingi odat, kuyov kelin oyog‘iga kiydirilgan **mahsini yechishi** kerak bo‘lgan. Kelin mahsini yechishiga qarshilik qiladi-ki, kuyov osonlik bilan yechmasligi, bunga qiynalib erishishi shart bo‘lgan. Agar mahsini yechib ololsa, kuyovning so‘zi o‘tkir bo‘ladi, deyishadi, bu ba’zi o‘zbek xonadonlarida o‘tkaziladigan “oyoq bosdi” udumiga o‘xshab ketadi.

Barkashda sovg‘a salom olib kelish. O‘sh shahrida o‘tkaziluvchi bu odat, nikoh to‘yi boshlanishidan oldin, kuyov jo‘ralari bilan kelinning uyiga turli-sovg‘alar (shirinliklar, sarpolar) solingan barkashni olib kelib, kelin tomonga beradi. Bu sovg‘alar kuyovning kelin va uning yaqinlarga sovg‘asi hisoblanadi. Kuyov navkarlar bilan hovliga kiradi, kelin tomon buvilar Yor-yor aytib, oldindan tayyorlangan kuyov sarpolari solingan patnisni kuyov oldiga olib kirib berishadi, kuyov kiyinishi uchun jo‘ralardan ikki kishi chimildiq o‘rnida biron mato tutib turadi. Kelin tomon kattalari esa kuyovni kiyintirishadi. Kuyov toki kiyinguncha doira chalib kuyov jo‘ralar o‘yinga tushib turadi. Undan keyin kuyov ziyofat qilinadi. Kuyov jo‘ralari bilan maxsus dasturxon tuzalgan joyga o‘tishadi. Bu yerda ham kelin tomon avvallari qirq kun, hozir bir hafta yoki uch kun kuyov uyiga “mazar” jo‘natishadi. Unda kelinning ukasi yoki boshqa yaqinlari nonushta, tushlik va kechki taomni olib kelib beradi. Kelin esa, uch kun uydan chiqmaydi.

“To‘qqiz tovoq marosimi” fotiha to‘yida va yuz ochar marosimida o‘tkazilgan. To‘qqiz xil tansiq taom bilan kuyov va kuyov jo‘ralari, yaqinlari siylangan. Dasturxonga turli taomlar, qand-qurslar, chaq-chuqlar qo‘yilgan. To‘qqiz yoki o‘n bir xil taom tortilgan. Barchasini birdan yeyishni iloji bo‘lmaganligi uchun, olib ketishga ham tayyorlab qo‘yilgan. O‘sh, Jalolobod o‘zbeklari to‘ylarida mehmonlar oldiga qo‘yilgan dasturxondagi barcha narsa mehmonlar olib ketishadi. Dasturxonda hech narsa qolmaydi. Ya’ni to‘yga kelmaganlar ham to‘y ne’matlaridan bahramand bo‘lsin ma’nosida to‘y egalari turli ro‘molcha, ovqatlar solingan tugunchalar tayyorlab qo‘yishar ekan.

“Charsilladi odati”. Bu kuyovni ilk bora kelinga teginishi odati. Kelin uyida chimildiq tutilib, kuyov kelinni olib ketishga keladi. Chimildiqda kuyovni kelin dugonalari bilan kutib o‘tiradi. Kuyov albatta kelinga sovg‘a bilan keladi. Kuyov kirib pul sochadi, hamma shu pulni terish bilan ovora bo‘lib turgan vaqtda chimildiqqa kirib kelinni sochini silab qo‘yadi. Hamda sovg‘asini kelinni etagiga tashlab ketadi. Uni hamma bo‘lib oladi. Bu odat tugagandan so‘ng, yor-yorlar kuylanib kuyov alohida, kelin alohida olib chiqib ketiladi. Kuyov uchun kuyov jo‘ralar alohida Yor-yorlar kuylashadi:

[2] Axborotchi: Arziyeva Matlubaxon Mo‘minjonovna. 1958-yil 1-noyabrda tug‘ilgan. O‘sh viloyati Aravon tumani, Tepaqo‘rg‘on qishlog‘i Azamat Murodov ko‘chasi 54-uyda yashaydi. O‘qituvchi.

Otma meni toshlar bilan, yor-yor aylanay,
Uchib ketay qushlar bilan, yor-yor aylanay.
Qushlar ketsa men ketmayman, yor-yor aylanay,
Ko'zing to'lsin yoshlar bilan, yor-yor aylanay[3].

Kuyovning uyiga yetib borgach, olov atrofida kelinni ko'tarib uch marta aylantirib, uyga olib kirib qo'yadi. Kelin paranji va milliy kiyimlarini yechib, kechki zamonaviy kiyimlarini kiyadi. Nikoh marosimi tantanalari tugagandan keyin, kelin yana mahsi kavush, paranjilarini kiyib oladi.

Aravon rayonining Yusupova El hukumati ko'chasida yashovchi Mirzayeva Abidaxon Muttalipovna bizga nikoh to'yidan oldin bo'ladigan "Sabzi to'g'rash", "shavla pishirish" marosimi haqida gapirib berdi.

"Sabzi to'g'rash" marosimi kelinning uyida ham, kuyovning uyida ham bo'lib o'tadi. Kuyov jo'ralari bilan kuyov uyida nonushtani o'tkazib bo'lib, kelinning uyiga borib, o'tin yoradi, hovlini to'yga tayyorlaydi, sabzi to'g'raydi. Ularga mahalla oqsoqollari hamrohlik qilib ishni taqsimlashadi, maslahatli ishlarni birgalikda hal qilishadi. Kuyov tomon oshning masallig'ini va to'y xarajatlarini, hattoki oshni pishiradigan oshpazgacha o'zlari hal qilishadi. Mahallani oshga taklif qilish ham kuyov navkarlarni zimmasiga yuklatiladi. Kuyovnavkarlar shu mahalladan kelin olib ketyapmiz falonchi akanikiga oshga deb jar solib aytib chiqishadi. So'ngra xuddi shu ishlarni kuyov xonadonida ham qilishadi. Bu yerda ular uchun maxsus shavla taomi pishiriladi.

"Chak puli" (Chok puli). Kelin kuyov tomonidan kiyintiriladi, sarpolari olib beriladi. **"**Chak puli" kelinga berilgan matolarni chevarga tiktirish puli hisoblanadi. Kelinga ikki toy paxta berilib, kurpa qopladi degan marosim o'tkazilgan. Uni ham yoshi ulug', ro'zg'oridan tinib tinchigan buvilar, oila kattalari boshlab bergan. Hamma yaqinlar kelib, kuyov tomondan kelgan, matolar, paxta, angishvonalar, ignalardan foydalanib ko'rpalarini qavib berishgan.

O'sh shahrida yashovchi Mavludaxon Abdujapporova(1964-yil 9-iyulda O'sh shahrida tug'ilgan. O'sh shahri Beshko'prik mahallasi Tursunboeva ko'chasi 105-uyda yashaydi)dan to'y marosim qo'shiqlari yozib olindi. Mavludaxon opaning ona tomondan katta buvilari doira chalib to'ylarda Yor-yor, kelinsalom va laparlar kuylagan. Buvilari bilan to'ylarga yordamchi shogird sifatida borganligini xotirlab shunday deydi: "Buvimdan Zamira Suyunova ko'plab xalq qo'shiqlarini yozib olib ketgan. Men ham buvimdan ko'plab xalq qo'shiqlarini o'rganganman". O'sh va Jalolobod tumanlarida kuylanayotgan laparlar, yor-yorlar va kelinsalom qo'shiqlaridan namunalar:

Yor-yor
Uzun-uzun arg'amchi halinchakka

Ha-yor, yor oho, halinchakka
Atlas ko'ylak yarashadi kelinchakka,
Ha-yor, yor oho, kelinchakka.
Atlas ko'ylak yenglorini
Sukdim onam, ha-yor, yora, sukdim onam
Oq sutingga rozi bo'lgino
Kettim onam, ha-yor, yora, kettim onam.

[3] Axborotchi: Abdurazzoqov A'zam Rahimovich. 1971-yilda O'sh shahrida tug'ilgan. Qirg'iziston Milliy yozuvchilari uyushmasi a'zosi.

* * *

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, kelin kelar yor-yor,
Yor-yora kelin kelar yor-yor,
Onasining ko‘zlarin yoshlab ketar, yor-yor,
Yor-yora yoshlab ketar, yor-yor.

Hay-hay o‘lan, jon o‘lan, o‘landa bo‘l yor-yor,
Yor-yora o‘landa bo‘l, yor-yor.
Ota-onam qoldi deb xabarda bo‘l, yor-yor
Yor-yora xabarda bo‘l, yor-yor.

Olgaysano, olgaysan, kelmaysano, yor-yor,
Yor-yora kelmaysano, yor-yor.
Kelsang ham boyagiday bo‘lmagaysan yor-yor,
Yor-yora bo‘lmagaysan, yor-yor.

Osmondagi yulduzni sakkiz denglar, yor-yor
Yor-yora sakkiz denglar, yor-yor.
Sakkiz qizni sardori, keldi denglar yor-yor
Yor-yora keldi denglar, yor-yor.

Sakkiz qizni sardori kelin bo‘lar, yor-yor
Yor-yora kelin bo‘lar, yor-yor.
Sakkiz bog‘da ochilgan bir gul bo‘lar, yor-yor,
Yor-yora bir gul bo‘lar, yor-yor.

* * *

Aldog‘ingiz yor-yor, aldog‘ingiz yor-yor
Qani kuyov to‘y oldidan baldog‘ingiz yor-yor.
Olma patir, yor-yor, tomda patir, yor-yor
Qani kuyov to‘y oldidan upa-atir yor-yor[4].

Kelin-salom

Erta turib kech yotgan,
Qo‘y-u qo‘zini boqqan,
Salom-salom, kelinsalom
Qaynotasiga salom.

Mangra kesib eringan
O‘g‘il tug‘ib kerilgan
Salom-salom, kelinsalom
Qaynonasiga salom.

Andijonni yo‘lida,
Joynamozi qo‘lida

[4] Axborotchi: Mavludaxon Abdujapporova, 1964-yil 9-iyulda O‘sh shahrida tug‘ilgan. O‘sh shahri Beshko‘prik mahallasi Tursunboyeva ko‘chasi 105-uyda yashaydi.

Salom-salom, kelinsalom
Amma xolalariga salom.

Tog‘dan tushgan kiyikdek
Qoshu ko‘zi pilikdek,
Salom-salom, kelinsalom
Qaynsingillariga salom.

Mehnat qilar chuvillab,
Mehnat qilar guvillab
Salom-salom, kelinsalom
Ovsinlariga salom.

Mehmon kelsa xush degan
Mehmonxona bo‘sh degan
Salom-salom, kelinsalom
Qaynakalariga salom.

Past devoldan qaragan
To‘y qachon deb so‘ragan
Salom-salom, kelinsalom
Qo‘shnilariga salom.
Salom-salom, kelinsalom
Mehmonlariga salom[5].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘sh, Jalolobod viloyatlarida yashayotgan o‘zbeklar hayotida qadim urf-odat va an’analar, marosimlar xalq to‘ylarida yaxshi saqlanib qolgan. Garchi dinning ta’siri kuchayib, globallashuv, yangi texnologiyalarning kirib kelishi, to‘ylarning zamonaviylashuvi sabab bugun ko‘p xonadonlarda unutilayotgan bo‘lsa-da, o‘rta avlod va katta avlod urf-odat va an’analarni yaxshi bilishadi. Qo‘l hunarmandlari mahallasida, hali hamon kosiblar, mahsido‘zlar, beshikchilar, temirchilar, pichoqchilar, tandirchilar, tunukasozlar, pechkachilar, do‘ppido‘zlar, ko‘rpa-ko‘rpacha, beshik anjomlari tikuvchi chevarlarning borligi quvonarli hol. Ular aholi uchun xizmat qilib kelmoqda.

[5] Axborotchi: Mavludaxon Abdujapporova, 1964-yil 9-iyulda O‘sh shahrida tug‘ilgan. O‘sh shahri Beshko‘prik mahallasi Tursunboyeva ko‘chasi 105-uyda yashaydi.

Dr. İbrahim ATABEY
Ankara Hacı Bayram Veli Üniversitesi, Edebiyat Fakültesi
Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü, Ankara-Türkiye
ibrahim.atabey@hbv.edu.tr
ORCID: 0000-0003-1771-5144

KELİME GRUBU YAPISINDAKİ DİL BİLGİSİ TERİMLERİNİN TÜRKİYE TÜRKÇESİ VE KIRGIZ TÜRKÇESİ ÜZERİNDEN DEĞERLENDİRİLMESİ

Özet:

Sovyetler Birliği'nin dağılmasından sonra, Çağdaş Türk Lehçeleri arasında bil bilgisi ve edebiyat alanlarındaki çalışmalar artmıştır. Bu çalışmaların bilimsel temellere oturtulmasında "terim" konusu, birkaç bakımdan önemli hâle gelmiştir. Bunları şu şekilde sıralamak mümkündür:

1. Çağdaş Türk Lehçelerinde terim birliğinin sağlanmalı ve bunun için Türkçe kelimeler kullanılmalıdır.

2. Karşılığı bulunmayan terimler için Türkçe kelimeler kullanılarak türetmeler yapılmalıdır.

3. Yeni türetilen veya oluşturulan terimler, mümkün olduğu kadar az kelime içermeli hatta tek kelime hâlinde olmalıdır.

4. Yeni türetilen terimler için ortak hareket edilmeli ve aynı terim için aynı kelime, ek ve kelime grubu tercih edilmelidir.

5. Terimlerde, "yalancı eş değer" özelliği taşıyan kelimelerin yerine aynı anlamdaki ortak kelimeler tercih edilmelidir.

6. Mevcut terimlerde, son yüz yıl içinde, Türkiye Türkçesi üzerinde Fransızca ve İngilizce, diğer Türk Lehçelerinde Rusça etkili olmuştur. Bu etki hem kelime hem de dil bilgisi yapısı basamağında görülmektedir. Bu terimlerin yerine Türkçe kökenli ortak karşılıklar bulunmalıdır.

Bu çalışmada, Çağdaş Türk Lehçeleri için ortak sayılabilecek yukarıdaki özellik, sorun ve çözümler, Türkiye Türkçesi ile Kırgız Türkçesinden alınan örnekler üzerinden ele alınmıştır. Bu örnekler, Türkiye Türkçesi ve Kırgız Türkçesindeki terimlerin kelime grubu yapısında olanları ile sınırlandırılmıştır. Bunun sebebi, kelime grubu oluşturulurken tercih edilen tamlamaların türünü belirlemektir. Çıkan sonuçlardan birkaçı şu şekildedir:

1. Türkiye Türkçesinde sıfat tamlaması yapısındaki terimlerin tamamına yakını, Kırgız Türkçesinde de sıfat tamlaması ile karşılanmıştır: *birleşik cümle* (TT)-*tataal süylöm* (KrT), *birleşik ek* (TT)-*tataal müçö* (KrT), *birincil ses* (TT)-*algaçkı tıbış* (KrT).

2. Türkiye Türkçesinde belirsiz isim tamlaması yapısındaki terimler, Kırgız Türkçesinde çoğunlukla sıfat tamlaması ile karşılanmıştır: *aitlik eki* (TT)-*taandık müçö* (KrT), *belirsizlik sıfatı* (TT)-*çamalama sın atooç* (KrT), *cevap ünlemi* (TT)-*coop sırdık söz* (KrT).

3. Türkiye Türkçesinde, belirtili isim tamlaması yapısında terim kullanılmazken Kırgız Türkçesinde belirtili isim tamlaması ile oluşturulmuş terimler vardır: *birinci şahıs iyelik eki* (TT)-*birinçi caktın taandık müçösü* (KrT), *fiil çatısı* (TT)-*etiştin mamilesi* (KrT).

Anahtar kelimeler: Çağdaş Türk Lehçeleri, dil bilgisi terimi, kelime grubu, Kırgız Türkçesi, Türkiye Türkçesi.

Abstract:

After the collapse of the Soviet Union, studies in the fields of knowledge and literature among Contemporary Turkish Dialects have increased. The issue of "term" has become important in several respects in establishing these studies on scientific foundations. It is possible to list them as follows:

1. Unity of terms should be ensured in Contemporary Turkish Dialects and Turkish words should be used for this purpose.

2. For terms that do not have equivalents, derivations should be made using Turkish words.

3. Newly coined or created terms should contain as few words as possible or even single words.

4. Joint action should be taken for newly coined terms and the same word, suffix, and word group should be preferred for the same term.

5. In terms, words with the same meaning should be preferred instead of words that have the feature of "false equivalents".

6. In the current terms, in the last hundred years, French and English have been influential in Türkiye Turkish, and Russian has been influential in other Turkish dialects. This effect is seen at both the word and grammatical structure levels. Common Turkish equivalents should be found instead of these terms.

In this study, the above features, problems, and solutions, which can be considered common for Contemporary Turkish Dialects, are discussed through examples taken from Türkiye Turkish and Kyrgyz Turkish. These examples are limited to the word group structure of the terms in Türkiye Turkish and Kyrgyz Turkish. The reason for this is to determine the type of phrases preferred when creating the word group. Some of the results are as follows:

1. Almost all of the terms with adjective phrase structure in Türkiye Turkish are also met with adjective phrase in Kyrgyz Turkish: *birleşik cümle* (TT)-*tataal süylöm* (KrT), *birleşik ek* (TT)-*tataal müçö* (KrT), *birincil ses* (TT)-*algaçkı tıbış* (KrT).

2. Terms in the form of indefinite noun phrases in Türkiye Turkish are mostly used as adjective phrases in Kyrgyz Turkish: *aitlik eki* (TT)-*taandık müçö* (KrT), *belirsizlik sıfatı* (TT)-*çamalama sın atooç* (KrT), *cevap ünlemi* (TT)-*coop sırdık söz* (KrT).

3. While in Türkiye Turkish, no terms are used in the definite noun phrase structure, there are terms formed with definite noun phrases in Kyrgyz Turkish: *birinci şahıs iyelik eki* (TT)-*birinçi caktın taandık müçösü* (KrT), *fiil çatısı* (TT)-*etiştin mamilesi* (KrT).

Keywords: Contemporary Turkish Dialects, grammatical term, word group, Kyrgyz Turkish, Türkiye Turkish.

0. Giriş

Sovyetler Birliği'nin dağılmasından sonra bağımsızlığını kazanan Türk cumhuriyetlerinin yanında, özerk Türk cumhuriyetlerinde de Türk dilini merkeze alan sözlü ve yazılı dil kullanımı ihtiyacı, beraberinde "alfabe, kelime türetme, terim" vb. konularındaki toplantı, araştırma ve yayınları arttırmış; bunlarda da yoğunluk "ortaklık" teması olmuştur.

Sovyetler Birliği bünyesindeki Türk cumhuriyetlerinde, terimler ağırlıklı olarak Rusça kökenliydi. Bağımsız Türk devletleri arasında, özellikle yayın, ticaret ve bilim dünyasında ortak terim ve sonrasında genel olarak ortak kelime kullanma ihtiyacı konuşulmaya ve tartışılmaya başlandı; çünkü sadece Rusça veya İngilizce "ortak iletişim ve anlaşma dili" olarak yeterli değildi; tercih de edilememesi gerekiyordu. Bunun sonucu olarak Türkçe kökenli terim türetme başvurulan yollardan biri oldu. 1990 sonrasında, "Türk dünyasında terim" konulu ilk çalışmalardan olan *Türk Dünyası Gramer Terimleri Kılavuzu* (Gürsoy-Naskali, 1997) adlı eser, bu ihtiyacın karşılanmasını

amaçlamış ve terimler, madde başı olarak Türkiye Türkçesine göre dizilmiştir. Biz de Türkiye Türkçesi ve Kırgız Türkçesinde, kelime grubu hâlindeki dil bilgisi terimlerini belirlerken bu eserden A-İ harfleri arasını taradık ve 170 civarında terim belirledik. Taramada, iki lehçede de tek kelime hâlinde olan terimler alınmadı.

1. Türkiye Türkçesi ve Kırgız Türkçesindeki Terimlerin Kelime Grubu Özellikleri

Taradığımız A-İ harfleri arasındaki dil bilgisi terimlerinde şu kelime gruplarına rastlanmıştır: *belirtili isim tamlaması, belirtisiz isim tamlaması, isim fiil grubu, sıfat tamlaması*.

1.1. Belirtili ve belirtisiz isim tamlamalarının kullanımı

Türkiye Türkçesinde, türetilen terim isim tamlaması yapısında ise *belirtisiz isim tamlaması* tercih edilmektedir. Türkiye Türkçesinde, belirtisiz isim tamlaması kalıcı isimler, belirtili isim tamlaması ise geçici isimler yapmaktadır (Karahan, 2000). Belirtisiz isim tamlamasının kalıcı isimler türetme özelliği, terimlerin dışındaki kelimeler için de geçerlidir. Bu özelliği, Türkçenin bütün lehçeleri için genelleştirmek mümkündür.[1] Nitekim taradığımız A-İ harfleri arasında, isim tamlaması yapısında olan terimlerin grubunun Türkiye Türkçesinde *belirtisiz isim tamlaması* olduğu, belirtili isim tamlamasının hiç kullanılmadığı görülmüştür.

Kırgız Türkçesinde ise belirtisiz isim tamlamasının yerine belirtili isim tamlamasının daha fazla kullanıldığı görülmüştür. Bunun önemli sebeplerinden biri, terimlerin bir kısmının Rusçadan tercüme edilmiş olmasıdır. Rusçanın etkisini, başka tamlamalarda da görmek mümkündür.

Türkiye Türkçesi ve Kırgız Türkçesinde, *isim tamlaması* yapısındaki terimlerin karşılıklı durumu ve sayısına bakıldığında, Kırgız Türkçesinde belirtili isim tamlamasının daha fazla kullanıldığı görülmektedir:

TT	**KrT**
b.siz it	b.siz it : 20 adet (%12)
b.siz it	b.li it : 10 adet (%6)

Türkiye Türkçesinde *belirtisiz isim tamlaması* yapısındaki terimler Kırgız Türkçesinde tek kelime hâlinde ise bunlar birkaç örnek dışında Rusça kökenlidir:[2]

TT	**KrT**
b.siz it	tk (Rus.) : 8 adet (%5)

Kırgız Türkçesinin belirtili isim kullanma eğilimi, Türkiye Türkçesinde tek kelime hâlinde olan kelimelerin karşılanmasında da görülmektedir:

TT	**KrT**
tk	b.li it : 2 adet (%1)

1.2. Sıfat tamlamalarının kullanımı

Türkiye Türkçesinde, *sıfat tamlaması* yapısındaki terimlerin Kırgız Türkçesinde de sıfat tamlamasıyla karşılanma oranı çok yüksektir. Bunda, Kırgız Türkçesinin sıfat tamlamasını tercih etmesinin etkisi vardır:

TT	**KrT**
st	st: 61 adet (%36)

Türkiye Türkçesinde belirtisiz isim tamlamasıyla oluşturulan terimlerin önemli bir kısmının Kırgız Türkçesinde sıfat tamlaması şeklinde olması, bu lehçenin, Rusça terimlerin etkisiyle sıfat tamlamasını kullandığının önemli bir göstergesidir:[3]

---

[1] Kırgız Türkçesinden şu örnekler verilebilir: TT çay bardağı= KrT çay stakanı, TT çay ocağı=KrT çay oçogu, TT çay takımı=çay servizi KrT (Cumakunova, 2005: 153).

[2] anlam bilim(i)ci=semasiolog, anlam bilimi=semantika~semasiologiya, başta ünlü türemesi=proteza, başta ünsüz türemesi=proteza, cümle bilgisi=sintaksis

[3] Fransızca ve İngilizcenin Türkiye Türkçesini benzer şekilde etkilediği, özellikle çeviri metinlerde görülmektedir: kültür değişimi (b.siz it)~kültürel değişim (st), dil yapısı~dilsel yapı, dil bilimi~dilbilim vb.

TT	KrT	
b.siz it	st	: 47 adet (%28)

Türkiye Türkçesinde sıfat tamlaması yapısında ama Kırgız Türkçesinde tek kelime hâlinde olan birkaç terim vardır ve bunlar da Rusça kökenlidir:

TT	KrT	
st	tk (Rus.)[4]	: 6 adet (%4)

Kırgız Türkçesinin sıfat tamlaması kullanma eğilimi, Türkiye Türkçesinde tek kelime hâlindeki terimlerin karşılanmasında da görülmektedir:

TT	KrT	
tk	st	: 4 adet (%2)

1.3. İsim fiil grubunun kullanımı

Türkiye Türkçesinde *isim fiil grubu*, terimleri ifade etmek için kullanılmamış ama Kırgız Türkçesinde tercih edilmiştir. Kırgız Türkçesinde kelime türetmede yaygın olarak kullanılan –UU isim fiil eki, terim türetmede de kullanılmış ve isim fiil grubu oluşturmuştur:

TT	KrT	
tk	ifg	: 6 adet (%4)

2. Tanımlama Yapılması

Terimin tek kelime veya isim tamlaması, sıfat tamlaması gibi kelime gruplarıyla karşılanamaması durumunda "tanımlama" yapılmıştır. Tanımlama, terimleşmede tercih edilen bir yöntem değildir ama Kırgız Türkçesindeki bazı karşılıklarda tanımlama yapılmıştır:

TT	KrT
ağızlaşma	muunçuldun oozçul tıbışka ötüüsü
akrabalık adları	tuugandıktı bildirgen terminder
birinci şahıs iyelik eki	birinçi caktın taandık müçösü
çokluk birinci şahıs eki	köptük sandagı birinçi caktın müçösü
devrik cümle	orun tartibi almaşılgan süylöm
düzleşme	erindeşüü sapatınan acıroo
hece düşmesi	muundun sıygılışıp tüşüp kalışı

3. Terim Listesi (A-İ)

Türkiye Türkçesi	Kırgız Türkçesi	Yapı
açık hece	açık muun	st-st
açıklık derecesi	kötörülüü daracası	b.siz it-b.siz it
ağızlaşma	muunçuldun oozçul tıbışka ötüüsü	tk-t/b.li it
ağız sesi	oozçul tıbış	b.siz it-st
aitlik eki	taandık müçö	b.siz it-st
akıcı ünsüz	murunçul ünsüz	st-st
akraba diller	tekteş tilder	st-st
akrabalık adları	tuugandıktı bildirgen terminder	b.siz it-t/st
alt çene	astıñkı caak	st-st
alt dudak	astıñkı erin	st-st
ana cümle	baş süylöm	st-st
ana dil	bayırkı til	st-st
ana dili	ene tili	b.siz it-b.siz it
anlam bilim(i)ci	semasiolog	b.siz it-tk (Rus.)

[4] eş anlamlı=sinonim, çeviri yazı=transliteratsiya, değişken ses=allofon, değişken şekil=allomorf, eş sesli=omonim, iç ses=inlaut.

anlam bilimi	semantika~semasiologiya	b.siz it-tk~tk (Rus.)
anlamdaş~eş anlamlı	sinonim	tk~st-tk (Rus.)
aracı dil	araçı til	st-st
arka damak/geniz n'si	tüpçül ñ	b.siz it-st
art avurt ünsüzü	kaptalçıl katkalañ tıbış	b.siz it-st
art damak	tüpkü/artkı tañday	st-st
art damak ünsüzü	tereñ tüpçül ünsüz	b.siz it-st
asıl anlam	negizgi maani	st-st
asıl sayı sıfatı/asıl sayılar	eseptik san atooç	b.siz it-st
asli ses/birincil ses	algaçkı tıbış	st-st
asli/birincil uzunluk	algaçkı sozulmalık	st-st
atasözü	makal	b.siz it-tk
avurt	caaktın art cagı	tk-t/b.li it
avurt ünsüzü	kaptalçıl tıbış	b.siz it-st
basit cümle	cönököy süylöm	st-st
basit zaman	cönököy çak	st-st
başta ünlü türemesi	proteza (ündüü)	b.siz it-tk (Rus.)
başta ünsüz türemesi	proteza (ünsüz)	b.siz it-tk (Rus.)
belirsizlik sıfatı	katıştık/çamalama sın atooç	b.siz it-st
belirsizlik zamiri	çamalama at atooç	b.siz it-st
belirtili isim tamlaması	müçölüü anıktooç aykaşı	b.siz it-b.siz it
belirtili nesne	müçölüü tike toluktooç	st-st
belirtisiz isim tamlaması	müçösüz anıktooç aykaşı	b.siz it-b.siz it
belirtisiz nesne	müçösüz tike toluktooç	st-st
benzerlik/benzetme eki	okşoşturuu müçösü	b.siz it-b.siz it
bildirme eki	bayandoçtuk/cak müçö	b.siz it-st
bildirme kipi	bayandagıç/cay ıñgay	b.siz it-st
bilim dili	ilimiy til	b.siz it-st
birinci şahıs	birinçi cak	st-st
birinci şahıs iyelik eki	birinçi caktın taandık müçösü	b.siz it-t/b.li it
birleşik cümle	tataal süylöm	st-st
birleşik ek	tataal müçö	st-st
birleşik fiil/eylem	tataal etiş	st-st
birleşik isim/ad	tataal zat atooç	st-st
birleşik kelime/sözcük	tataal söz	st-st
birleşik zaman	tataal çak	st-st
boğumlanma noktası	artikulyatsiya ordu	b.siz it-b.siz it
bulunma hâli/durumu	catış cöndömösü	b.siz it-b.siz it
bükümlü diller	flektivdüü tilder	st-st
canlı dil	tirüü til	st-st
cevap ünlemi	cay/coop sırdık söz	b.siz it-st
cins isim/ad	calpı at	st-st
cinsiyetsiz	sredniy rod	tk-st (Rus.)
cümle başı edatları~bağlaçlar	candooç/cölökçü sözdör	b.siz it~tk-st
cümle bilgisi	sintaksis	b.siz it-tk (Rus.)
cümle ögeleri/unsurları	süylöm müçölörü	b.siz it-b.siz it

çekim eki	cöndömö müçösü	b.siz it-b.siz it
çekimli fiil/eylem	caktuu etiş	st-st
çekimsiz fiil/eylem	caksız etiş	st-st
çeviri yazı	transliteratsiya	st-tk (Rus.)
çıkma/ayrılma hâli/durumu	çıgış cöndömösü	b.siz it-b.siz it
çift dudak ünsüzü	koş erinçil ünsüz	b.siz it-st
çocuk dili	bala tili	b.siz it-b.siz it
çok anlamlı	köp maanilüü	st-st
çokluk birinci şahıs eki	köptük sandagı birinçi caktın müçösü	b.siz it-t/b.li it
çokluk eki	köptük müçö	b.siz it-st
damak ünsüzü	tañdayçıl ünsüz tıbış	b.siz it-st
dar ünlü	kuuş ündüü	st-st
daralma	tar boluu	tk-ifg
değişken ses	allofon	st-tk (Rus.)
değişken şekil	allomorf	st-tk (Rus.)
devrik cümle	orun tartibi almaşılgan süylöm	st-st
deyim	körköm süylöm~fraza~idiyoma	tk-st
dil ailesi	tildik top	b.siz it-st
dil atlası	tildik atlas	b.siz it-st
dil bilgisi	til ilimi	b.siz it-b.siz it
dil bilimi	calpı til ilimi	b.siz it-st
dilek cümlesi	tilek bagınıñkı süylöm	b.siz it-st
dilek şart kipi	şarttuu tilek ıñgay	b.siz it-st
diş damak ünsüzü	tañdayçıl ünsüz	b.siz it-st
diş dudak ünsüzü	erin tişçil ünsüz	b.siz it-st
diş eti ünsüzü	tañdayçıl ünsüz	b.siz it-st
diş ünsüzü	tişçil ünsüz	b.siz it-st
dişilik	jenskiy rod	tk-st (Rus.)
dönüşlü fiil	özdük etiş	st-st
dönüşlülük zamiri	özdük at atooç	b.siz it-st
dönüşsüz fiil	negizgi mamiledegi etiş	st-st
dudak benzeşmesi	erinçil okşoşuu	b.siz it-st
dudak ünsüzü	erinçil ünsüz	b.siz it-st
düz ünlü	erindeşpegen ünsüz	st-st
düzleşme	erindeşüü sapatınan acıroo	tk-t/ifg
düzlük yuvarlaklık uyumu	erinçil okşoşuu	b.siz it-st
edat	candooç~cölökçü sözdör	tk-tk~st
edat grubu	candooçtuk atooç	b.siz it-st
edebî dil	adabiy til	st-st
edilgen fiil/eylem	arkıluu mamiledegi etiş	st~t-st
eklemeli diller	agglyutinativdüü tilder	st-st
emir cümlesi	buyruk süylöm	b.siz it-st
emir kipi	buyruk ıñgay	b.siz it-st
erkeklik	mujskoy rod	tk-st (Rus.)
eş sesli	omonim	st-tk (Rus.)
eşitlik eki	salıştıruu müçösü~ekvatif afiksi	b.siz it-b.siz it

eşitlik hâli/durumu	salıştıruu cöndömösü	b.siz it-b.siz it
etken çatı	negizgi mamile	st-st
ettirgen çatı	buyruk mamile	st-st
ettirgenlik eki	buyruk mamile müçösü	b.siz it-b.siz it
fiil cümlesi	etiştik bayandooçtuu süylöm	b.siz it-st
fiil çatısı	etiştin mamilesi	b.siz it-b.li it
fiil çekim eki	etiştin caktalış müçösü	b.siz it-b.li it
fiil çekimi	etiştin caktalışı	b.siz it-b.li it
fiil tabanı	etiştin negizi~tuundu etiş	b.siz it-b.li it~st
fiil kökü	etiştin uñgusu	b.siz it-b.li it
fiilden fiil yapım eki	etişten etiş casoo müçösü	b.siz it-b.siz it
fiilden isim yapım eki	etişten atooç casoo müçösü	b.siz it-b.siz it
fiilden türeme fiil	etişten tuundu etiş	st-st
fiilden türeme isim	etişten tuundu atooç	st-st
geçişli fiil	ötmö etiş	st-st
geçişsiz fiil	ötpös etiş	st-st
geçmiş zaman	ötkön çak	st-st
gelecek zaman	keler çak	st-st
gelecek zamanın hikâyesi	mildet keler çak	b.li it-st
gelecek zamanın rivayeti	bayandagıç/cönököy keler çak	b.li it-st
gelecek zamanın şartı	şarttuu keler çak	b.li it-st
genel Türkçe/Türk Dili	calpı/ortok Türk tili	st-st
geniş ünlü	coon ündüü	st-st
geniş zaman	uçur-keler çak	st-st
geniş zamanın hikâyesi	calpı uçur-keler çak	b.li it-st
geniş zamanın rivayeti	bayandagıç/cönököy uçur-keler çak	b.li it-st
geniş zamanın şartı	şarttuu uçur-keler çak	b.li it-st
geniz	murun köñdöyü	tk-b.siz it
geniz sesi	murunçul tıbış	b.siz it-st
gereklilik kipi	mildet ıñgay	b.siz it-st
gerileyici benzeşme	regressivdüü assimiliyatsiya	st-st
gırtlaksılaşma	kömköyçül tıbışka ötüü	tk-ifg
gizli özne	kömüsködögü ee	st-st
görülen geçmiş zaman	aykın ötkön çak	st-st
hâl ekleri	cöndömö müçölörü	b.siz it-b.siz it
hâl/tarz/nitelik zarfı	sın-sıpat/al-abal taktooç	b.siz it-st
halk dili	calpı eldik til	b.siz it-st
hece düşmesi	muundun sıygılışıp tüşüp kalışı	b.siz it-t/b.li it
hece kaynaşması	mundardın şireşüüsü	b.siz it-b.li it
heceleme	ecelep aytuu~muunga bölüp okuu	tk-ifg
iç kafiye	saptın içindegi/içki uykaştık	st-st
iç ses	inlaut	st-tk (Rus.)
ikinci çokluk şahıs	köptük sandın ekinçi cagı	st-b.li it
ikinci şahıs	ekinci cak	st-st
ikinci teklik şahıs	cekelik sandın ekinçi cagı	st-b.li it
ikincil uzunluk	koşumca sozulmalık	st-st

ikizleşme	koş ünsüzlöşüü	tk-ifg
ilerleyici benzeşme	progressivdüü assimilatsiya	st-st
ilgi hâli	ilik cöndömösü	b.siz it-b.siz it
ilgi zamiri	katıştık at atooç	b.siz it-st
imla/yazım	tuura cazuu~orfografiya	tk-ifg/tk (Rus.)
ince sıra	aldıñkı katar	st-st
ince ünlü	aldıñkı katardagı/cumşak ündüü	st-st
incelme	cumşartuu~aldıñkı katarga ötüü	tk-tk/ifg
isim/ad	zat atooç	tk-st
isim cümlesi	atooçtuk bayandooçtuu süylöm	b.siz it-st
isim çekim ekleri	zat atooçtun cöndömö müçölörü	b.siz it-b.li it
isim çekimi	zat atooçtun cöndölüşü	b.siz it-b.li it
isim fiil	etiştik/kıymıl atooç	st-st
isim gövdesi	atooçtuk/tuundu negiz	b.siz it-st
isim kökü	atooçtuk negiz/uñgu	b.siz it-st
isim tamlaması	anıktagıç söz aykaşı	b.siz it-st
isimden türeme fiil	atooçtuk etiş	st-st
isimden türeme isim	atooçton casalgan atooç	st-st
istek cümlesi	niyet/kaaloo/tilek süylöm	b.siz it– st
istek kipi	niyet ıñgay	b.siz it– st
işaret sıfatı	şilteme atooç	b.siz it– st
işaret zamiri	şilteme at atooç	b.siz it– st
işteş fiil	koş mamiledegi etiş	st-st
iyelik ekleri	taandık müöçlörü	b.siz it– b.siz it

4. Sonuç ve Değerlendirme

1. Türkiye Türkçesine göre A-İ harflerinin taranmasıyla belirlenen 170 civarında kelime grubu yapısındaki dil bilgisi teriminin Kırgız Türkçesindeki karşılıkları sayı bakımından şöyledir:

b.siz it-b.siz it	: 20 adet
b.siz it-st	: 47 adet
b.siz it-tk	: 9 adet
b.siz it-b.li it	: 10 adet
st-st	: 61 adet
st-tk (Rus.)	: 5 adet
tk-b.li it	: 2 adet
tk-ifg	: 6 adet
tk-st	: 4 adet
tk-tk	: 3 adet

2. Türk dilinin yapı ve anlam özelliklerine göre terim türetmede genel eğilime uygun olarak hem Türkiye Türkçesinde hem de Kırgız Türkçesinde, isim tamlaması içinde *belirtisiz isim tamlaması* tercih edilmiştir.

3. Kırgız Türkçesi, Türkiye Türkçesinin belirtili isim tamlamasını tercih ettiği terimlerde sıfat tamlamasını kullanmıştır. Bu kullanımda Rusça etkili olmuştur. Aynı etkiyi, Türkiye Türkçesi üzerinde Fransızca ve İngilizce göstermiştir.

4. Türk lehçeleri arasında *terim birliği* önemlidir. Yeni terim türetme ve yabancı dilden alınmış terimlere karşılık bulma işlemlerinde Türk lehçeleri arasındaki ortak kök ve ekler tercih edilmelidir.

5. Yeni türetilecek terimlerde, Türk lehçelerinde farklı anlamlar taşıyan, "yalancı eş değer" kelimeler kullanılmamalıdır.

6. Yeni türetilecek kelimeler mümkünse tek kelimeden oluşmalı; kelime grubu yapısında olanlarda öncelikli olarak *belirtisiz isim tamlaması*, ikinci olarak da *sıfat tamlaması* tercih edilmeli; "tanımlama" yoluna gidilmemelidir.

5. Kısaltmalar

b.li it : belirtili isim tamlaması
b.siz it : belirtisiz isim tamlaması
ifg : isim fiil grubu
KrT : Kırgız Türkçesi
Rus. : Rusça
st : sıfat tamlaması
t : tanımlama
tk : tek kelime
TT : Türkiye Türkçesi

6. Kaynaklar

ATABEY, İbrahim, (2001), "Kırgızistan Gramerciliğinde Kelime Grubu Anlayışı", *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, Güz II, S: 12/2, 2001: 591-598.

CUMAKUNOVA, Gülzura (haz.), 2005, *Türkçö-Kırgızça Sözdük (Türkçe-Kırgızca Sözlük)*, Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi Yay., Bişkek.

GÜRSOY-NASKALİ, Emine, (1997), *Türk Dünyası Gramer Terimleri Kılavuzu*, TDK Yay., Ankara.

KARAHAN, Leylâ, 2000, *Türkçede Söz Dizimi*, Akçağ Yay., Aankara.

KARASAYEV, H. K., (1983), *Orfografiyalık Sözdük*, Kırgız Sovet Entsiklopediyasının Başkı Redaktsiyası, Frunze.

KORKMAZ, Zeynep, (1992), *Gramer Terimleri Sözlüğü*, TDK Yay., Ankara.

TDK, (2012), *Yazım Kılavuzu*, Ankara.

TDK, (2023), *Türkçe Sözlük*, TDK Yay., Ankara.

TÜRKSOY, (2009), *Türk Lehçeleri Arasındaki Aktarma Çalışmalarının Bugünkü Durumu ve Karşılaşılan Sorunlar -Sempozyum-*, İstanbul.

ZÜLFİKAR, Hamza, 1991, *Terim Sorunları ve Terim Yapma Yolları*, TDK Yay., Ankara.

QODIRJON ERGASHEV,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori

"OLTIN YORUQ"NING G'OYAVIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqola qadimgi turkiy adabiyot namunasi – "Oltin yoruq"ning g'oyaviy-estetik xususiyatlarini ko'rsatishga bag'ishlangan. Muallif asarning buddaviylik qonun-qoidalaridan iborat diniy manba sifatidagi o'ziga xos jihatlariga, unda buddaviylik aqidalarining aks ettirilishi kabi masalalarga to'xtalgan. Asar tarkibida mavjud bo'lgan ayrim kichik asarlar soni va hikoyalar tahlil etilib, ularning g'oyaviy mazmuni yoritib berilgan. Shu bilan birga, maqolada "Oltin yoruq"ning qadimgi turkiy adabiyotning nusxasi, adabiy asar sifatidagi xususiyatlariga ham e'tibor qaratilgan va konkret misollar yordamida ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Qadimgi turkiy adabiyot, buddaviylik, manba, sutra, buddaviy qoidalari, no'm kitobi, ruhning ko'chishi, tana.*

Аннотация: *Статья посвяшена раскрытию идейно-эстетических особенностей древнетюркского памятника "Золотое сияния". В особое внимание уделено освешению особенностей "Золотого сияния" как религиозного источника, в которие излагатся основные положения и законы буддизма. В статье осущесетевлен анализ некоторых легенд и рассказов, имеющих место в книге и раскрыто их идейное содержание, показаны особенности "Золотое сияния" как литературного памятника.*

Ключевые слова: *Древнотюркские литература, буддизм, историчник, сутра, законы буддизма, книга нум, реинкарниция тело.*

Qadimgi turkiy tarjima adabiyotning namunasi bo'lgan bu asar XX asr boshiga qadar ilm ahliga ham, o'quvchilar ommasiga ham ma'lum emas edi. Mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlarida ham, ajdodlarimiz tomonidan o'tmishda yaratilgan ilmiy, tarixiy manbalarda ham "Oltun yoruq" haqida hech qanday ma'lumot mavjud emas. Ushbu asarni rus olimi Y.S.Malov 1910-yilda Sharqiy Turkistonning Xansu o'lkasidan topgan va 1913-1914-yillarda V.V.Radlov bilan hamkorlikda bostirib chiqargan.

Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, "Oltin yorug'" sankstrit tilida yaratilgan "Suvarnaprobxasa – sutra"ning tarjimasidir. Lekin u to'g'ridan-to'g'ri sankstrit tilidan emas, balki xitoychadan o'girilgan[1.3]. Tarjima X asrda Sengu Seli Tudung tomonidan amalga oshirilgan, deb hisoblansa-da, uning eng qadimgi qo'lyozmasi XVII asrga oid deb taxmin qilinadi [2.84]. Olimlarning qayd etishicha, "Oltun yoruq"ning turkiy tildagi to'liq nomi quyidagichadir: "Altin onglig yarug yaltirglish, gopla kotulmsh, yaryg nom otlik nom bitic" (Oltin rangli yorug', yaltiroq, hama (narsa)dan ustun turadigan no'm podshohi otli no'm bitigi") [3.84].

Taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonov asarning hozirgi o'zbek tiliga tabdilini amalga oshirgan va 2004-2011-yillar davomida "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilgan. Keyinchalik olim uning ikki kitobdan iborat nashrini tayyorladi va chop ettirdi.

Asarning kirish qismida bir nechta jumlalarda Buddaning tug‘ilishi va faoliyati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Asar haqida ham ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Ularga ko‘ra sutraning tabg‘ach (xitoy) tiliga tarjimasi Kitsu Samasto degan budisatv tomonidan amalga oshirilgan. Keyingi sahifalardan buddaviylik aqidasida muhim o‘rin tutuvchi o‘n ezgu amalning birinchisini targ‘ib etuvchi afsona o‘rin olgan. Bevosita afsona haqida so‘z yuritishdan oldin yuqoridagi o‘n ezgu amallarni qayd etib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat: insonlarni, hayvonlarni, umuman, har qanday jonzotlarni o‘ldirmaslik, ularga ziyon yetkazmaslik, aksincha, ular haqida g‘amxo‘rlik qilish; ularga naf keltirish; agar o‘z ixtiyori bilan berishni istamasa, hech kimdan hech narsa olmaslik; er-xotin orasidagi munosabatlarni buzmaslik; yolg‘on so‘zlashdan o‘zini tiyish; mast qiluvchi ichimliklar va giyohvand moddalarni iste’mol qilmaslik; o‘z ustidan nazoratni yo‘qotmaslik; mechkaylikka berilmaslik, ko‘p ovqat yemaslik; raqs tushishdan, musiqa va qo‘shiq eshitishdan, sahnada o‘zini ko‘rsatishdan voz kechish; gulchambarlardan, atirlardan foydalanmaslik, taqinchoqlar taqmaslik; baland o‘rindiqlarda o‘tirmaslik. Qalin to‘shakda yotmaslik; oltin va kumush idishlardan foydalanmaslik [4.87].

Afsona mazmuni bu o‘n ezgu ishning birinchisi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda yana bir diqqatga sazovor holatga e’tibor qaratish joiz: asarda no‘m kitobini ko‘chirib yozish gunohlardan forig‘ bo‘lishning asosiy sharti sifatida talqin qilinadi. Ku Tau afsonasida bunga alohida urg‘u berilgan. Ku Tau ana shu bitigni to‘lasicha ko‘chirib yozish haqidagi va’dasi tufayli najot topadi. Ku Tauning ishi yuzasidan Erklikxonga yozilgan xatda “Ku Tau ismli odam jonzotlarning hayotini olgani uchun o‘kinib, pushaymon bo‘lib, oltin rangli, yorug‘, yaltiroq, (hamma) narsadan ustun no‘m podshohi nomli xazinani to‘liq, tugal ko‘chirishga istak paydo qilib, umr so‘radi” deyiladi. Ku Tauning bu niyati Erklikxonni xursand qiladi: “Bu iltimos-bitigni o‘qib tugatgandan keyin Erklig xon juda ham sevinib, menga shunday javob berdi: “Ey Ku Tau, jonzotlarni o‘ldirgan bo‘lsang ham, yana buning davosini oxirigacha qilgani bel bog‘lading. Sen ... mustahkam, sof, sodiq ko‘ngil bilan no‘m podshohi nomli no‘m xazinani ko‘chirtirib, ayni zamonda (burxonning) xizmatkori bo‘lishga istak bildirding” [5.93].

Faqat bu o‘rinda emas, “Oltin yoruq”ning boshqa qismlarida ham asarni ko‘chirib yozishga, tarqatishga da’vat qiluvchi so‘zlarni ko‘p uchratish mumkin. Albatta, budda dini vakillarining o‘z dinlariga oid kitobning tarqalishi, buddaviylik ta’limotining keng yoyilishi yo‘lidagi intilishlari tushunarli. Tadqiqotchilar ham budda monaxlarining missionerlik borasida juda faol ish olib borganliklarini, bu yo‘lda kuch-g‘ayratni ham, mablag‘ni ham ayamaganliklarini qayd etganlar. Lekin bizning nazarimizda, “Oltin yoruq”da bu masalaga alohida e’tibor qaratilishi bejiz bo‘lmay, o‘sha davrdagi, ya’ni asar turkiy tilga o‘girilgan paytdagi tarixiy sharoit bilan bog‘liq. Bu asrda islom dinining G‘arbiy va Sharqiy Turkistonda qaror topishi tufayli boshqa dinlar, shu jumladan, buddaviylik ham o‘z mavqeini yo‘qotgan. Islom mintaqada asosiy din bo‘lib qolgan va bu hol burxonlik vakillarini tashvishga solishi tabiiy edi va ular uchun o‘z e’tiqodlarini targ‘ib-tashviq qilish, buddaviylik asarlarini yoyish dolzarb vazifaga aylangan. “Oltin yoruq”da kitobni ko‘chirib tarqatish, o‘qib-o‘rganishga da’vat qilinishi va bu ish odamlarning o‘z hayotlarida qilgan gunohlarining yuvilishi va kechirilishining asosiy sharti sifatida talqin etilishining sabablari mana shunda deb hisoblaymiz.

Asarning keyingi sahifalarida bayon qilingan afsona ham mazmunan yuqoridagi afsona bilan bog‘liq. Unda hikoya qilinishicha, Inchiyu shaharida yashovchi Kun Ching degan bekning xotini kasallikka chalinadi. U bir yil azob chekadi, tildan ham, ovqatdan ham qoladi. Oxiri aqldan ozadi. Bundan xabar topgan shahar begi Kun Chingning oldiga borib, xotinining shifo topishi uchun no‘m bitigini ko‘chirish kerakligini aytadi. Ushbu kitobning hech qayerdan topilmasligini, faqat uning uyida borligini ma’lum qiladi. Shundan so‘ng Kun Ching zudlik bilan katta marosim uyush-

tiradi va no‘m kitobini ko‘chirtira boshlaydi. Hali kitobni ko‘chirish ishi oxiriga yetmasdan xotini sog‘ayadi. O‘ziga kelgandan keyin u xotin quyidagilarni hikoya qiladi:

“... Men xushsiz bo‘lib, sizlar(ni) tanimas bo‘lganimda behisob sigir, qo‘y, to‘ng‘iz, tovuq, o‘rdak kabi jonzotlar bir kunda uch marta yig‘ilishib kelib, meni o‘rab olardilar, urardilar. Etimni, tanamni tortib, sudrardilar, bo‘lib tashlardilar. Har biri o‘zining jonini so‘rar edi”. Eri marosim uyushtirib, no‘m kitobini ko‘chirtira boshlagandan keyin jonivorlar xotinning oldiga kelmaydigan, unga azob bermaydigan bo‘ladilar. Afsonadan chiqadigan xulosa, “qissadan hissa” esa mana bu nasihat va da’vatlarda o‘z ifodasini topgan:

“ ... ozod bo‘lish – qutulish... kerak bo‘lsa... jonzotlarni o‘ldirishdan tiyilsinlar. Boshqalarga qo‘rquvsiz qalb sadaqasini ato qilib, muqaddas qonundan muttasil ta’lim bersinlar. Agar bu qonunlarni o‘rgatadigan bo‘lsalar, avvalo, o‘zlari oldin o‘ldirib, jonini olgan jonzotlar uchun bu no‘m xazinani ko‘chirtirsinlar, o‘qisinlar, o‘qitsinlar”.

Buddaviylikning asosiy aqidalaridan biri qayta tug‘ilish, ruhning tanadan tanaga (dunyodan dunyoga) o‘tishi bilan bog‘liq. Bu qarashlar “Oltin yoruq”da o‘zining to‘la-to‘kis ifodasini topgan. Buni Ku Tau tomonidan o‘ldirilgan jonzotlar tilidan aytilgan so‘zlar misolida ko‘rish mumkin: “Biz hamma hayvonlar, oldin insoniyat dunyosidagi yomon qilmishlar sababidan endi hayvonot olamida tug‘ilgan edik. Qarzimizni to‘laydigan, burchimizni o‘taydigan yil, oy vaqt miqdorini tugatsak, unda qiyofamizni o‘zgartirib, insoniyat dunyosida tug‘ilar edik. Shunday qilib, bizning hayvonot olamidan ayriladigan vaqtimiz, kunimiz yana tugamay turib... Ku Tau o‘ldirdi. Shuning (uchun biz) hammamiz qaytadan yana hayvonot (dunyosida) tug‘iladigan burchga, azob-uqubatga (giriftor bo‘lamiz)”[5.88-89].

Bu ko‘chishlar tana bilan hamda sodir etilgan ishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Sodir etilgan to‘g‘ri xatti-harakatlar, yaxshi amallar tufayli ruh tuban tanadan (yoki tuban dunyodan) yuksak tanaga (yoki yuksak dunyoga) ko‘chib o‘tishi yoki aksincha, nomunosib ishlar, yomon amallar sababli yanada tubanroq tanalarga o‘tishi mumkin. Yaxshi, oliyjanob xatti-harakatlar ruhning taraqqiy etishiga sabab bo‘ladi va agar bu jarayon bardavom bo‘lsa, ruh oxiri inson tanasiga o‘tadi. Bunda ham turli darajalar mavjud bo‘ladi: oldin ruh past tabaqadagi inson vujudiga o‘tadi, to‘g‘ri amallar tufayli mukammallashib borsa, oxir-oqibatda burxon tanasidan o‘rin oladi. Bu darajada u hamma narsani sezish, bilish xususiyatini kasb etadiki, buddaviylikda asl maqsad mana shu hisoblanadi. Shu sababli “Oltin yoruq”da burxon tanasi bilan bog‘liq qarashlar batafsil bayon qilingan. Bu to‘g‘rida asarning ikkinchi qismida so‘z yuritiladi. Agasa karpi – Ko‘k osmon tangrisi otli bir bo‘disatv tangrilar tangrisi burxonga shunday savol bilan murojaat etadi: “Ey nomi mashhur, hurmatga sazovor tangrim. Jamiki dono, burxonlarning burxon baxt-saodatiga erishgandan keyingi bunday ajoyib o‘n turli yo‘riqlari, yana nirvon bo‘lib, boshqalar uchun qilgan turli-tuman ish-amallari, yaxshiliqlari (budir). Agar shunday bo‘lsa, o‘shanday ajoyib muqaddas yo‘riqlari ichida ... tanalari, yana o‘sha tanadan (voz) kechishga (aloqador) xatti-harakatlari endi qanday bo‘ladi?”

Bo‘limning keyingi sahifalari ana shu savolga javob sifatida bayon qilingan fikrlardan iborat. Bunda, eng avvalo, burxonlarning tanalari haqida tushuncha beriladi. Unga ko‘ra burxonlarning uch turli tanalari bor, deb qaraladi: belgurtma tanalar, tush tanalar, no‘mlik tanalar. Bu uch turli tanaga erishganlar sansaradagi haddan ortiq azob-uqubatlardan qutulib, eng oliy burxonlar marhamatiga erishadi. Asarda bu uch turli tanalarning har biriga qay tarzda etishish mumkinligiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Masalan, birinchi belgurtma tanaga erishishning asosiy sharti o‘yga cho‘mish bo‘lib, bunda buddaviylar tasavvuridagi olamlar va ulardagi jonzotlar uchun yaxshi tartibi va qonunlar joriy etish haqida o‘ylash ko‘zda tutiladi. Shu tarzda ular mukammallikning mohiyatini idrok etadilar. Yuqorida aytib o‘tilgan uch turlik tanalar o‘z navbatida yana turlarga bo‘linadilar.

Yomon ishlardan, gunohlardan tiyilish, agar ilgari hayotida shunday ishlarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, pushaymon qilish va tavba yo‘liga kirish g‘oyasi ham “Oltin yoruq”da muhim o‘rin tutadi. Asarning uchinchi qismining asosiy mazmunini shu bilan bog‘liq fikrlar bayoni tashkil etadi. Unda yozilishicha, Hurmuzta tangri tangrilar tangrisi burxonga shunday so‘zlar bilan murojaat qiladi: “Ey nomi mashhur, hurmatga sazovor tangrim, ... aslzodalar o‘g‘li, aslzodalar qizi Tayshin yo‘lida yurganda hamma ters jonzotlar bilan aralashib, qo‘shilib, ilgari qilgan gunoh-u qilmishlari, og‘ir (nihoyatda) yomon qilmishlar uchun pushaymon qilsa, (shularni) anglab etsa, tavba qilsa, o‘sha yovuz qilmshlaridan poklanib, xalos bo‘lmasmikan, (ey) tangrim” deb gapirib iltimos qildi”. Bunga javoban Budda gunohlar va tavba qilish mavzusida va’z aytadi.

Burxonlarni alqash, ularga madhu sano aytishga ham “Oltin yoruq”da alohida ahamiyat berilgan. Bu jihatdan kitobning “Nilufar gulga qiyoslash bilan maqtov” nomli bo‘limi alohida diqqatga sazovor. Unda Kenchana Nagardi degan elikning kecha-kunduz burxonlarni she’r bilan madh etgani, kuylagani xabar qilinadi va uning madhu alqovlari keltiriladi. Bu sahifalar ko‘tarinki ohangi, yuksak ta’rif-u tashbehlar, o‘xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Mazkur qismning bir bo‘limida “qizil oltin” degan sehr-jodu so‘zlari haqida ma’lumot berilgan. U kitobda afsungar no‘m deb ham ataladi. Bu no‘mga rioya qiladigan jonzotlarning ulug‘ baxtu saodatga erishishi ta’kidlanadi. Bo‘limda ushbu sehr-jodu so‘zlaridan foydalanish qoidasi ham tushuntirilgan. Aslida bu sehr-jodu so‘zlari ham burxonlarini ulug‘lashning bir shaklidir. Kitobda o‘sha so‘zlarni aytishdan oldin burxonlar va bo‘disatvlar nomlarini aytish shartligi haqidagi ko‘rsatma shundan dalolat beradi. Foydalanish qoidasi bayonidan keyin sehr-jodu so‘zlari keltirilgan: “Sehr-jodu no‘mi budir: namu ratna kuchari kuchari iriti mariti svaxa”. Bu so‘zlarning ma’nosi izohlanmagan.

Tangrilar tangrisi burxonning to‘rt maxaranch tanrilar bilan muloqoti, ularga topshirilgan vazifalar, maxaranch tangrilarning bu boradagi mulohazalari, turli duolar va ularni o‘qitish borasida buddaning va’zlari bayon qilingan qismlarda ham buddaviylik ta’limotining muhim jihatlari aks etgan. To‘rt maxaranch tangrilar buddaviylik adabiyotida ko‘p tilga olinadi. Aslida hukmdor ma’nosini bildiruvchi maxaranch so‘zi bilan atalgan bu to‘rt tangri buddaviylik ilohlari panteoniga kiruvchi shohlardir. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘z ta’limotlarini yoyish, kishilarni mana shu ta’limot aqidalari bo‘yicha yashashga da’vat etish hamma vaqt buddaviylik adabiyotining diqqat-markazida turgan. “Oltin yoruq”da ham shunday. Uning boshidan oxirigacha ana shu maqsad ko‘zda tutilganini kuzatish mumkin, lekin kitobning VIII qismida bu intilish, ayniqsa, kuchli namoyon bo‘ladi. Bunda buddaviylik asoschisi ham, uning izdoshlari ham so‘zga, uning ta’sir kuchiga alohida e’tibor berganlar. “Oltin yoruq”ning mazkur qismida biz aynan shu holga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, no‘mchilarning va’zi, nutqi, ularni tinglaydiganlarda nutq irod qilish qobiliyatini shakllantirish borasida Sarasvati tangri qizi tilidan shunday deyiladi: “Agarda qaysi bir no‘mchi bu oltin rangli, yaltiroq, hamma (narsa)dan ustun bu no‘m xazinasini va’z qilsa, men ularning aql, bilimlarini, nutqlarini hurmat qilishga muyassar bo‘lgayman. Qayerda (no‘mchining) she’rlarini, bo‘g‘inlari ma’nolarini unutsalar, (bularni) xotirlariga keltirib, aniq-ravshan ko‘rsatishga musharraf bo‘lgayman... Yana bu no‘mni tinglaydigan jonzotlarda o‘tkir nutq iroda qilish fazilatini, chuqur ma’noni uqadigan... qilaman.”. Asarda burxonlarning, bo‘disatvlar va boshqalarning nutqlari, notiqligi maqtaladi va unga hurmat bajo keltiriladi: “... jamiki burxonlarning yoqimli notiqlik fazilatiga ta’zim qilaman, jamiki bo‘disatvlarning yoqimli notiqlik fazilatiga ta’zim qilaman, turli baxt-saodatga intiluvchilarning yoqimli notiqlik fazilatiga (ta’zim qilaman)” [6.157].

Ezgulik, mehr-shafqat, insonlarga, umuman, jonzotlarga yaxshilik qilish, ularga foyda yetkazish “Oltin yoruq”ning boshidan oxirigacha qizil bo‘lib o‘tadigan g‘oya bo‘lsa-da kitobning IX

va X qismlarida u o‘zining yanada yorqin ifodasini topgan. To‘qqizinchi qismda bir elikbekning yurtida kasallik tarqalgani haqida hikoya qilinadi. Xalq bu balodan ko‘p azob chekadi. Bu holdan elikbek ham qayg‘urib, g‘amga botadi. Uning yurtida bir aslzoda, bilimli, tibbiyot sirlarini egallagan odam bo‘lib, shu odamning yaxshi xulq-atvorli, no‘m bitiklarini (buddaviylik aqidalari bayon qilingan kitoblarni) yaxshi biladigan o‘g‘li bor edi. Insonlarning kasallik tufayli tortayotgan azob-uqubatlarini ko‘rib, yigitning ko‘nglida rahm-shafqat, achinish uyg‘onadi. U otasidan tibbiyot ilmini o‘rganishga hamda odamlarni kasallikdan xalos etishga ahd qiladi va o‘z niyatini amalga oshiradi. Xalq undan minnatdor bo‘ladi, uning nomi, shuhrati butun Chambudivin yurtida tarqaladi.

Ko‘ldagi baliqlarning halokatdan qutqarilishi haqidagi hikoya mazmuni ham yuqoridagi singari ezgu g‘oya bilan sug‘orilgan. Shahar va qishloqlarni kezib yurgan boy o‘g‘li Udaqanisanti bir qancha qushlar, hayvonlarning, shu jumladan, yirtqich, qonxo‘r jonzotlarning bir tomonga yugurib ketayotganliklarini ko‘radi. Buning sababini bilish uchun ularning ortidan boradi va va bir yerda suvi qurib qolayozgan ko‘lga duch keladi. Uning ichida son-sanoqsiz baliqlar suvsizlikdan azob chekib, o‘lar holatga kelib qolgan edilar. Udaqanisantining qalbida baliqlarga mehr-shafqat uyg‘onadi. U baliqlarga yordam berishni istab suv qidiradi, lekin topa olmaydi. Shunda Udaqanisanti bir katta daraxtning shoxlarini kesib, baliqlar ustiga tashlab, soya qiladi. Keyin o‘zi yana suv izlab ketadi. Borib-yurib bir daryoga yetib boradi. O‘sha qurishiga sal qolgan ko‘lga suv shu daryodan kelar edi. Qarasa, daryo suvi quloq boshini vayron qilib, boshqa tomonga oqa boshlagan ekan. Suvni yana o‘z o‘zaniga qaytarish bir kishining qo‘lidan keladigan ish emas edi. Lekin boy o‘g‘lini bu hol ezgu niyatidan qaytara olmaydi. Udaqanisati hukmdorga murojaat qiladi hamda unga fillar berib turishni so‘raydi. Udaqanisanti fillar yordamida ko‘lni suvga to‘ldiradi. Endi baliqlarni ochlikdan qutqarish zarur edi. Boy o‘g‘li otasidan yordam so‘raydi, unga baliqlarga ovqat zarurligini, aks holda ular halok bo‘lishini aytadi. Boy uydagi oziq-ovqatlarni baliqlarga berishga rozi bo‘ladi. O‘g‘li emishlarni fillarga ortib ko‘lga olib keladi va baliqlarga beradi. Shu tariqa u baliqlarni halokatdan qutqaradi.

“Oltun yoruq”ning so‘nggi qismidan “Tegin va bars “ afsonasi o‘rin olgan. Afsona bayoni asarning ta’sirli sahifalarini tashkil etadi. Agar yuqorida biz ko‘rib o‘tgan hikoyalarda insonlarga, barcha jonzotlarga mehr-shafqat ko‘rsatish, yaxshilik qilish, ularga foyda yetkazish haqidagi buddaviylik qarashlari ilgari surilgan bo‘lsa, “Tegin va bars” afsonasida ular uchun o‘zini fido qilish g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Albatta, bunday ishga hamma ham qodir emas. Burxonlik aqidasida no‘m qonunini anglab etgan, budisvatlik maqomiga erishgan insonlargina buni qila odadi. Afsona qahramoni Mag‘astvi tegin ana shunday inson. Akalari bilan tog‘-o‘rmonlarda sayr qilish uchun chiqqan Mag‘astvi yaqinda bolalagan ona barsni uchratadi. Bars yettita bolasi bilan ochqab, suvsab, qiynalib, o‘lar holatda yotgan edi. Mag‘astvi unga o‘z tanasini qurbon qiladi. Bunda u hech qanday qo‘rquvni, azob va og‘riqni his qilmaydi, aksincha u bu ishni qalbida sevinch jo‘sh urgan, borlig‘ida cheksiz huzur-halovat tuyg‘usini his etgan holda amalga oshiradi, zero, uning qalbi, ongi ma’nan bunday fidoiylikka tayyor edi. Bu ishning aynan o‘sha kuni yuz berishini ham uning ko‘ngli sezadi va bu haqida akalariga gapiradi: “Shunday qilib, vujudimda butunlay shod-xurramlik, sevinch jo‘sh uryapti, topamiz shekilli biz ajoyib savobni”. Mag‘astvining so‘zlari, tuyg‘ulari va xatti-harakati uning o‘z e’tiqodida yuksak darajaga erishganidan dalolat beradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “Oltin yoruq” – sutra, ya’ni va’z-nasihatdan iborat kitob. Bunday asar esa ta’sirchan bo‘lishi, odamlarning ko‘ngliga, qalbiga kirib borishi, va’zlardan ko‘zda tutilgan maqsad va g‘oyalar unda ravshan va yorqin ifodalanishi lozim. Bu esa turli vositalardan foydalanishni, va’z-nasihatni turli shakllarda bayon etishni taqozo qiladi. “Oltin yoruq”da ham masalaning ana shu jihatlari hisobga olingan. Asarning katta qismi burxonning turli tangrilarga,

rohiblarga, bo‘disatvlarga murojaati yoki ularning burxonga murojaati, iltimosi hamda buddaning ana shu iltimoslarga javoban aytgan va’zlari shaklida bitilgan. Masalan, sakkizinchi qismdagi bo‘limlardan biri qut tangri malikaning burxonga murojaati tarzida bitilgan, shu qismning 19-bo‘limi Sanchanachavi degan rahnamoning iltijosi va duosidan iborat. V qismning sakkizinchi bo‘limi buddaning Subrodisditi degan bo‘disatvga aytgan so‘zlari bilan boshlanadi.

“Oltin yoruq”da budda sharafiga yoki budda ilohlariga bag‘ishlangan madhlar ham katta o‘rin egallaydi. Asarning bunday o‘rinlari bir qator o‘ziga xosliklarga ega. Bunda, eng avvalo, yuksak pafos, his-hayajonli ohang kuzatiladi, turli ta’rif-tavsiflar, o‘xshatish va sifatlashlar keng qo‘llaniladi. Buni Kenchani Nagardi degan hukmdorning buddani sharaflab aytgan madhi misolida ko‘rish mumkin: “... (Ey) hammadan ustun tangrim! Sizni abadiy pok, toza, jami avliyolar podshohi(deymiz). Tanangiz nuri hamma tomonni yoritadi – (xuddi) yaltiroq oltin rangiday! Jami ovozlar orasida hammasidan yaxshi, birinchi (bo‘lib), ulug‘ Azrua (ovoziday yangraydigan) sizning ovozingizdir. Yaltiraydi(ey) Tangrim, sochingiz (xuddi) qora tukli arilar podshohining rangiday yaltirab, o‘ng tomonga qayrilgan bo‘lib, qora-qizil rangdadir. Tekis, zich, yaxlit qorli tog‘daydir tishingiz... Yangi chiqqan Oy tangriday o‘tkir, uzun(dir) qoshingiz, (u) yaltirab nur sochib turadi qora rai rangiday... Tanangiz nuri butunlay hamma tomonni yoritadi tavlanib turgan quyma oltinday, tikilib qarab to‘ymaydigan yuzingiz atrofidagi nur yaltiraydi Oy tangri doirasiday, lablaringiz qizili yaltiraydi bilba degan mevaday, arslon xoni qadamiday mahobatli chiroy bilan tashlaysiz (odimlaringizni), yangi chiqqan Kun tangriday alangali chiroy bilan(dir) yorug‘ingiz...”[6.13].

Har qanday g‘oya, fikr, ta’limotni tarqatish, tushuntirish, boshqalarga yetkazishning eng samarali usullaridan biri ularning mohiyatini savol-javoblar vositasida bayon qilishdir. Konkret savollarga berilgan konkret javoblar tarzida tuzilgan matn o‘quvchi tomonidan oson va tez qabul qilinadi, tushuniladi, anglashiladi. Bunday matn o‘quvchi diqqatini jalb qiladi va qiziqishini orttiradi. “Oltin yoruq”da mana shu jihatlar ham hisobga olingan va buddaviylikning ko‘p aqidalari, masalalari Buddaga berilgan savollarga javoblar tarzida bayon etilgan. Jumladan, Aloqachintiminining “Nima uchun, tangrim, hamma bo‘disatvlar bo‘di degan to‘g‘ri yo‘riqda yuradilar – sansara va nirvondan birin-ketin xoli bo‘lib, boshqalarga foyda keltiradigan bo‘lgani uchunmi?” degan savoliga Budda shunday javob qiladi: “(Ey) aslzoda tangri qizi! Yana bo‘disatvlar no‘m mohiyatiga tayanib, bo‘di degan mukammal bilimga erishish nomli no‘m bo‘yicha yurib, baravarlashish yo‘l-yo‘rig‘ini mukammal qiladilar. Shundan keyin sansaraga ham kirmaydilar, nirvonga ham ishonmaydilar, jonzotlarga (esa) ko‘p manfaat yetkaza oladilar”.

Yuqorida keltirilgan parcha asarda biz uchun kutilmagan, noodatiy bo‘lgan o‘xshatish va tashbehlarning qo‘llanishini namoyon qilib turishi bilan xarakterlidir. Jumladan, undagi soch ta’rifida soch qora tukli arilar podshohining rangiga qiyos qilinadi va uning qora-qizil rangda ekanligi qayd qilinadi. Tekis, zich, oppoq tishlar qorli toqqa tashbeh qilinadi. Qizil lablar esa bilba degan mevaning rangiga o‘xshatiladi. Shu bilan bir qatorda parchada bizga tanish, biz ko‘nikkan tashbehlar ham uchraydi. Masalan, qoshlarning oyga qiyos qilinishi yoki yuzning kunga (quyoshga) o‘xshatilishi (matnda Kun tangriga deyilgan) va hokazo. Savol-javoblardan tashqari “Oltin yoruq” matnida “Nima uchun deb so‘rasalar”, “nimaga deganda”, “nima degani” singari iboralar ishtirokida tuzilgan gaplar ko‘p uchraydi va bu ham yuqoridagi maqsadga, ya’ni asarda bayon qilingan fikrlar, qarashlar va g‘oyalarning o‘quvchilarga oson, yengil tushuniladigan tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

“Oltin yoruq”qa xos qayd qilib o‘tilgan xususiyatlar uning faqat buddaviylikka oid manba sifatidagina emas, qadimgi turkiy tilda bitilgan yozma yodgorlik, adabiy obida sifatida ham qimmatga va ahamiyatga molikligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олтин ёруғ. Сўзбоши, изоҳлар ва қадимги туркийдан ўзбекчага табдил муаллифи Насимхон Раҳмон. – Тошкент, 2013.

2. Дмитриева Л.В. Древнеуйгурские материалы в ИВ АН СССР //Страны и народы Востока. – Москва,1969.

3. Ўзбек тили ва адабиёти. – №2, 2004.

4. Ўзбек тили ва адабиёти. – №3, 2004,

5. Ўзбек тили ва адабиёти. – №2.1994.

6. "Олтун ёруғ" 2-китоб. – Тошкент, 2013.

ISKANDAR MADG‘OZIYEV,
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

MULLO XOLBEK ANDIJONIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI XUSUSIDA

Annotatsiya: *Maqolada XIX asrda Andijonda yashab ijod qilgan shoir va tarixnavis Mullo Xolbek Andijoniyning hayot faoliyati va uning qalamiga mansub “G‘urbatnoma” asari xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma, madrasa, tarixiy-avtobiografik doston, jangnoma, tazkira, personofikatsiya, qo‘lyozmalar fondi, avtograf.*

Аннотация: *В статье рассказывается о жизни и творчестве поэта и историка Мулло Холбека Андижани, жившего в Андижане в XIX веке, и написанного им произведения “Гурбатнаме”.*

Ключевые слова: *рукопись, медресе, историко-автобиографическая поэма, жангнома, тазкира, персонификация, рукописный фонд, автограф.*

Abstract: *The article talks about the life and work of the poet and historian Mullo Holbek Andijani, who lived in Andijan in the 19th century, and the work “Gurbatnama” written by him.*

Key words: *manuscript, madrasa, historical-autobiographical poem, jangnoma, tazkira, personification, manuscript fund, autograph.*

Qadimiy Andijon zaminida ko‘plab ulug‘ siymolar – mutafakkir shoir va adiblar yetishib chiqqan. Afsuski, so‘nggi bir yarim-ikki asrda yuz bergan talato‘plar va tabiiy ofatlar natijasida aksar madaniy-ma’naviy yodgorliklar yo‘qolib ketgan. Bu esa Andijonning boy o‘tmishini tiklash va o‘rganish imkoniyatini muayyan darajada cheklanishiga sabab bo‘lgan. Biroq, shunday bo‘lsa-da, baxtli tasodif tufayli saqlanib qolgan ayrim yozma yodgorliklar borki, ular noma’lum sabablarga ko‘ra hali hanuz o‘rganilmay kelmoqda. Bular orasida tarixchi olim va shoir Mullo Xolbek Andijoniyning “G‘urbatnoma” asari ham bo‘lib, u Qo‘qon xonligi tarixi, xususan Andijonning keyingi 2 asrlik o‘tmishini tiklashda g‘oyat muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Mullo Xolbek Andijoniy shaxsiyati, ilmiy-adabiy merosini o‘rganish va uni keng jamoatchilikka, xalq ommasiga yetkazish dolzarb vazifalardandir.

Mullo Xolbek taxminan 1839-40-yillarda Andijonning shimolida joylashgan Xo‘qandqishloqqa (hozirgi Paxtaobod tumani) tobe’ Cho‘mbog‘ish[1] qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi Muhammad Muso ibn Muhammad Ashur Qo‘qon xonligida katta obro‘-e’tiborga ega nufuzuli harbiy amaldor, ayni paytda ilm-ma’rifatli shaxslardan bo‘lgan. “G‘urbatnoma”da u kishining akasi Muhammad Rahim bilan birgalikda Xo‘qandqishloq markazida masjid-madrasa barpo etganligi yoziladi [1.3-12]:

Bobomiz Mullo Ashurdin uch og‘oyin erdilar,
Ulug‘i Muhammad Rahim boylig‘ maqomda turdilar,

[1] Muallif asarda uni Cho‘mbog‘ish va Cho‘ngbog‘ish shakllarida qo‘llaydi – I.M.

Shubhasiz mol jamlashib Alloh yo'li ko'b berdilar,
Saxiylig' bobida el Vaqqosi soniy derdilar,
Madrasa qilmoqqa taklif-maslahat qilg'an otam,
Bosh bo'lub ul madrasa to bitgucha turg'an otam. [3.244]

Mullo Xolbek dastavval ushbu madrasada o'qiydi, so'ng yanada chuqurroq ilm egallash maqsadida xonlik poytaxti Qo'qonga borib tahsilni davom ettiradi. Bir necha yillar mobaynida Qo'qon madrasalarida zamonasining yetuk ulamolaridan saboq olib, Mallaxon hukmronligi davrida (1858-1862) o'qishni tamomlaydi. Ayni shu yillari u ajdodlari, xususan otasi izidan borib, harbiy sohaga – sarbozlik xizmatiga kiradi:

...Mallaxon marhumining asrida tahsil vaqt edi,
Aylab askar Mallaxon aksar ishin ko'rgan ko'zum... [3.258]

Mullo Xolbek O'zganga Amir Muzaffar hujum qilganda Amirlashkar Alimqul qo'shini tarkibida unga qarshi kurashadi, keyinchalik tug'dor-yasovul darajalarigacha ko'tarilib, turli harbiy yurishlarda ishtirok etadi. Po'latxon davrida (1873) bir muddat hudoychilar safida ponsad lavozimida faoliyat olib boradi:

Ko'rub erkan mani ul Marg'ilonda,
Ki tug'dor yasovul erdim onda.
Qilib ponsad yasovulg'a Fo'lodxon,
Hudoychilar safida erdim ul on. [3.134]

1875–1876-yillarda Qo'qon xonligi Chor Rossiyasi tomonidan egallaganidan so'ng ayrim mahalliy amaldorlar rus ma'murlari e'tiborini qozonish, o'z "sadoqat"ini namoyon qilish maqsadida sobiq amaldor, harbiylar hamda xalq o'rtasida nufuzga ega bo'lgan shaxslarni obro'sizlantirish yoxud shaxsiy adovati orqali ularga nisbatan turli ig'vo va bo'htonlar uyushtirish evaziga baland "martaba"larga erishishni ko'zlaydilar. Afsuski, Mullo Xolbek ham ana shunday tuhmatga uchraydi. Ya'ni "Ma'murga qo'shilib ig'vo qilgan", "Xalqni xat orqali qo'zg'olonga chaqirgan" qabilidagi soxta da'volar bilan qo'lga olinadi. Mazkur voqea tafsilotini muallif quyidagicha bayon qiladi:

...Kelib o'rus bilan ul hol yig'ib bir muncha o'lja-mol,
Vo'lo'stnoy bo'ldi ul battol bu ko'rgonim qolodur deb.
Bo'lub tilmoch ilan sirdosh haromi bad asl ul hosh,
"Muso o'g'li sirrimni fosh qiladurg'an balodur" deb.
Sabab bo'ldi o'shal manga yozildi barcha ulkanga,
Gubirnatur – yarim xonga ki "bul ish na bo'lodur?" deb.
Qilib buyruq yozib xatga bul ishni palavoy sutga,
So'ralsun birinchi jadga ishi ma'lum bo'lodur deb.
So'rabdir: "xat bitibdursan, buzug'liqni kutubdursan,
G'azot deb qasd etibdursan, zakun sandin so'roydur" deb.
Dedim: "kelmas bu ish qo'ldin, so'ratqil o'ng bilan so'ldin,
Iki suv o'rtasi eldin avval-oxir bilodur" deb. [3.143]

Ming afsuski, to‘rt daha qozilarining ijobiy xulosasi va xayrixohlarning xolis guvohligi ham inobatga olinmay, tuhmatchi mingboshining ig‘vosiga ko‘ra harbiy dala sudi qarori bilan Toshkentga yuboriladi. U yerda “ikki qish va uch yoz” hibsda saqlanadi, va nihoyat 1878-yilda unga nisbatan Sibir surguni jazosi tayinlanadi. Dastavval Orenburgga, bir muddatdan so‘ng Rossiyaning boshqa shaharlariga navbatma-navbat etap qilingan Mullo Xolbek oxiri Voronej guberniyasiga qarashli Nijnedevitsk shahrida o‘n yilga yaqin turib, jazo muddatini o‘taydi. Taxminan 1888-yillarda Toshkentga – Turkiston general-gubernatori nomiga ariza bilan murojaat qilib, tuhmat bilan nohaq qamalganini bildiradi. Nebaxtki, arizasi qanoatlantirilib, surgun bekor qilinadi. Shuning bilan Mullo Xolbekning asirlik mashaqqatlari tugab, o‘z yurti Andijonga qaytadi. Bu to‘g‘rida shoir quyidagilarni yozadi:

Yozib arza ko‘ngilda muddao bor,
Ki ul Toshkandda bosh hokimg‘a, ey yor.
Jo‘nattim po‘chtadin aylab tavallo,
U soat sa’d ekan lutf etti Mavlo.
Yetib boshliqg‘a ul xat bo‘ldi maqbul,
Manum qaytmog‘ima, do‘stlar, sabab shul.
Yozibon bosh hokim oq xong‘a noma,
Xalos etmak uchun ta’kidi tomma.
Qilib lutfi karam mango Ilohim,
Xati ozod yozib o‘tmish gunohim.
...Yetib keldim elimga bo‘ldi behbud,
Ki go‘yo yangidin toftim tavallud. [3.255]

Mullo Xolbek bu muddat davomida o‘zining “G‘urbatnoma” nomli tarixiy-avtobiografik dostonini yaratadi. U 7273 misradan iborat bo‘lib, “Tahdidi qalamravi shohi Farg‘ona”, “Jangnomai amirlashkar Alimqul”, “Tazkirai ulamoiyon va zulehtirom fi baldai Andijon” kabi qismlardan iborat. Struktur jihatdan masnaviy, g‘azal, murabba’, muxammas, musaddas janrlaridagi she’rlardan tarkib topgan asar turkiy tilda, g‘oyat ravon tarzda bitilgan va tarixiy voqea-hodisalarga asoslangan. Muallif asarni davr shohidlaridan eshitgan, o‘z boshidan kechirgan, shaxsan guvoh bo‘lgan, shuningdek, ayrim tarixiy kitoblarga tayangan holda yozgan. Muqaddimada shoir asar kompozitsiyasi va uni yozishdan maqsadini quyidagicha ifodalaydi:

Bu so‘zdin bo‘ldi ma’lum ko‘hnadur, bil,
Etib taftish u shohlar ta’rixin qil.
Ki mo‘jaz, muxtasar shahnoma bo‘lsun,
Alimqul ishlari jangnoma bo‘lsun.
Pirovardini g‘urbatnoma ayla,
Gahi yig‘lab, gahi hangoma ayla.
Diling topmas qaror so‘zlanmasang to,
Olib qo‘lg‘a qalam yoz, ibn Muso. [3.12-13]

“G‘urbatnoma”ning birinchi qismi bo‘lgan “Tahdidi qalamravi shohi Farg‘on”da muallif Qo‘qon xonlari tarixini bayon qiladi. Asarda u ushbu qismni tatar olimi Shahobiddin Marjoniyning “Mustafad al-axbor” nomli asariga tayanib yozganini aytadi:

Bor Qozon shahrida bir oliyjanob,
Taftish aylab ul aziz volomaob.
Ul asirlar ichra himmat sarf etib,
Bir tavorix dastlab ul zot az kitob,
Kirdi qo'lg'a ul tavorix do'sti yor,
Nomi oning "Mustafad al-axbor".
Nasr erkan, nazm qildim man faqir,
Sohibin Shahobiddin Marjoniy der. [3.15]

Ilk bo'limda muallif Qo'qon xonligi tashkil topishidan to rus qo'shinlarining Toshkentni egallashi voqealariga batafsil to'xtaladi. Jasoratli sarkarda Amirlashkar Alimqul (1831-1865) qahramonliklari va uning halokatidan hikoya qiluvchi jangnoma qismida Mullo Xolbek Qo'qon xonligi tanazzuli sabablari xususida so'z yuritib, hukmdorlarning qat'iyatsizligi, xonliklarning o'zaro noittifoqligi, harbiy amaldorlarning sustkashligini keskin qoralaydi. Ma'mur botir boshchiligidagi qo'zg'olon, Po'latxonning taxt tepasiga kelishi, Abdurahmon oftobachining muvaffaqiyatsiz harakatlari, xonlikning ruslar tomonidan egallanishi tafsilotlari bilan bo'lim nihoyalanadi.

Asarning keyingi o'rnida u o'zining surgun qilinish voqealari tafsiloti, asirlikda kechirgan og'ir kunlari, dastavval ukasi, so'ng otasining vafotidan xabar topgani va ayni paytdagi iztiroblarini nihoyatda ta'sirli tarzda qalamga oladi. U o'z og'ir hissiy kechinmalarini marsiya shaklida ifodalashga harakat qiladi. Shuningdek, safarnoma xarakteridagi surgun bilan bog'liq o'rinlarda u o'z ko'zi bilan ko'rgan va yashab o'tgan – Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Oqmachit, G'azali, Irg'iz, Orenburg, Samara, Sizran, Morshansk, Rijest, Kozlov, Voronej, Nijnedevitsk shaharlari tasvirini keltiradi. Qolaversa, u asirlikda hamsuhbat bo'lgan va tanishgan juda ko'plab kishilarning nomlarini birma-bir sanab o'tadi.

Mulla Xolbek asarining so'nggi bo'limini Andijon ulamolari va mo'tabar zotlari zikriga bag'ishlaydiki, ular bizga shahar tarixida muhim iz qoldirgan shaxslar ro'yxati – personofikatsiyasini tiklash imkonini beradi. Ayni choqda muallif Vatanga qaytganidan so'ng u yerda ro'y bergan ayrim voqealar – Jome' madrasasining bino qilinishi va uning hayotidan qiziq lavhalar keltirib o'tadi. Jumladan, Mahmudaliboy, Jome'ning bosh mudarrisi Mullo Xoliqberdi oxund domla, madrasa mutavallisi Tojimuhammad, Xo'qandqishloq va keyinchalik Andijon mingboshisi Qodirqul, boylardan Mirkomilboy, Ahmadbek hoji hamda Xolbek qushbegi madrasasi mudarrisi Sayyid Muhyiddin maxdum va boshqalar xususida g'oyat qimmatli ma'lumotlarni bayon qiladi.

Aytish lozimki, Mullo Xolbek Andijoniy hayoti va ilmiy-adabiy merosi xususida alohida monografik tadqiqot amalga oshirilmagan. Uning qalamiga mansub yuqorida mazkur yagona asarning bugunga qadar faqat 1 nusxasi ma'lum bo'lgan [4.150]. Ya'ni "SVR" (O'zFAning Sharq qo'lyozmalari to'plami)ning VII jildida uning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida № R-8816 inventar raqam ostida 150 sahifadan iborat to'la bo'lmagan nusxasi saqlanishi qayd etilgan [5.39]. Mazkur nusxa ustida ilk bor atoqli tarixchi olimlar prof. R.Shamsutdinov [6.10], P.Ravshanov [7.25] va Sh.Vohidov[2.225-229]lar tadqiqotlar olib borgan, qo'lyozmaning qisqacha ilmiy tavsifi va undan ayrim parchalarni e'lon qilganlar.

So'nggi izlanishlar natijasida "G'urbatnoma" asarining muallif tomonidan qayta ishlangan to'la nusxasi ham mavjudligi aniqlandi. Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida Tr-q 70 tartibli, inventar № 5064 raqam ostida saqlanuvchi ushbu qo'lyozma nusxa 300 sahifadan iborat bo'lib, 22x17 sm o'lchamga ega rus fabrika qog'oziga ikki ustundan iborat tarzda qora siyohda jaliy qalam bilan nasta'liq xatida yozilgan. Kitob muqovasi to'q ko'k va yirik nuqtalardan iborat mato qoplangan qattiq kartondan, yonlari va burchlari teridan ishlangan va taxmi-

nan 1900-1910-yillarda kitobat qilingan. Asarda kotib nomi keltirilmaydi. Zotan, ko‘p o‘rinlarda asosiy matnga tuzatishlar kiritilgani, ayrim sahifa hoshiyalariga qo‘shimcha baytlarning yozilgani uning muallif dastxati (avtograf) ekanligidan dalolat beradi.

Asarda uning yozilgan yili maxsus qayd qilinmagan, biroq voqealar mazmunidan kelib chiqib XIX asrning 70-yillari oxiri XX asr boshlari oralig‘ida yozib tugallanganligini taxmin qilish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, so‘nggi yillarda adabiyotshunoslik, matnshunoslik, adabiy manbashunoslik kabi fan sohalari ilmiy-nazariy jihatdan taraqqiy topdi. Bu esa xalqaro tajriba va prinsiplarga asoslangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yanada kengaytirdi. Shu nuqtayi nazardan Mullo Xolbek Andijoniyning “G‘urbatnoma” asari yuqorida sanalgan aspektlarda o‘rganilib, nashr etilishi kelajakda uning yana boshqa qator fan yo‘nalishlarida amalga oshirilajak tadqiqot ishlari uchun manbaviy asos o‘laroq xizmat qilishi shubhasiz.

(Ushbu maqola Andijon davlat universitetining 2024-yil 7-fevralda tasdiqlangan jamoaviy ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan № 04-12 loyihasi doirasida bajarilgan.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andijon viloyat davlat arxivi. 128-fond, 1-ro‘yxat, 170-ish. – 3-23 betlar.

2. Vohidov Sh. Qo‘qon xonligida tarixnavislik. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 316 b.

3. Mullo Xolbek ibn Muso Andijoniy. G‘urbatnoma. Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondi. № 5064 inventar raqamli qo‘lyozma. – 300 b.

4. Mullo Xolbek ibn Muso Andijoniy. Alimqul jangnomasi va G‘urbatnoma. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. № R-8816 inventar raqamli qo‘lyozma. – 150 b.

5. СВР АН УзССР. VII том. – Ташкент: Из-во “Наука” Узб., 1964. – 554 с.

6. Shamstudinov R., Ravshanov P. Amirlashkar Alimqul tarixi. Alimqul jangnomasi (parcha). – Toshkent, 1997.

7. Shamsutdinov R., Ravshanov P., Hakimov A. Amir Lashkar Alimqul // Andijon tarixidan lavhalar. – Andijon: “Andijon nashriyot-matbaa” OAJ, 2008. – 260 b.

SANOBAR TO'LAGANOVA,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori (DSc)

TURKIY TAFAKKUR VA FIKR ADABIYOTI

(Tohir Shokirning "Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy" maqolasi xususida)

***Annotatsiya**: Maqolada turk olimi Tohir Shokirning (Chig'atoy) turk mafkurasi shakllanishida Alisher Navoiyning o'rni masalasiga bag'ishlangan kuzatishlari o'rganilgan. Tohir Shokir turk tafakkuri tarixida iz qoldirgan M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, A.Yassaviy faoliyatining Navoiy dahosiga ta'siri masalasiga ham alohida urg'u beradi. Olim Navoiy shaxsiyatini uning ijodi bilan bir butunlikda o'rganishni ma'qullaydi. Olimning maqolasida turk tafakkuri va fikr adabiyoti shakllanishida A.Navoiyning ijodi millat tarixida alohida sahifa bo'lib qolishi ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** turk mafkurasi, turk tafakkuri, fikr adabiyoti, A.Navoiy, mutafakkir.*

***Abstract:** The article examines the role of Alisher Navoi in the formation of the Turkish ideology of the Turkish scientist Tahir Shakir. Tahir Shakir also emphasizes the influence of M. Kashgari, Yusuf Khos Hajib, A. Yassavi, who left a mark in the history of Turkish thought, on Navoi's genius. The scholar favors studying Navoi's personality as a whole with his work. It is revealed that A. Navoi's work will remain a special page in the history of the nation in the formation of Turkish thought and thought literature.*

***Key words**: Turkish ideology, Turkish thinking, literature of thought, A. Navoi, thinker.*

Turk tafakkuri tarixi va tadrijida hazrat Alisher Navoiyning xizmati nihoyatda buyukdir. Alisher Navoiy ijodi dunyo madaniyati xazinasining yorqin sahifalaridan biri sanaladi. Ulug' shoir ijodiy merosi o'zligini anglash va kamolga yetishi yo'lidagi insoniyat qo'lga kiritgan ulkan yutuqlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodiga qiziqish, uning asarlarini tadqiq etish va qaytadan nashr etish, o'zga tillarga tarjima qilish dunyo adabiyotshunosligida eng muhim masalalaridan biri bo'lib, navoiyshunoslik ilmi muhim bir sohaga aylanib ulgurgan. Alisher Navoiy ijodi barcha zamon va turli makonlarda ahli ilmning e'tiborini tortib kelgan va bu adabiy tarixiy jarayon uzoq muddat davom etadi.

XX asrning avvalida yangi o'zbek adabiyoti negizida milliy adabiyotshunoslik shakllandi. 1919-yilda Fitrat nashrga tayyorlagan "Insoniyat haqinda Navoiyning fikri" nomli risola bosilib chiqadi. Kitob "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan parchalardan tashkil topadi. "O'zbek adabiyotidan namunalar" ham shu harakatning amaliy natijalaridan biridir. Turkistondagi ma'rifatparvarlar millat istiqboli yo'lida 1921-1927 yillarda bir qancha yoshlarni Germaniyaga o'qishga yuboradi. Ular orasida Tohir Shokir (Chig'atoy) ham bo'lib, uning Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Maxtumquli va Abay ijodi bilan bog'liq bir qancha maqolalari chop etilgan. Berlinda tahsil olib dunyo madaniyati bilan tanishgan Tohir Shokir saboqni tugatib, Turkistonga emas Turkiyaga qaytishga majbur bo'ladi. Vatanda bo'layotgan siyosiy-mafkuraviy kurash, qatag'on siyosati va yurtga qaytgan saboqdoshlarining ayanchli qismati unga dars bo'ladi. Sotsilogiya fanlari doktori professor Tohir Shokir Roziqboy o'g'li umrinning oxirgacha Anqarada

yashab, faoliyati davomida Turkiston qayg‘usi, milliy ruh va milliy madaniyat mavzusiga e’tibor qaratdi. Tohir Shokir “Yosh Turkiston” nomli jurnalda mudir vazifasida xizmat qiladi. Mazkur nashr dunyoning turli burchaklari: Germaniya, Turkiya, Saudiya Arabistoni kabi diyorlardagi muhojirlarni Turkiston bilan bog‘liq yangiliklardan xabardor qilib turgan. Olim yurtdan yiroqda bo‘lsa-da, ammo qalbi Vatan ishqi bilan band ekanligini ijodiy merosi misolida ko‘rish mumkin.

Tohir Shokir haqida o‘zbek matbuotida bir qancha maqolalar berilgan. Navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva tomonidan Tohir Shokirning “Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy” nomli maqolasi 2011-yilda “Alisher Navoiy ijodida milliy mafkura” nomi ostida o‘zbek kitobxoniga havola qilingan. 2022-yilda zahmatkash olim Sirojiddin Ahmad tomonidan Tohir Shokirning “Tanlangan asarlar. (Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy) nomli kitobi nashr etildi”. Olim “Toshkentda tug‘ilib Anqarada porlagan yulduz” nomli so‘zboshisida Tohir Shokir haqida ma’lumot berib, uning tanlangan maqolalariga qisqacha sharh bergan. O‘tgan asr avvalida Turkistondan oltmishdan ortiq talaba tahsil olgani Germaniyaga borishadi. Turli sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishgan vatandoshlar yurtga qaytib sovet hukumati tomonidan turli bahona fitnalar orqali ta’qibga olinib, qatl ettiriladi. Shu bois ko‘pchiligi yurtga qaytishni istamaydi. Turkistondan Germaniyaga borib tahsil olganlar orasida Tohir Shokir ham bor edi. Tohir Chig‘atoy taxallusi bilan faoliyat yuritgan olim Turkiston diyori madaniyati, tarixi, san’ati va adabiyoti bilan bog‘liq jiddiy tadqiqot olib boradi. Uning “Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy” nomli turkum maqolasida turk tafakkuri, turklik ruhi bilan bog‘liq mulohazalar berilgan. Maqolada turkiy birlik, turk adabiyoti, turk ruhining o‘ziga xos ahamiyatli jihatlari tadrijiy ko‘lamda yoritib beriladi.

Olim hazrat Navoiy ijodiga bag‘ishlangan maqolasida ikki muammoni ochib berishni maqsad qiladi.1. Turkistonda turk mafkurasi. 2. Alisher Navoiy ijodi va turkiy tafakkur masalasi. Olim Navoiy fenomenini ochib berishda turkiy tafakkurning qadim ildizlariga nazar soladi. Muallif ta’kidlaganidek, “Alisher Navoiyning milliy turmush va tariximizdagi o‘rnini bir darajag‘a qadarginada oydin ko‘ra bilamiz uchun milliy mafkuramiz, turmushimiz, adabiyotimizning unga qadar kechirganlarini” eslab o‘tish lozim. Ulug‘ shoirning millat tarixidagi o‘rni haqida shunday yozadi “...bir chog‘da milliy kurash bayrog‘ini o‘rtag‘a olib chiqqan, milliy til va turmushimizni tahlikadan qutqorg‘an mutafakkir, buyuk turk shayxi Ahmad Yasaviy bo‘lsa, unga to‘luq forum(-forma)ni berib muvaffaqiyat tojini kiydirib ketgan-da Alisher Navoiy edi”.

Olim turk ulusi va turk ruhi masalasi kesimida Turkiston tarixiga nazar soladi. Turkistondagi turklikning Navoiygacha bo‘lgan madaniy va adabiy davrining yirik polotnosini yaratadi. Islomdan oldingi davrda xalq og‘zaki ijodidan tashqari yozma manbalarni Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘oti-t-turk” asari misolida dalillaydi: “milliy tariximizning bu davri so‘ng asarlarindan biri sanaluvi lozim kelgan “Qutadg‘u bilig” o‘zi bu jihatdin hech bir shubhaga yo‘l qoldirmasliq bir shaklda qa’tiyatla isbot etmakdadir”. Olim “Qutadig‘u bilig”ni milliy ruh va milliy tafakkurning timsoli deb baholaydi. Navoiygacha bo‘lgan davrni Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy ijodi orqali kuzatib, milliy til, milliy san’at, turk zavqi qayg‘usida fikr yuritib “turk harsi yotlashmoq tahlikasi ostina tusha boshlog‘on ondayoq bu til va harsning ona yurti Turkistonda uni qo‘rimoq qayg‘usi” boshlandi. Muallif Turkistonda arab xalifati, til siyosati, dinda milliylashish, muloqot va ilmiy til arab tiliga aylanib qolish masalasi doirasida turklikni “qo‘rishga” xizmat qilgan adiblar merosini yuqori baholaydi. Olim “arabliq ta’sirini ma’ruz qolg‘on xalqlar forslar” deya tarixdan saboq chiqarishga undaydi. Forslar milliy qadriyatlari negizida islomni milliylashtirishga erishgan xalqlardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Turkiy qavm arab va fors tili bosimi ostida o‘z ruhidan uzoqlashib ketayotgan pallada Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviyning “kurash bayrog‘ini” ko‘tarib chiqqaniga ishora qiladi. Olim yana bir masalaga e’tibor qaratdi. O‘rta Islom madaniyati davrida ilm bilan mashg‘ul bo‘lgan “Turkiston turk fikr va bilim

erlari” bu kunda arab ulamosi yoki olimi sifatida tan olinadi, deya kuyunchaklik bilan yozadi. Yoki fors “fikr adabiyotini yaratqon buyuk turk qobliyatlari bu kun ajam” sanaladi. Arab va fors fikr adabiyotiga e’tibor qaratilsa, “eng buyuk hissa biz turklarga tushgani”ni olim misollar asosida ko‘rsatadi. Islom madaniyatining ulug‘lari Forobiy va Ibn Sino turkistonli turk ekanligi, hatto arablarga tilshunoslikni o‘rgatgan “voze’ lison” ham turk ekanligi turk tafakkuri ildizlari qadimga borib ulanishini tasdiqlaydi. Navoiygacha bo‘lgan davrda fors tilining ta’siri o‘sib “milliy ruh, milliy an’ana, milliy hars unsurlarini” o‘ziga qaram qilib olgan edi. Maqolada turk saroylari “tamomila forslandi”, “yot zehniyat” barcha sohani qamrab olganligi, chingiziylar, saljuqiylar davridagi turkiylarning ijtimoiy mavqeyi haqida so‘z boradi.

Turklik ruhi, turklik fikr hazrat Navoiygacha bo‘lgan davrda tarixda qanday to‘lqinlarga uchraganligini muallif kichik maqola misolida yoritib beradi. Navoiyning ijodkor sifatida bo‘y ko‘rsatishida temuriylarning xizmatiga ham alohida e’tibor qaratadi. Olim shoirni Turkiston turkligining islomiyatdan keyingi “buyuk millatchisi va bu kungi millatchiligimiz negizini to u zamon solib berib ketgan, bir mutafakkir mafkurachi va kurashchan millatchi” deb ataydi. U buyuk faylasufni “Turk ulusi” ta’birini qaytadan Turkiston turk saroyi adabiyotina kiritishga muvaffaq bo‘ldi deb yozadi. Navoiy fors madaniyati bosimi ostida islomiy aqida masalalariga ham juda hushyorlik bilan munosabatda bo‘ladi. Olim diniy jamoat masalasi va milliy madaniyat orasidagi farqni aytib, o‘rtaga “qo‘yg‘an va uni ilmiy mafhumda izoh etishga ilk urung‘onda Navoiydir”-deya ulug‘ shoir faoliyatining ijtimoiy-ma’rifiy tomonlariga urg‘u beradi. Temuriylar davrida turk saroyida milliy tuyg‘uni qoniqtirarlik darajada milliylashib “yetmagan bo‘luvi kerakki, Navoiy eng ko‘p g‘ayratini bu maydonda sarf etdi”. Temur davrida “turk tili fors tilina qarshi zafar qozonimishdir” deb yozadi muallif. Olim A.Navoiy dahosining tarix sahnasiga chiqishida qanday omillar xizmat ko‘rsatganligini asosli va mantiqli dalillar yordamida ochib beradi. Navoiy ma’naviy shaxsiyatini amirlik, vazirlik hamda san’atkorlik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Muallif shoir ijodiy merosini tadrijiy sur’atda izohlashga harakat qiladi. Navoiyning fors tilida mashhur bo‘lgan asarlariga manzuma tarzda turkona yozgan bitiklari nomma-nom sanaladi. “Dostoni Bahromgo‘r va yo “Sab’ai sayyora” Nizomiyning “Haft paykar” nomli asarina turkcha naziradir”. Navoiy diniy hukmlar masalasida ham qa’tiy tartibni mezon bilgan. “Arba’in”, “Siroj ul muslimiyn”da islomiy asoslarni turkchada yozib, “xalqni dinlashtiruv va diniy milliylashtiruv” nazariyasini Yasssaviydan so‘ng sharaf bilan davom ettirdi, deb ta’kidlaydi. Tohir Shokir maqolasida *fikr adabiyoti, fikr maktabi vakillari* so‘zlarini ishlatadi Fikr adabiyoti so‘zini bir o‘rinda tasavvuf bilan teng ma’noda qo‘llaydi.

Alisher Navoiy kamtarlik bilan “fikr adabiyoti ustozlarini hurmat ila “yoziylarini tarjuma” deb qayd etadi. Bu esa yot zehnlilarga qo‘l kelab so‘zni turli ma’noda qo‘llab shoirni kamsitishga harakat qilishdi. Bertels “Matiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr”ni qiyoslab shunday xulosaga keladi. “Attordagi latif fantaziy (fantaziya) yerina Navoiyda mantiq kechdi. Attorda o‘lduqcha zaif ko‘ringan didaktik tamoyili Naoviyda daho kuchlu, daho sarih (aniq, oydin) ko‘rundi” deya oradagi ayirmani ochib berganligini olim misollar yordamida yoritib beradi. Navoiy turk “ruhina uyg‘un ahloqiy-falsafiy” asarlar yozib “fors ruhina, rindiy falsafa”ga ergashmadi. Shoir butun faoliyati davomida milliy mafkurani shakllantirishga, “turk ruhi, turk rangi, turk fikr adabiyoti” ni “yakqalam” qilishga intildi va muvaffaqiyat qozondi. “Iymoni zaiflashib ketgan saroy doirasi miyalarini tozalab to‘g‘ru milliy yo‘lg‘a solmoqchi” bo‘ldi va maqsadiga yetdi. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarida ikki tilni qiyoslab, fors tilini kamsitmagan holda “ilmiy haqiqat” orqali turk tilining imkoniyatlarini asoslab berdi.

Olim Alisher Navoiy turk tilini “yot ta’sirdan tozaladig‘i”, turk san’ati va turk madaniyatini “haqirlikdan qurtarib” mavqeyini ko‘tarishga xizmat qilganligini misollar yordamida yoritib

beradi. Shoir asarlari bilan tanishish istagida o‘zga tildagi olimlar uning asarlari orqali turk tili ohanglari bilan tanishdi. Navoiy turk tafakkuri va milliy tuyg‘ularni asarlariga singdirgan ulug‘ mutafakkir sifatida millat tarixida alohida sahifa bo‘lib qoladi. Tohir Shokirning mazkur maqolasi fikr izchil tarzda berilishi, mantiqiy mushohadaga boyligi bilan ahamiyat kasb etadi. Olimning Navoiy shaxsiyatini butun qirralari bilan ochib berishga qaratilgan yozilmasi navoiyshunoslikda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. Sharq yulduzi. 1992-yil, 10-son.

2. Alijonov M. Vatanga qayta olmagan Chig‘atoy hikoyasi. http://oyina.uz/kiril/article/2048.

3. Tohir Shokir. Tanlangan asarlar. (Turkistonda turk mafkurasi va Alisher Navoiy). Toshkent.; 2022. Info Capital Croup.

ZULFIYA MA'RUFOVA
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BADIIY TASVIRDA FITOMORFIK VA ZOOMORFIK LEKSEMALARNING POETIK VAZIFASI

Annotatsiya: *Maqolada sharq she'riyatida go'zallikning ifodalanishi haqida so'z boradi. Ma'shuqa tasvirida o'simlik va jonivor nomlarining qo'llanilishi, badiiy tasvirning yuzaga chiqish jarayonida leksik birliklar o'rtasidagi bog'lanishlarning leksik-semantik, kognitiv-pragmatik asoslari mumtoz she'riyat namunalari misolida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *konsept, o'simlik, sub'ektiv baho, zoonim, metafora, konseptosfera, go'zallik, leksik-semantik maydon, verballashuv, bayt, badiiy matn.*

Аннотатсия: *В статье рассматривается вербализация понятия красоты в восточной поэзии. На примере образцов классической поэзии анализируются использование названий растений и животных в выражении красоты женщины, лексико-семантические, когнитивно-прагматические основы связей между лексическими единицами в процессе возникновения средств художественного образа.*

Ключевые слова: *концепт, растение, субъективная оценка, зооним, метафора, концептосфера, красота, лексико-семантическое поле, вербализатsiя, байт, художественный текст.*

Annotation: *The article examines the verbalization of the concept of beauty in Eastern poetry. Using samples of classical poetry as an example, the use of the names of plants and animals in expressing the beauty of a woman, the lexical-semantic, cognitive-pragmatic foundations of connections between lexical units in the process of the emergence of artistic imagery are analyzed.*

Keywords: *concept, plant, subjective assessment, zoonym, metaphor, conceptosphere, beauty, lexico-semantic field, verbalization, byte, artistic text.*

Mumtoz adabiyotimizda go'zallik tushunchasi, asosan, ayol timsolida talqin etilgan. Ma'shuqa husnini ta'riflashda turli tasvir vositalari, bo'yoqdor ifodalar, turfa xil ramzlardan keng foydalanilgan. Bu ifodalarda o'simlik va hayvon nomlari bilan bog'liq leksik birliklarning o'rni katta.

Badiiy tasvirlarda ko'p qo'llaniluvchi pista leksemasi, asosan, yor og'zining kichikligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Ammo Lutfiyning quyidagi baytida pistaga hajmdan tashqari holat ifodasi ham yuklanganini ko'rish mumkin:

Hayratda qolib pista ogiz ochti-yu, qoldi,
Majlisda chu og'zing soridin kechti hikoyat [6.44].

"Shoirlar yor og'zini pistaga o'xshatadilar. Lutfiy tasviridagi ma'shuqa og'zi haqida so'z ketgan ekan, pista og'zini ochgancha qolibdi. Demak, bu ma'shuqa og'zi pistadan ham kichik

ekan-da?!" [6.102]. Pistaning og'izga qiyoslanishida "odam+o'simlik" konseptosferasiga kiruvchi "shakl" hamda "holat" konseptlarining komponentlari o'zaro tutashadi. Ya'ni, har ikkala konseptga tegishli bo'gan "kichik" va "ochiq" semalari sub'ekt tafakkuridagi tasavvurni verballashtiradi. Shu bilan birga shoirning go'zal yor husniga bergan emotsional-ekspressiv bahosini ifodalaydi. Pista mevasi nafaqat mumtoz, balki zamonaviy adabiyotda ham yor og'zining kichikligini ifodash uchun qo'llanadi *(O'tdi yillar, o'chmadi dilda sho'x istaklarim, Egma qosh, pista dahan, ko'zi fattondan umid. Muxtor Xudoyqulov)* [14].

Olma yangoqing kurgach, men banda nechuk o'lmay!
Bodom ko'zi fitna, pista dahani nozuk [6.142].

Yuqoridagi baytda ham yorning og'zi hajm jihatdan pistaga o'xshatilsa, ko'zi shaklan bodomga qiyoslanadi.

Ey do'stlarim, ohu ko'zin ko'rmayin o'lsam,
Zinhor, soching tobutim uzra ***qora bodom*** *[6.173].*

Ohuning ko'zi qop-qora va shahlo ekanligi bilan sharq xalqlarining milliy-madaniy tafakkurida eng chiroyli ko'z sifatida assotsiatsiyalashgan. Shuningdek, ko'z shaklining bodom shakliga o'xshab ketishi ham bizga ma'lum. M.Rahmatovaning fikricha, "go'zallik" konseptining tilda voqelanishida ... xalqning etnik xususiyatiga xos *tabiat hodisalari, zoonimlar, o'simliklar dunyosi antroponimlar, taom nomlari, diniy antroponimlar, istorizmlar, uslubiy xos so'zlar va ijtimoiy* mavzularga oid lisoniy birliklarning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarining konseptual izomorfik (mushtarak) va allomorfik (farqli) jihatlari isbotlangan" [8.8].

Keltirilgan bayt chin ma'nodagi tasavvufiy oshiqona misralar bo'lib, ham rang, ham shakl o'xshashligi asosida go'zallik voqelantirilyapti. Shoir tafakkurida **ko'z** va **bodom** leksemalarining birlamchi ma'nolaridagi rang (qora) va shakl (ko'zsifat) belgilari qayta ishlanib, "qora bodom" metaforik birikmasida mujassam etiladi. Adabiyotshunos olim M.Abdulxayrning ta'kidlashicha, Alisher Navoiy she'riyatida "*bodom – poetik obraz, irfoniy ramz hisoblanadi"*, shuningdek, poklik, komillik, qanoatni ifoda etuvchi timsol hamdir. "Shoir o'z she'rlarida poetik obraz timsoli sifatida bodom so'zini takror va takror qo'llagan. Go'yo shoir bir komil insonning o'sib-ulg'aganidan to so'nggi manziliga kuzatib qo'yguniga qadar bodom timsolidan san'atkorona foydalangan:

Chun qora bodom tobut uzra rasmedur qadim,
Ko'z janozam sari solkim, sensizin bo'ldum qatil.

Lutfiy va Navoiy she'rlaridan keltirilgan har ikki misolda ham qora bodomni tobut ustiga sochish holatini ko'ramiz. Aytish mumkinki, "qora bodom" birikmasi nafaqat rang va shaklni ifodalovchi birlik, balki chuqur botiniy tasavvufiy timsol sifatida ham talqin etiladi.

Go'zallik ifodalashning eng sermahsul sharqona usullaridan biri ma'shuqa yuzini gulga nisbat berishdir.

Lutfiy ham zamondosh shoirlari kabi yor jamolini ta'riflashda gul, lola, nasrin, binafsha, nilufar, anor(nor) singari o'simlik nomini bildiruvchi leksemalardan keng foydalangan.

Ul orazu ruxsor ila zulfi, engi lola,
Oydinda yotur gul uza bir hindu uzola [6.249].

Baytda yorning oppoq yuzi, qizil yonoqlari atrofidan tushgan zulfi oydinda gullar ichida yotgan hinduga qiyoslangan. Yuzining oqligi va yonoqlarining qizilligi “oydin” hamda “lola” leksemalari vositasida berilib, go‘zal metaforik tasvir yaratilgan. Lola o‘simligi sub’ekt ongida “qizillik” va “chiroylilik” belgisini bildirgani sababli yor yonog‘ini ushbu gulga qiyoslash orqali u o‘z estetik bahosini ifodalaydi. Quyidagi baytda rang hamda hid belgisi odam va o‘simlikka oid leksemalarning o‘zaro semantik bog‘lanishiga asos bo‘ladi:

To yuzungning vasfini Lutfiy bitti, daftari –
Buldi ranginu nasimi gul kelur avrokdin [6.204].

Ya’ni yor go‘zalligi bitilgan daftarlar gul rangiga kirib, ulardan gul hidi kelishi aytiladi.
Bu tasvirni lingvistik aspektda quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:
odam + gul – hid, rang → yoqimli → GO‘ZALLIK

M.Rahmatova go‘zallikni ifodalashda ta’m, hid va taktil sezgilari orqali yoqimli shaxsiy tajribalarni ifodalashini ta’kidlar ekan, bu ingliz tiliga xos prototip ekanligini aytib o‘tadi [8.17]. Sharqona madaniyatda yorning hidi gul ifori vositasida ifodalanadi va bunda xushbo‘ylik, yoqimlilik belgisi asos qilib olinadi. Baytda gul leksemasi ham rangni, ham hidni ifodalab, sub’ektning emotsional-ekspressiv baho darajasini verballashtirgan.

Suvga maxmur kishida bo‘lmas aningdek mayl hech,
Kim, mening qonimga ul nargisi fatton suvsadi [6.261].

Nargisi fatton-fitna qiluvchi nargis, ya’ni “chiroyli, sho‘x va ayyor ko‘z”ning metaforik ifodasi. Bayt mazmuni: bu fitnakor nargis ko‘z mening qonimga shu qadar kuchli tashna bo‘ldiki, suvga zor tashnaning istagi uning oldida hech gap emas. *Mumtoz adabiyotda ma’shuqa timsoli deyarli barcha shoirlarda jafokor, yolg‘onchi, bevafo tarzida tasvirlanadi* [4.104]. Ma’shuqa ko‘zining nargis guliga qiyoslanishi ham o‘ziga xos mantiqiy-kognitiv asoslarga ega. A.O‘razboev va S.Kurbanovalarning tahlilicha, ”...*nargis* ko‘plab leksikografik manbalarda fors tiliga oid so‘z tarzida talqin qilinsa ham, uning asli yunoncha *nárkissos*dir. Pahlaviy tilida *narkis* shaklida ishlatilgan, arabiylashtirilgan (muarrab) ko‘rinishi *narjis* نرجس , lotinchada *narcissus*, fransuz tilida *narcisse*, inglizchada *narcissi* shaklida. Bu gul nargizguldoshlar – Amaryllidées oilasiga mansub bo‘lib, gulining o‘rtasida bir sariq halqa bo‘ladi va uni *nargisi shahlo* (g‘ilay nargiz) deydilar. Ba’zi turlarida gulining o‘zi sariq bo‘lib, o‘rtasida oq rangli gulbarg bo‘ladi. Bu turini *nargisi miskin* deyishadi.” Nargis bir qarashda odamning ko‘zini eslatadi. Shuning uchun mumtoz adabiyotda mahbuba ko‘zi nargisga qiyoslangan” [12.80]. Sub’ekt nargis guli haqida tasavvurga ega. Ya’ni u chiroyli gul, suv ichsa yashnaydi. Mahbubasining ko‘zi shu qadar go‘zal bo‘lishdan tashqari shunday fitnakorki, o‘ziga mahliyo qilib turib, oshiqning qonini suv o‘rnida ichmoqni istaydi. Baytda **ko‘z** va **nargis** guli *shakl, rang, suyuqlik (suv, qon), xohish-istak, “tashnalik”* kabi umumiy semalar ostida birlashib, chiroyli va o‘ynoqi ko‘z obrazini yaratishga xizmat qilgan.

Sevingandin gul o‘z to‘niga sig‘mas,
Kim, oni yuzunga nisbat qilurlar [6.64].

Mazmuni: gul (g‘uncha) sevinganidan o‘z to‘niga sig‘may ochilib ketyapti, sababi, uni sening yuzingga o‘xshatyaptilar. Xalqimiz tilida “sevinib ketdi” degan ma’noni kuchliroq ifodalash

uchun “terisiga sig‘may ketdi” iborasi qo‘llaniladi. Baytda ushbu frazeologik ibora 2 xil ma’noda qo‘llanilgan: 1) g‘uncha gulbargi (terisi) ga sig‘may, ochilib ketdi – harakat; 2) “terisiga sig‘may ketdi” – ibora (sevinib, yayrab ketdi). Lutfiy ushbu leksik birlikdan yor go‘zalligining kuchlilik darajasini ifodalash uchun foydalangan. Endi “nisbat qilish ” uchun asos bo‘ladigan detallarni ko‘rib chiqsak: gul leksemasining leksik-semantik doirasiga kiruvchi *chiroyli, yoqimli, xushbo‘y, jozibador, nozik, jalb qiluvchi* kabi semalar sub’ektning go‘zallik haqidagi tasavvurlari bilan mos keladi. Shuningdek, g‘uncha yorilib, gul ochilishi jarayoni “terisiga sig‘may ketdi” iborasi uchun asos bo‘lgan. Ammo shunday sifatlarga ega bo‘lgan gul ham qizning yuziga o‘xshatilishidan o‘zini baxtli his qilishi – yorning go‘zallik darajasi undan-da yuqoriroq ekanligini anglatadi. Bu ifoda shoirning yor husniga bergan sub’ektiv bahosi sifatida yuzaga chiqadi.

Yuzungdin lola rang eltib uyolib shahrga kirmas,
Aning bo‘ynin kishi bog‘lab keturmoguncha sahrodin [6.202].

“Lola guli yuzingning qizilligidan rang olgan, shu sababli sendan uyalganidan shaharga kirmas, toki uning bo‘ynidan bog‘lab sahrodan keltirmagunlaricha”. Baytda Rang konseptiga kiruvchi “qizil”lik belgisi asosiy o‘ringa chiqariladi. Odatda, sharq she’riyatida qizning yuzi qizillikda lolaga o‘xshatiladi. Ammo bu misralardada lola qizning yuzidan rang olgani, qizillikda undan ojiz ekanligi sababli shaharga kirolmasligi, uyatdan qizarib ketgani go‘zal tarzda, husni ta’lil san’ati orqali ifoda etiadi. Shuningdek, fikr davom ettirilib, dasht-u sahrolarda o‘suvchi lolani dastalab bog‘lab, shaharga keltirishlari go‘yo uni majburlab, bo‘ynidan bog‘lab olib kelishlari bilan izohlangan. Ikkinchi misrada “bog‘lash” leksemasi asosiy ma’noni yuzaga chiqarib, sub’ektning maqsadini ifodalaydi. Bu baytda ham “bo‘ynidan bog‘lab keltirish” iborasining shoirona qo‘llanilishini kuzatamiz. Ya’ni: 1) lolaning xijolatligi shu qadar kuchliki, bog‘lab keltirmagunlaricha shaharga kirmaydi; 2) lolani dastalab bog‘lab olib keladilar. Yonoq qizilligi ayol go‘zalligi va ibo-hayosining belgisidir. Bu tasvir yor husni haqidagi tasavvurni yanada oshirib, sharqona go‘zallik tushunchasini yorqinlashtiradi.

Ma’shuqa sochini sunbulga, majnuntolga o‘xshatish ham an’anaviy tasvir usullaridandir.

Yuzi gul, sochi sunbul, bagri toshim,
Muxiblarni unutkan bevafoyim [6.165].

Guli sumbul, giatsint, xiatsint (*Hyacinthus*) – piyozguldoshlar (lolagullilar oilasi) ga mansub bir yillik o‘simlik; egiladigan gul. Rangbarangligi, gulto‘dalarining chiroyli tuzilishi, yoqimli hidi, manzarali ekin sifatida piyozli gullar qatoriga kiradi. G. piyozlari dumaloq, yassi, yapaloq. Barglari cho‘zinchoq, lentasimon, sal bukilgan, uz. 35 sm, kengligi 3 sm. [6].

Sumbul o‘simligiga tegishli *egiladigan, hidi yoqimli, barglari cho‘zinchoq, lentasimon* kabi belgilar yor sochini bu o‘simlikka qiyoslash uchun asos bo‘lgan, deyish mumkin. Bu o‘rinda sumbul o‘simligi va soch o‘rtasidagi shakl, hid va xususiyat jihatdan o‘xshashlik inobatga olingan.

She’riyatda poetik ma’no ifodalashda, shuningdek, turli jonivorlar nomlari, ularga xos belgilardan ham ko‘p foydalaniladi. Xususan, ko‘z jozibadorligini va tana harakatini tavsiflashda *ohu (g‘izola, jayron, kiyik)*, oshiq holatini ifodalashda *bulbul, lochin(shohboz)*; lab shirinligini ta’riflashda *ari, chivin*; soch ta’rifida *ilon* zoonimlari orqali “go‘zallik” konseptining komponentlari yuzaga chiqarilgan.

Yorning ko‘zlarini shahloligi va qoraligi jihatdan ohu ko‘ziga mengzash ko‘p uchraydi.

Ko‘zungki, lolau nasrin uza uzola yotur,
Xo‘tan chechaklari ichra magar g‘izola yotur? [6.59]

Mazmuni: ko‘zing lola va nasrin gullar ichida uzala tushgan, go‘yoki g‘izola (tojikcha-ohu) Xo‘tan chechaklari ichda yotganday. Xo‘tan – Xitoy hududiga qarashli joy bo‘lib, mumtoz she’riyatda asosan, jannatmakon yer sifatida qalamga olinadi. Ko‘pgina adiblarimiz ijodida Xo‘tan chechaklari, *Xo‘tan kiyigi, Xo‘tan mushki, Xo‘tan gulzori* kabi birikmalarni uchratish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” asarida Chin go‘zali ta’rifini shunday boshlaydi*: Yuzlari **Xo‘tan** gulzoriga o‘xshar, ko‘zi bu gulzordagi mushkin kiyikni eslatardi. Chehrasi xuddi Chinning nurli quyoshi bo‘lib, qop-qora **xutan** mushki uning zulfi muanbaricha bor edi*.(Hayrat ul-abror (nasr) – O‘n sakkizinchi maqolat)

Lutfiy baytida *lola* va *nasrin* o‘simliklariga tegishli rang bildiruvchi semalar – qizillik va oqlik yor yuzini ifodalash bilan birga, Xo‘tan gullarining rangi qizil va oq ekaniga ishora qilingan. Chunki sub’ekt ongidagi mavjud bilimga ko‘ra, lola – qizil rangda, nasrin – oq rangda. Yuz va gullar uchun tegishli bo‘lgan rang semalari kognitiv metafora mexanizmining natijasi o‘laroq, shoirning emotsional-sub’ektiv bahosi yuzaga chiqarilgan. Baytning ikkinchi misrasida sinekdoxa usuli orqali tasvir yaratilgan. Ya’ni gullar ichida yotgan ohuning o‘zi emas, ko‘zi nazarda tutilgan. Butun (g‘izola) orqali qism (ko‘z) ifodasiga urg‘u berilgan. V.A.Maslovaning fikricha, konsept so‘z ma’nosidan bevosita kelib chiqmaydi, balki so‘z lug‘aviy ma’nosining inson shaxsiy tajribasi va xalq tajribasi bilan to‘qnashuvi natijasi hisoblanadi. U emotsional, ekspressiv, baholash koshini bilan o‘ralgan [7.296] .

Demak, sub’ekt ongida ohuning ko‘zi haqida tasavvur mavjud. Shoir bu ko‘zlarni eng chiroyli va jozibador, deb hisoblaydi. U o‘zining shaxsiy didi, estetikasi va go‘zallikka bo‘lgan munosabatidan kelib chiqqan holda yor ko‘zini ohu ko‘ziga o‘xshatadi. Bu erda “ko‘z” leksemasining “shakl”, “rang”, “suzuklik”, “xumor”, “kipriklari uzun” kabi semalari etakchi o‘ringa chiqadi. Ma’shuqa ko‘zini ohu ko‘ziga qiyoslash an’anasi nafaqat mumtoz adabiyotda, zamonaviy adabiyot uchun ham xosdir. “G‘izola” (ohu) so‘zi orqali ko‘zning nazarda tutilishi sinekdoxa usulida konsept yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ko‘zung g‘izolasi kezar ul lolazor aro,
Kim, ravzaning aning kibi xush lolazori yuq [6.134].

baytida ham ko‘zning go‘zalligi g‘izola orqali ifodalanib, metaforik tasvir orqali yuz lolazorga o‘xshatilgan. Keyingi misrada jannatda ham bunday lolazor yo‘qligi ta’kidlanyapti. Endi harakat bildiruvchi “kezmoq” leksemasi “ohular gulzorda yuradi” degan kognitiv tasavvur asosida go‘zal yuzdagi chiroyli ko‘z harakatlarini konseptual mexanizmlar orqali yuzaga chiqargan. Bu konseptosferada “tana + harakat” maydonida joylashgan “gorizontal harakat” voqelikda ko‘z harakatini ifodalashga xizmat qilgan.

Xo‘tanga chun sabo eltti, soching idi ravon bo‘yi,
Giyohikim kiyiklar sepdi chun ul mushki nob o‘ldi [6.291].

Bayt mazmuni: Sabo(shaboda)lar soching hidini Xo‘tanga olib bordi, u yerning giyohlari hididan kiyiklarda mushki nob hosil bo‘ldi.

***Mushk**, ipor, ufor, muskus — hayvon yoki o‘simliklarning o‘tkir hidli moddasi...M.dan parfyumeriya sanoatida foydalaniladi* [11]. *Mushk*-qora tusli xushbo‘y modda bo‘lib, mushk-an-

bar sifatida ishlatiladi. Mushki nob esa mushkning eng asl va toza turi. (muskus; mushki azfar, **mushki nob,** чистый мускус) [14]. *Soch* leksemasi doirasidagi “qora”, “uzun”, “xushbo‘y” semalari; *mushk* so‘zining “qora”, “xushbo‘y” semalari bilan o‘zaro assotsiatsiyalashib, “go‘zallik” konseptosferasiga kiruvchi “hid” konseptining *“yoqimli”* semasida o‘zaro tutashadi. Shoirning soch hidi haqidagi sub’ektiv bahosi, ya’ni mushk hidi kabi xushbo‘yligi o‘quvchiga badiiy-emotsional baho tarzida etkazib beriladi.

O‘zbek mumtoz she’riyatida *ari, chivin* zoonimlari vositasida ham “go‘zallik” konseptining komponentlari yaratilgan.

Zanburi asal og‘zi to‘la shahd ekaninda,
Irningni ko‘rib bemaza deb, bol to‘kubtur [6.84].

Mazmuni: *Asalari og‘zi to‘la asal ekanida, sening og‘zingni ko‘rgach, bemaza ekan deb, og‘zidagi asalini to‘kib yubordi.*

Bu baytda “go‘zallik” konseptini verballashtirishda maza-ta’m ifodalash yetakchi o‘ringa ko‘tarilgan bo‘lib, *zanburi asal (asalari*) zoonimi tasvir yaratish vositasini bajargan. Sub’ekt yorning labi shirin va yoqimli ekanini biladi. Shuningdek, asalning ham mazasidan xabardor. Yor labi **asal** leksemasi bilan *ta’m, shirin, shirali, mazali*, *yoqimli* semalari orqali bog‘lanar ekan, sub’ektning emotsional baho darajasini ifodalaydi.

Ul og‘izdur yo asalning arisi gulbarg uza
Nish ila nozuk nishon qildi-yu, to‘ldirdi asal [6.159],

baytida ham asalari zoonimi orqali yaratilgan kognitiv jarayonni kuzatish mumkin. “Bu yorning og‘zimi yoki asalari gulbargning ichini nozik nishi bilan asalga to‘ldiribdimi”, deya husni ta’lil san’ati orqali poetik ma’no ifoda etilgan. Lab – shakl va rang bildiruvchi semalari orqali gulbargga, labning ta’mi – maza-ta’m bildiruvchi (shirali, lazzatli, yoqimli) bildiruvchi semalar orqali asalga o‘xshatilgan. Asalari – “asal” so‘zining asosiy komponentlaridan biri bo‘lgani ushbu zoonim vositasida go‘zallikka aloqador tasvirlar yaratishga imkon bergan.

Lutfiy oshiqning yor labiga tashnalik holatini berishda *chivin* zoomorfik birligidan ham mohirona foydalangan:

Ey chibin, ul damki irni sori parvoz aylading,
Bizni etkursang ne bulgay eltubon ol ustina [6.252].

Mazmuni: Ey, chivin, (yorning) og‘zi tomon parvoz aylagan chog‘ingda bizni ham ol(lab) ustiga etkazsang bo‘ladiku. Bizga ma’lumki, chivin shiraga qo‘nadi. Yana yuqoridagi kabi *lab* leksemasining “shirali”, “lazzatli” semalari faollashyapti.

O‘xshash ifodani Sakkokiy baytlarida ham uchratish mumkin:

Shakar erningga yobshunsam chibintek mani qo‘ymaslar,
Olib tashlar, bale, ko‘rsa, kishi sharbat uza xasni [9.55].

Mazmuni: shakardek og‘zingga chivin kabi yopishsam, xuddi sharbatga tushgan xasni olib tashlaganday, meni qo‘ymaslar(haydarlar).

Baytda shoirga ma’lum bo‘lgan shakarning ta’mi og‘izga ko‘chirilgan. Shakarga tegish-

li bo‘lgan *“shira”, “mazali”* semalari faollashib, chivin vositasida kognitiv-pragmatik mexanizm ishga tushiriladi. Ya’ni oddiy insoniy, madaniy qadriyat belgisi o‘laroq, yeydigan narsaga xas-xashak tushsa, olib tashlanishi, shuningdek, shakarga chivin kelsa haydalishi manzaralari aks ettirilgan. Shu holatda shoir o‘zini chivinga taqqoslagan. Bu taqqoslashga quyidagi freymlar asos bo‘lgan: shiraga (labga) intilish, haydalish. D. Baxronova inson tafakkurida metafora hosil bo‘lishiga qadar birlamchi yadro arximetafora mavjudligini ta’kidlaydi [2.65]. Yuqoridagi baytda “odam+hayvon” konseptosferasidagi “tana-harakat” maydonida joylashgan “gorizontal harakat” arximetaforasi voqelikda chivin zoomorfizmi orqali shaxsning mauyyan holatini konseptual metafora orqali ifodalashga erishilgan.

Yor go‘zalligini ta’riflashda, xususan soch tavsifida *ilon* timsolining ham salmog‘i katta:

Yuz uza zulfung erur ganj ustida yotqon yilon,
Vah, o‘shul ganj orzusidur bizni vayron aylagan .

Mazmuni: Sochlaring yuzing uzra go‘yo xazina ustida yotgan ilon kabidir, o‘sha xazinaning orzusi bizni (oshiq ahlini) xarob qildi.

Soch 1) rang, 2) shakl, 3) vazifa jihatdan ilonga qiyoslanadi. *Soch* leksemasining semantik doirasiga kiruvchi *qora, sariq, oq, uzun, kalta, silliq, jingalak, xushbo‘y, yog‘li, quruq, paxmoq, siyrak, qalin, yumshoq, qattiq, tovlanuvchan* va h.k. semalar hamda *ilon* zoomorfizmining leksik-semantik maydoniga kiruvchi *qora, kulrang, yaltiroq, tovlanuvchan, uzun, kalta, yo‘g‘on, ingichka, zaharli, zaharsiz* kabi semalar ichidan milliy-madaniy va kognitiv bilimlar asosida *qora, uzun, silliq, tovlanuvchan* kabi umumiy tasavvurlar birlashtirilib, rang va shakl o‘xshashligi yuzaga chiqarilgan. U.S.Yigitalievning ta’kidlashicha, *konsept* insonning olamni idrok etishida faol harakatlanuvchi, uning ongida mental ravishda namoyon bo‘ladigan, til egalarining dunyoqarashi, milliy-etnik xususiyatlarini aks ettiruvchi birlikdir [5.11]. Turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodidagi ertak va afsonalarda xazinani ilon qo‘riqlab yotishi haqidagi tasvirlar mavjud. Baytda soch ilon kabi yuz (xazina)ning ustida yotish manzarasi lingvomadaniy-kognitiv ifoda bo‘lib, sochning 3-funksiyasi, ya’ni vazifaviy funksiyasi yuzaga chiqqan. “Xazina” tushunchasi sochga berilgan sub’ektiv-emotsional baho bo‘lib, o‘sha xazinaga “yetisha olmaslik”, “armon” semalari vositasida “orzu qilmoq”, “hijron”, “intilish” kabi ma’nolarni verballashtirgan. Atoyining:

Saningtek husn ila huru pari yo‘q,
Labi qandu asal,beli ari yo‘q,

baytida yor belining ingichkaligini arining beliga o‘xshatish, ya’ni shakliy qiyoslash mavjud. Qadimdan ayollar qomatining go‘zalligi ta’riflanganda belning ingichkaligi alohida e’tirof etib kelingan. Misrada aynan bel ta’rifiga urg‘u berilyapti, shu sababli ari zoonimining qo‘llanishi tasvir bo‘yoqdorligini oshirgan. Arining tanasi o‘rta qismining ingichka bo‘lishi arximetafora (metaforaning ilk, boshlang‘ich davri) sifatida tafakkurda oldindan mavjud bo‘lgan. Endi “odam + hayvon” konseptosferasidagi “tana-shakl” maydonida joylashgan arximetafora faollashgan. Sub’ekt tafakkurida qaror topgan mana shu shakl tuzilishi yor beli bilan assotsiativ tarzda uyg‘unlashib, metaforik usulda go‘zallik komponentlaridan bo‘lmish “chiroyli qomat” tasavvuri verballashtirilgan.

Bu ko‘nglum shohbozining qaro zulfung erur og‘i,
Keta bilmas uchub miskin chu zanjir ul aning bog‘i [9.32].

Mazmuni: ko‘nglim lochini qaro zulfingni ov qilaman deb, sochlaring zanjiriga bog‘lanib qoldi, uchib ketolmaydi.

Sakkokiyning ushbu baytida shohboz, ya'ni lochin oshiq holatini ifodalashga xizmat qilgan. Lochin ovchi qush ekani ma'lum. Shoir yorning zulfiga mahliyo bo'lgan ko'nglini lochinga o'xshatadi. Soch o'rimi mavjud tasavvurlar asosida shaklan zanjirga qiyoslanadi. Ko'ngil qushining shu zanjirga bog'lanib, uchib ketolmay qolish holati "bog'lanib qolmoq", "jozibali", "oshiqlik" "o'ziga tortuvchi" kabi ma'nolarini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Qush obrazi orqali go'zallik ifodalashni Atoyining quyidagi baytida ham uchratish mumkin:

Tuzoqqa ildi ko'nglum andalibin,
Guliston ichra xoling donalardek [6.132].

(Guliston (yuzing)dagi xoling don kabi o'ziga jalb qilib, ko'nglim bulbulini tuzoqqa tushirdi).

Har ikkala baytda ham "go'zallik" konseptosferasining asosiy komponentlaridan biri bo'lmish "ko'ngil" konsepti "odam + qush" arximetaforasi asosida "tuzoqqa tushgan qush" tasavvurini verballashtirgan. Soch o'rimi (zanjir) va xol (don) leksemalari metaforik jarayonni yuzaga chiqarish va boyitishga, matn badiiyligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz badiiy matnlarda go'zallik tushunchasi ayol timsolida namoyon bo'ladi. Poetik tasvir yaratishda turli lug'aviy birliklar qatorida fitomorfik va zoomorfik birliklar ham o'rni katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baynazarov Z.M. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida ifodalangan olamning lisoniy manzarasi. F.f.b.f.d. (PhD) diss.avtoreferati. Samarqand-2020.

2. Baxronova D. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera. Xorijiy filologiya №3, 2019 yil, 65-bet.

3. Devoni Shayxzoda Atoyi. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2008.

4. Jalilov B. Diniy-ma'rifiy mavzularning badiiy adabiyotdagi talqini. Toshkent – 2010. http://uz.denemetr.com/docs/768/index-34857.html

5. Yigitaliev U. O'zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog'liq assotsiativ-verbal birliklar. F.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent – 2020. 11-bet.

6. Lutfiy. Devon. Fafyp Fulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent– 2012

7. Maslova V.A. Vvedenie v kognitivnuyu lingvistiku: Uch. posobie. – M.: 2004. – 296 s.

8. Rahmatova M.M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari. F.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. Buxoro – 2019.

9. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent-1958.

10. Степанов Ю.С. Константы: словар русской культуры: опыт исследования. – М., 1997. 824 с.

11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. https://www.lugatnoma.com/tj_ru.

12. O'razboev A., Kurbanova S. Buyuk ipak yo'li tug'aviy birliklar yo'lagi sifatida."Buyuk ipak yo'lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta'lim va madaniyat" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand-Shanxay, 2016.

13. "Qashqadaryo" gazetasining rasmiy veb-sayti. 2020-yil 3-dekabr.

14.https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/muxtor-xudoyqulov/

https://uz.wikipedia.org/wiki/Guli_sumbul

YUSUF TURSUNOV,
O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, fil.f.nomzodi

OTASINING QIZI

Bu yil mehnat faoliyatimning ellik yettinchi, ilmiy faoliyatning esa ellik beshinchi bahorini qarshilamoqdaman. Ana shu o‘tgan yillar davomida oliy hamda o‘rta ta’lim o‘quv maskanlarida ham o‘rindoshlik yo‘li bilan ishlab kelganimni hisobga olinsa, yuzlab odamlar bilan birga mehnat qilibman. Bugun o‘sha yuzlab hamkorlardan biri bilan yuz ko‘rishib qolgudek bo‘lsam tug‘ishganlarimdan birini uchratgandek his qilaman o‘zimni. Xususan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi va keyinchalik uning bazasida tashkil etilgan Qo‘lyozmalar ilmiy tadqiqot institutida ba’zi hamkorlar bilan ustoz-shogird maqomida ba’zilari bilan sohadosh sifatida, ba’zilari bilan esa tug‘ishganlar misoli qalban yaqin bo‘lib faoliyat kechirib kelganligim o‘tgan umrimning go‘zal va mazmunli sahifalari bo‘lib qoldi.

Zotan, rahmatlik ustozim Muhammadjon Hakimov nashrdan chiqqan “Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining tavsifi” nomli kitoblaridan birini menga berar ekanlar, unga “Qiyomatli ukam Yu.Tursunovga ulkan ilmiy yutuqlar tilayman”, deya dil izhorlarini bitgan edilar. Bir necha bor arxeografik ekspeditsiyalarda birga bo‘lgan opaxonim Halimaxon Muxtorova Buxoroliklar shevasiga xos tarzda “ukajon” deya murojaat qilar edilar. O‘ta kamtar va kamsuqum ustozimiz Solih Mutallibov domlaga nogironliklari tufayli uylarida ishlashlariga ruxsat berilgan bo‘lib, ularinig ilmiy ishlariga daxldor yumushlar bo‘yicha huzurlariga institutimiz rahbari Azizxon Qayumov ko‘proq meni yuborar edilar. Domla institut ilmiy kengashi yig‘ilishigami, oylik maoshlarini olish uchunmi Qo‘lyozmalar institutiga kelgudek bo‘lsalar, mumkin qadar yonlarida bo‘lar va bekatga o‘zim kuzatib qo‘yardim. Shu yaqinligim tufayli bo‘lsa kerak domla menga “o‘g‘lim” deb murojaat qilardilar. Bu kabi marg‘ub holatlar mening qalbimda go‘zal xotirot bo‘lib muhrlanib qolgan va bugun ularni qo‘msab yashayman. Hayriyatki, hozirda ularning ba’zilari bilan hamon birga hamkor va hamnafasman. Ulardan biri… Yaxshisi gapni uzoqroqdan boshlay qolay.

Adabiyot muzeyi bazasida yuzaga kelgan Qo‘lyozmalar instituti qisqa vaqt ichida o‘z yo‘lini topib olgan ilmiy tadqiqot muassasasi sifatida tanildi, og‘izga tushdi. Tabiiyki, bu maskanda ishlash ishtiyoqida bo‘lganlar ham ko‘paya boshladi. Biroq bizda ishlash uchun istak – ishtiyoqining o‘zi kifoya qilmas edi. Rahbarimiz Azizxon Qayumov ilmiy xodim bo‘lib ishlash istagida kelganlarga bitta talab bilan murojaat qilardilar, u ham bo‘lsa arabcha yozuvdagi matnlarni erkin o‘qiy olish. Haqqoniy talab, albatta. Natija shunday bo‘lardiki, keluvchilarning ayrimlarigina ishga olinar edi. Zotan, institutning qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan kitoblargina emas, balki avvaldan Adabiyot muzeyi tarkibida bo‘lgan “O‘zbekiston yozuvchilari va shoirlari arxivi” fondidagi aksariyat adiblarning ijodiy merosi ham arab yozuvida edi.

1980-yilning yanvaridan navbatdagi yangi bir xodima paydo bo‘ldi. Keyinroq bilsam, yosh jihatdan mendan unchalik katta bo‘lmagan bu opaxonning ismlari Rahimaxon bo‘lib, familiyalari

Sharafuddinova ekan. Ko‘p o‘tmasdan esa ular haqida yanada muhim ma’lumotni eshitdim. Avvaldan muzeyning e’tiborli ilmiy xodimi, keyinchalik esa Qo‘lyozmalar institutining ilmiy xodimigina emas, iqtidorli xattotiga ham aylangan, tabiatan hazil-mutoyibaga ruju qo‘ygan, o‘zining kinoyaviy gaplari va qochirimlari bilan hammamizni kuldirib yuradigan akamiz To‘xtamurod Zufarov bilan suhbatlashish chog‘ida ular “Xurshidning qizi” iborasini ishlatib qoldilar. Akamiz buni hazil yo‘sinida aytgan bo‘lsalar-da, men uning kimligini jiddiy ravishda so‘radim. Shu narsa ma’lum bo‘ldiki, ya’ni xodima o‘zbek madaniyatining taniqli namoyondalaridan biri bo‘lgan shoir, dramaturg va tarjimon, qolaversa ilm-fanda o‘ziga xos iz qoldirgan siymo – Xurshidning qizi ekan. Shundan keyin menda yangi xodimaga boshqacha e’tibor bilan qarash paydo bo‘ldi. Nafsil amrini aytganda bu odatiy hol – mashhur insonlarning yaqinlari, xususan, farzandlariga boshqacha bir qiziqish, alohida bir nigoh bilan qarash odatiy hol, albatta. Zohiran men opaning ko‘zlarida Xurshidga xos vazminlikni ko‘rgandek bo‘ldim. Zotan, Adabiyot muzeyining ekspozitsiya bo‘limida adibning rangli portreti qo‘yilgan bo‘lib, unda o‘ychan boqish namoyon edi.

Vaqt o‘tishi bilan ish yuzasidan Rahima opa bilan muloqotlarda bo‘lishimga to‘g‘ri keldi. Men ilmiy faoliyatimning dastlabki yillaridayoq Xurshidga, aniqrog‘i, uning ilk ijodiyotiga duch kelganman. XX asrning o‘ninchi yillarida chop etilgan bayozlarda Toshkentlik Xoib degan shoirning g‘azallarini, ayniqsa, zamondosh shoirlar bilan she’riy yozishmalarini qiziqib o‘rganganman. Izlanishlarim davomida “Xoib” adabiyot maydoniga dadil kirib kelayotgan Shamsiddin Sharafiddin o‘g‘li – Xurshidning dastlabki taxallusi bo‘lib chiqqan edi. Ilk muloqotlarimda ana shu ilmiy kuzatishlarim hosilasi bo‘lgan ushbu ma’lumot haqida Rahima opaga gapirmoqchi bo‘ldimu, biroq bu bilan o‘zimni bilimdon qilib ko‘rsatayotgan bo‘lamanmi, deya istihola qildim.

Opa jamoamizga tez singishib ketdilar. Institut ishlariga doir xizmatlarda ham, vaqt-vaqti bilan bo‘lib turadigan ilmiy-amaliy tadbirlarda ham, ba’zi bayram va yaxshi kunlar munosabati bilan tashkillashtiriladigan yig‘inlarda ham xodimlarimiz bilan teng ravishda faollik ko‘rsatardilar. Asta sekin ularning o‘zlariga xos fazilatlari, ish yuritishdagi o‘ziga xos tutimlari namoyon bo‘la boshladi. Chunonchi, ular saranjom-sarishtalikka rioya qilgan holda ish tutardilar, ayniqsa, bu yozuv-chizuv ishlarida ko‘zga tashlanar edi, matnlari o‘ta tartibli, xatlari esa juda chiroyli edi. Aytish mumkinki, u professional gravyorlarning xatidan kam emas edi.

Rahima opaning suhbatlarimizdan birida aytishlaricha, 1960 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining o‘zbek tili va adabiyoti institutiga ishga kirganlar. Bu vaqtda mazkur institutga Azizxon Qayumov rahbarlik qilar edilar. Opa bu yerda yigirma yil ishlaganlar. Biroq mazkur institut “Akademiklar shaharchasi”ga ko‘chirilgan va u yerga qatnash ularga xiyla og‘irlik qilgan. Shunga ko‘ra shahar markazida joylashgan Qo‘lyozmalar institutiga ishga kirishga qaror qilganlar. Institut rahbari Azizxon Qayumov o‘zlari yaxshi biladigan bu xodimani hech ikkilanmasdan ishga olganlar.

To‘xtamurod aka Rahima opa tilga olingudek bo‘lsalar, hamon “Xurshidning qizi” deb yon-veridagilarni kuldirib yurardilar. Opa endi institutning asosiy xodimlaridan biriga aylangan edilar. Azizxon Qayumov ko‘pincha muhim ishlarni, ba’zida ma’muriy yumushlarni ham ularga topshirar edilar va har vaqt ularning ijrolaridan qoniqish hosil qilibgina qolmasdan minnatdorchilik bildirib ham qo‘yardilar. Keyinroq esa, ularni “O‘zbekiston yozuvchilar va shoirlari arxivi” fondiga mudir etib tayinladilar. Aslida fonddagi mavjud holat shuni taqozo etardi…

Fondni epaqayga keltirish uchun ancha ter to‘kishga to‘g‘ri kelgan. Chunki, bu yerdagi hujjat yuritish ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yilgan edi. Ularni tartibga keltirish, xodimlarning arxiv hujjatlaridan foydalanishlarini tartibga solish, ularning joylashish tartiblaridagi buzilishlarni tuzatish kerak edi. Shularning hammasini opaning bir o‘zlari amalga oshirganlar. Basharti, kimdir shu ishlarda yordam bermoqchi bo‘lganida ham bunga ko‘nmas edilar. Chunki ularning tabiatlaridagi punktuallik bunga monelik qilardi.

Ana shunday go‘zal hislatlari va halol mehnat egasi sifatida tilga olinganlarida ham To‘xtamurod aka uchun hanuz “Xurshidning qizi” edilar.

1998-yilda Qo‘lyozmalar instituti tugatilib, uning qo‘lyozmalar xazinasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutiga o‘tkazib yuborildi. Ilmiy xodimlarning bir qismi shu institutga, qolganlari turli ilmiy muassasa va oliy o‘quv yurtlariga ishga joylashtirildi. Men ham mazkur institutda bir muddat ishlagach, yana Adabiyot muzeyiga qayta ishga olindim. “O‘zbekiston yozuvchi va shoirlari arxivi” fondi azaldan Adabiyot muzeyi tarkibida bo‘lganligi va u bilan asosan adabiyotshunoslar shug‘ullanishlari hisobga olinib, shu muzeyda qoldirilgan edi. Mazkur fond bo‘yicha qilinadigan ishlar faol davom etdi. Jumladan, bir qator ijodkorlarning shaxsiy arxivlari qabul qilindi, taniqli adib va adabiyotshunoslarning arxiv hujjatlari kataloglari tayyorlanib, nashr ettirildi. Jumladan men ham bu ishlarda ishtirok etib Porso Shamsiev, Asqad Muxtor va G‘ayratiylar shaxsiy arxivlarining ilmiy tavsiflarini tayyorlash bilan shug‘ullandim. Shu sabab Rahima opa bilan muloqot va munosabatlarimiz yanada qalinlashdi va menga ularning yana ko‘pgina qirralari namoyon bo‘la boshladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, ulardagi ishlariga bo‘lgan ishtiyoq, ixlos, ehtimol, muhabbat deyilsa ham xato bo‘lmas, yuksak darajada edi. Shu darajada berilib, sidqidildan zimmalaridagi ishlarini bajarar edilarki, uni men o‘zgalar uchun ibrat oynasi degan bo‘lardim. Bunday deyishda nechog‘lik haq ekanimni isbotlash uchun bir dalil keltiraman: Rahima opa fond mudirligiga doir ishlarnigina bajarib yuraversalar, shuni o‘zi ma’muriyatga kifoya. Biroq, ular fonddagi saqlanayotgan ulug‘ va mo‘tabar shaxslarning ma’naviy meroslaridan ilhomlanib, o‘zlarining ixtiyorlari bilan ularning bir qanchalarining ilmiy tavsifini tayyorlaganlar. Buni muzey rahbari ba’zi xodimlar ishidan qoniqmagan paytlarida ularga ibrat qilib ko‘rsatadi.

Ilmiy xodim sifatida Rahima opaga xos yana bir fazilat arxivda saqlanayotgan hujjatlarga nihoyatda bebaho ma’naviy meros sifatida qarab, ularni g‘oyatda ardoqlagan holda ko‘z qorachig‘idek asrashlaridir. Bu ayniqsa, mazkur hujjatlarni foydalanish uchun so‘raganlarga berayotgan chog‘larida namoyon bo‘lardi. Arxiv materiallariga beparvolik bilan qarovchilardan, hujjatlarni duch kelgan joyga qoldirib ketadigan xodimlardan qattiq ranjiydilar, xatto bunday nomaqbul ishlari uchun ularga dashnom bergan paytlari ham bo‘lgan.

Rahima opa bilan yaqindan hamkorlik qilish jarayonida biz o‘z-o‘zidan opa-ukalardek bo‘lib qoldik va men ularning ichki dunyolari, shaxsiy hayotlariga yanada chuqurroq kirib bordim. Yanada muhimi otalari haqida hech qaerda yozilmagan, aytilmagan ma’lumotlarga ega bo‘ldim. Ishdan holi paytlarda qilgan suhbatlarimizda men otalari haqida gapirishlarini kutardim. Ularning faqat otalarigagina xos bo‘lgan go‘zal xislatlari, ijod bobida o‘zlariga xos fazilatlari, shaxs sifatidagi ish tutumlari haqida berilib gapirishlari ba’zida g‘amginlikka, ko‘z yoshiga aylanar edi. Zero, Xurshid domla qanchalar mehnatkash, mahoratli va sermahsul ijodkor bo‘lsalar-da, hasad va ko‘rolmaslikdek mudhish illatlarning jabrini tortgan ekanlar. Tabiatan vazmin inson bo‘lganliklari, qalban pokiza zot ekanliklari bois, bunday nohaqliklarga sabot bilan bardosh berganliklarini aytib, bir kuni ularning iztirobga to‘la bo‘lgan

Shukriy, yiqilmoq istasa garduni falak,
Ohim sharorasidan unga aylangiz stun. (sharora – uchqun, alanga)

baytlarini ko‘z yoshi bilan tilga olgan va ushbu misralar bilan tugovchi g‘azalga kuy ham bog‘langanliklarini aytgan edilar.

Yana bir suhbatda esa qish kezlari sandal yonida ijod qilib o‘tirar ekanlar, ba’zan g‘amgin ko‘rinishga tushib qolardilar va boshlarini kursiga qo‘yganlaricha uzoq vaqt jimib qolardilar. Buni ko‘rib biz o‘sha hasratli kunlar eslariga tushib, shunday unsiz iztirob chekayotganliklarini bilardik va ularni bezovta qilmaslikka harakat qilardik, degan edilar mahzunlik bilan.

Rahima opa otalarining ko‘pgina she’rlarini yoddan bilar va o‘rni kelganda aytib ham yuradilar. Asarlari qo‘lyozmalariniku juda-juda e’zozlagan holda o‘rganib keldilar. Shuning bilan ularni tavsiflash ishlarini olib bordilar va 2014-yilda “Shamsiddin Sharofutdinov – Xurshid arxivining katalogi” nomi bilan nashr ettirdilar. O‘sha ishlari asnosida Xurshidning o‘z qo‘li bilan yozgan bir nechta she’rlar matnini men ham qo‘limga olib ko‘rishimga to‘g‘ri kelgan. Meni hayratlantirgani adibning g‘oyatda husni xat egasi ekanligi edi. She’rlar xoh qalamda yozilgan bo‘lsin, xoh siyohda chiroyli xat bilan bejirim tarzda bitilgan edi. Men o‘shanda Rahima opaga chiroyli va batartib tarzda xat insho etish otadan o‘tganligiga amin bo‘ldim. Opa tavsiflash jarayonida otalarining Xoib, Sharafzoda Shoshiy, Doiy, Sharafzoda Toshkandiy va Shukriy taxalluslari bilan ijod etganligini inobatga olib, shu asosda adib ijodiy merosini tasniflaganlar.

Yuqorida tilga olingan kitobning mas’ul muharrirligini muzey ma’muriyati menga yuklagan edi. Shunga ko‘ra menda endi Xurshid ijodiy laboratoriyasi bilan yetarlicha tanishish imkoni tug‘ildi. Men shu vaqtga qadar adibning bunchalar sermahsul ijodkor ekanligini bilmas ekanman. Menku mayli, dramaturgiya sohasi bo‘yicha mutaxassislikka da’voyim yo‘q, yurtimizning mamaman degan teatrshunoslarining hammasi ham Xurshidning dramaturgiya sohasida bunchalar ulkan xizmatlar qilganlarini bilarmikin. Ko‘plab yozilgan pesalargina emas, balki dramaturgiya va teatrga doir yana ko‘pgina ijodiy rejalar va badiiy yaratmalar saqlanardi bu xazinada. Tabiiyki, men ajablandim: Nahotki, shunday zahmatkash ijodkor, dramaturgiyamiz fidoiysi bo‘lgan zot hayoti va faoliyatida qaysidir ichiqora kimsalar tomonidan haqsizlik jabrini tortishga loyiq ko‘rilgan bo‘lsa?! Nima, uning aybi kamtarin va kamsuqum inson bo‘lganligimi?! Yoki halol va haqqoniy ijodkor bo‘lganligimi?!

Ittifoqo, hujjatlar orasida bir g‘azalga ko‘zim tushdi.

Matlasi:

Azaldan baxti badlar menga doim rahnamun o‘ldi,
Uningchun jomi umidim mudomo sarnigun o‘ldi.

Maqtasi:

Bas, elga ixtilotimdan dilim vayron erur, Shukriy,
Manga chunkum jahon ahlin ishi makru fusun o‘ldi.

Mana endi tushungandek bo‘ldim Rahima opamlarning padari buzrukvorlarini ko‘z yoshisiz eslay olmasliklarini yoki so‘zlay olmasliklarini. Taassufki, ularning bu holatlarini orqavarotdan mazammat qilganlarni ham ko‘rganman. Eh, “Ko‘zi yoshluraring holin na bilsun mardumi g‘ofil”.

Bu kabi hasbi hol tarzidagi she’rlar zaminida o‘sha ichi kir kimsalarning “makru fusun”larini eslatar ekan, ular ustida ishlayotgan Rahima opa qanchalar mahzun holatga tushgan, iztirob chekkanlariykin. Ehtimol, otalaridan qolgan ushbu o‘lmas ma’naviy xazinani ilmiy jamoatchilik hamda san’at va adabiyot muxlislari e’tiboriga havola etish yo‘lida ish olib borishlari bezovta qalblariga qaysidir darajada taskin bergandir.

Darvoqe, opa mazkur xazinani ba’zi materiallar hisobiga to‘ldirish amallarini ham qilganlar. Jumladan adabiyotshunos Sirojiddin Ahmedov yordamida “Turkiston viloyatining gazetasi” 1914-yil noyabr (№86.6) sonidagi Ismoil Gaspirinskiy vafotiga bag‘ishlangan marsiyaga tuzatish tarzidagi maqolasi matnidan ko‘chirma, Cho‘lponning “Turkiston” gazetasining 1922-yil dekabr sonida bocilgan Xurshid haqidagi maqolasidan ko‘chirma hamda ozar dramaturgi Murshidning bir pardali “Haq mahkamasi” dramasining Xurshid tomonidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi matnining (“Yosh Sharq”, 1923-yil 11-iyul) ko‘chirma nusxalari hisobiga arxivni yanada boyitganlar ham.

Shamsiddin Sharafiddinov o‘tgan asrning o‘ninchi yillari boshlarida, balki undan ham avvalroq yozgan she’rlarida “Shohidiy” taxallusini qo‘llagan va 1912 yilda o‘sha she’rlaridan “De-

voni Shohidiy” nomi bilan devon tuzgan. Mazkur devon O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti Sharq qo‘lyozmalari xazinasida 3096 raqami ostida saqlanib keladi. Undan g‘azal, muxammas, ruboiy, musaddas, murabba’, tuyuq va soqiynoma kabi she’r turlari o‘rin olgan bo‘lib, ular o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘ziga xos go‘zal namunalari sifatida e’tiborga loyiqdir. Shunga ko‘ra Rahima opa 2015-yilda ushbu devonni nashr ettirib, adabiyotshunos mutaxassislar va adabiyot muxlislariga tuhfa etdilar.

Ayni paytda otalarining ilmiy faoliyatlari mahsuli bo‘lgan qimmatli yaratilmalarga ham jiddiy e’tibor va e’zoz bilan qaraganlar. Ma’lumki, o‘zbek mumtoz adabiyotining, balki Sharq mumtoz adabiyotining yuksak bilimdoni bo‘lgan Xurshid domlani O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti rahbariyati ishga taklif etgan. Shunga binoan bu ilmiy maskanda faoliyat boshlab, 1958-1960 yillar mobaynida ota Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni va Ogahiyning “Ta’viz ul – oshiqin” devonining qo‘lyozma nusxalarini sinchiklab o‘rganib, ularni nashrga tayyorladilar va shu jarayonda har ikki asarning lug‘atini tuzish bilan ham shug‘ullanganlar. Ushbu lug‘atlar qo‘lyozma (avtograf) nusxa sifatida mazkur arxivda saqlanib kelmoqda (388 va 390 tavsiflar).

O‘sha vaqtlarda, ya’ni o‘tgan asrning 60-yillarida respublikamiz hamda sobiq ittifoqning Leningrad va Dushanbe shaharlaridagi qo‘lyozmalar xazinalarida “Ta’viz ul – oshiqin”ning oltita qo‘lyozma nusxalari saqlangan (Ogahiy asarlari tavsifi (Katalog). Tuzuvchi: Fatxulla G‘anixo‘jayev. Toshkent, 1986, 14-18 betlar). Ana shular ichidan O‘zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan mukammal nusxa, ya’ni 1905 yilda xorazmlik kotib Muhammad Ya’qub devon ibn usta Qurbonniyoz tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma (inv.raqami: 938) devon nashri uchun asos qilib olingan bo‘lishi kerek. Zero, mazkur xazinadagi qo‘lyozma (inv.raqami: 7443) nisbatan u darajada mukammal bo‘lmagan.

Rahima opa O‘z FA Qo‘lyozmalar ilmiy tadqiqot institutida faoliyat olib borish asnosida “Ta’viz ul– oshiqin” devoni nashrini mazkur institut xazinasida saqlanayotgan devon qo‘lyozma nusxalariga (inv.raqamlari: 289 va 727) qiyoslab o‘rganadilar va buning natijasi o‘laroq nashrda yo‘l qo‘yilgan bir qator texnik xatolarni hamda tafovutli o‘rinlarni aniqlashga, hattoki, nashrga kirmay qolgan she’rlarni topishga muvaffaq bo‘ladilar. Shundan so‘ng ularda devonning ana shunday xatoliklardan holi va yangi aniqlangan she’rlar hisobiga to‘ldirilgan, mukammal nashrini amalga oshirishga qaror qiladilar. Devonning bunday to‘liq variantini sobiq Qo‘lyozmalar instituti hali faoliyat ko‘rsatayotgan yillarda tayyorlab ulgurgan bo‘lsalar-da, turli sabablarga ko‘ra uni nashr etishning imkoni bo‘lmay kelgan. Mana bu yil xayrli boshlanib, opa avvalo, Sharq adabiyoti bilimdoni, hassos shoir va dramaturg Xurshidning oqila farzandi, qolaversa uning ma’naviy vorisi, sadoqatli izdoshi va sinchkov tadqiqotchisi sifatida opa shunday sharafli ishni amalga oshirish arafasida turibdilar. Hademay nashr amalga oshadi. Kitob nashr etilish arafasida.

Ana shu yozayotganlarimdan kelib chiqib, mulohaza qilar ekanman, rahmatli To‘xtamurod aka Zufarovning hazilsifat aytgan iboralariga “tahrir” kiritgim keldi. Ya’niki, Rahima opa haqida gap ketgudek bo‘lsa, “Xurshidning qizi” emas “otasining qizi” iborasini ishlatgim keldi. Voqean, xassos adibning Rahima opadan tashqari, yana uchta qizi va uchta o‘g‘li bo‘lgan. Ular ham sadoqatli farzand bo‘lishgan. Biroq bizning Rahima opamiz ulardan farqli o‘laroq otaning suyukli farzandigina emas, uning munosib vorisi hamdir. Zero, uning tinimsiz izlanishlari va mehnatlari bilangina otaning zahmatlar chekib, nohaqliklarga uchrab yaratgan ilmiy hamda ijodiy merosining katta qismi yuzaga chiqdi. Opaning qutlug‘ sakson yoshga tetik va bardam yetib kelishlarida ana shu xayrli ishlari ma’naviy madad, ruhiy ko‘mak bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Ularga ana shunday ibratli ishlarida bardavom bo‘lishlarini yaratgandan tilab qolamiz.

ZIYADA BEKBERGENOVA,
Filologiya fanlari doktorı, professor
O‘zRFA Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, Nukus

FIDOYI OLIMA, ISTEDODLI YOZUVCHI SARIGUL BAHADIROVA 80 YOSHTA

Аннотация: *В статье рассматривается многогранная творческая лаборатория заслуженного научного деятеля Республики Каракалпакстан, доктора филологических наук, профессора С.Бахадыровой, а также вклад, внесенный ей в развитие каракалпакского литературоведения и фольклористики. Её научная деятельность отмечена фундаментальными монографиями и учебниками, среди которых “Роман и эпоха” (1978), “Фольклор и каракалпакская советская проза” (1984), “Краткий словарь фольклорных терминов” (совместно с С. Ахметовым, 1992), “Китабы дедем Коркыт” “Коблан” “Едиге и современной литературе” (1992), “Каков он народ каракалпакский”? (2017), “Каракалпакские народные эпосы: “Сорок девушек”, “Алпамыс”, “Коблан”, “Едиге” (2024), повестями как “Письмо матери”, “Женщины”, “Человек осчастливит человека”, “Ценность человека”, “Опоздавший солдат”, “Раушан”, “Тумарис и Кир”, “Обескрыленный сокол”, романом-трилогией “Судьба”, а также более 400 научно-публицистических статей, которые закрепили за С.Бахадыровой репутацию выдающегося ученого и талантливой писательницы, получившей широкое признание общественности.*

Ключевые слова: *ученый, писатель, публицист, фольклористика, эпос, литературоведение, роман, повесть, рассказ, научные статьи.*

Abstract: *The article discusses the multifaceted creative laboratory of the distinguished scientist of the Republic of Karakalpakstan, Doctor of Philological Sciences, Professor S.Bakadyrova, as well as her contribution to the development of Karakalpak literary studies and folklore. Her scientific work is marked by fundamental monographs and textbooks, among which are “The Novel and the Era” (1978), “Folklore and Karakalpak Soviet Prose” (1984), “Concise Dictionary of Folklore Terms” (jointly with S. Akhmetov, 1992), “The Book of My Ancestor Korkyt” “Koblan” “Edige and Thoughts on Contemporary Literature” (1992), “What Kind of People are the Karakalpaks”? (2017), “Karakalpak Folk Epics: “Forty Maidens”, “Alpamys”, “Koblan”, “Edige” (2024), novellas such as “Letter to my mother”, “Women”, “Man Will Make Man Happy”, “Value of a Human”, “The Soldier Who Was Late”, “Raushan”, “Tumaris and Kir”, “The Wingless Falcon”, a trilogy novel “Fate”, as well as over 400 scientific and journalistic articles that have established S. Bakadyrova’s reputation as an outstanding scientist and talented writer, receiving wide acclaim from the public.*

Keywords: *scientist, writer, journalist, folklore studies, epic poetry, literary studies, novel, novella, short story, research articles.*

Respublikamızǵa belgili ilimpaz hám jazıwshı, filologiya ilimleriniń doktorı, professor, Qaraqalpaqstanǵa miyneti sińgen ilim ǵayratkeri, Beruniy atındaǵı Ózbekstan Respublikası mámleketlik sıylıǵınıń laureatı, K.Rerix atındaǵı xalıq aralıq sıylıqtıń laureatı, Ózbekstan Jazıwshılar awqamınıń hám Ózbekstan Jurnalistler awqamınıń aǵzası Sarıgúl Bahadırovanıń bıyıl 80 jıllıq yubileyi Respublikamız boylap keń túrde nıshanlanbaqta.

Óziniń seksen jıllıq ómiriniń alpıs jılǵa shamalas dáwirin qaraqalpaq folklortanıwı menen ádebiyattanıwına hám kórkem ádebiyatımızdıń gúllep-rawajlanıwına arnaǵan belgili jazıwshı hám ilimpaz Sarıgúl Bahadırova ótken ásirdiń 70-jılları basqalarǵa uqsamaǵan talantı hám óz qol tańbası menen kirip keldi. Ondaǵı ózgeshelik – bir waqıttıń ózinde ilim menen kórkem ádebiyattı biri-biri menen tıǵız ráwishte teńnen alıp barıwında kórinedi. Bunday qubılıs ótken ásirdiń dáslepki shereginde N.Dáwqaraev, Q.Ayımbetov, N.Japaqov, B.Ismaylovlardıń dóretiwshiliginde gúzetilse, 1960-jıllardan baslap, S.Bahadırovanıń zamanlasları ilimpaz hám jazıwshılar K.Mámbetov, H.Hamidov, I.Qurbanbaev, A.Áliev, G.Esemuratov, Á.Tájimuratov, Q.Kamalov, Á.Paxratdinov, K.Allambergenovlardıń dóretiwshiliginde ushırasadı. Usınday alım hám jazıwshılardıń dóretiwshiligin úyreniw oǵada quramalı hám qızıqlı. Quramalılıǵı – dóretiwshilik sheńberiniń keń qamrawlı bolıp keliwinde bolsa, qızıqlı tárepi – ilimge hám kórkem ádebiyatqa qosqan salmaqlı úlesin tereńirek ashıp kórsetiw esaplanadı.

Professor S.Bahadırovanıń ismi ádebiyatshı hám folklorshı alım, talantlı jazıwshı sıpatında Ózbekstanlı hám Qaraqalpaqstanlı alımlar hám jazıwshılar arasında salmaqlı orındı iyeleydi.

S.Bahadırova 1944-jılı, 20-sentyabrde Qaraózek rayonında xızmetker shańaraǵında tuwıldı. 1961-jılı orta mektepti pitkerip, Qaraqalpaq mámleketlik pedagogikalıq institutınıń tariyx-filologiya fakultetine oqıwǵa kiredi. Bul bilim dárgayın 1966-jılı ayrıqsha diplom menen tamamlap, óziniń miynet jolın Ózbekstan Ilimler akademiyası Qaraqalpaqstan filialınıń N.Dáwqaraev atındaǵı tariyx, til hám ádebiyat institutında (1991-jıldan Qaraqalpaqstan bólimi bolıp, 2012-jıldan baslap Qaraqalpaq gumanitar ilimler ilim-izertlew institutı bolıp qayta dúzildi) laborant bolıp islewden baslaydı. Usı institutta ol ápiwayı laboranttan, institut direktorı (1991–2007-jılları institut direktorı) lawazımına shekem ósip jetilisedi.

1970-jılı ol 26 jasında Ózbekstan Ilimler akademiyasınıń A.S.Pushkin atındaǵı til hám ádebiyat institutı janındaǵı doktorlıq ilimiy dárejelerdi alıw ushın dissertaciyalar jaqlaytuǵın qánigelestirilgen keńesiniń májilisinde “Házirgi zaman qaraqalpaq gúrrińleri (1957-1967-jıllar)” degen temada akademik M.K.Nurmuhamedovtıń ilimiy basshılıǵında kandidatlıq dissertaciyasın jaqladı. 1970-1974-jılları ÓzRIAQ filialınıń N.Dáwqaraev atındaǵı tariyx, til hám ádebiyat institutında kishi ilimiy xızmetker, 1974-1976-jılları usı instituttıń kórkem óner tanıw bóliminde waqıtsha bólim baslıǵı, 1976-1984-jılları usı instituttıń qaraqalpaq ádebiyatı bóliminiń baslıǵı, 1984-1990-jılları ilimiy xızmetker, jetekshi ilimiy xızmetker bolıp isledi. 1978-jılı Qaraqalpaqstan Jaslar awqamı sıylıǵın alıwǵa miyasar boldı. Tap usı jılı burıńǵı Jazıwshılar awqamınıń hám burıńǵı Awqam ádebiyat fondınıń aǵzası boldı.

Ol kandidatlıq dissertaciyasin jaqlaǵannan soń ilimniń tereń sırlarına qaray jol alıp, doktorlıq dissertaciyasın jazıwǵa qızǵın túrde kirisedi. 1970-jılları burıńǵı Awqamnıń Joqarı Attestaciyalıq Komiteti qayta qurılıp, doktorlıq dissertaciyalarǵa qatań talaplardı qoyǵan edi. Milliy ádebiyatlar boyınsha jazılǵan dissertaciyalarǵa tek ǵana rus tilinde jazılıwdı, rus tilinde kitapların shıǵarıwdı talap etti. Ol 1980-81-jılları Moskvadaǵı burıńǵı Awqam Ilimler Akademiyasınıń M.Gorkiy atındaǵı jer júzlik ádebiyat institutına stajirovkaǵa ketedi. Bul jerde ol belgili tyurkolog alım, prof. Z.S.Kedrinanıń basshılıǵında doktorlıq dissertaciyasın jazadı. 1984-jılı “Folklor hám qaraqalpaq sovet prozası” degen temada rus tilinde monografiyası basılıp shıǵadı. Alımnıń bul monografiyası ilimiy jámiyetshilik tárepinen joqarı baha aladı. Belgili ádebiyatshı T.T.Davıdova “bul izertlew

jumısı tek qaraqalpaq ádebiyattanıw iliminde emes, al dúnya filologiya iliminde jańalıq boldı" dep joqarı baha beredi (Voprosı literaturı, 1985, №6). Endi ol usı atamadaǵı dissertaciyasın 1984-jılı M.Gorkiy atındaǵı jer júzilik ádebiyat institutınıń "Kóp milletli sovet ádebiyatı" sektorında talıqlawǵa qoyadı. Dúnyaǵa atı belgili ilimpazlar G.I.Lomidze, Z.G.Osmanova, Z.S.Kedrina, A.I.Alieva, R.Yusupovlar jumısqa jaqsı baha berip, bir awızdan dissertaciyanı jaqlawǵa usınadı. Ol 1987-jılı Ózbekstan Ilimler Akademiyasınıń A.S.Pushkin atındaǵı Til hám ádebiyat institutı janındaǵı ilimiy dárejelerdi alıw ushın dúzilgen Qánigelestirilgen keńestiń májilisinde "Folklor hám qaraqalpaq sovet prozası" degen temada doktorlıq dissertaciyasın tabıslı jaqlap shıǵadı. Jumısqa ózbek filologiya iliminde belgili bolǵan ataqlı ilimpazlardan I.A.Sultanov, A.Kayumov, E.A.Karimov, N.Vladimirova hám R.Qıdırbaeva (Qırǵızstan) h.t.b. joqarı baha beredi.

1984-jılı N.Dáwqaraev atındaǵı Tariyx, til hám ádebiyatı institutınıń S.Bahadırova basqarǵan "Qaraqalpaq sovet ádebiyatı" sektorınıń ilimiy xızmetkerleri tárepinen jazılǵan "Qaraqalpaq sovet ádebiyatı tariyxı" (rus tilinde) atlı fundamental miyneti Beruniy atındaǵı Ózbekstan Mámleketlik sıylığın alıwǵa miyasar boladı.

Alımnıń bir qatar ilimiy maqalaları Indiya, Avstriya, Turkiya, Kipr, Rossiya, Ukraina hám Qazaqstan h.t.b ellerde basılıp shıqtı. Ol "Shevchenko enciklopediyasında" qaraqalpaq ádebiyatı boyınsha jazılǵan baplardıń avtorı. Professor S.Bahadırova shet ellerde shıqqan bir qatar maqalaları menen tezislerinde qaraqalpaq folklorı menen ádebiyatın dúnyaǵa tanıstırıwdı maqset etti. Ol qırǵız xalıq eposı "Manas", qalmaq xalıq eposı "Jangar"ǵa arnalıp ótkizilgen xalıq aralıq ilimiy konferenciyalarǵa qatnasıp, Ózbekstan Ilimler akademiyasına qaraqalpaq xalıq dástanı "Qırıq qız"ǵa arnap xalıq aralıq ilimiy konferenciya ótkiziwdi usındı. S.Bahadırovanıń bul usınısı qabıllanıp, 1997-jılı Ózbekstan Ministrler Kabinetiniń qararı menen "Qaraqalpaq xalıq dástanı "Qırıq qız" hám túrkiy xalıqlar folklorın izertlew máseleleri" degen temada xalıq aralıq ilimiy konferenciyanı Nókiste Ilimler akedemiyasında ótkeriwge miyasar boldı. Bul konferenciyaǵa Turkiyadan, Kiprden, Azerbayjannan, Qırǵızstannan hám Qazaqstannan belgili ilimpazlar keldi. Olar Qaraqalpaqstannıń tariyxıy orınları, mádeniyatı, ilimi, xalqı menen jaqınnan tanısıp, Ózbekstanda hár túrli milletlerdiń qanday dos, bir adamnıń balasınday bolıp tatıw jasap atırǵanın kórdi. Konferenciya shın maǵanasında ulıwma xalıqlıq bayram boldı. Kelgen shet el ilimpazları konferenciyadan alǵan tásirlerin óz eline barıp jurnal, gazeta betlerinde kópke deyin maqtap jazıp júrdi. 2007-jılı Ankarada usı "Qırıq qız" dástanınıń qaraqalpaqsha teksti menen túrkshe awdarması Jeyxun Vedat Uyǵır tárepinen baspadan shıqtı.

Endi S.Bahadırova qaraqalpaq xalıq dástanı "Edige"ge arnap ilimiy konferenciya ótkiziwdi jobalastırdı. Bul dástan 1944-jılı 9-avgusttaǵı VKP (b) Oraylıq Komitetiniń qararı menen temir torǵa salınǵan xalıq múlki edi. Sol jıllardan baslap bul epostı izertlewdi sovet húkimeti qadaǵan etti. Epos yarım ásirge shamalas izertlenbedi. Ózbekstan Respublikası ǵárezsizligin alǵan soń xalıqtıń biybaha miyrasların xalıqqa qaytarıwǵa, oǵan ǵárezsizliktiń milliy ideologiyası tiykarında baha beriwge kewil bóldi. Usı ǵárezsizliktiń sharapatına súyene otırıp, S.Bahadırova 2001-jılı "Qaraqalpaq xalıq dástanı "Edige" hám onı izertlew máseleleri" degen temada xalıq aralıq konferenciya ótkizdi. Konferenciyaǵa Germaniyadan, Turkiyadan, Yaponiyadan, Qazaqstannan belgili ilimpazlar keldi. 2003-jılı ol "Túrkiy xalıqlar folklorında xalıq mádeniyatı" degen temada jáne bir xalıq aralıq konferenciyanı ótkeriwge basshılıq etti. Bul konferenciyada qaraqalpaq xalqınıń bay mádeniyatın dúnya xalıqlarına tanıstırıwdı maqset etti.

S.Bahadırova bir neshe xalıq aralıq konferenciyalarda, "Edige" dástanı boyınsha (Ufa,1997) "Qoblan" (Elista, 1990), Qaraqalpaq shejiresi (Ufa, 1997), Qaraqalpaq folklorınıń janrları (Ankara, 1997), Qorqıt ata boyınsha (Kunya, 1998), "Qırıq qız" dástanı (Izmir, Kipr, 2000) boyınsha bayanatlar isledi.

Ol 2004-jıldan “Dúnya tyurkologları associaciyasınıń” aǵzası, Xalıq aralıq tyurkologiyalıq “Altaistika jáne túrkologiya”, “Túrkologiya” jurnallarınıń redkollegiya aǵzası boldı. Ol 1996-jılı Ózbekstan jurnalistler awqamınıń aǵzası, 1998-jılı Ózbekstan jazıwshılar awqamınıń aǵzası boldı. 2005-jılı JAK tárepinen S.Bahadırovaǵa “professor” ilimiy atağı berildi. Ol 1990-2007 jılları N.Dáwqaraev atındağı til hám ádebiyat institutına (xázirgi Qaraqalpaq gumanitar ilimler ilim-izertlew institutı) direktor lawazımında isledi. Usı jılları onıń ilimiy basshılığında islengen eń baslı jumıslardıń biri “Qaraqalpaq folklorınıń 100 tomlığı”n baspaǵa tayarlaw isleri boldı. Ol usınday iygilikli jumıstıń iniciatorı hám ilimiy basshısı boldı.

S.Bahadırova tyurkologiyada jańa ilimiy baǵdardıń tiykarın saldı desek asıra aytqan bolmaymız. Ol dástandı izertlewde jırawdıń atqarıw ónerin ilim dárejesine kóteriw, jıraw namalarınıń dástannıń mazmunın ashıwdağı xızmetin epostanıwdıń tiykarǵı tarawı ekenin dálillep berdi. Qaraqalpaq jırawlarınıń joǵalıp baratırǵan melodiyalarınıń enciklopediyasın islep shıqtı. Ol qaraqalpaq jırawlarınıń 151 melodiyasın anıqladı. Ol 62 xalıq aralıq ilimiy konferenciyalarda, kongress, simpoziumlarda qaraqalpaq dástanları haqqında bayanatları menen qatnasıp, shığıp sóyledi. Sonıń 41 bayanatı tek qaraqalpaq jırawı, onıń muzıkasına arnaldı. Búgingi kúnge shekem S.Bahadırovanıń onnan aslam monografiyaları hám sabaqlıqları, 400 den aslam maqalaları basılıp shığıp, xalqımızdıń ruwxıy dúnyasın bayıtıwǵa hám shet ellerge tanıtıwǵa xızmet etip kelmekte.

S.Bahadırova kóp jıllıq ilimiy iskerligi dawamında Qaraqalpaq mámleketlik universiteti janındağı doktorlıq ilimiy dárejeler beriwshi Ilimiy keńes aǵzası (1988-2007-jılları), házirgi waqıtta Ózbekstan Ilimler akademiyası Ózbek tili, ádebiyatı xám folklorı institutı janındağı doktorlıq ilimiy dárejeler beriwshi Ilimiy keńestiń aǵzası sıpatında ilimiy kadrlardı tayarlawǵa belsene qatnasıp kelmekte. Házirgi kúni de alım respublikamızdağı birden bir kórkem ádebiyat, sın hám jámiyetlik oy-pikir jurnalı “Ámiwdárya” hám de xalıq aralıq “Altaistika jáne tyurkologiya” jurnalınıń, xalıq aralıq ilimiy basılımlardıń redkollegiya aǵzası.

Alımnıń ismi 2005-jılı Nobel premiyasına usınılǵan 1000 dúnya hayallarınıń diziminde turdı.

S.Bahadırovanıń qaraqalpaq folklortanıwı hám ádebiyattanıw ilimine arnalǵan “Roman hám dáwir” (1978) “Folklor i karakalpakskaya sovetskaya proza” (1984), Folklorlıq terminlerdiń qısqasha sózligi” (S.Axmetov penen 1992), “Kitabi dedem Qorqıt” “Qoblan” “Edige” hám házirgi ádebiyat haqqında oylar” (1992), “Qaraqalpaq qanday xalıq” (2017), “Qaraqalpaq xalıq dástanları: “Qırıq qız”, “Alpamıs”, “Qoblan”, “Edige” (2024) atamasındağı monografiyaları menen jámáátlik avtorlar menen birgelikte “Qaraqalpaq sovet ádebiyatı tariyxınıń ocherkleri” (1986), “Istoriya karakalpakskoy literaturı” (1981) sıyaqlı kitapları basılıp shığıp, ádebiyat izertlewshileri menen keń kitap oqıwshılarınıń zárúr oqıw qollanbasına aylandı.

Professor S.Bahadırovanıń kóp jıllıq ilimiy izertlewleriniń úlken bir bólegin, qaraqalpaq dástanlarınıń, jıraw-baqsılarınıń hám folklor izertlewshilerinıń, túrkiy tilles hám basqa da xalıqlardıń folklorı menen ózara baylanısı máseleleri quraydı. Bir xalıqta bar dástanlardıń ekinshi xalıqta uqsas versiyaları, yamasa ayırım motivler menen syujetlerdiń, obrazlardıń, detallardıń bir-birine uqsas tárepleri menen ózine tán milliy ózgesheliklerin salıstırmalı izertlewler, álbette, ilimde qızıqlı bolıw menen birge kóplegen jańalıqlardıń betin ashatuǵını sózsiz. Mısalı, S.Bahadırova “Ámiwdárya” jurnalınıń 1988-jıl, 11-sanında “Kitabi dedem Korkut” jazba esteligi hám “Alpamıs” dástanı” degen atamadağı maqalasında qaraqalpaq dástanı “Alpamıs”tı VIII-XI ásirdegi túrkiy tilles xalıqlarǵa ortaq miyras esaplanǵan Kitabi dedem Qorqıt jazba esteligi menen salıstırmalı túrde úyreniwdi syujet hám motivler, obrazlar tipologiyası mısalında talqılap, keleshek izertlewlerge túrtki jasadı. Sońınan, professor S.Bahadırova bul temanı ele de tereńlestirip, 1992-jılı “Qaraqalpaqstan” baspasınan basılıp shıqqan “Kitabi dedem Qorqıt”, “Qoblan”, “Edige” hám házirgi ádebiyat haqqında oylar” atamasındağı kitabında bir neshe maqala kóleminde izertledi.

Kitapqa kirgen birinshi maqala “Kitabi dedem Qorqut” jazba esteligi hám “Alpamıs” dástanınıń qaraqalpaqsha versiyası”n salıstırmalı izertlewge arnaldı. Ilimpaz túrki tilles xalıqlardıń barlığına ortaq “Kitabi dedem Qorkut” jazba esteliginiń ilimde belgili bolǵanlığına házir júz jıldan aslam waqıt bolǵanlığın, bul estelik eń birinshi ret 1915-jılı Drezden kitapxanasındaǵı qoljazbası nemec ilimpazı Dic tárepinen tabılıp, qoljazbadaǵı “Bisattıń Depegezanı qalay óltirgeni haqqındaǵı qosıq” degen bólimin nemec tiline awdarıp járiyalaǵanın, bunnan soń nemec ilimpazı T.Neldeke bul jumıstı dawam etip, biraq aqırına shekem jetkere almaǵanlığın atap kórsetedi. XIX ásirdiń 90-jılları bul qoljazba menen belgili rus ilimpazı V.V.Bartold tanısıp, rus tiline awdarıp baspadan shıǵarǵanlığın, sonday-aq, azerbayjan ilimpazları G.Araslı hám M.Taxmasib, rus alımları V.M. Jirmunskiy hám A.N.Kononovlardıń (V.V.Bartoldtıń awdarması hám original teksti tiykarında) tárepinen tayarlanıp, basılıp shıqqanlığın sóz etedi. Sonday-aq, bul qoljazba shet ellerde nemec, italyan, túrk tillerine awdarılıp, shet el hám rus ilimpazları tárepinen úyrenilgenligin sóz ete otırıp: “Kitabi dedem Qorqut” jazba esteligin hár bir xalıqtıń folkloru menen salıstırıp izertlew ilimde úlken jańalıqlardıń betin ashadı, sebebi bul nusqa XV ásirde xatqa túsirilgen túrk tilindegi áyyemgi jazba estelik” (103-bet), – dep jazadı. Ilimpaz bul maqalasında tiykarınan “Kitabi dedem Qorqut” jazba esteligindegi 12 jırdıń “Qan Burinıń balası Bamsi-Beyrek” haqqındaǵı úshinsi jırdıń “Alpamıs” dástanına syujetlik, motivlik hám obrazlıq tárepten oǵada jaqın ekenligin ańlap, salıstırmalı úyreniw nátiyjesinde keleshek izertlewlerge baslama saldı desek boladı. Soońınan usı izertlewler tiykarında 1997-jılı folklor izertlewshisi K.Palımbetov “Qorqıt ata kitabı hám qaraqalpaq folkloru (qaraqalpaq dástanları mısalında)” degen temada kandidatlıq dissertaciyasın qorǵadı hám bul miynet 2010-jılı “Bilim” baspasınan “Qorqıt ata kitabı hám qaraqalpaq dástanları” degen atamada basılıp shıqtı. Professor S.Bahadırova joqarıda atı atalǵan kitabına kirgen “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Qoblan” menen qazaq xalıq jırı “Qoblandı batır” ortasında obraz dóretiwde, motivlerinde baylanıs” degen atamadaǵı izertlewinde belgili qaraqalpaq folkloristleri N.Dáwqaraev, O.Kojurov, I.Saǵitov, Q.Maqsetovlardıń izertlewleriniń izi menen eki xalıq versiyası syujetindegi hám bas qaharmanlar menen járdemshi qaharmanlar obrazlarındaǵı hám súwretlew quralları, motiv hám metaforalıq baylanıslardıń ilimde ele tereń úyrenilmey atırǵanlığın durıs eskerte otırıp, hár eki xalıqtıń milliy versiyalarınıń ózgeshe táreplerine dıqqat awdaradı. Kitapqa kirgen “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Edige”niń qazaq, tatar versiyalarınan syujetlik qurılısı jaǵınan ózgesheligi” dep atalǵan izertlewinde “Edige” dástanı dúnya xalıqları folkloriniń altın fondın bayıtqan, eń kórkem, mazmunlı, túrkiy tilles xalıqlarǵa keń túrde taralǵan dástanlardıń biri bolıp, ol házirshe segiz xalıqtıń tilinde jırlanıp, óziniń eliwden aslam variantlarına iye ekenligin sóz ete otırıp, “Edige” dástanın Volga, Oral, Sibir, Qırım, Zarafshan, Aral átirapındagı túrki tilles xalıqlardıń kópshiligi jırlaytuǵın xalıq dóretpesi” (39-bet) degen pikir bildiredi. Sonday-aq, izertlewde tiykarınan dástannıń qazaqlarda, tatarlarda hám qaraqalpaqlarda jazıp alınıwı hám baspadan shıǵarılıwı hám úyreniliwi menen birge sovet húkimeti dáwirinde qadaǵan etilgen dástanlar qatarına kirgenligi haqqında ilimiy dáreklerge tiykarlanıp, bahalı maǵlıwmatlar keltirip ótedi. Izertlewde keńes húkimeti jıllarında dástannıń qaraqalpaqsha 9 variantı jazıp alınıp, bul qoljazbalardıń ÓzRIAQ bólimi fundamental kitapxanası qoljazbalar fondında saqlanıp kiyatırǵanlığın, solardan Erpolat jıraw hám Qıyas jıraw variantların qazaqsha hám tatarsha variantları menen syujetlik qurılısın salıstırmalı úyreniw nátiyjesinde bul xalıq múlkiniń dóreliw tórkini bir, Altın Ordanıń qulaw dáwirin jırlaytuǵın tariyxıy shıǵarma ekenligin sóz ete otırıp, “Hár xalıq versiyasındaǵı jaqınlıqtan biz, usı xalıqlardıń ata-babalarınıń noǵaylı awqamında jasaǵan dáwirinde dóregen bir miyrastan paydalanıp kelgen ruwxıy jaqınlığınıń gúwası bolamız. Sonıń menen birge hár xalıq versiyası tek sol xalıqtıń júreginiń tórinen qaynap shıqqan, óziniń milliy dástúrin, úrp-ádetin, xalıqtıń oyların alıp júrgen tek sol xalıqqa tiyisli óz múlki” (69-bet), – degen tujırımlı juwmaqqa keledi.

“Qaraqalpaq xalıq dástanı “Edige” hám onıń tatar xalıq dástanı “Idegey” menen baylanısı” (“Ámiwdárya”, №2. 1992. 114-120-betler), – degen maqalasında bolsa, “Edige” dástanınıń túrki tilles xalıqlardıń onǵa shamalas tilinde jırlanıwın, eliwden aslam nusqası jazıp alınǵanlıǵın, ol bashqurt, tatar, qazaq, ózbek, qaraqalpaq, altay, noǵay, om, barabin tatarlarında óz versiyasına iye bolsa da, keńes húkimeti jıllarında xalıq azamatları menen birge bul dástannıń da quwdalanıp, qadaǵan etilgenligin, 1984-jılı elimizde qayta qurıw siyasatı alıp barılıw menen bul dástannıń qazaq, bashqurt, tatar, qaraqalpaq tillerindegi variantları “Qazan utları”, “Juldız”, “Aǵedil”, “Ámiwdárya” jurnallarında basıp shıǵarılıp, xalıqqa óz múlki qaytarıp berilgenligin hám dástan boyınsha ilimiy izertlewler alıp barılǵanlıǵın ayrıqsha atap ótedi. Bul maqalanıń áhmiyetli tárepi sonda, alım atı atalǵan qaraqalpaq hám tatar xalıqlarında dástannıń baspaǵa tayarlanıwı hám basıp shıǵarılıwı, variant, versiyaları hám izertleniw tariyxına qısqasha toqtap ótiw menen eki xalıq (qaraqalpaqsha Erpolat hám Qıyas jıraw variantları – B.Z.) versiyasınıń ulıwma syujetlik mazmunın, qaharmanların salıstırıp úyrengende “Tatarsha versiyanıń eń baslı ózgesheligi waqıyanıń baslanıwında hám juwmaǵında bar” (114-bet), – degen pikirge keledi. Ilimpaz óz izertlewlerinde qaraqalpaq hám tatar versiyalarınıń syujeti, mákan, jer atamaları, qaharmanları hám waqıyalardıń qara sóz hám qosıq penen aralas túrinde beriliwindegi uqsas hám ózgeshe táreplerine tekstlik tallawlar jasaǵan. “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Alpamıs”tıń ózbek, qazaq versiyaları menen baylanısı” (“Ámiwdárya”, №5/6. 1999), – degen maqalasında da alım qızıqlı máseleniń betin ashadı. “Alpamıs” dástanı dúnyada 10 ǵa shamalas xalıqlarda, sonnan Altaydan baslap Orta Aziya, Qazaqstan, Volga, Awǵanstan, Iran, Túrkiya aymaqlarına shekem óz ishine qamtıǵanlıǵın, ol tek ǵana túrki tilinde emes, parsı tilinde de jırlanıp, búgingi kúnge shekem 6 tilde jarıq kórip, 40 tan aslam ret basılıp shıqqanlıǵı haqqında maǵlıwmat beredi. “Alpamıs” dástanı sovet húkimeti jıllarında bayfeodallardıń turmısın úgit-násiyatlaytuǵın dástan retinde qaralıp, onı úyreniwge topılıs jasalǵan miyraslarımızdıń biri bolǵanlıǵın, usınday topılıstan bul dástandı aman saqlap qalıw maqsetinde belgili Shıǵıstı izertlewshi ilimpazlar buryngı Awqam Ilimler Akademiyasınıń M.Gorkiy atındaǵı jer júzilik ádebiyat institutı menen Ózbekstan Ilimler Akademiyası “Alpamıs” dástanına arnap regionallıq jıynalıs ótkizgenligin, usı jıynalısta ilimpazlar tárepinen “Alpamıs” dástanınıń xalıqtıń arzıw-ármanın sóz etetuǵın xalıqshıl dástan ekenligi dálillenip, ol hár qıylı topılıstan saqlanıp qalınǵanlıǵın ilimiy jaqtan tiykarlap beredi. Bul dástan boyınsha Oraylıq Aziyadaǵı túrkiy tilles xalıqlar folkloristika iliminde V.I.Jirmunskiy, X.T.Zarifov, A.S.Orlov, Q.Jumaliev, M.Ǵabdullin, T.Sıdıqovlardıń, qaraqalpaq folkloristikasında da bul dástan haqqında N.Dáwqaraev, Q.Ayımbetov, I.Saǵitov, Q.Maqsetovlardıń miynetlerinde sóz etilip, olarda dástannıń ideyalıq mazmunı, kórkemlik ózgeshelikleri, jıynalıw hám basıp shıǵarılıw tariyxı keń túrde sóz etilgenligi atap ótiledi. Ilimpazlardan A.S.Orlov qazaq, ózbek, altay, rus eposları menen salıstırmalı izertlegenligin, biraq, ol tek ǵana qazaq eposın salıstırıp izertlewdi hám onıń ayırım momentlerin ǵana salıstırıwdı kózde tutqanlıǵın, al X.T.Zarifov hám V.M.Jirmunskiydiń “Uzbekskiy narodnıy geroicheskiy epos” (M., 1947) miynetinde “Alpamıs” dástanın túrkiy, arab, parsı tilles xalıqlarında bar versiyaları menen salıstırmalı túrde izertlengenligin hám V.M.Jirmunskiydiń “Skazanie ob Alpamıshe” i “Bogatırskaya skazka” (M., 1960) miynetinde bolsa bul dástandı tiykarınan tórt versiyaǵa (qońırat, qıpshaq, oguz, altay) bólip qaraǵanlıgın, qazaq ilimpazı Q.Jumaliev birinshi ret qazaqsha Mayket Sandıbaev variantı menen qaraqalpaqsha Qıyas jıraw variantın salıstırmalı izertlegenligin ayrıqsha atap kórsetedi. Jáne de ilimpaz usı izertlengen jumıslardıń ishinde tek N.Dáwqaraev penen I.Saǵitovtıń miynetlerinde ǵana bul dástan basqa tuwısqan xalıqlar dástanları menen salıstırmalı-tariyxıy metodta izertlendi. N.Dáwqaraev tiykarınan qaraqalpaqsha versiyası menen qazaqsha hám ózbekshe versiyasın salıstıra otırıp, qaraqalpaqsha versiyasınıń túrkiy tilles xalıqlar versiyalarınıń ishinde eń áyyemgi versiyası ekenin aytti. N.Dáwqaraevtıń pikirin

Q.Ayımbetov “Xalıq danalıǵı” (Nókis, 1968) miynetinde tastıyıqlaydı. Bunnan soń qaraqalpaqsha “Alpamıs” dástanın basqa xalıqlar versiyaları menen keń túrde salıstırǵan I.Saǵıytov boldı” (17-bet), – degen oǵada durıs qalıs pikirlerin bildiredi. Solay etip, professor S.Bahadırova joqarıda atı atalǵan izertlewinde “Alpamıs” dástanınıń qaraqalpaqsha versiyaları menen qazaq, ózbek, altay, bashqurt, tatar versiyaların salıstıra otırıp, qaraqalpaqsha versiyasınıń milliy ózgesheligine qısqasha toqtap ótedi. Álbette, alımnıń salıstırmalı izertlewleri sońǵı jılları jas izertlewshilerdiń, solardan Nadira Allambergenovanıń 2019-jılı “Alpomish” dostonining o‘zbek va qoraqalpoq versiyalari qiyosiy tipologiyasi” degen temadaǵı filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD) miynetiniń jazılıwına túrtki bolǵanlıǵı anıq dep esaplaymız. Alımnıń bunnan basqa da “Alpamıs” dástanınıń Jiyemurat jıraw variantınıń shet elde izertleniwi” (“Qaraqalpaqstan jasları”, 25-mart, 1999), “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Erqosay” hám qırǵız xalıq eposı “Manas” ortasındaǵı baylanıs” (ÓzRIAQb “Xabarshısı”, №1/2, 2001-jıl), “Qaraqalpaq xalıq dástanı “Edige” menen bashqurt xalıq eposı “Idegey menen Muradım” ortasında baylanıs” (ÓzRIAQb “Xabarshısı”, №3, 2007), “Ózbek xalıq dástanı “Alpomish” K.Rayxl awdarmasında nemis tilinde. ÓzRIAQb “Xabarshısı”, №1-2, 2004) sıyaqlı ilimiy maqalaları jas folklorshı ilimpazlarǵa keleshekte tariyxıy-salıstırmalı, salıstırmalı-tipologiyalıq izertlewlerdi alıp barıwında teoriyalıq hám ámeliy jaqtan tájiriybe usılı boları sózsiz.

Alımnıń jáne bir keń kólemli fundamental miynetleriniń biri “Folklor i karakalpakskaya sovetskaya proza” (Nukus, Karakalpakstan. 1984) dep ataladı. Bul miynet Kirisiw, Juwmaqtan tısqarı úlken 3 bapqa bólip úyrenilgen. 1-babı “Folklor hám qaraqalpaq jazba ádebiyatı” dep ataladı. 2-babı “Folklor hám qaraqalpaq sovet prozasında socialistlik realizmniń qáliplesiwi” máselesine, al 3-babı bolsa, “Folklor hám házirgi qaraqalpaq prozası”n úyreniwge arnalǵan.

Qaraqalpaq xalqınıń baslı kórkem dástúrleriniń biri retinde folklordıń roli, usı dástúr tiykarında milliy ádebiyat qálipleskenligi qarap shıǵıladı, al ádebiyattıń nıǵayıwı, realistlik principlerdiń islep shıǵılıwı, ádebiyattıń bayıwı, kóp milletli xalıqlarımızdıń ádebiy tájiriybesi menen baylanısadı. Ol óz miynetinde XIV-XV ásirlerden baslap házirgi kúnlerimizge shekemgi qaraqalpaq jazba ádebiyatınıń payda bolıwın bir pútin hám sistemalı túrde analiz jasaw arqalı qarap shıǵadı, barlıq tariyxıy aspektlerde folklorlıq ádebiy baylanıslardı anıqlaydı, xalıq dóretiwshiliginiń jazba ádebiyatqa ótiwiniń genetikalıq, miyrasxorlıq processlerin belgileydi.

Ilimpaz proza janrınıń payda bolıwın eń dáslep folklorlıq psixologiya menen estetikadan jeke dóretiwshilik oylawǵa ótiw menen baylanıslı túrde qarap shıǵadı, solay etip, proza jańadan tuwılıp atırǵan kórkemlik sistemanıń áhmiyetli quramlıq bólegi ekenligi atap kórsetiledi. Proza janrınıń payda bolıwınıń specifikasın belgilegen waqıtta usı jańa janrdı biná etken jaǵdaylardı, yaǵnıy milliy ádebiyattı dóretiwge múmkinshilik bergen milliy negizde jasaladı.

Folklorlıq prozadan realistlik prozaǵa ótiwge sebepshi bolǵan jámiyetlik sanada júz bergen ózgeris, jazıwshınıń dóretiwshi dara adam retinde qáliplesiwi, onıń ideyalıq-estetikalıq poziciyasınıń ayqınlasıwı milliy qaraqalpaq ádebiyatınıń payda bolıwındaǵı eń áhmiyetli basqısh retinde belgilenedi, usı processtegi folklordıń roli anıqlanadı. Usı ózgeristi analiz jasaw barısında milliy kórkemlik sistemanıń awmasıwı qarap shıǵıladı. Al, usı milliy kórkemlik sistemanıń awmasıwı dúnyanı obrazlı kórkem qabıllawdı dialektikalıq túrde: olardıń bir-birinen óza-ara beziwshiligi, áste aqırın folklordan ádebiyatqa ósip ótiwshilik hám jańa estetikalıq principlerdiń payda bolıwı formasında júz bergenligin aytadı.

Qaraqalpaq prozasınıń xalıqlıq sóz dóretiwshiligi menen óz-ara baylanısta rawajlanıwınıń kóp jıllıq hám quramalı tájiriybesin ulıwmalastıra otırıp S.Bahadırova ádebiyattıń milliy specifikasındaǵı onıń internacionallıq kórkemlik tájiriybe yaki jaqınlasıw processindegi folklordıń rolin anıqlaydı.

S.Bahadırovanıń teoriyalıq koncepciyalarınıń ilimiy jańalığı sonnan ibarat, qaraqalpaq ádebiyatınıń qáliplesiw processleriniń al tek folklorlıq-obrazlıq oylawdıń "joq bolıwı" hám pútkilley jańa kórkemlik usıllardıń nıǵayıwı sıpatında ǵana emes, folklordıń jeke hákimligin áste aqırın jeńip shıǵıw hám óziniń tánha ádebiy principlerin islep shıǵıw retinde de qaraydı.

Sonlıqtan da, alımnıń bul miyneti haqqında professor Q.Járimbetov bılayınsha pikir bildiredi: "S.Bahadırovanıń izertlew stiline tán hám jas izertlewshiler úlgi alıwı tiyis bir ózgeshelik bar. Ol qaraqalpaq romanların Oraylıq Aziyanıń kórnekli jazıwshıları M.Aybek, M.Áwezov, Á.Nurpeyisov, Sh.Aytmatov hám basqalardıń romanları menen hár tárepleme salıstırıp izertleydi hám olardı burınǵı awqam ádebiyattanıw ilimi kontekstinde analizleydi. Bunday usıl oy óristiń tereńligin, joqarı qánigelikti, kóp miynetti talap etedi. S.Bahadırovanıń bunday tabanlı izertlewleri onıń doktorlıq dissertaciyasına (1985) hám qunlı fundamental monografiyasına ("Folklor t karakalpakskaya sovetskaya proza" (1984) tiykar boldı". ("Qaraózekke qaytpaǵanıń jaqsı bolǵan eken...", "Erkin Qaraqalpaqstan". 1-noyabr, 2014).

Onıń talantlı jazıwshı sıpatında "Anama xat", "Ana haqqında qosıq", "Qoshqarshaq gúlleri", "Esken samal qaytpaydı", "Jawın tamshıları", "Ókinish" h.t.b. gúrrińleri, "Keshikken soldat", "Urıstan soń", "Hayallar", "Adamdı adam baxıtlı etedi", "Adam qádiri", "Rawshan", "Tumaris hám Kir", "Izbasar Fazılov", "Qanatınan qayrılǵan suńqar", "Táǵdir" (trilogiya) sıyaqlı povest hám romanları basılıp shıǵıp, ayırımları mektep sabaqlıqları menen joqarı oqıw orınlarına arnalǵan sabaqlıqlarǵa kirgizilip oqıtılmaqta. Belgili alım Z.S.Kedrina jazıwshınıń "Hayallar" povesti menen "Anama xat" gúrrińinde bayanlawdıń milliy dástúri xarakterdi psixologiyalıq úyreniw menen uyǵınlasıp ketkenligi haqqında atap ótken bolsa (Kedrina Z.S. Na yazıke drujbı // Stati, literaturnıe portretı). – M.: Sovetskiy pisatel. 1984. 189-bet), T.Davıdova da avtordıń "Hayallar" povestiniń Orta Aziya hám Qazaqstan xalıqları prozasında milliy bayanlaw dástúrlerin, sonday-aq, qaharman xarakterin jasawdaǵı kórkem psixologizmdi rawajlandırıwǵa belgili úles bolıp qosılǵanlığın ayrıqsha atap kórsetedi (Davıdova T. Proza Sredney Aziii Kazaxstana. – M.: Znanie. 1989. 14-bet). Jazıwshı S.Bahadırovanıń joqarıda atı atalǵan gúrrińleri, povestleri hám romanları haqqında qaraqalpaq ádebiyatshı alımlarınan M.Nurmuhamedov, Z.A.Nasrullaeva, J.Narımbetov, K.Xudaybergenov, Q.Kamalov hám taǵı basqa da ilimpazlar sın pikirlerin bildirdi.

S.Bahadırova ilimpaz, jámiyetlik ǵayratker, ustaz, jazıwshı, jurnalist retinde óziniń barlıq sanalı ómirin qaraqalpaq ádebiyatı menen folkloın izertlewge jumsadı.

"Meniń maqsetim xalqımnıń sanınıń az bolıwına qaramastan tariyxtıń qatal soqqılarında óziniń mádeniyatın, milliy baylığın joǵaltpay, nannıń usaǵınday qásterlep saqlap bizge jetkizgen eń eski xalıqlardıń biri ekenligin, onıń adamzat civilizaciyasına belgili dárejede úlesin qosqanlığın ilimiy jaqtan dáliyllew. Meniń barlıq dóretiwshiligim xalqımnıń talantlı, mehriyban, adamgershilikli, dostı ushın sońǵı bir tislem nanın beretuǵın aq kewil, xadal qásiyetlerin dúnyaǵa tanıstırıwdan turadı" deydi ol. Haqıyqatında da, ol óziniń ilimiy miynetleri hám kórkem dóretpeleri menen xalqımızdı maqtanısh etip, onı dúnyaǵa alıp shıqtı. Ol usınday inabatlı iste kúsh-jigerin ayaǵan emes.

Professor S.Bahadırovanıń izertlewleri hám kórkem dóretiwshilik laboratoriyası kóp qırlı. Álbette, olardı bir maqala sheńberinde, qala berse S.Bahadırovanıń yubileyine arnalǵan qısqa kólemli maqalada sóz etiw múmkin emes. Óziniń sanalı ómirin ilim hám kórkem ádebiyatqa baǵıshlap, mashaqatlı dóretiwshilik jolında tınımsız miynet islep atırǵan Sarıgúl Bahadırovanıń ilimiy izertlewlerin keleshekte tómendegishe baǵdarda izertlew maqsetke muwapıq dep esaplaymız.

– S.Baxadırova qaraqalpaq folklortanıw ilimi boyınsha izertlewleri;

– S.Bahadırovanıń qaraqalpaq xalıq awızeki dóretpelerin (dástanların h.t.b.) basqa xalıqlar folkloı menen salıstırmalı izertlewleri;

– S.Bahadırovanıń qaraqalpaq ádebiyattanıw ilimine qosqan úlesleri;

– S.Bahadırovanıń kórkem ádebiyatqa qosqan úleslerin, gúrriń, povest hám romanların talqılaw sıyaqlı bólimlerge ajıratıp úyreniwge boladı.

Ilim hám dóretiwshiliktiń mashaqatlı táreplerinen qashpastan ózinıń sanalı ómiriniń mazmunına aylandırǵan ustazımız S.Bahadırovanı búgingi 80-jıllıq yubiley jası menen qutlıqlap, ustazımızǵa bekkem den sawlıq, ilimiy dóretiwshilik islerinde jańadan jańa tabıslar tilep qalamız.

JABBOR ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori, professor

ZABARDAST FOLKLORSHUNOS OLIM

Turkiyada hurmati baland bo‘lgan, chin dildan qadrlaydigan ustoz va do‘stlarimiz ko‘p. Shuning uchun bu mamlakat o‘z uyimizday qadrdon bo‘lib qolgan. Turkiyada qadrdon ustoz va do‘st bo‘lib qolgan olimlarning har birining ilmda ham, hayotda ham turkiy xalqlar ilm fani rivojida ham o‘z o‘rinlari bor. Bular orasida filologiya fanlari doktori, professor Ismat Chetin (Ismet Çetin) alohida ajralib turadi.

Ismat Chetin (Ismet Çetin) bilan ilk tanishuvimiz 1997-yilda noyabr oyida bo‘lgandi. Biz **“Turkiy xalqlar dostonlarini turk tilida nashr etish”** loyihasida ishtirok etish uchun ustoz To‘ra Mirzayev va Mamatqul Jo‘rayevlar bilan Anqaraga borgandik. Turkiyalik juda ko‘p hamkasblarimiz bilan, jumladan, Ismat Chetin bilan shu anjumanda tanishdik. Shu uchrashuvda u bizga “Qizil olma” kitobini sovg‘a qilgandi. Adashmasam, kitob nashrdan endigina chiqqandi[2.90].

Uyga qaytgach, bir oy davomida shu kitobni o‘qishga to‘g‘ri kelgan. Bu kitob turkiy xalqlar folklorida muhim o‘rin tutuvchi olma ramzining badiiy talqiniga bag‘ishlangandi. Olma ramzi to‘g‘risida garchi bizda ham maqolalar, ilmiy izlanishlar chop etilgan bo‘lsada, turk olimining masalaga yondoshuvi, har bir faktni erinmay tadqiq etgani meni hayratga solgandi. Turkiyalik hamkasblarimizda muhim jihat borki, tahsinga loyiq: har qanday masalaga bitta xalq folklor namunalari doirasida emas, butun turkiy xalqlar kengligida qarashga harakat qilish. Bitta kitobni o‘qiy turib jamiki turkiy xalqlarning shu masalaga taalluqli qarashlari bilan tanishish imkoniyati bo‘ladi. Bu folklor namunalarini qiyosiy o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. **Shu shu men kitob muallifini “Qizil olma” egasi” deb ataydigan bo‘lgandim.**

Qizil olma, shunchaki ramz emas. U milliy madaniyatimiz, azaliy qadriyat va an’ana, ajdodlarimizning qadim tushuncha va tasavvurlarining bir parchasi. Bu an’ana va qadriyatlar qo‘riqchisi, davomchisi va egasi esa xalqimiz, shu xalq vakillari bo‘lgan tadqiqotchi olimlardir.

Qizil olmalarga inonch hali bor ekan, olimlarimiz uning mohiyatini anglatishga, qadim rishtalarni bugungi kun bilan bog‘lashga harakat qilar ekan, ajdodlar va avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlik rishtalari, eng muhimi tili, tarixi va madaniyati bir bo‘lgan xalqning birligi va jipsligi yanada mustahkamlanaveradi.

Keyinchalik biz Ismat Chetin (Ismet Çetin) hamda yangamiz Aysha Yücel Chetin bilan xuddi tug‘ishganlardek yaqin bo‘lib ketdik. Ismat Chetin yanga bilan ko‘p bora yurtimizga keldi, biz ko‘p bora ularning uylarida mehmon bo‘ldik. Har gal uchrashganda taqdir shunday insonlarga duch qilganiga shukrona qildik. Hozirgacha bu yaqinligimiz davom etib kelmoqda.

Ba’zan Ismat og‘a O‘zbekistonlik bo‘lsa kerak, degan xayolga boraman. An’ana va qadriyatlarga yondoshuvda, keksalarga hurmati, kichiklarga izzati, ayolga, jamiyatga munosabati, kasbiga

sodiqligi xuddi o‘zimiz kabi. Bunga ehtimol, Turkiyaning Sivas viloyatida tug‘ilganligi sababdir?! Men uchun qadrdon bo‘lgan Ismat Chetin va do‘stimiz Vali Savash shu tuproqdan.

Ilmiy anjumanlar tufayli bu viloyatda ko‘p marta bo‘lganman. Men uchun Turkiyaning Istanbul, Anqara, Konya, Izmir, Chaşma, Oydin, Bursa, Bolu, Alanya, Mersin, Urfa kabi shaharlari qanchalik qadrdon bo‘lsa, Sivasning o‘zgacha tafti bor. Bu yerning odamlarining yuz ko‘rinishlari, soddaligi, samimiyati bilan o‘zimizning odamlarga ko‘proq o‘xshab ketadi.

Ba’zan o‘ylab qolaman, balki, bu ikki inson bilan qadrdon bo‘lib ketishimizga shu tuproqning ham hissasi bordir? Ismat Chetinning aynan folklorshunos bo‘lib yetishishida nazarimda u tug‘ilgan yerning o‘rni va ahamiyati katta. Biroq uning hayoti, umri butun Turkiya va turkiy davlatlar bilan bog‘liq holda kechmoqda, desam xato bo‘lmaydi.

Ismat Chetin Sivasda tug‘ilgan bo‘lsada, Malatiyada o‘rta maktabni tamomlagan. 1980-yilda Firat universitetining fan va adabiyot fakultetini tamomladi. 1988-yilda **G‘ozi** universitetida magistrlik darajasiga ega bo‘ldi. 1995-yilda esa **“Turkiy xalqlar folklorida Hazrati Ali jangnomalari”** nomli doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqqiyatli himoya qildi. Keyinchalik dotsent, professor ilmiy unvonlariga ega bo‘ldi.

Ismat Chetinning ilmiy faoliyati ko‘proq **G‘ozi** universiteti bilan bog‘liq bo‘lsada, bir muddat Turkistondagi Ahmad Yassaviy xalqaro universitetida ham talabalarga saboq berdi.

Nazarimda Ismat Chetin Turkiyadagi **yaxshi pedagoglardan biri.** Shuning uchun bo‘lsa kerak bir muddat G‘ozi universitetining ta’limga yo‘naltirilgan institutini boshqardi. Eng muhimi, oddiy o‘qituvchimi, professor yoxud institut mudiri bo‘ladimi, hech o‘zgarmadi: biz bilgan, biz qadrlagan, biz mehr qo‘ygan Ismet og‘aligacha qolaverdi.

Ismat Chetin **ko‘p ustozlarning** sabog‘ini olgan, mehrini ko‘rgan. Shuning uchun u o‘z ustozlarining hurmatini joyiga qo‘yishni yaxshi biladi. **Ahmad Bijon Erjilasun,** Umay Gunay kabi ustozlar nomini hamisha hurmat bilan tilga oladi. Ularning hayoti va ilmiy merosiga bag‘ishlangan ilmiy anjumanlar tashkil etadi, kitoblar chop ettiradi. Men Ismat Chetinning o‘z ustozlariga bo‘lgan hurmatini ko‘rib ko‘p marta havas qilganman.

Ismat Chetin faqatgina folklorshunos olimgina emas, **u zamonaviy adabiyotni** ham juda nozik his qiladigan, teran ilg‘aydigan olimlardan biri. Uning Ozarbayjonlik shoir Baxtiyor Vahobzodaga, O‘zbekistonlik ijodkorlarga bag‘ishlab nashr etgan kitoblarida olimning teran nigohi, noshirlik tajribasi ham aks etib turadi.

Ismat Chetin ilmiy anjumanlarni mahorat bilan tashkil etadigan yaxshi **tashkilotchi** ham. 2000-yilda Ismat Chetin Mersin shahrida folklorga bag‘ishlangan xalqaro anjuman tashkil etganda ustoz To‘ra Mirzayev bilan ishtirok etgandik. Keyinchalik ustozimiz shu anjumandan olgan taassurotlarini uzoq vaqt gapirib yurdi. Dunyoning turli burchaklarida yashab ijod qilayotgan folklorshunos olimlarning ilmiy maqolalari joy olgan ushbu anjuman to‘plami turkiy xalqlar folklor namunalarini tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, deb o‘ylayman. Keyinchalik, Ismat Chetin Anqara, Sivas, Bolu, Bursa kabi boshqa shaharlarda tashkil etgan anjumanlarda ishtirok etish nasib etdi.

Ilmda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ustoz olimning ko‘plab shogirdlari bor. Shogirdlariga otadek g‘amxo‘r, akadek mehribon bo‘lgan holatlarni ko‘rganman. O‘zi tajribali pedagoglarda ustozlar xuddi otaday yoxud do‘stingday eng yaqiningga aylanadi. O‘rtadagi chegaralar yuqoladi. Ustozda shogirdga nisbatan katta bir mehr, shogirdda esa ustozga nisbatan ulkan ishonch mustakahkamlanadi.

Ismat Chetinning nafaqat turkiyalik tadqiqotchilari, balki Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Ozarbayjon kabi davlatlarda ko‘plab shogirdlari, hammaslaklari bor. Ko‘pchilik tadqiqotchilar Ismat Chetinni o‘ziga ustoz deb bilishadi.

Men ham Ismat Chetinni o‘zimga ustoz deb bilaman. Uning “Qizil olma”, “Turk adabiyotida

Hazrati Ali jangnomalari", "Turk xalq dostonlari", "An'anaviy turk teatri", "Dursun Fakihning hayoti va adabiy shaxsiyati" kabi o'nlab kitoblari qiyosiy folklorshunoslik masalalarini yoritishda eng qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda. Qolaversa, Ismat Chetin O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tomonidan chop etiladigan "Adabiy myeros" jurnalining tahrir hay'ati a'zosi. Muntazam ravishda o'z maqolalari bilan qatnashib turadi, tahririyatga kelgan turkcha maqolalarga hakamlik qiladi.

Ismat Chetin ko'p marta O'zbekistonda bo'lib o'tgan anjumanlarga kelgan. 2023-yili Sirdaryoning Guliston shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida bo'lib o'tgan ilmiy anjumanda o'zining ma'ruzasi bilan ishtirok etgan, anjuman ishtirokchilarida katta taassurot qoldirgandi.

Ismat Chetinning ilmiy tadqiqot doirasi nihoyatda keng. U turkiy xalqlarning mifologik tasavvurlari, inonch e'tiqodlari bilan bir qatorda, baxshichilik san'ati, afsona va rivoyatlar, xalq dostonlari, folklor va yozma adabiyot munosabatlari masalalarini qamrab olgan tadqiqotlar yarata oldi.

"An'anaviy Turk teatri" (*Geleneksel Türk Tiyatrosu)* kitobi xalq tomosha san'ati tadqiqiga bag'ishlangan[3.80]. Faqat Turkiyada emas, balki, barcha turkiy xalqlarda bu san'at tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlar barmoq bilan sanarli. Bu mavzu hali yetarli tadqiq etilmadi. Vaholanki, bu san'at turkiy xalqlarning eng qadimiy va boy san'atlardan biri hisoblanadi. Folklordagi juda ko'p san'at turlari ildizlari ana shu san'atga borib taqaladi va uning ildizlari mavsum marosim bilan chamcharchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan Ismet Çetinning mazkur kitobi bundan keyin ushbu mavzuning atroflicha tadqiq etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq dostonlari turkiy xalqlar folklorida eng qo'p tarqalgan, qadimiy va boy janrlardan biri hisoblanadi. Ismat Chetin **o'zining "Turk xalq dostonlari"** kitobida doston janrining o'ziga xos xususiyatlari, variant va versiyadagi o'xshash va farqli jihatlar, motiv va syujetdagi o'ziga xosliklar, ijodkor mahorati bilan chambarchas bog'liq ekanligini tadqiq etadi**[1.260].**

Olimning **"Turk xalq dostonlari"** kitobi o'nta bo'limni o'z ichiga qamrab olgan. Dastlabki to'rt bo'limda doston atamasi, dostonlar bilan bog'liq manbalar, dostonlar tasnifi va doston ijrochilari haqida so'z yuritiladi.

Doston ijrochilarini: Oqin, jirov, baxshi, maddoh oshiqlarga bo'lib o'rganadi. Garchand kitob muqovasida Turkiya materiallari asosida deyilgan bo'lsada, Ismat Chetin har bir bo'limda, nazariy masalalar tahlilida umumturkiy materiallar tahlilidan kelib chiqib yondoshganligining guvohi bo'lamiz. Keyingi ikki bo'limda ijrochi dostonchilar va ularning ijro o'rni, ijro makoni haqida fikr yuritiladi. Yettinchi bo'limda dostonchilik an'analarida shakl va uslub o'ziga xosligini, sakkizinchi bo'limda she'riy uslub, so'ngra epik asar qahramonlari, zamon va makon, so'nggi bo'limda evrilish motivlarini tahlil etadi.

Aslida bu bo'limlarning har biri alohida bir tadqiqot mavzusi bo'la oladi. Olim masalaga keng yondoshganligini ko'ramiz.

Xalq ijodi namunalarini millat oydinlari "Oltin beshik" deb atagan edi. Chunki, xalq dostonlari shunchaki, badiiy so'z san'ati namunasigina emas, balki xalqning tarixi, qadim madaniyati bilan chambarchas bog'liq jarayon. Turkiy xalqlarning tili, tarixi va madaniyati bir ekanligini hamisha urg'ulab turadigan san'at, ta'bir joiz bo'lsa, folklor san'ati turkiy xalqlarni birlashtirib turuvchi ma'naviy makondir. Shunday ekan uni tadqiq etuvchi olimlar, ijodkorlar ham oltin beshik egalari hisoblanadi.

Turkiy dunyo oltin beshigining egalaridan biri, ham ustoz, ham qadrdon akamiz Ismat Chetinni qutlug' yoshi bilan tabriklab, yana uzoq yillar ilm yo'lida tolmay faoliyat yuritishini tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prof.Dr. Ismet Çetin. Türk Halk Hikayeceliği. Türkiye sahasi. -Anakara:Nobel, 2020. – 296 s.
2. Prof.Dr. Ismet Çetin. Kızılelma. – Ankara 2007. 120 s.
3. Prof.Dr. Ismet Çetin. Türk Edebiyatında Hazret-i Ali Cenknâmeleri
4. Prof.Dr. Ismet Çetin. Geleneksel Türk Tiyatrosu (Ayşe Yücel ve Ali Yakıcı ile, 1999).
5. Prof.Dr. Ismet Çetin. Tursun Fakih-Hayatı Edebî Şahsiyeti Mesnevileri (2002).

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR ISMAT CHETIN (İSMET ÇETIN)NING ILMIY ISHLARI RO'YXATI

KITOBLAR:

1. Mükremin Albayrak, (1993). Hasret, (Haz. İsmet Çetin), Ankara 1993.
2. Türk Edebiyatında Hz Ali Cenknameleri, Ankara 1997.
3. IV. Türk Dünyası Yazarlar Kurultayı (Ed. İsmet Çetin-Hasan Avni Yüksel), Ankara 1999.
4. Geleneksel Türk Tiyatrosu, (Ayşe Yücel-İsmet Çetin-Ali Yakıcı) Ankara 1999.
5. Tursun Fakih Hayatı Edebi Şahsiyeti Mesnevileri, Ankara 2002.
6. Uluslararası Türk Dünyası Halk Edebiyatı Kurultayı Bildirileri, (Ed. İsmet Çetin-Ayşe Yücel), Ankara 2002.
7. Prof. Dr. Abdurrahman Güzel'e Armağan, (Editör İsmet Çetin), Ankara 2004.
8. Tursun Fakih, Gazavat-ı Muhammed Hanefi, Söğüt 2008.
9. Tursun Fakih, Gazavat-ı Mukaffa, Söğüt 2008.
10. Tursun Fakih, Gazavat-ı Umman, Söğüt 2008.
11. Fahimi – Hayatı Edebi Şahsiyeti ve Divanı, Sivas 2010.
12. Bahtiyar Vahapzade Anısına I. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Öğretimi Sempozyumu, (Ed. İsmet Çetin), Ankara 2014.
13. Niýazi ıldyldyrym Gençosmanoğly, Boz gurduň balalary ((Şygylary Terjime Eden: Oraz Yagmyr; kitabıneşiretayyarlan: İsmet Çetin); Ankara 2014.
14. Fuad Köprülü Anısına II. Türk Dili ve Edebiyatı Öğretimi Sempozyumu Bildirileri, (Ed.
15. İsmet Çetin, -Halil Çeltik), Ankara 2017.
16. Kızıl Sürgün, Ankara, 2017.
17. Umay Ana'dan Umay Hoca'ya Prof. Dr. Umay Günay Türkeş'e Armağan, (Ed. İsmet ÇetinBülent Gül); Ankara 2019.
18. Kızılelma, Ankara (2007, 2011, 2017, 2019)
19. Türk Halk Edebiyatı -Genel Bilgiler-,(Editör İsmet), Ankara 2020, s.131-259.
20. Türk Halk Hikâyeciliği -Türkiye Sahası-, Ankara 2020.
21. Bilge Tonyukuk Anısına Iıı. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatları Öğretimi Sempozyum Bildirileri, (Ed. İsmet Çetin, -Halil Çeltik), Ankara 2021.
22. Türk Halk Hikâyeleri, İstanbul 2022.
23. Said Halim Paşa, Buhranlarımız, (Halil ÇELTİK ile birlikte), Ankara 2022.
24. Cumhuriyetin 100 Yılına Bakış, (Ed. İsmet Çetin), Ankara, 2024.
25. 2023 14. Türk Dünyası Şiir Antolojisi Azerbaycan Şiiri, (Ed. İsmet Çetin-Erdoğan Uygur), Ankara 2023.
26. 2023 20. Türk Kültüründe Mevlit Geleneği, (Ed. İsmet Çetin– Bilal Kemikli) Ankara 2023.

NOSHIRLIK FAOLIYATI:

1. Cumhuriyetin 100. Yılında Türk Edebiyatı Çalışmaları, Cumhuriyetin 100 Yılına Bakış, Editör İsmet Çetin, TKAE, Ankara, 2024.
2. 100. Yılda Gazete Yazılarında Cumhuriyet, Cumhuriyetin 100 Yılına Bakış, Editör İsmet Çetin, TKAE, Ankara 2024, s.439-450.
3. Türk Kültüründe Mevlit Geleneği, Türk Kültüründe Mevlid Geleneği, Editör Bilal Kemikli, TUBA, Ankara 2023, s.238-255.
4. Bulud Karaçorlu Sehend, Türk Dünyası Şiir Antolojisi Azerbaycan Şiiri, Editörler İsmet Çetin&Erdoğan Uygur, Türk Dil Kurumu, Ankara 2023, s.283-300.
5. Ahmed Cavad, Türk Dünyası Şiir Antolojisi Azerbaycan Şiiri, Editörler İsmet Çetin&Erdoğan Uygur, Türk Dil Kurumu, Ankara 2023, s.79-106.
6. Türkiye'de Mevlit Törenleri, Türk Dünyasında Mevlit Geleneği, Editör İsmet Çetin, Türk Dil Kurumu, Ankara 2023, s.197-214.
7. Şehriyar, Türk Dünyası Şiir Antolojisi Azerbaycan Şiiri, Editörler İsmet Çetin&Erdoğan Uygur, Türk Dil Kurumu, Ankara 2023, s.127-149.
8. Semed Vurgun, Türk Dünyası Şiir Antolojisi Azerbaycan Şiiri, Editörler İsmet Çetin&Erdoğan Uygur, Türk Dil Kurumu, Ankara 2023, s.159-174.
9. Türk Kültüründe Bir İnanç Sembolü Olarak Geyik Motifi, Prof. Dr. Zuhal Yüksel'e Armağan, Editör Işılay Işıktaş Sava, Bengü, Ankara 2023, s.230-239.
10. Vakfı, İstanbul 2022, s.322-351.
11. Nesimî'nin Şiirlerinde Hz. Ali Tasavvuru, Prof. Dr. Mehman Musaoğlu Armağanı, Editörler M. Fatih Kirişçioğlu&Cemile Kınacı Baran&Orhan Badane, Bengü, Ankara 2022, s.178-188.
12. Alacahanlı Bir Şair: Fahimî (Kaynar Hoca), Kangal Araştırmaları, Editörler Hüseyin Cılga&Cahit Can Kangal, T.C. Kangal Belediye Başkanlığı, Ankara 2022, s.710-721.
13. Halk Hikâyelerinde Toplumsal Kurallar Ve Evlilik, Hamza Zülfikar Armağanı, Editör Musa Çifci, Türk Dil Kurumu, Ankara, 2022, s.173-186.
14. Türk Halk Hikâyeciliği Hakkında, Türk Dünyası Dil, Kültür ve Edebiyat İncelemeleri, Editör Ezgi Sırtı, Türk Dili Derneği, İstanbul 2022, s.67-82.
15. Kızılelma Neresi: Kültürel Belek Aktarımı, Prof. Dr. Nazım Hikmet Polat'a Armağan, Editörler Tayfun Haykır&Dinçer Apaydın&Merve Akbaş, Türk Edebiyatı Vakfı, İstanbul 2022, s.525-538.
16. Anlatıcıda Dönüşüm: Fütüvvet ve Ozandan Meddaha Anlatıcı, Geçmişten Geleceğe Köprü Ahilik ve Ahi Evran Kitabı, Editörler Mehmet Fatih Köksal & Erşahin Ahmet Ayhün & Esma Türkmen & Saniye Aybüke Vardar, Türk Ocakları Eskişehir Şubesi, Eskişehir 2022, s.200-209.
17. Kadı Burhaneddin'in Şiirlerinde Dönemin Kültür Unsurları, Metin Ekici Armağanı, Editörler Selami Fedakar & Muvaffak Duranlı, Ege Üniversitesi Yayınları, İzmir 2022, s.611623.
18. Şah İsmail (Hatayi) Şiirlerinde Tarihi Kişilikten Tanrısalığa Hz. Ali, Hüseyin Özbay'a Armağan, Editörler Mustafa Kurt & Aliye Uslu Üstten, Kurgan Edebiyat, Ankara 2021, s.101108.
19. Hacı Bektaş Veli Velayetnamesinde Yer Alan Bazı Mitik Motifler Üzerine, Hacı Bektaşı Veli, Editörler H. Sarı & Y. Koşar, İdeal Kültür, İstanbul 2021, s.215-231.
20. Halk Hikâyelerinde Toplumsal Kurallar ve Evlilik, Hamza Zülfikar Armağanı, Editör Hatice Yazıcı Malkoç, Türk Dil Kurumu, Ankara 2021, s.173-186.
21. Hz. Ali Cenknâmelerinde Tipler ve Şahıs Kadrosu, Эътиқод Ва Софлик ОвозиАкадемик Тўра Мирзаевнинг 85 Йиллигига Бағишланади, Жаббор Эшонқулов, Editör Tafakkur Tomchıları, Taşkent 2021, s.301-307.
22. Arkadaşlık ve Türk Anlatılarına Yansıması, Himmet Biray Armağanı-Ahde Vefa, Editörler

N. Biray & S. Eynel, Kesit, İstanbul 2021, s.293-302.

23. Şair, Sürgün, Kırgın ve Özgürlük, Türk Dünyası 30 Yıllığı, Editörler Y. Gürler & G. Akangin, Atayurt, Ankara 2021, s.119-131.

24. Bir Kasaba Aydını: Abdurrahim Fahimi ve Merkezi Otorite, Doğan Kaya Armağanı, Editörler S.S. Yılmaz & H. Çelikten & E.K. Çelikten, Vilayet Kitabevi, Sivas 2021, s.471-490.

25. Türkiye'deki Akademik Çalışmalarda Töre Mirzayev, Эътиқод Ва Софлик ОвозиАкадемик Тўра Мирзаевнинг 85 Йиллигига Бағишланади, Жаббор Эшонқулов, Editör Tafakkur Tomchıları, Taşkent 2021, s.301-307.

26. Türk Dili ve Edebiyatı Öğretmenlerinin Türk Dili ve Edebiyatı Eğitiminde Tür Merkezli Yaklaşıma İlişkin Görüşleri, Editörler Çetin İ. & Aslanel Ö., Halk ve Bilim Arasında Bir Ömür, Prof Dr. İsmail Görkem Armağanı, Editörler Erhan Çapraz & Betül Görkem & Recep Tek & Erol Aksoy & Uğur Başaran & Nilgün Aydın, Kömen, Konya 2020, s.235-248.

27. Kemal Muallim Olmasaydı Ne Olardı?-Türk Halpk Hikayelerinde Kadın Tipolojisi, Mitolojinin Elçisi Kemal Abdulla Armağanı, Editör Ahmet Bican Ercilasun, Türk Edebiyatı Vakfı, İstanbul 2020, s.195-202 (Ayşe Yücel Çetin ile birlikte).

28. Âşık Edebiyatı, Türk Halk Edebiyatı -Genel Bilgiler-, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2020, s.131-259.

29. Köy Kitapları, Prof. Dr. Vahit Türk Armağanı, Editör Prof. Dr. Ali İhsan Öbek & Prof. Dr. Yüksel Topaloğlu vd., Kesit, İstanbul 2020, s.1063-1073.

30. Toprakla Tedavi: Evliya Mezar Toprağı Örneği, Toroslardan Tanrı Dağlarına Türk Halk Biliminin Ulu Çınarı Prof. Dr. Ali Berat Alptekin Armağanı, Editörler Esma Şimşek & Hatice İçel & Selçuk Peker & Atiye Nazlı, Kömen, Konya 2019, s.429-437.

31. Âşık Edebiyatı, Türk Halk Edebiyatı-Genel Bilgiler, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2019, s.131-257.

32. Tük Edebiyatının Sınırları ve Atsız, Atsız Armağanı, Editör Saadettin Yağmur Gömeç, Altınordu, Ankara 2017, s.93-102.

33. Dinî Lider Örneği: Hz. Ali ve Yedi Ulu Ozan, Kaygusuzun Bilge Torunu Abdurrahman Güzel'e Armağan, Editör Hamiye Duran, Türk Kültürü Araştırmaları, Ankara 2016, s.85-96.

34. Dil ve Edebiyat/ Türk Edebiyatı ve Dil ve Anlatım Dersleri Programları ve Amaçları, Dil ve Edebiyat Öğretim Yöntemleri, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2015, s.35-44.

35. Öğretim Yöntem ve Teknikleri, Dil ve Edebiyat Öğretim Yöntemleri, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2015, s.317-336.

36. Eğitim Öğretimde Planlama, Dil ve Edebiyat Öğretim Yöntemleri, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2015, s.355-376.

37. Türk Dili ve Edebiyatı Öğretiminin Yasal Temelleri, Dil ve Edebiyat Öğretim Yöntemleri, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2015, s.23-34.

38. Kuruluşa Örnek Bir Tip: Tursun Fakih, Prof. Dr. Erman Artun Armağanı, Editörler Refiye Şenesen & Zekiye Çağımlar, Öz Baran Ofset, Adana 2015, s.136-145.

39. Türk Edebiyatı– Dil ve Anlatım Derslerinin Bilgisayar Destekli Eğitime Göre Düzenlenmesi, Dil ve Edebiyat Öğretim Yöntemleri, Editör İsmet Çetin, Nobel, Ankara 2015, s.209-229.

40. İlk Dönem Mesnevi Edebiyatı ve Tursun Fakih'in Mesnevileri, Yaşar Kalafat Armağanı, Editör İsmet Çetin, TKAE, s.97-104, 2014.

41. Türk Destanlarında Kahraman Kalıbı-Kahramanın Eğitimi-, Türk Halk Edebiyatı İncelemeleri Saim Sakaoğlu Armağanı, Editör Metin Ergun, Türk Kültürü Araştırma Enstitüsü, Ankara 2013, s.187196.

42. Türk Yazıcılığı: Cenkname/Gazavatname Türü Eserler ve Yazıcıları, Bengü Bitig Dursun

Yıldırım Armağanı, Türk Kültürü Araştırma Enstitüsü, 2013, s.213-221.
43. Destandan Hikâyeye Hz. Ali Cenknameleri, Anadolu'da Aleviliğin Dünü ve Bugünü, Editör Halil İbrahim Bulut, Sakarya Ünv. Yay., Sakarya 2010, s.379-403.
44. Kazak Türkleri Arasında Yaşayan Mistik Anlatmalar, Prof. Dr. Abdurrahman Güzel'e Armağan, Editör İsmet Çetin, Gazi Ünv., Ankara 2004, s.2-4.
45. Türk Halk Edebiyatında Hz. Ali, Tarihten Teolojiye İslam İnançlarında Hz. Ali, (Ed. Ahmet Yaşar Ocak), Ankara 2005. 193-215.
46. Dil-i Gam Yahya Bey ve Aşık İslam Erdener, Türk Folklorundan Derlemeler I 1986/1, .,
47. Editör, Kültür Bakanlığı, Ankara 1986, s.39-65.

MAQOLALAR:

1. Âşık Selmanî Üzerine S:43 (Haziran 1984;Temmuz 1984,), s.25-29, 22-24
2. Cansever, Size, Y:7, S:146 (Aralık1985), s.30-31
3. II. Geleneksel Tiyatro Festivali, Türk Folkloru, S:76 (Kasım 1985), s.42
4. Hayatta Olmayan Âşıkların Yayılma Alanları ve Erzurumlu Emrah, Erciyes, S:102
5. (Haziran1986), s.10-15
6. Alacahan (Sivas)'dan Derlenmiş Bir Masal: Abdi İle Sapdi, Türk Folkloru, C:8, S:88, Kasım 1986, s. 29– 31.
7. Sülâle lakapları, Türk Folkloru, S:77 (Aralık 1985), s.29-34
8. Âşık Çakır, Türk Folkloru, S:80-81 (Mart –Nisan 1986), s.87-89
9. Şairlerimiz ve Halk Hikâyelerimiz, Milli Folklor, C:1, S:8 (Aralık 1990) s.37-39 Türk Halk Hikâyelerini Tarihi Gelişimi, Milli Folklor, 6, (Yaz 1990), 35-36.
10. Türk Halk Hikâyelerinin Tarihî Gelişimi, Millî Folklor, C:1, S:6 (1990),
11. Papaz Velentina, Millî Folklor, C:2, S:9 (Bahar 1991), s.35-36
12. Azerbaycan ve Âşık Valeh, Milli Folklor, C:1, S:5 (Mart 1991), s.10-11
13. Orta Asya Türk Kültüründe Efsun ve Efsun Törenleri, Millî Folklor, C:2, (1991)
14. Elifnâmeler ve Sefil Ali'nin bir Elifnâmesi, Millî Folklor, C:2, S:16 (Kış 1992), s.39-43 Dede Korkut'un Yaşadığı Dönem Hakkında, Millî Folklor, C:3, S:17 (Bahar 1993) s.43-45 ve C:3, S18 (Yaz), S.29-32
15. "Bab (Baba)/Ata Tradition in Turkish Culture", Milli Folklor , S.76, Ankara 2007, s.70-75.
16. "Destanî Hicviyeye Dair", GÜ Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi– Dr. Himmet Biray Özel Sayısı , C.11, S.11, Ankara 2024, s.11-15.
17. "Kitab-ı Dede Korkut ve Gayri-Selis Mantık", Türk Dili , S. 857, Ankara 2023, s.107-109.
18. "Kitab-ı Dede Korkut ve Gayri-Selis Mantık", Türk Dili , C. 6, S. 859, Ankara 2023, s.108-110.
19. "Çubuk Yöresi Masallarında Demonik Bir Varlık "Dev", Türk Kültürü , C.16, S.1, Ankara 2023 (Ayşegül Dirican ile birlikte).
20. "Taşkent'ten İstanbul'a Bir Aydın Yolculuğu: Abdullahzâde Tevekkül Babür", Adabiy Meros , C.7, S.1, Taşkent 2023, s.46-49.
21. "Memleket Sevdalısı Akademisyen: Cemal Kurnaz", Journal of Turkish Studies , C.16, S.1, Ankara 2023, s.45-47.
22. "Halk Hikâyeleriyle İlgili Bir Hasbihal", PRUEBAS, C.15, S.131, s.1, 2023 (Hakemli 9.) "Kahramanlık, Türk Destan Kahraman Tipi ve Hz. Ali", TÜRKDAM, C.1, S.1, 2022, s.6-13.
23. "Әдебиетті Оқытудың Әдіснамалық Негіздері", Кдыралиева Ж., Ерахметқызы Ж.
24. "Bulletin of the National Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan", C.6, S.400, 2022, s.120-129.
25. "Kutadgu Bilig As A Source Of Values Education", Turkologiya , S.1, 2020.

26. “Elektronik Ortamda Kovid-19 Salgın Edebiyatı (Şiir Örneği)”, Avrasya Dil Eğitimi ve Araştırmaları Dergisi, C.4, S.1, 2020, s.1-18.

27. “Türkiyem Şiirinin Fikrî Temelleri ve Öğretmen Algısı”, Türk Kültürü, C.11, S.2, 2018, s.57-70 , (E. Baş ile birlikte).

28. “Oğuzculuk/Türkmencilik”, Devlet, 2017.

29. “Stratejik Bir Alan Olarak Türk Dili ve Edebiyatı Eğitimi”, Türk Kültürü Araştırmaları, C.9, S.2, 2016, s.58-67.

30. “Türklük Bilimi ve Sthit Thompsen”, Erciyes , C.39, S.454, 2016, s.10-13.

31. “Türkiye ve Amerika’da Dil-Edebiyat Öğretimi”, Dil ve Edebiyat Öğretimi, S.17, 2016 , (A. D. Eskimen ile birlikte).

32. “İlk Dönem Mesnevi Edebiyatı ve Tursun Fakih in Mesnevileri”, Türk Kültürü Araştırmaları, 2014.

33. “Dede Korkut Hikâyelerinde Anlatıcı Tipolojisi”, Türk Kültürü Araştırmaları Dergisi, C.20101, S.1, 2010, s.10-21.

34. “Türkiye ve İngiltere’de Edebiyat Öğretimi”, Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi (GEFAD), 2010, s.397-412 , (Y. Uzun ile birlikte).

35. “Türkiye de Türkiye Dışı Türk Edebiyatlarının Öğretimi”, Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi-Abdulkerim Abdulkadiroğlu Özel Sayısı– , 2007, s.136-143.

36. “Türk Mitinde Kut İyesi Kıdır ve Medeniyet Değişikliğinde Kıdır’dan Hızır’a Geçiş”, Milli Folklor, S.54, 2002, s.30-34.

37. “Türkistan Merkezli Türkiye Türkçesi Öğretimi”, Türk Yurdu, 2001.

“Destani Hicviyeye Dair”, Gazi Eğitim Fakültesi Dergisi-Himmet Biray Özel Sayısı, 1996, s.161-168.

38. “13. Yüzyıldan Günümüze Yunus Emre”, Mili Kültür , S.80, 1991, s.60-64.

39. “Göktürk Kitabelerinde İsimleri Geçin Hayvanlar”, TFA , 1986, s.123-141.

40. “Türk Kurultayları Dil Politikaları Ve Sonuçları”, XVIII. Uluslararası Büyük Türk Dili Kurultayı Bildiriler Kitabı (25 – 28 Eylül 2023), Ankara, s.209-219.

41. “Oğuznamelerde Yer Alan Kadın Konulu Atasözleri Üzerine Bir İnceleme”, 1. Uluslararası Türk Kültürü Sempozyumu (3 Ekim 2022), Ankara, C.1, s.335-344 (E. Kılıç ile birlikte).

42. “Kültür Politikaları, Âşıklık Geleneği Ve Bir Sembol: Âşık Veysel”, “Zamonavıy Baxshıchılık San’atı: Oltın Merosnıng Yangı Ohangları” III Xalqaro İlmiy-Amaliy Konferensiya, Guliston, (06 Mayıs 2023), Özbekistan, C.1, s.81-88.

43. “Gelenek, Kimlik ve Mevlit”, Türk Kültüründe Mevlit Geleneği Uluslararası Sempozyumu, (25 Ekim 2022), Sivas, s.25-29.

44. “Türkiye Türkçesi Öğretimi Ve Türkiye Algısı: Kolombiya Örneği”, XVII. Uluslararası Büyük Türk Dili Kurultayı, (25 Eylül 2022), Ankara, s.86-96.

45. “Türkiye’de Folklor Çalışmaları”, I. Uluslararası Avrupa ve Akdeniz Havzası’nda Türkoloji’nin Dünü ve Bugünü Çalıştayı, (12 Aralık 2022), Rouen, Fransa, 12 Aralık 2022.

46. “Sözlü Kültür ve Kültürel Strateji”, 4. Uluslararası Türk Dünyası Eğitim Bilimleri ve Sosyal Bilimler Kongresi, (24 Ekim 2022), Antalya.

47. “Katun’dan Bacı’ya Göktürk Bengütaşları’ndan Cenknamelere Kadın Tipi”, Türk Dünyasında Alp Kadın Uluslararası Sempozyumu, (08 Mart 2022), Ankara.

48. “Muharrem Zeki Korgunal’ın Sanat Görüşünde Halk Eğitimi”, Genç Araştırmacılar Kongresi, (28 Haziran 2021), Ankara, (Z. Merdin ile birlikte).

49. “Bulud Karaçorlu Sehend’in Şiirlerinde Yinelemeler Ve Koşut Yapılar: Deyişbilimsel (Üslûpbilimsel) Bir İnceleme”, XII. Uluslararası Dünya Dili Türkçe Sempozyumu, (21-23 Ekim

2020), Ankara, (Z. Shirizad ile birlikte).

50. “Battalname’de Kadın Tipolojisi”, XII. Uluslararası Dünya Dili Türkçe Sempozyumu, (21-23 Ekim 2020), Ankara, (Ö. Emine ile birlikte).

51. “Ana Dili Türkçe Olmayanlara Türkçe Öğretiminde Telaffuz Problemi”, Prozodi (Bürün Bilimi) Ve Konuşma Çalıştayı, (28 Haziran 2020), Ankara, S.57-66.

52. “Edebiyat, Tenkit, Toplumsal Dönüşüm Ve Siyasetnâmeler: Kutadgu Bilig Örneği”, Yazılışının 950. Yılı Anısına Uluslararası Kutadgu Bilig Ve Türk Dünyası Sempozyumu, (0305 Ekim 2019), Ankara.

53. “Kutadgu Bilig’de İdeal İnsan Tipolojisi: Kahraman”, XIV. Uluslararası Büyüktürk Dili Kurultayı Bildirileri Kitabı, (26-27 Eylül 2019), Bakü, Azerbaycan, S.304-311.

54. “Kültür Oluşturmada Destanların Önemi”, The International Virtual Symposium of Innovations in Education and Social Sciences – IVSESS 2019, (03-05 Nisan 2019), Ankara, s.298-305.

55. “Türk Dili ve Edebiyatı Ders Kitabında Yer Alan Ömer Seyfettin’in Yüksek Ökçeler Adlı Hikâyesinin Bağdaşıklık Görünümü Açısından İncelenmesi”, The International Virtual Symposium of Innovations in Education and Social Sciences – IVSESS 201, (03-05 Nisan 2019), Ankara, s.305-317.

56. “20. Yüzyılın Başında Payitahta Taşralı Aydın Bakışı: Abdurrahim Fahimi-Fazlullah Moral”, Her Yönüyle Sivas Kongresinin 100. Yılında Sivas Uluslararası Sempozyumu, (25-27 Nisan 2019), Sivas, s.113-130.

57. “Elektronik Ortamda Mizah ve Mizahi Bir Tip: Baattin”, Türk Edebiyatında Mizah Sempozyumu, (13-15 Mayıs 2016).

58. “Edebiyat, Tenkit, Toplumsal Dönüşüm Ve Siyasetnâmeler: Kutadgu Bilig Örneği”, 5.Uluslararası Sosyal Bilimler Kongresi, (27-30 Haziran 2019), S.487-493.

59. “Turkiyada xalq hıkoyalarınıg o‘zgarıshı va sababları”, Фольклор, тил ва маданият масалаларини илмий ўрганишда фан ва инновациялар уйғунлиги мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция, (05-10 Nisan 2019), Termez, Özbekistan, s.144-147.

60. “The Harmony of And Innivation İn The Study of Folklore, Language And Culture”, Folklor, Dil ve Medeniyet Masalalarının İlmi Ortanışda Fan ve İnnovaçiyalar, (07 Mayıs 2019), Özbekistan, s.144-146.

61. “Üniversite Öğrencilerinin Komik Anlayışı, Fıkra Algıları ve Fıkraların İşlevi, VIII. Uluslararası Türk Folklor Kongresi, (20-25 Kasım 2011), İzmir, S.33-48.

62. “Kültür Oluşturmada Destanların Önemi”, Uluslararası Eğitimde Sosyal Bilimler Yenilikler Sanal Sempozyumu, (03-05 Nisan 2019), Ankara, (S. Karademir ile birlikte).

63. “İnanca Dayalı Sivil Toplum Kuruluş Sembolleri – Ankara Alevi – Bektaşî Dernekleri Örneği –“, 9. Milletlerarası Türk Halk Kültürü Kongresi-Gelenek Görenek ve İnançlar, (20-22 Kasım 2017), Türkiye.

64. “Üniversite Öğrencilerinin Komik Anlayış, Fıkra Algıları ve Fıkraların İşlevi”, 8. Milletlerarası Türk Halk Kültürü Kongresi Türk Halk Edebiyatı, (21-22 Kasım 2011), Türkiye.

65. “Dil Öğretimi Ve Kültürler Arası Etkileşim: Ürdün Örneği”, 2. Türk Dünyası Eğitim Bilimleri Ve Sosyal Bilimler Kongresi, (7-08 Aralık 2018), (E. Aktan Karakuş ile birlikte).

66. “Türk Dili Ve Edebiyatı Öğretmen Adaylarının Sözlü-Yazılı Anlatım Dersi Sürecinde Hazırlıksız Konuşma Becerilerinin Değerlendirilmesi”, 2. Uluslararası Sosyal Bilimler Eğitimi Sempozyumu, (30 Ekim-01 Kasım 2018), (Ş. Altınok ile birlikte).

67. “Âşık Tarzı Edebiyat Geleneği Ürünlerinde Dostluk, Dürüstlük, Özdenetim, Vatanseverlik, Yardımseverlik Değeri”, III. Uluslararası Değerler Eğitimi Kongresi, (5-06 Nisan 2018), S.49, (Ö. Çağlayan ile birlikte).

68. “Latin Asıllı Türk Alfabesinin Kabulü ve Erken Cumhuriyet Döneminde Türk Dili ve Edebiyatı Derslerine Yansıması”, XIII. Uluslararası Büyüktürk Dili Kurultayı, (25-28 Eylül 2018), S.109-115.

69. “İnanç Sembolleri ve Öğrenci Algısi”, IV. Uluslararası Alevilik ve Bektaşilik Sempozyumu, (18-20 Ekim 2018).

70. “Keçeci Baba’nın Bektaşi Kültüründeki Yeri”, IV. Uluslararası Alevilik Ve Bektaşilik Sempozyumu, (18-20 Ekim 2018), (S. Karademir ile birlikte).

71. “Türk Kahramanlık Destanlarında Yer Alan Değerler Üzerine Bir İnceleme: Kurmanbek Destanı Örneği”, II. Uluslararası Sosyal Bilimler Eğitimi Sempozyumu, (30 Ekim-01 Kasım 2018), Çanakkale, S.152-159, (G. Keskin ile birlikte).

72. “Türk Dili Ve Edebiyatı Öğretmen Adaylarının Sözlü-Yazılı Anlatım Dersi Sürecinde Hazırlıksız Konuşma Becerilerinin Değerlendirilmesi”, II. Uluslararası Sosyal Bilimler Eğitimi Sempozyumu, (30 Ekim-01 Kasım 2018), Çanakkale, (Ş. Altınok ile birlikte).

73. “Destandan Hikâyeye Alptan Aşığa Köroğlu”, 7. Köroğlu Sempozyumu, (17-19 Kasım 2018), Türkiye.

74. “Manhol-Un Niuça Topça’xxan (Moğolların Gizli Tarihi) Adlı Eserde Türk Mit Ve Destan Unsurları”, Orhun’dan Anadolu’ya Uluslararası Türkoloji Sempozyumu, (01-07 Haziran 2018), Ulanbatur, Moğolistan, C.1, S.556-571.

75. “Hıfzı’nın Şiirinde Çevre/Tabiat”, Ölümünün 100. Yılında Kağızmanlı Hıfzı Uluslararası Sempozyumu, (07-09 Nisan 2018), Kars.

76. “Yokluktan Yoksulluğa Bir Portre: Yoksul Derviş ve İdeal İnsan Tasavvuru”, 8. Uluslararası Afyonkarahisar Araştırmaları Sempozyumu, (05-07 Nisan 2018).

77. “Türkiye’de”, Bolu’dan Türk Dünyasına Köroğlu Çalışmalarının Dünü, Bugünü, Yarını Uluslararası Çalıştayı, (15-16 Eylül 2017).

78. “Türk Dili Ve Edebiyatı Programlarında Prozodinin Yeri”, 2. Uluslararası Türk Dili Ve Edebiyatları Sempozyumu, (17-18 Nisan 2017), C.329, (Ş. Altınok ile birlikte).

79. “Ödünçlemeden Yerelleşmeye Hikâyeler: Ferhat ile Şirin Örneği”, Uluslararası Amasya Sempozyumu, (4 Temmuz-07 Ekim 2017), s.848-858.

80. “Ticarette Yergi ve Övgü”, Uluslararası 3. Ahilik Sempozyumu, (5-07 Ekim 2017).

81. “Orta Doğu Üniversitelerinde Türkoloji Bölümü Öğrencilerinin Türkiye, Türk Kültürü, Türk Dili ve Edebiyatına Dair Görüşleri: Bağdat Üniversitesi Örneği”, XII. Büyük Türk Dili Kurultayı, (25-28 Eylül 2017)

82.“Halk Hikâyelerinde Kadın Şahıs Kadrosu”, I. Eğitim Bilimleri ve Sosyal Bilimler Sempozyumu, (03-05 Kasım 2017).

83. “Toprakla Tedavi: Evliya Mezar Toprağı Örneği”, Halk Kültüründe Toprak Uluslararası Sempozyumu, (13-15 Ekim 2017).

84. “Türk Anlatı Geleneğinde Destandan Hikâyeye Geçiş ve Değişen Aile”, Altay Toplulukları Sempozyumu, (24-26 Ağustos 2017), s.44.

85. “Halk Hikâyelerinde Erkek Şahıs Kadrosu”, I. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Bilgi Şöleni, (12-14 Mayıs 2017), Erzurum.

86. “Mahtum Kulu Düşüncesinde Türklük”, I. Uluslararası Türkmen Şairi Mahtumkulu Firaki Sempozyumu, (19 Mart 2017), Ankara, S.1, (A. Yücel Çetin ile birlikte).

87. “Türk Dil/Edebiyat Birliği ve Molla Penah Vâkıf”, Ağamusa Ahundov ve Azerbaycan Filologyası Beynel Halk Konferansı, (24-25 Nisan 2017).

88. “Erken Cumhuriyet Dönemi Öğretmen Yetiştirme Politikalsı Ve Öğretmen Sanatkarların Milli Sembolleri Kullanmalarındaki Fikri Altyapı”, Prof. Dr. Fuad Köprülü Anısına II. Uluslar-

arası Türk Dili Ve Edebiyatı Sempozyumu, (17-18 Nisan 2017), (İ. Erbek ile birlikte).

89. "Metin İncelemelerinde Farklılıklar: Tahkiyeli Eserlerde Şahıs Kadrosu", Prof. Dr. Fuad Köprülü Anısına II. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatları Sempozyumu, (17-18 Nisan 2017).

90. "Geçmişten Günümüze Dil Ve Edebiyat Eğitiminde Prozodinin Yeri", Prof. Dr. Fuad Köprülü Anısına II. Uluslararası Türk Dili Ve Edebiyatı Eğitimi Sempozyumu, (17-18 Nisan 2017), (Ş. Altınok ile birlikte).

91. "Dede Korkut ta Örgüt Lider Yönetici ve Fonksiyonları", III: Uluslararası Türk Dünyası Kültür Kongresi, (19-23 Ekim 2015), İzmir, C.1, s.363372.

92. "Dil Davranışları ve Kültürlerarası Etkileşim", XI. Uluslararası Büyük Dil Kurultayı, (26 Ekim-27 Eylül 2016), Budapest, Macaristan, C.1, s.693-699.

93. "Çorum'dan Göç ve Çorumlu Âşıkların Şiirlerine Yansıması", Uluslararası Bütün Yönleriyle Çorum Sempozyumu, (28-30 Nisan 2016), Çorum, C.1, s.213-232.

94. "Medeniyet Değişiminde Kahraman Mit ve Destandan Hikayeye", VI. Uluslararası Köroğlu Sempozyumu, (10-12 Ekim 2016), Bolu.

95. "Oğuzname Ve Vehbi Cem Aşkun'un Oğuz Destanı", Ölümünün 37. yılında Vehbi Cem Aşkun Sempozyumu, (25 Mayıs 2015 – 26 Mayıs 2016), Sivas.

96. "Türk Halk Hikâyelerinde Mekân", Gelenekten Geleceğe Türk Edebiyatı – 2. Türk Dili ve Edebiyatı Kurultayı, (15-17 Nisan 2015), İstanbul.

97. "Medeniyet Değişiminin Anlatılarda İzleri Mitten Hikayeye Aile", Halk Kültüründe Aile Uluslararası Sempozyumu", (25-27 Mart 2016), Edirne.

98. "Gazi Üniversitesi Türkçe Öğretim Araştırma ve Uygulama Merkezi TÖMER Dersleri Öğrencilerin Türk Dili ve Kültürüne İlişkin Görüşleri", X. Uluslararası Büyük Türk Dili Kurultayı, (28 Eylül – 01 Ekim 2015), Sarejova, Bosna-Hersek, C.1, s.740-747.

99. "Dede Korkut Korkut Ata ve Müziği", Düşünce Hayatımızda ve Kültürümüzde Dede Korkut Uluslararası Sempozyumu, (21-22 Mayıs 2015), Bayburt, C.1, s.121-128.

100. "Eflatun Cem Güney in Çalışmalarının Fikrî Yapısı", Masal Babası Eflatun Cem Güney Sempozyumu, (06-07 Haziran 2015), Sivas, C.1, s.35-44.

101. "Nasreddin Hoca Çalışmaları ve Nasreddin Hoca Algısı", Uluslararası Nasreddin Hoca Sempozyumu, (05-07 Temmuz 2015), Akşehir/Konya, s.41.

102. "Veysel'de Değişim İsteği ve Estetik", Dünya Ozanı Âşık Veysel Sempozyumu, (24-25 Mayıs 2015), Sivas.

103. "Mahdumkulu Düşüncesinde Türklük", Uluslararası Mahdumkulı Firaki Sempozyumu, (01 Mayıs 2015), (A. Yücel Çetin ile birlikte).

104. "Türkiye de Azerbaycan Konulu Çalışmalar", Azerbaycanşinaslığın Aktual Problemleri VI Beynelhalk Konferansı, (05-07 Mayıs 2015), Baku, Azerbaycan, C.1, s.243-250

105. "Geleneksel Türk Tiyatrosunda Ticari Hayat ve Tüccar Tipi", Halk Kültüründe İktisat ve Ticaret Uluslararası Sempozyumu, (27-29 Nisan 2012), Şanlıurfa, s.229-240.

106. "Kutsal Su ve Tedavi", Halk Kültüründe Su Uluslararası Sempozyumu, (07-08 Ekim 2013).

107. "Özel Meclislerde Okunan Kitaplar Halk Kitapları", Kültürümüz ve Kitap Sempozyumu, (3 Mayıs-05 Nisan 2007), Türkiye.

108. "Türkiye Üniversitelerinde Türk Halk Edebiyatı Öğretimi", Uluslararası Türk Dünyası Halk Edebiyatı Kurultayı, (26 Mayıs-28 Ocak 2000), s.163-188.

109. "Nevruz Kutlamalarında Ortak ve Benzer Pratikler", Uluslararası Nevruz Sempozyumu Bildirileri, (21-23 Mart 2000), Ankara, s.25-32.

110. "Hazreti Ali Cenknamelerinde Tipler", Türk Halk Kültürü Kongresi, (24-28 Haziran

1996). “Nasreddin Hoca ve Yaşadığı Çevre”, Nasreddin Hoca Sempozyumu Bildirileri, Ankara 1997, s. 6-9.

111. “Manzum Nasreddin Hoca Fıkraları”, Uluslararası Nasreddin Hoca Bilgi Şöleni (Sempozyumu) Bildirileri, (24-26 Aralık 1996), Ankara, s.115-122.

112. “Ziya Gökalp’in Halk Kültürü Halk Edebiyatı Türk Fıkracılığı ve Nasreddin Hoca Hakkındaki Düşünceleri”, Fikri ve Felsefi Yönleriyle Nasreddin Hoca, (11-13 Temmuz 1990), Konya, s.32-43.

113. Hayatın Güzellik İksiri Üç Kelime: Umut-Uyut-Unut, Türk Dili, 2020, Yıl: 69, Sayı: 822, 44-47.

114. Zübeyde, Türk Dili, 2023 Yıl: 72 Sayı: 860, 66-70.

115. Ortak Dert: Türküler, Türk Dili, 2020 Yıl: 69 Sayı: 818, 38-43.

116. Dost, Prof. Dr. Ali Berat Alptekin Armağanı, Konya 2019.

117. Biz, Kurgan, Y:7,S:39 (Eylül-Ekim 2017), s.70-72.

118. Çimento Kâğıdı, TÖRE, S:4 (Mayıs 2012), 40-42.

119. Adı Konulmamış Yazı, Gazi Eğitim Dergisi, Himmet Biray Özel Sayısı, Ankara 1996.

120. Gâvur İcadı, Kurgan, Y:14,S:79 (Mayıs 2024), s.70-72.

121. Hafıza Müzesi Şehirler, Altıncı Şehir, Ekim-Aralık 2001.

122. İki Parçalı Zaman ve Bir Deyim: Yola Gitmek, , Türk Dili, 2021 Yıl: 70, Sayı: 832, 46-50..

123. İlk Günde Biz, Kurgan, Y:17, (Mayıs 2018), s.70-72.

124. Kamal Muallim Olmasaydı Nə Olardı?, Mitolojinin Elçisi Kamal Abdulla Armağanı, İstanbul 2020.

SHAFOAT HASANOVA,
O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, f.f.d.

"QUSH TILI" DOSTONINING TIL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ijodkor mahoratini ochib berishda u yozgan asarning badiiy tilini tadqiq qilish muhim hisoblanadi. Asar tilining fonetik jarangdorlik, grammatik unsurlar, so'zlarning leksik-semantik ma'nolarining o'zgarishi kabi masalalarga asoslanishi muallifning iste'dodidan darak beradi. Rizoiy Payvandiy o'zining "Qush tili" dostonida ana shu masalalarga jiddiy e'tibor qaratgan. Maqolada ijodkorning "Qush tili" asarida so'z tanlash san'ati, doston qahramonlari xarakterini til vositasida nechog'lik ocha bilgani, uning tilga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan qanchalik unumli foydalangani yangi so'z va iboralarni yasashi kabi uning o'ziga xos uslubi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *"Qush tili", Rizoiy, Hudhud, mahorat, so'z san'ati, ma'no, badiiy til, ijodkor, grammatik shakl, obraz.*

Abstract: *Studying the artist's skill, it is important to study the artistic language of the work he has written. The author's talent is indicated by the fact that the language of the work is based on such issues as phonetic sonority, grammatical elements, and changes in the lexical and semantic meanings of words. Rizoi Payvandiy paid serious attention to these issues in his epic "Language of the Birds". The article describes the artist's unique style, such as the art of choosing words in the work "The Language of the Bird", how he managed to use language to reveal the character of the epic heroes, his attitude to language, how effectively he used language resources to create new words and phrases.*

Key words*: "The Language of the Bird", Rizai, Khudhud, mastery, art of words, meaning, artistic language, creator, grammatical form, image.*

Rizoiy Payvandiyning "Qush tili" asari tilini o'rganish ham ijodkorning badiiy mahoratini o'rganishning muhim qismini tashkil etadi. Shu bois ham Rizoiy o'z asarining tiliga – dostonning asosiy qimmatini belgilovchi omillardan biri sifatida alohida ahamiyat bergan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Rizoiy Payvandiy asari tilini fonetik jarangdorlik, grammatik unsurlar va so'zlarning leksik-semantik ma'nolarining o'zgarishi asosiga qurganligi ijodkorning tildan samarali istifoda etganligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan ijodkorning so'z tanlash san'ati, doston qahramonlari xarakterini til vositasida nechog'lik ocha bilgani, uning tilga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan qanchalik unumli foydalanishi va yangi so'z va iboralarni yasashi kabi uning o'ziga xos uslubiy xizmatlari haqida muayyan xulosalar chiqarish mumkin. Payvandiy Rizoiy dostoni badiiy tili tadqiqi asosida shuni aytish mumkinki, ijodkor xalq tili boyligiga, uning turli xil grammatik xususiyatlariga murojaat qilib, ulardan o'z o'rnida samarali foydalangan.

Ma'lumki, Rizoiyning "Qush tili" dostonida ishlatilgan badiiy tasviriy vositalar ham bevosita ijodkor tili bilan chambarchas bog'liq. Asar tilining doston mazmuniga, shoir fikrini o'quvchiga obrazli qilib yetkazishda tildan mohirona foydalanilganligi va natijada ijodkorning asosiy

g‘oyalari obrazli va go‘zal tarzda tasvirlanganligining guvohi bo‘lamiz. Bunday tasvirga san’atkor dostonning asosiy mavzuni tashkil etgan qushlarning Semurg‘ safariga otlanishdan oldin va safar vaqtidagi doston qahramonlari – qushlarning tili individualligi orqali har bir qushning o‘ziga xos yorqin xarakterini yaratishga erishgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Masalan, dostonning bosh qahramonlaridan biri Hudhud tilini olib ko‘raylik. Hudhudning zohiran jozibali, orif, vahdoniyat sirlarini o‘zlashtirgan, faqirlik toji va me’rojiga sazovor xislatlarga ega ishbilarmon, harakatchan, shuning bilan birga so‘zga chechan va boshqalarni o‘z e’tiqodiga ishontira oladigan yo‘lboshchi ekanligini uning tili orqali to‘liq tasavvur qilish mumkin. Qushlar majlis qurishib o‘zlariga adolatli podshoh qidirib topmoqqa qaror qilganliklaridan xabar topgach, Hudhud obrazi sahnada paydo bo‘ladi. Rizoiy uning qiyofasini shunday tasvirlaydi:

هدهد هادی ایشیتکای بو سروش
جلد شاتر تیز یوکورور پیک تاک
ترک اهلی تاک باشیندا تاج فقر
اهل تلوین تاک ملوّن کسوتی
چله لار چیکمیش تمام قیش و کوز
نی یماکدین خلوتیدا دانه ء
شکر جامی بیرله اوزدین ایلا محو
بیر ایاق اوستیدا تونلار اوتکاریب
جبرئیل آسا رسالت دا امین
که سلیماندین سباغه نامه بر
تیکوروب بیلقیسه سالغان ذهم بیم

جمع ارا کیردی اوروب یوز تورلو جوش
چست ایلاب بیلینی تارتیب ایتاک
تاپغای آخر دولت معراج فقر
لیک یتمیش انکا تمکین دولتی
انکلاغان یول نینک بد و نیکین توکوز
ءەن‌امی‌پ ادی‌ش‌ات ن‌ی‌دراچ‌ی‌ا ی‌ن
کیم مکر تابغوسی یوقتور لوی ضحو
شمع تاک اندوه اوتیدین آیریب
حامل تنزیل رب العالمین
که سبادین هم انکا بیرکان خبر
وحی بسم الله الرحمن الرحیم *(16a)*

Mazkur she’riy parchada shoir tilidan ta’riflangan, Hudhudga nisbatan ishlatilgan “Hodiy”, “Chust aylab”, “Chillalar chekmish”, “Shukr jomi”, “Risolatda amin” singari so‘z va so‘z birikmalari Hudhudning individual xarakteriga oid belgilar – hidoyat yo‘liga boshlovchi rahbar, jo‘shqin, sabru bardoshli, qanoatli va dono, shuningdek, Haq taologa muqarrabligi orqali uning ma’naviy dunyosini ifodalagan bo‘lsa, “Tez yugurur”, “Jildi shotir”, “Mulavvan kisvati”, “Tortib etak” so‘z birikmalarini o‘z o‘rnida mohirlik bilan qo‘llab, qahramon xulq-atvorining zohiriy belgilari – chaqqonlik va uddaburonligi, rang-barang qiyofaga ega ekanligini arab, fors va turkiy tillardagi so‘zlardan foydalangan holda tasvirlaydi. Bu o‘rinda Hudhud obrazi asar muallifi nutqi orqali o‘z tasvirini mazmundor va obrazli, shuningdek, ixcham shaklda ifoda etilib, dostondagi g‘oya va asosiy qahramonlardan biri Hudhudning xarakterini to‘laroq ochib berishga va asarning badiiyligini ta’minlashga xizmat qilgan. Doston syujeti rivojining keyingi manzaralarida Payvandiy Rizoiy asar mohiyatini badiiy asar qahramonlarining tili orqali, ularning individual xarakterini ochib berish orqali erishadi. Masalan, Hudhud To‘tining Semurg‘ safaridan bosh tortib gapirgan behuda so‘zlariga javoban uni bu xayolidan qaytarib, Haq yo‘liga chorlaydi.

اولکه ییر و کوککا سیغماس هیچ کاه
سورماکیم آنینک ییری قایدا ایرور
سیندا یوقتور بلکه چون سین سین کونکول
بس سنکا اندین یقینراق بولماغای

انداور کنجایشی بی اشتباه
اول کونکولدادور کونکول سیندا ایرور
کر بو تورلوک بیلماسانک اوزدین کونکول
بو یقینلیق بیله ایراق بولماغای *(31a)*

Mazkur misolda san’atkor Hudhud tilidan uning xarakterini mohirlik bilan yoritadi. Shuningdek, shoirning til omillaridan unumli foydalanganligi iltizom (“ul”, ko‘ngul “sen”

so‘zlarining qayta-qayta takrori), antonimiya (yaqin-yiroq), talmeh (ondin yaqinroq so‘zlari orqali Qur’ondagi “nahnu aqrab” oyatidagi so‘zlarga ishora qilinmoqda) badiiy san’atlarni ham qo‘llab, ularni doston asosiy voqealarining yechimiga qaratgan va o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlovchi mazmunni ifodalovchi shaklning yaratilishiga erishgan.

Bundan tashqari, Rizoiy boshqa qushlarning xarakterini yaratar ekan, ulardagi dunyoqarashning turli-tumanligini ham obrazlar tili va ularning turli xatti-harakatlari orqali ifodalashga alohida e’tibor berganligini kuzatamiz. Masalan, To‘tining Semurg‘ safaridan voz kechib, aytgan so‘zlarini ko‘zdan kechiraylik:

دیدی ای هدهد بو یول دور بیکران قطعی غه عمری کیراک دور جاودان
تاپماسا سالک بو یولده عمر نوح تاپماس ابواب سعادتدین فتوح
چون تجلی کا نهایت یوقتورور بس سلوک کا جدَّ غایت یوقتورور
هر زمان طاووس تاک سیمورغ فاش کورکوزور هر بیر یریندین بر قویاش
بس بو بیش کون عمر کا ییتمای زوال اول قویاشلار توغماغی بولغای محال
چشمهء حیوان دین ایچمای بیر دم آب اول قویاش نینک بیری توغماس بی حجاب
اول که بو یول قطعین ایستار خضرتاک انکا اول جاودان عمری کیراک
عمردا قورغیل بو یولدا ساز برک یوقسا قویماس اوتکالی شاهین مرک
یولغه حیوان سوین ایچمای بیش و کم قانیم او بوینومغه کر قویسام قدم

Yuqoridagi parchadan shu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadiki, Rizoiy she’rini go‘zal va ravon, ta’sirchan va hayajonli qilgan narsa, bu badiiy til vositalarining qahramonning ichki kechinmalari izhor etilayotgan ruhiga xos til bilan mutanosiblikda bayon etilganligi.

Rizoiyning bu she’rida takrorga, ya’ni iltizom san’atiga alohida urg‘u berilib, original musiqiy bir ohangning vujudga kelishiga erishilganki, san’atkor bu takror orqali, eng avvalo, diqqat-e’tiborni mazmunni yorqin ifoda qilishga qaratgan bo‘lsa, ikkinchidan she’r ta’sirini kuchaytirishning o‘ziga xos yo‘lini topgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz.

She’rdagi “yo‘l” so‘zining besh bor takrori asosiy mazmun Semurg‘ safari haqida borayotganligining ta’kidiga qaratilgan. “Umr” so‘zining ham besh bor takrori to‘tining bu safardagi g‘alat fikrlarini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. “Quyosh” so‘zining to‘rt bor takrori Semurg‘ visoliga erishishning mushkulligi alohida ta’kidlayapti. “Chashmai hayvon”, “Hayvon suyi” iboralari esa mazkur mazmunni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, san’atkor bu so‘zlar orqali yana iltizom san’atini qo‘llaydi va o‘quvchi diqqat e’tiborini afsonaviy voqealarga qaratish uchun talmeh san’atidan foydalanadi. She’rning ikkinchi baytidagi “Umri Nuh” iborasida ham ana shu (talmeh) san’at ishlatilganligini ko‘ramiz. Qolaversa, “Chashma” so‘zini bir o‘rinda forschasini, ikkinchi o‘rinda uning o‘zbek tilidagi (suy) muqobilini qo‘llab, o‘ziga xos she’r shakliga rang-baranglik baxsh etilgan.

Bulardan tashqari, mazkur she’rda yana qator san’atlar qo‘llanilganki, ular orasida bir o‘zakdan iborat bo‘lgan so‘zlarning turli grammatik shakllarda kelishi o‘quvchini yanada mahliyo etadi. Buni she’rda keltirilgan “Solik va suluk” so‘zlari misolida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Umuman olganda, yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan bu go‘zal baytlarning har bir misrasi o‘zining musiqiy ohangi bilan asar mohiyatini, qahramon ruhiyatini va uning lirik holatini ifodalashga qaratilganligi bilan o‘ziga xos mazmun kasb etadi.

Payvandiy Rizoiy dostonda turli badiiy san’atlardan foydalanish bilan birga, qofiya va vaznga ham alohida ahamiyat bergan. San’atkor doston tilining ravon va mazmundor bo‘lishi maqsadida qofiya va radiflardan unumli foydalanib, ularning rang-barang turlarini qo‘llash orqali

doston tilining ravonligi va ifodaliligiga erishgan. Masalan, dostonning boshlanishida o‘ziga xos grammatik qurilishga ega bo‘lgan “ایلاکان” o‘tgan zamon fe’lini radif o‘rnida qo‘llab, chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lgan baytni obrazli qilib ifodalab uni badiiyat namunasiga aylantirgan:

ای جهاننی یوق ایکاج بار ایلاکان
قدرتی ذاتینی اظهار ایلاکان

Shu o‘rinda san’atkorning birinchi misrada xalq tiliga yaqin bo‘lgan ایکاچ “ekanda, bo‘lganda” ma’nosidagi so‘zlarning qisqartirilgan shaklini qo‘llab, birinchidan she’r vaznini saqlashga muvaffaq bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchidan “j”, “ch” jarangli tovushlaridan tarkib topgan so‘zlarni ishlatib, asar tilining mungli bo‘lishligini va mazmunning teran ifodalanishiga muvaffaq bo‘lgan. Rizoiy stilistikasidagi ijodiylikning asosini ham mazkur xususiyatlar tashkil etgan, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Chunki san’atkorning “Qush tili” dostonini yaratishdagi izlanishlariga nazar tashlar ekanmiz, uning o‘zbek adabiy tilidan keng foydalanganligi va shuning bilan birga xalq og‘zaki ijodining cheksiz imkoniyatlaridan ham to‘la istifoda qilganligining guvohi bo‘lamiz.

Rizoiy Payvandiy Semurg‘ safariga otlanayotgan va dostonga kirgan hikoyatlardagi ijobiy qahramonlarni ham, salbiy qahramonlarni ham o‘zlariga xos tilda gapirtiradi. Shu sababli dostondagi har bir qahramonning xarakteri uning xulq-atvori va so‘zlagan nutqidan anglaniladi. Shoir til boyliklarini qahramonlarning xarakteriga moslab ishlatadi. Lekin ularning har birining tili obrazli va ularning so‘zlari ham o‘zlariga xos va rang-barangdir. Masalan, qushlarning Semurg‘ safaridan birma-bir bosh tortishayotgan va Hudhudning qushlarni yanglish fikrlaridan qaytarib, ularni hidoyat yo‘liga chorlayotgan o‘rinlardagi san’atkorning hikoyatni yorqin tasvirlashidan o‘z qahramonlarining ichki dunyosini diqqat bilan o‘rganib chiqqanligi, ularning har birining ruhiy holatlarini ifoda etishda tildan naqadar ustalik bilan foydalanganligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Quyidagi Tovusning Semurg‘ vaslidan kechib, jannat talabida bo‘lib safardan voz kechganligi tasvirlangan lavhaga e’tiborni qarataylik:

قودیلار جنت دین آدم تاک منی — ایکری اول حسرت بیله ایمکاک منی
اول مثمن باغدین بی اختیار — بولدی ییریم بو مسدس خوار و زار
ایدیم اولکونچه بودور حسرت منکا — کیم مقام اولغای ینه جنت منکا
جلوه دا جنت هوس ایلاب خیال — دم بدم کوزدین آقار قان یاشیم آل
آتشین گولنی کیم اوتتاک یاقولور — ساغینیب کوزومدین اوتلار چاقیلور
چون منکا جنت ایرور مقصود بس — نی ایتای سیمورغا ییتماکلیک هوس
یوقتورور اول چاقلیق منی یازدی بال — کیم انکا ییتماکلیک ایتکایمین خیال

Tovusning bu uzrini eshitib Hudhud uni oliy himmat va davlatga chorlaydi:

همت اول دور کیم تیلار سیمورغ بس — قیلماسانک کر بولسه جنت ملتمس

هر نی کیم موجود ایرور غیر از خدای — قول چیکیب اوزسانک باریغه پشت پای
کر بو همت ساری میلی دور سنکا — دنی و عقبا طفیلی دور سنکا
اول که همت جامی بیرله بولسه مست — جنت اعلی ایرور الیندا پست
بادهء جنت غه میلی قیلماغای — شربت وصل ایچمایین آییلماغای

Yuqoridagi Tovusning uzri va Hudhudning unga javobi bayon qilingan parchaga diqqat bilan e’tibor qiladigan bo‘lsak, birinchisida Tovusning jannatdan quvilib xasrat chekayotganligi, jannatni qo‘msayotganligi parchaning mohiyatini tashkil qiladi. Shu bois ham san’atkor unda “jannat” bilan “hasrat” va “etmaklik” so‘zlarini bir necha bor takrorlash orqali asosiy diqqatni

shu so‘zlarga qaratmoqda va Tovus uchun Semurg‘ visolidan ko‘ra jannat afzalligini bo‘rttirib ko‘rsatishning o‘ziga xos usulini qo‘llagan. Bundan tashqari, jannatga nisbatan “musamman bog‘” va yerga nisbatan “musaddas xorzor” iboralarini olti va sakkiz raqamlarining ramziy ma’nolariga ishora qilgan holda o‘ziga xos qiyos orqali uning maqsadi faqat jannat ekanligiga alohida urg‘u berilmoqda. Ikkinchisida esa, “Semurg‘”, “Xudo”, “Himmat”, “Bodai jannat”, “Sharbati vasl” so‘z va iboralari alohida ajratilgan holda qo‘llanib, asosiy urg‘u Tovusning jannat talabi istagidan qaytarib, uni Semurg‘ visoliga erishish safariga chorlamoqqa qaratilgan va unda ham o‘ziga xos o‘xshatishlar, mubolag‘a, kinoya va iboralar qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz. Shu tariqa barcha qushlar asar voqealari davomida Semurg‘ safari haqidagi ong va tushunchalarini o‘zgartirib boradilar. Muhimi, san’atkor ham ularning ruhiy holatlariga qarab, ularning ichki kechinmalarini ham shunga moslab yoritadi.

Mana shu ikki-uch misolning o‘zidanoq Rizoiy “Qush tili” dostonining tili o‘zining mohiyati bilan jozibali va rang-barang ekanligini ko‘rsatib turibdi. Unda har bir so‘z, so‘z birikmalari va maqol va matallar, Qur’oniy iqtiboslar o‘rinli ishlatilgan. Dostondagi qahramonlarning har biri o‘zining individual tiliga ega. Dostondagi qoliplovchi hikoyat va unga kirgan rivoyat va hikoyatlardagi voqea va hodisalar, qahramonlar xarakterlarining o‘sishi va o‘zgarib borishi bir-birlari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanib boradi. Aytish mumkinki, Payvandiy Rizoiyning “Qush tili” dostoni diniy-tasavvufiy adabiyotning rivojiga ma’lum hissa bo‘lib qo‘shilishi bilan birga asar tilining ravon va jozibadorligi va ijodkor uslubining ham o‘ziga xosligi, shuningdek, shoirning o‘zbek adabiy tilini boyitish ishiga qo‘shgan hissasini aniqlash jihatidan ham uni har tomonlama chuqur o‘rganishga loyiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мавлоно Хожи Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. –Тошкент: 2009. – 380 б.

2. Абдулазиз Мансур. “Қуръони карим” маънолари нинг таржимаси. – Т., 2001. -289-б.

3. Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти урфоний. –Теҳрон: 1303. -814б.

4. Шарипов Ш.У. Алишер Навои. “Лисон ут-тайр” достонининг генезиси ва ғоявий-бадиий хусусиятлари. Тошкент, 1982.

5. Khasanova, S. (2016). “KUŞ DİLİ” MEVZUSUNDA YAZILAN YENİ BİR ESER. Electronic Turkish Studies, 11(15).

OYBEK BOYATOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti

MAJZUB NAMANGONIYNING AYRIM QO'LYOZMA MANBALARI TAVSIFI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Majzub Namangoniyning qo'lyozma manbalari haqida ayrim ma'lumotlarni berilgan. Qo'lyozmalar manbashunoslik sohasida tadbiq etilgan.*
Kalit so'zlar: *qo'lyozma, devon, matn, yozuv, fond, nastaliq.*

Annotation: *This article provides some information about the manuscript sources of Majzub Namangoni. Manuscripts have been applied in the field of source studies.*
Keywords: *manuscript, divan, text, writing, fund, nastaliq.*

Аннотация: *В данной статье представлены некоторые сведения о рукописных источниках Мажзуба Намангония. Рукописи были применены в области источниковедения.*
Ключевые слова: *рукопись, диван, текст, запись, фонд, насталик.*

Bugungi kunda birlamchi manbalar asosidagi ilmiy izlanishlar olib borish, muayyan ijodkor haqida xolis ilmiy baho berish, adabiy merosi yuzasidan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishga qaratilgan tadqiqotlar ko'plab amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, unday tadqiqotlarni amalga oshirishga ehtiyoj har qachongidan ham katta. Negaki, mustamlaka tuzum sharoitida ijodi o'rganilmagan yoki shaxsiyati va adabiy merosi yuzasidan noto'g'ri yoki bir tomonlama ma'lumotlar berilgan ijodkorlar merosini birlamchi manbalar asosida o'rganish, ular biografiyasini to'liq tiklash, lirik asarlarini ilmiy muomalaga olib kirishmilliy adabiyoimiz rivojiga ulkan ulush bo'lib qo'shilishi shubhasiz.

Hayoti va faoliyati to'la o'rganilmagan, adabiy merosi monografik planda alohida tadqiq etilmagan ijodkorlardan biri Majzub Namangoniydir. Majzub biografiyasiga doir ma'lumotlarni to'ldirish, shoir asarlari manbalarini to'liq o'rganib chiqib, ularning tayanch va yordamchi nusxalarini ajratish, adabiy merosi ko'lami, mavzu-mundarijasini belgilash, shoir devonining asliyatga muvofiq ishonchli matnini tiklash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, sho'rolar davrida Majzub Namangoniy shaxsiyati va adabiy merosiga salbiy munosabatda bo'lingan. Shunga ko'ra, ko'p hollarda shoir ijodi haqida gapirilmagan. Shunday ekan, Mazjub adabiy merosi, shoir she'riyati mazmun-mohiyatini yoritishda, avvalo, ijodkor asarlarining birlamchi manbalarini har tomonlama tasnif va tavsif etish, ularning mukammal variantlarini aniqlash, shu asosda ilmiy xulosalar chiqarish zarur.

Majzub Namangoniy devoni qo'lyozmalari hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy va Hamid Sulaymon fondida, Namanganda muhlislari shaxsiy kutubxonalarida **1992**, **1018/I**, **4206/II**, **12503**, **1046/I**, **4003, 1867, 2125, 1018, 2580, 2351** raqamlari bilan saqlanmoqda. Shuningdek, shoir lirik asarlari jamlangan manbalar Namangan viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyi Adabiyot va san'at bo'limi fondida mavjud.

Qo‘lyozmada shoir devonidan olingan she’rlar bor. Devon nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Majzub lirik asarlari ko‘chirilgan qo‘lyozmalar sahifalari, negadir, ziynatlanmagan. She’rlar alohida jadvallarga olinmagan. Alohida raqamlanmagan. Qo‘lyozmalardagi she’rlar alifbo tartibida joylashtirilmagan, ular tartibsiz ko‘chirilgan. Ayrim hollarda sarlavhalar ham alohida ajratilmagan. Ba’zi qo‘lyozmalarning oxiri yo‘q, ko‘plab sahifalar noto‘g‘ri muqovalangan. Qo‘lyozma va toshbosma manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Majzub Namangoniy o‘z she’rlarini jamlab devon tartib bergan. Shoir bu devonini biror ulug‘ kishiga va yoki podshohga tuhfa qilishni maqsad qilmagan. Shundan bo‘lsa kerak, shoir she’rlari ko‘chirilgan qo‘lyozmalar u darajada muhtasham emas. Matnshunos olim, akademik Sh.Sirojiddinov bunday kitoblar haqida quyidagilarni yozadi:

“Devon qo‘lyozmasi matn va sarlavhalar, shuningdek, miniatyuralar atrofiga tortiladigan jadvallar, shams, unvon – qo‘lyozmaning ilk sahifasi bosh qismida tilla suvi yugurtirib chizilgan naqsh-lavh, sahifalarga oltin suvi bilan jilo berish (tazhib) kabi bezaklar bilan ziynatlanadi. Albatta, bunday devonlar qimmatbaho bo‘lib, ular asosan, shoh farmoniga asosan saroy kutubxonasi yoki sovg‘a uchun tayyorlangan”[1.39].

Nazariy adabiyotlarda qo‘lyozma manbalarni tavsiflashda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish tavsiya etiladi:[2.90-91] 1) Qo‘lyozmaning ashyo (inventar) raqami; 2) Asarning nomi; 3) Asarning yozilgan yili; 4) Muallifi; 5) Asarning qisqacha mazmuni; 6) Qo‘lyozma haqidagi umumiy ma’lumotlar; 7) Asarning ko‘chiruvchisi (kotibi); 8) Ko‘chirish yili; 9) Necha varaqdan iboratligi; 10) O‘lchovi.

Quyida Majzub Namangoniy asarlari mavjud qo‘lyozmalarning monografik tavsifini yuqoridagi ko‘rsatmalarga hamda sohada erishilgan so‘ngi yutuqlarga tayanildi:

1018/I raqamli qo‘lyozma. Bu manba jami 164 sahifa bo‘lib, Majzub Namangoniy qalamiga mansub g‘azallardan tarkib topgan. Qo‘lyozma matni 1[b] sahifadagi mana bu bayt bilan boshlanadi:

الهی عبدک العاصی اتاکا
الذنوب قد دعاکا مقرابا

Oxirgi she’r esa fors tilidagi:

مجذوب تا شود همه عالم مسخرت
تیغ از دعا طلب کن از سجدۀ خسروی

maqta’li g‘azal bilan yakunlangan.

Kolofon quyidagicha (164[ab]):

... سنه ۸۰۳۱ بود که کاتب خاکسار محمد شریف مرزا باشی ولد ملا محمد کریم قندالات ابن حاجی محمد حسین کتابت را تمام نمود.

Mazkur qo‘lyozmadagi matn nasta’liq xatida och jigarrang sayqallangan Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. Ushbu manbada ham she’rlar har sahifada ikkita ustun qilib ko‘chirilgan. Qo‘lyozma kotibi – Mulla Muhammad Karim Qandalat ibn Xoja Muhammad Husaynning o‘g‘li Muhammad Sharif Mirzoboshi bo‘lib, devon 1308 (1890–1891)-yilda kitobat qilingan. Sahifalar o‘lchami 26x15 sm.

4206/II raqamli qo‘lyozma. Muqovasi qizil rangli qalin karton qog‘ozidan ishlangan. Qo‘lyozma sherozasi (muqovalarni birlashtiruvchi qism) ko‘k rangli matodan ishlangan. Matn Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. Qo‘lyozma ikki qismdan iborat bo‘lib, uning ikkinchi qismi 110[a] sahifadan boshlanadi. Shu sahifa tepasida “Devoni Majzubdan” deyilib, shoir she’rlari ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 203 sahifani tashkil etadi. Har sahifada o‘rtacha 9 qatordan she’r ko‘chirilgan. Ushbu manbada shoirning g‘azal, masnaviy, muxammas, soqiynoma janrlariga mansub nazmiy asarlari jamlangan. G‘azallar alifbo tartibida ko‘chirilgan bo‘lsa-da, she’rlar negadir, “ر” (re) harfi bilan tugagan g‘azallar bilan boshlangan.

Qo‘lyozmada g‘azallar 110[a]-164[a]-sahifalarda kochirilgan. Biroq g‘azallar orasida masnaviy

(113^{a}-118^{a}), muxammas (164^{b}-172^{a})lar ham qo‘shib ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 172^{a}-190^{b}-sahifalarida soqiynoma, 190^{b}-195^{b}– sahifalarda “قصة بلال حضرت” (“Hazrati Bilol qissasi”), hamd mazmunidagi she’rlar, (196a-198a), agiografik mazmundagi parchalar (198^{b}-200^{b}) hamda tasavvufiy xarakterdagi (201^{b}-203^{b}) masnaviy ko‘chirilgan.

Q‘o‘lyozmaning boshi quyidagicha:

که برق عشقیدین عالم غه اینغان شورش دن دور
نیلیغ دیسنک حزین فرهاد بیرله ایکی اورتاغی

Oxiri esa quyidagicha:

اوشل شربت اوچون کدالیق قیلای
مغ ایشیکیده بینوالیغ قیلای

Kolofon (190^{б})da mana bu qaydlar mavjud:

تمت هذه النسخه الشریفه المتبرکة المسمی المجذوب النمنکانی نورالله مرقده. ٥١٣١.

Matn Qo‘qon qog‘oziga nasta’liq xatida ko‘chirilgan. She’rlar bir sahifada ikkita ustun qilib ko‘chirilgan. 162^{b} sahifagacha poygir qo‘yib borilgan. Qo‘lyozmada maxsus kolofon bo‘lmagani sababli uning kotibi noaniq. Ko‘chirilgan sanasi 1315/1897-1898-yillar. O‘lchami 21,5x13,5 sm.

12503 raqamli qo‘lyozma. Ushbu manbaning muqovasi yashil rangda bo‘lib, muqovada uchta tamg‘a mavjud. Qo‘lyozma sherozasi (muqovalarni birlashtiruvchi qism) qizil charmdan ishlangan. E’tiborlisi, ushbu qo‘lyozmada qizil va yashil rangli siyohda gul tasviri tushirilgan. Asosiy matn 1^{b}-sahifadan boshlangan. Bu manbada shoirning diniy-falsafiy mazmundagi masnaviylari (1^{b}-6^{ab}), tanlangan g‘azallari (6^{a}-57^{b}), murabba’lari (24^{a}-25^{a}, 40^{b}-42^{b}, 52^{a}-54^{b}), muxammaslari (43^{a}-46^{a}, 32^{b}-34^{a}, 58^{b}-63^{a}), tarje’band janrida yozilgan soqiynomasi (89^{a}-94^{a}), shuningdek, Majzub Namangoniyga atalgan bag‘ishlov she’r (99^{b}-101^{b}) kiritilgan. Mazkur qo‘lyozmadagi lirik asarlar alifbo ketma-ketligida ko‘chirilgan bo‘lsa-da, biroq she’rlar janrlariga ko‘ra aralashtirilib, tartibsiz holda joylashtirilgan.

Ushbu qo‘lyozmadagi she’rlar “Bismillohir-Rahmonir-Rahim”dan so‘ng, 1^{b}-sahifadagi quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

خدای تبارک خدای تعالی
اوزونک هادی یول آچغیل ای حق تعالی

Har sahifada o‘rtacha 8-9 qatordan she’r ko‘chirilgan. Sahifalarda poygirlar berib borilgan. She’rlar qizil rangda sarlahhalanib ketilgan. Qo‘lyozma “G‘azaliyoti Majzub” deb nomlangan bo‘lsa-da, aslida bu manba shoirning devoni hisoblanadi. Qo‘lyozmada matn 102^{a}-sahifada yakunlanadi.

Matnning oxiri:

محمود یول یوللب ایلکینی آلیب قول لب
بر یوخلب انی جرلب مجذوب نمنکانی

tarzida yakunlanadi.

Bu manbaning xati ham nasta’liq yozuvida. She’rlar Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan bo‘lib, matn bir va ikkita ustunga joylashtirilgan. Sarlavhalar va oxirgi bayt sarlavhalarda ko‘rsatib borilgan.

Ushbu manba hijriy 1323 (1905-1906)-yilda ko‘chirilgan. Matn o‘lchami 19,5x12,5 sm.

1046/I raqamli qo‘lyozma. Ta’kidlash kerakki, bu manba o‘n qismdan tarkib topgan bo‘lib, hajman juda katta manba (531 sahifa). Qo‘lyozma sherozasi (muqovalarni birlashtiruvchi qism) qizil charmdan ishlangan. Qo‘lyozmaning birinchi qismida shoirning saralab olingan fors-tojik tilidagi she’rlari (1^{b}-79^{b} sahifalarda) hamda qit’a va ruboiylari (79^{b}-80^{a}) ko‘chirilgan. She’rlarda raqamlar ham, sarlavhalar ham yo‘q.

Qo‘lyozma quyidagicha boshlanadi:

آلهی عبدک العاصی آتا کا
مقرّاًبا الذنوب قد دعا کا
Oxiri esa:
مردیکه بغیر مدح او راند کلام
حیف است بمجنون امّ ار قدح زنی

Qo‘lyozmaning 80ª – sahifasida kolofon berilgan bo‘lib, u quyidagicha:

الحمدالله... دیوان مجذوب ایردیکیم ...ابو المظفر و المنصور ابو الفتح حضرت سید محمد رحیم بهادرسلطان نینک فرمان واجب الاذعانلاری بیلا بو فقیر الحقیر عبدالله بی نیاز کاتب داملا الله برکان مخذوم ابن داملا محمد رضانینک ... سنه ۶۲۳۱ الانجی یلیده ماه شریفی رمضان نینک اون بیریده ایردیکیم شرف اتمامیغه یتوشدی.

(Alhamdulillah… devoni Majzub erdikim… Abu-l-Muzaffar val-Mansur Abu-l-fath hazrat Sayyid Muhammad Rahimxon Bahodir Sultonning farmonu vojibu-l-izonlari bila bu faqiru-l-haqir Abdulloh biy Niyoz kotib Domullo Ollobergan Maxzum ibn Domulloh Muhammad Rizo…)

Bu manba Xiva hukmdori Sayyid Muhammad Rahimxon II (Feruz) buyrug‘i bilan tuzilgan. Ushbu to‘plamdagi matn fabrika qog‘oziga nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Matn har bir sahifada ikkita ustunga joylashtirilgan. To‘plamni kotibi – Domullo Ollobergan Maxzum ibn Domulloh Muhammad Rizo. Ko‘chirilish sanasi – 1326 (1908-1909). Muqovada muhr bor. “Muqovachi Muhammad Rahim asari” degan qays mavjud. To‘plam jami 80 sahifa bo‘lib, matn 1b-80a sahifalarda ko‘chirilgan. Matn o‘lchami: 35,5x22ni tashkil etadi.

4003 raqamli qo‘lyozma. بوذجم ناوید (Devoni Majzub). Muqovasi qora rangli kartondan ishlangan. Qo‘lyozma sherozasi (muqovalarni birlashtiruvchi qism) qizil charmdan ishlangan. Muqovada beshta tamg‘a rasmi tushirilgan. Bu manbada shoirning, avvalo, tasavvufiy-falsafiy mazmundagi masnaviylar (1ᵇ-5ª sahifalarda), shoirning saralab olingan g‘azallari (5ª-83ª sahifalarda), muxammaslari (17ª-19ᵇ, 37ª-39ᵇ sahifalarda), murabba’lari (20ᵃᵇ, 27ᵇ-28ª, 33ª-35ᵇ), munojoti (45ª-50ᵇ), soqiynomasi (51ª-53ᵇ) kiritilgan. She’rlar alifbo ketma-ketligida ko‘chirilgan.

Matn basmaladan so‘ng quyidagi bayt bilan boshlanadi:

خدای تبارک خدای تعالی
اوزونک هادی یول آچغیل ای حق تعالی
(Xudoyo taborak, Xudoyo taolo,
O‘zung hodiy, yo‘l ochg‘il, ey Haq taolo)

Asosiy matnning oxiri:

قالیب ایکی فرزندیکم نور عین
امام حسن امام حسین
(Qolib iki farzandikim nur ayn,
Imom Hasanu imom Husayn)

Qo‘lyozmadagi matn fabrika qog‘oziga nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Sahifalarda matn bir va ikki ustun tarzida ko‘chirilgan. Ko‘chirilish sanasi 1333 (1914–1915)– yil. To‘plam hjmi 53-sahifa bo‘lib, o‘lchami: 22x13 sm.

1867 raqamli qo‘lyozma. دیوان مجذوب (Devoni Majzub). Sarg‘ish rangli karton muqovali kitob bo‘lib, u naqshlangan. Qo‘lyozma sherozasi (muqovalarni birlashtiruvchi qism) jigarrang charmdan ishlangan. Muqova ichida har xil yozuvlar bor. Qo‘lyozmaning dastlabki ikki sahifasida “Mashrab” degan sarlavha qo‘yilib, Mashrabga tegishli uchta she’r ko‘chirilgan. Shundan so‘ng, Majzub she’rlari ko‘chirilgan. Shoir she’rlari

خدای تبارك خدای تعالی

اوزونك هادی یول آچغیل ای حق تعالی

bayti bilan boshlanadi. Sahifalarda poygirlar berib borilgan. Qo‘lyozmada matn 91[a] sahifada tugaydi. Oxirida 15 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu manbada kolofon yo‘q. Qo‘lyozmani kim kitobat qilgani, ko‘chirgani haqida ma’lumot yo‘q.

2125 raqamli qo‘lyozma. Ushbu qo‘lyozma manba O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondida saqlanadi. Jigarrang karton muqovali kitob bo‘lib, usti naqshlangan. Matn fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. Sahifalar yirtilgan, ayrim sahifalardadagi yozuvlar shivalib ketgan, umuman, qo‘lyozmaning saqlanish holati ancha sifatsiz. Har sahifada ikki ustunda o‘rtacha 13 qatordan she’rlar ko‘chirilgan. Sahifalarda poygirlar berib borilgan.

Ushbu manba ham

خدای تبارك خدای تعالی

اوزونك هادی یول آچغیل ای حق تعالی

matla’li 59 baytli masnaviy bilan boshlangan. Ushbu manba Mazjub devonining mukammal variantlaridan biri hisoblanadi. 2020-yilda shoir devoni nashr ettirilgan.[3.344] Majzub devonining ushbu nashri 1908-yilda Toshkentda bosilgan nusxasi hamda Namangan viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyi Adabiyot va san’at bo‘limi fondidagi 1903, 1906, 1912-yilda Toshkentda bosilgan nusxalari qiyosi asosida amalga oshirilgan.[3.8] Ushbu nashrdagi deyarli barcha lirik asarlar biz fikr yuritayotgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondidagi 2125 raqamli qo‘lyozma manbada mukammalroq shaklda uchraydi. Bundan ko‘rinadiki, har qanday bosma manbalar asosidagi nashrlar mukammal hisoblanmaydi. Sababi shoir devonining bosma nusxalari asosi amalga oshirilgan nashridagi ayrim she’rlar 12503 hamda 2125 raqamli qo‘lyozmalardagi variantlari bilan farq qiladi. Ya’ni ayrim so‘zlar, baytlar o‘rni almashgan, ba’zi she’rlar nashrda uchramaydi.

Qo‘lyozmaning oxirgi sahifalari yo‘qolgan. Kolofon ham mavjud emas. Shunga ko‘ra, ushbu manbani kim ko‘chirgani yoki kitobat qilganini aniqlash imkoi yo‘q.

2580 raqamli qo‘lyozma. Ushbu qo‘lyozma manba O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondida saqlanadi. Sarg‘ish karton muqovali kitob bo‘lib, muqova beshta tamg‘a bilan naqshlangan. Matn yupqa Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. Qo‘lyozma jami 113 sahifa bo‘lib, ushbu manba ikki qismdan iborat. Birinchi qismida Majzub she’rlari jamlangan. Shoir she’rlari 3[b] sahifadagi

خدای تبارك خدای تعالی

اوزونك هادی یول آچغیل ای حق تعالی

bayti bilan boshlanadi. Sahifalarda poygirlar berib borilgan. She’rlar 15-sahifagacha ikki ustunda, keyingi sahifalarda (76 sahifagacha) bitta ustunda 13 qatordan ko‘chirilgan.

Oxiri quyidagicha:

O‘shal sharbat uchun gadolig‘ qilay,

Man eshigida benavoliq qilay.

76[a]-sahifada qo‘lyozma “hijriy 1305-yilda ko‘chirilgan”i qayd etilgan.

2351 raqamli qo‘lyozma. Ushbu qo‘lyozma manba ham O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondida saqlanadi. Ushbu manba ham ikki qismdan iborat bo‘lib, uning ikkinchi qismida Majzub she’rlari jamlangan. Qo‘lyozma jami 157 sahifa bo‘lib, 150[b] sahifadan shoir she’rlari ko‘chirilgan.

Boshi:

خدای تبارك خدای تعالی
اوزونك هادی یول آچغیل ای حق تعالی
(Xudoyo taborak, Xudoyo taolo,
O‘zung hodiy, yo‘l ochg‘il, ey Haq taolo)
bayti bilan boshlanadi.
Oxiri quyidagicha:
مجزوب روفقاسی بیله بیرون او گلشن
هر بیریسی بیر مورغ غزلخوان دل آرا
Majzub rufaqosi bila birun u gulshan,
Har birisi bir murg‘i g‘azalxoni diloro(.

Jami o‘n besh sahifada Majzub she’rlari ko‘chirilgan. Boshqa manbalardan farqli o‘laroq, ushbu qo‘lyozmada she’rlar ikki ustun qilib, har sahifada o‘rtacha o‘n bir baytdan she’r ko‘chirilgan. Boshqa qo‘lyozmalarda she’rlar ustunga ajratilmasdan ko‘chirib ketilavergan. Bu qo‘lyozmada shoir devonidagi dastlabki lirik asarlar ko‘chirilgan. Ushbu she’rlar sarlavhalanmagan ham, raqamlanmagam ham. Qo‘lyozmada shoirning: “*Xudoyo taborak, Xudoyo taolo, O‘zung hodiy, yo‘l ochg‘il, ey Haq taolo*”, *“Salovotu salom Mustafog‘a, Ham olu va sahib mujtabog‘a”, “Bino qilg‘uchig‘a siposu sano, Yaratg‘uchi digar dema bor yano”*, **“***Ul Xoliqiki ayladi bu jumlani fido, Sobit ango sitoyishu sonsiz ango sano*”[1],[3.19] **“***Deyin pok Tangrimg‘a hamdu sano, Sitoyish parastish sazovor Ango*”, “*Salovotu salom angokim ismi “Toho”, Ey bor oli sahbiga ham yo Iloho*”, “*Alhamdu lirabbano va lillohi sano, Indurg‘uvchi bu sahna yog‘ib mehri ziyo*” **–** matla’li yettita she’ri kiritilgan.

Demak, bu manba ham shoir asarlarini nashr ettirishda yordamchi manba vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б.39.

2. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. –ТДШИ, 2012. – Б. 90-91.

3. Majzub Namangoniy. Oshiq manam…Devon. (Nashrga tayyorlovchi: Ahmad Ubaydulloh). – Toshkent: “Hilol-Nashr”, 2020. – 344 b.

4. Nurboy Jabborov. Literature of Mirzo Ulughbek’s Time in Alisher Navoi’s Interpretations. // The Journal of Evrasian Turkic Studies. ¬– 2021. June, Vol. 6. Special Edition: “A Celebration of the 580 th Anniversary of Alisher Navoiy’s Birth. – P.76-92.

5. Nurboy Jabborov. The History of the Text and Some Comments on its Genesis. // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ¬– 2021. June, Vol. 11, Issue 6. (Impact Factor: SJIF 2020=7.13.). – P.632-636.

6. Nurboy Jabborov. Abdulla Qadiri’s skill of describing the national spirit. //The American Journal of Applied sciences. – 2023. April, Vol. 05, Issue 04. (Impact Factor: SJIF 2023=7.3). – P.61-73.

7. Nurboy Jabborov, Fatma Açık. Behbudi’s activity on education reform. //European Journal of Literature and Linguistics. Scientific journal – 2023,№2. (Impact Factor: SJIF 2023=5.614). – P.3-9.

8. Pardayev Q. Adabiy manbalar bilan ishlash amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – 109 б.

1 Bu bayt shoir devoni nashrida boshqacharoq shaklda uchraydi:
Ul Xoliqiki ayladi bu jumlani bino,
Sobit ango sitoyishu sonsiz sano

“ADABIY MEROS” JURNALIGA QABUL QILINADIGAN MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Nashrga original, ilgari nashr qilinmagan maqolalar va jurnal mavzusiga mos keladigan materiallar qabul qilinadi.

Original maqolaning hajmi (annotatsiya, kalit so‘z va so‘z birikmalari hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bundan mustasno) 1 intervaldan 10-12 betdan oshmasligi kerak.

Matn – Microsoft Word.

Format – A4.

Matnning ikki yonida qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm.

Shrift – Times New Roman.

Shriftning kattaligi – 14.

Qatorlar oralig‘i – 1. xat boshi – 1,25.

Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, turk tillarda qabul qilinadi.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha tavsiya etiladi:

Qo‘lyozmaning nomi:

Maqola va boshqa materiallar sarlavhasi qisqa, Mazmunga muvofiq va 12 so‘zdan oshmasligi kerak.

Mualliflar:

Mualliflarning to‘liq nomlari quyidagi tartibda qayd etilishi kerak: ismi, otasining ismi, familiyasi, ikki yoki undan ortiq mualliflar bo‘lsa, vergul bilan ajratiladi.

Muallif(lar)ning ish joyi:

Ushbu ma’lumot quyidagi tartibda taqdim etilishi kerak: kafedra, institut, shahar va mamlakat.

Yozishmalarga javobgar muallif:

Ismi, otasining ismi, familiyasi; bo‘lim, muassasa, mamlakat, to‘liq pochta manzili, telefon raqami, faks raqami, elektron pochta manzili keltirilgan bo‘lishi kerak.

Maqolaning sarlavhasi (ingliz, rus va o‘zbek), muallif (mualliflar) haqidagi ma’lumotlar lotin alifbosi (transliteratsiya)da beriladi.

Annotatsiya va kalit so‘zlar:

Annotatsiya – ilmiy xarakterdagi maqola hajmidan tashqari berilgan ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi qisqacha bayon.

Annotatsiyada maqolaning asosiy jihatlarini bayon etishda quyidagilarga e’tibor beriladi:

Tadqiqotning asosiy ma’lumotlarini qamrab olishi va ishda mavjud bo‘lmagan faktlar bo‘lmasligi lozim;

Maqolaning tuzilishi annotatsiyada takrorlanadi: kirish, maqsad va fazifa, usullar, natija/muhokama, xulosa/mulohaza;

Natijalar aniq va lo‘nda bo‘lib, uzviylikda beriladi;

Annotatsiyada maqola sarlavhasi takrorlanmaydi, keraksiz izohlar, “kirish jumlalari” (Muallif maqolada shuni nazarda tutadiki…) bo‘lmasligi lozim;

Annotatsiyada iqtibos keltirilmaydi;

Annotatsiya matnining hajmi 250–300 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

Annotatsiya ostida “Kalit so‘z va so‘z birikmalari” (8–10 ta) yozuvi joylashtiriladi. Kalit so‘zlar maqolaning asosiy mazmunini ifodalab, asosan, sohaga doir muhim tushunchalardan tashkil topgan bo‘lishi lozim.

Kirish:

Maqolada tadqiqotning maqsadi va maqola yozilishi vaqtida ilmiy muammoning holati aks etishi kerak.

Maqsad va vazifa:

Maqolaning mazmun-mohiyati maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tizimli ravishda ochib beriladi.

Usullar:

Tadqiqot usullari batafsil tavsiflangan bo‘lishi lozim.

Natijalar va mulohaza:

Natijalar va mulohazalar kengaytirilgan shaklda taqdim etilishi kerak (ba’zi o‘rinlarda jadvallar va tasvirlar yordamida), shuningdek, ilgari nashr etilgan natijalarning qiyosiy tahlili va talqini beriladi.

Xulosa:

kirish qismida qo‘yilgan savollarga javoblar, xulosalar aniq ko‘rsatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

Adabiyotlar ro‘yxati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi.

Ro‘yxatga kiritilgan adabiyotlar soni 10 tadan kam 50 tadan oshmasligi kerak.

Maqola matni ichida adabiyotlar quyidagicha berilishi lozim: [Muallif familiyasi, nashr yili: sahifa].

Masalan, 1. Familiya, ism (nashr yili). asar nomi, nashriyot nomi, shahar, sahifa.

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ”

Требования к оформлению статьи

К публикации принимаются оригинальные, ранее не публиковавшиеся статьи и материалы, относящиеся к тематике журнала.

Размер исходной статьи (без аннотаций, ключевых слов и словосочетаний, а также списка использованной литературы) не должен превышать 10-12 страниц в 1 интервале.

Текст – MicrosoftWord.

Формат – А4.

Размер слева от текста – 2 см.

Шрифт – TimesNewRoman.

Размер шрифта – 14.

Межстрочный интервал – 1.

Абзац – 1.25.

Статьи принимаются на узбекском, русском, турецком и английском языках.

Рекомендуемая структура статьи следующая:

Название рукописи:

Название статьи и других материалов должно быть коротким, актуальным и не более 12 слов.

Авторы:

Полные имена авторов следует записывать в следующем порядке: имя, отчество, фамилия, через запятую, если авторов два и более.

Место работы автора:

Эта информация должна быть предоставлена в следующем порядке: отдел, институт, город и страна.

Автор корреспонденции:

Имя, отчество, фамилия; отдел, учреждение, страна, полный почтовый адрес, номер телефона, номер факса, адрес электронной почты.

Название статьи (английский, русский и узбекский), сведения об авторе (авторах) даются латинским алфавитом (транслитерация).

Аннотация и ключевые слова:

Аннотация представляет собой краткое изложение научной статьи на английском, русском и узбекском языках, прилагаемое к объему научной статьи.

Обобщая основные положения статьи, нужно обращать внимание на следующее:

аннотация должна охватывать основные данные исследования и не содержать фактов, которые отсутствуют по делу;

в аннотации повторяется структура статьи: введение, цель и задача, методы, результат / обсуждение, заключение / обзор;

результаты ясны и лаконичны и даны согласованно;

аннотация не должна повторять название статьи, не должна содержать лишних комментариев, “вводных предложений” (автор подразумевает в статье…);

аннотация не цитируется;

размер текста аннотации должен составлять 250-300 слов.

Ключевые слова и фразы должны быть размещеныпод аннотацией (8-10 слов). Ключевые слова должны выражать основное содержание статьи и состоять в основном из важных понятий, относящихся к данной области.

Введение:

Статья должна отражать цель исследования и состояние научной проблемы на момент написания статьи.

Цель и задачи:

Содержание статьи должно бытьраскрытосистематизировано, исходя из целей и задач.

Методы:

Следует подробно описать методы исследования.

Результаты и отзывы:

Результаты и отзывы должны быть представлены в развернутой форме (с использованием таблиц и рисунков, где это необходимо), а также должны включать сравнительный анализ источников и литературы по тематике исследования.

Вывод:

Ответы на вопросы, поставленные во вводной части, выводы должны быть четко указаны.

Порядок оформления использованной литературы:

Библиография транслитерируется латинским алфавитом. Перечисленные публикации должны бытьне менее 10 и не превышать более 50.

ADABIY MEROS

2024-YIL 3-SON / ILMIY JURNAL

ISSN 2181-2500

ع. سۇلەيمان.

مەتبۇعاتيمز.